

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

F.Q.KIYIKBAYEV

BOLALAR ADABIYOTI

5111800 - Maktabgacha ta'lim yo`nalishi talabalari uchun
o`quv qo`llanma

ANDIJON -2020

F.Q.KIYIKBAYEV

BOLALAR ADABIYOTI

Ushbu o`quv qo`llanma oliy o`quv yurtlarining mактабгача та`lim yo`nalishi talabalari, magistrлари hamda mактабгача та`lim tashkilotlari tarbiyachilari uchun mo`ljallangan. “Bolalar adabiyoti” o`quv fan dasturi asosida ishlab chiqildi.

Taqrizchilar: Abdullayeva M.A. - Andijon viloyato Maktabgacha ta`lim boshqarmasi boshligi , p.f.n., dotsent

Teshaboyev A. – ADU kafedra muduri, p.f.n., dotsent

SO`ZBOSHI

Bolalar adabiyoti — bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiyommabop va publitsistik asarlar majmui. Bularning asosiy kismini badiiy asarlar tashkil etadi. Jahon xalqlari, shu jumladan o'zbek xalqi Bolalar adabiyoti tez aytish, topishmoq, o'yin qo'shiklari, rivoyat, afsona, ertak, makal, masal va doston singari aksariyat qismi bolalarga mo'ljallab yaratilgan og'zaki ijod namunalaridan boshlanadi. Bolalar adabiyoti ni bevosita bolalarga mo'ljallab yaratilgan va aslida bolalarga mo'ljallanmagan bo'lsada, keyinchalik Bolalar adabiyoti ga o'tib qolgan asarlarga ajratish mumkin.

Bolalar adabiyoti ning o'ziga xos xususiyati — o'zgaruvchan hodisa bo'lib, u kitobxon yoshi, tarixiy davr va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Kitobxon yoshini hisobga olish Bolalar adabiyoti ning eng asosiy xususiyatlaridandir. Maye, maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ko'rgazmalilik, ezgulik va yovuzlik kuchlarining oddiy ko'rinishdagi ziddiyatlariga asoslangan bo'lsa, o'smirlar uchun yaratilgan adabiyotda murakkab hayotdagi murakkab kishilarning ruhiyati ochila boshlaydi.

Bolalar adabiyoti ning yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir. Bundan Bolalar adabiyoti da syujetga bo'lgan talab ham kelib chiqadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziyaga, yumorga boy ravishda ye.chilishini talab qiladi.

Sharq yozma adabiyotida "pandnoma", "mav'izatnama", "nasihatnama", "axloq kitoblari" singari nomlar bilan tasnif qilinuvchi asarlar Bolalar adabiyoti ning dastlabki namunalari hisoblanadi. Maye, Kaykovusning "Mav'izatnomai Kaykovus" ("Qobusnama"), Shayx Savdiyning "Guliston" va "Bo'ston", Jomiyning "Bahoriston" asarlari shular jumlasidandir. Bular tarjima vositasida o'zbek Bolalar adabiyoti ga kirib kelgan. Alisher Navoiyning "Hayrat ulabror", "Mantsh uttayr" va "Mahbub ulqulub" asarlari, Xojaning "Miftoh uladl" va "Gulzor", Gulxaniyning "Zarbulmasal" asarlari esa o'zbek Bolalar adabiyoti ning mumtoz namunalari bo'lib, pandnasihat ruhidagi maqolat va hikoyatlari bilan

asrlar mobaynida yosh avlodni yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilib kelmoqda.

Bolalar adabiyoti ning shakllanishi deyarli barcha xalqlarda asosan ma'rifatparvarlik va mакtabmaorif tizimi islohotlari bilan chambarchas bog'liq. O'zbek Bolalar adabiyoti ning barqarorlashuvi ham 19-asr 2 yarmi — 20-asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakatiga borib taqaladi. Saidrasul Aziziy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy, Hamza va boshqa o'nlab ma'rifatparvarlarning "yangi usul" ("usuli jadidiya")dagi o'zbek maktablari talabalari uchun yaratgan ellikka yaqin alifbo va o'qish kitoblari o'zbek Bolalar adabiyoti ning tom ma'nodagi yorqin namunalari hisoblanadi. Bolalar adabiyoti ga bolalar uchun maxsus yaratilgan asarlar sifatida qarash, uning o'ziga xos tamoyillarini belgilash 20-asr boshlariga xosdir.

O'zbek Bolalar adabiyoti jahon Bolalar adabiyotining ilgor an'analari ta'sirida rivojlandi. Jahon Bolalar adabiyoti ning nodir namunalari o'zbek tiliga tarjima qilindi, "Gulliverning sayohatlari" (J. Swift), "Robinzon Kruzo" (D. Defo), "Tom tog'aning kulbasi" (BicherStou), "So'na" (E. Voynich) kabi jahon adabiyotining nodir asarlari o'zbek bolalarining ham mulki bo'lib qoldi.

Sharq adabiyoti eng yaxshi namunalarini arab, fors tilidan tarjima qilish Bolalar adabiyoti tarjimachiligidagi bir yo'naliш bo'lsa, G'arb adabiyoti, xususan rus adabiyoti namunalarini o'zbekchalashtirish ikkinchi yo'naliшni tashkil etdi. I. A. Krilov masallari, A. S. Pushkinning "Baliqchi va baliq haqida ertak" asari, K. D. Ushinskiy hamda L.N. Tolstoyning bir qancha hikoya, ertaklari va boshqa ayni shu davrda tarjima qilinib, yangi usuldagi maktablar alifbo va o'qish kitoblariga kiritildi. Ijodkorlar tarjima vositasida realistik Bolalar adabiyoti ning o'ziga xos xususiyatlarini yanada mukammal egalladilar, bolalar uchun yozuvchi adiblar guruhi shakllandı. 20-asrning 20—30- yillarida Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, G'ayratiy, Shokir Sulaymon, Ilyos Muslim, Gulom Zafariy, Ayniy, Elbek, Zafar Diyor, Sulton Jo'ra, Kudrat Hikmat, Quddus Muhammadiy, Shukur Sadulla, Hakim Nazir, Po'lat Mo'min va boshqa ijodkorlarning asarlari o'zbek Bolalar

adabiyoti ning rivojlanishida, maxsus adabiyot sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbek bolalar adabiyotida ayniqsa, adabiy ertak janri rivojlandi. Hamid Olimjonning Oygul va Baxtiyor, "Semurg" yoki Parizod va Bunyod", Mirtemirning "Ajdar", Shukur Sa'dullaning "Uch ayiq", "Ayyor chumchuq", Zafar Diyorning "Yangi ertak", "Toshxon bilan Moshxon", "Tulkining hiyłasi", Sulton Jo'raning "Zangor gilam" va "Qaldirg'och" singari adabiy ertaklari xalq og'zaki ijodi an'analari asosida yaratilgan, shakl va mazmun jihatdan puxta badiiy asarlar sirasiga kiradi. 30- yillarda o'zbek bolalar she'riyati yuksalib, uning mavzu doirasi kengaydi.

40—60- yillarda o'zbek Bolalar adabiyoti yanada rivojlandi, bolalar yozuvchilarining safi Nosir Fozilov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Tolib Yo'ldosh, Farhod Musajonov, Latif Mahmudov va boshqa qalamkashlar hisobiga kengaydi. Uyg'un, Mirtemir, Asqad Muxtor, Sayd Ahmad, Shuhrat, Mirzakalon Ismoiliy, Mirkarim Osim singari kattalar adabiyoti vakillari ham bolalarga atab asarlar yaratdilar.

Quddus Muhammadiyning besh kitobdan iborat "Tabiat alifbosi" yosh kitobxonlarni ona tabiatga, hayvonot va o'simliklar dunyosiga mehrmuhabbat ruhida tarbiyalovchi, quvnoq kulgi bilan yo'g'rilgan, mavzular rangbarangligi va tasvirning mukammalligi bilan e'tiborga sazovor.

50—60- yillarda G'afur G'ulomning "Shum bola", Oybekning "Bolalik", Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", Nazir Safarovning "Ko'rgankechirganlarim" qissalari nasriy Bolalar adabiyoti rivojiga munosib ulush bo'lib qo'shildi. Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehrli qalpoqcha", "Sariqdevni minib", "Sariq devning o'limi" asarlari ham sara asarlar qatoridan o'rin oldi. Bular ko'pgina xorijiy tillarga tarjima qilindi. Hakim Nazirning "Sunmas chaqmoqlar", "Yonar daryo", "Kichkintoy" qissalari, "Lochin qanotlari" romani davrning dolzarb muammolarini qamrab olishi, badiiy tasvirning o'ziga xosligi bilan e'tibor qozondi.

80- yillar Bolalar adabiyoti da Anvar Obidjon, Safar Barnoyev, Rauf Tolipov, Qambar Utayev, Hamza Imonberdiyev va boshqa ijodkorlarning asarlari yosh avlodni eng yaxshi insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi bilan e'tiborga sazovor bo'ldi.

Bolalar adabiyoti da badiiylik bilan bir qatorda ma'rifiylik ham yetakchi o'rin tutadi. Chunki Bolalar adabiyoti namunalari yoshlarni insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashga ham xizmat qiladi. Barcha davrlar Bolalar adabiyoti ning taraqqiyot tamoyillari, avvalo, ma'rifiylik va tarbiyaviylikda aks etadi. Biroq Bolalar adabiyoti rivojlanib borgani sari uning sof badiiyat unsurlarini egallashga intilishi va umumadabiyot taraqqiyot tamoyillari bilan hamkorligi ham ko'zga tashlanadi. Jumladan, 20 a. boshlarida o'zbek Bolalar adabiyoti da ko'proq ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchilik qilsa, 30- yillar Bolalar adabiyoti da realistik adabiyot tamoyillari ustuvor, 5060- yillar Bolalar adabiyoti da sarguzasht fantastik adabiyot elementlari kuchaydi. 80- yillar Bolalar adabiyoti da psixologizmning kuchayishi, yosh qahramon talqinida uni yosh bola tarzida emas, hayotga tobora jadal kirib kelayotgan, o'z qarashlariga ega bo'lgan shaxs sifatida tasvirlashga intilish ruhi mavjud.

O'zbek Bolalar adabiyoti taraqqiyotida 90- yildar yangilanish davri bo'ldi. Istiqlol sharofati bilan milliy, madaniy, adabiy va diniy qadriyatlarning tiklanishi Bolalar adabiyoti namoyandalari ijodiga ham sezilarli ta'sir qildi, ularning asarlarida haqiqiy o'zbek qiyofasi tasviri yetakchi o'rin egallay boshladi.

Bolalar adabiyoti ning o'ziga xosliklari uning qahramoni tasvirida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Mac, 20-asr boshlari Bolalar adabiyoti namunalari ko'proq ijodkorning faolligi, qahramon tasviri emas, targ'ibiytashviqiy ruh ustuvorligi bilan ajralib tursa, 30- yillar Bolalar adabiyoti da ko'proq xalq og'zaki ijodiga murojaat qilingan, bu davrda yaratilgan asarlarda ham hali faol qahramon obrazi deyarli yo'q edi. 50—60- yillar Bolalar adabiyoti namunalari bevosa yosh qahramonlarning asarlar voqealarida hal qiluvchi o'rin tutish bilan chinakam Bolalar adabiyoti ga aylandi. 70—80- yillar Bolalar adabiyoti namunalaridan esa tobora hayotga o'z nuqtai nazari bilan qaraydigan, balandparvoz, ritorik

ta’riflardan ko‘ra tanqidiy nigohi o‘tkirroq yosh qahramon qiyofasi gavdalana boshladi, shu davrda o‘zbek Bolalar adabiyoti ga ilk bora bolalarning o‘ziga xos, endigina uyg‘onib kelayotgan pok muhabbatи kirib keldi. 90- yillar adabiyotida bu borada yangi qadam tashlandi, o‘zbek bolasi o‘zbekning farzandi ekanligidan faxrlanish, ulug‘ ajdodlarga munosib bo‘lish ruhidagi, tom ma’nodagi vatanparvarlik g‘oyasi ustuvor asarlarni o‘qish baxtiga musharraf bo‘ldi.

Ushbu qo‘llanma bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilar uchun mo`ljallangan.

I BO`LIM. “BOLALAR ADABIYOTI” FANINING YETAKCHI TAMOYILLARI

“BOLALAR ADABIYOTI” FANINING MAQSAD VAZIFALARI. BOLALAR KITOBOXONLIGI

Reja :

1. Bolalar adabiyoti faniningmaqsad va vazifalari.
2. Bolalar kitobxonligi haqida.
3. Bolalar adabiyotiga qo`yiladigan talablar
4. Bolalar kitobxonligiga erishish usullari.

Ma'lumki, inson komillikka yetishishi uchun ma'naviy dunyoqarashi keng bo`lishi, odobli, bilimli bo`lishi bilan birga kattalarning pand-nasihatlariga astoydil e'tiborli bo'lishlari talab etiladi.

Bolalar adabiyoti fani bolalarni imon-e'tiqodli, vatanparvar shaxs etib tarbiyalashda muhim vositadir. Kichkintoylarga atab yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos bo`lishi, ular qalbida chuqr o'y-fikrlar uyg'otishi, yorqin obrazlar va yuksak g'oyalarga boy bo`lishi, ularni ulkan va porloq ishlarga ilhomlantirishi zarur. Eng muhimi, mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda yoritilishi lozim.

Faqat chinakam badiiy asarlarga bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolalar adabiyoti bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarning tili uning g'oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson yetkazadi.

Bolalar yozuvchisi sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi kerak. Buning uchun esa u xalq tilini puxta bilishi lozim.

Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar yosh kitobxonning nutqiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, so'z boyligini oshiradi.

Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni tabiatni sevishga, halol yashashga, ilm-fan cho'qqilarini egallashga, xalq uchun foydali yangi kashfiyotlar qilishga o'rgatadi. Kitob xalqimizning o'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr tuyg'ularini o'stiradi.

Bolalar ta'lim-tarbiyasida bolalar adabiyotidan keng foydalanmay turib, yangi jamiyat quruvchisini har tomonlama yetuk inson qilib tarbiyalash mumkin emas. Bolalar adabiyoti bo'yicha kitobxonlik — kitob o'qish, tinglash, hikoya qilish kabi talablarni o`z ichiga oladi.

Bolalar kitobxonligini o'quvchilarning pedagogik-psixologik xususiyatlariga ko'ra quyidagicha guruhlarga ajratish mumkin:

1.Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi (2 yoshdan 7 yoshgacha).

2.Maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi (7 yoshdan 11 — 12 yoshgacha).

3.O'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi (13— 14 yoshdan 15 — 17 yoshgacha).

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar kitobxonligi. Bu davr bolalar kitobxonligi, asosan, ota-onalar, buvi-bobolar, mahalla ertakchilari-yu tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Hali o'qish, yozish, chizishni bilmaydigan maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar dunyo sirlaridan bexabar bo'ladilar. Hatto oila a'zolari, uy hayvonlari, parranda-yu dov-daraxtlargacha notanish bo'ladı. Kattalar o'qib, aytib, hikoya qilib beradigan asarlar bu davr bolalari uchun muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Bu davr bolalarga o'qibberiladigan har qanday asarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo'lishi zarur. Shuningdek, bunday kitoblarning rasmlari rang-barang, harflari esa yirik-yirik bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bog'cha yoshidagi bolalarga ham, avvalo, maqol va topishmoqlarni,

so‘ng hayvonlar haqida, umuman, tabiatni sevishga o‘rgatuvchi ertaklarni aytib berish yoki o‘qib berish juda foydalidir. Ularga mehnatsevarlikni o‘yinlar orqali o‘rgatilsa, yaxshi ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, «Sholg‘om», «Bo‘ri bilan Qo‘zichoq», «Tulki bilan Turna», «Tulki bilan uzum», «Ur, to‘qmoq!» kabi masal va ertaklar bolalarni mehnatsevarlikka, tabiatni sevishga, rostgo‘ylikka o‘rgatadi, aldamchilik va xudbinlik, baxillik va ochko‘zlik yomon illat ekanligini tushuntiradi.

Anvar Obidjonning «Suhbat» asari ko‘p yillardan beri bu davr bolalariga cheksiz quvonch ulashib kelmoqda. Ma’lumki, bolalar go‘daklik chog‘laridanoq jonivorlar, xususan qushlarga qiziqadilar. Voqeal bolalar bilan g‘ozlar suhbatni asosiga qurilgan. O‘zaro suhbatdan ma’lum bo‘ladiki, g‘ozlarning qorni och, ularni boqish kerak. Buni shoir o‘yin vositasida ifoda etadi:

- G‘ozlar, bir so‘z deysizmi?
- G‘a, g‘a, g‘a!
- Totli suli yeysizmi?
- Ha, ha, ha.
- Nega patni silaysizlar?
- G‘oq, g‘oq, g‘oq.
- Mendan nima tilaysizlar?
- Boq, boq, boq!

Bu xildagi she’rlar kichkintoylarni mustaqil fikrlashga, turmush taassurotlarini to‘plab, ulardan xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

Bolalarning, ayniqsa, jajji qizchalarning sevimli mashg‘ulotlaridan biri qo‘g‘irchoq o‘ynashdir. Yo‘ldosh Sulaymonning «Qo‘g‘irchoq» she’rida qo‘g‘irchoqlarni asrab-avaylash, oddiy bir o‘yinchoq vositasida kattalarning mehnatini e’zozlash masalasi o‘rtaga tashlanadi:

- Quyosh bilan teng turib,
- Ozoda kiyintirib,
- Senga taqamiz marjon,
- Qo‘g‘irchoq, qo‘g‘irchoqjon.

Har qanday yozuvchi mактабгача tarbiya yoshidagi bolalarga o‘qib beriladigan asar tilining badiiy jihatdan puxta-pishiqligiga, tushunarli, aniq va ravonligiga alohida e’tibor beradi. Bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan asarlar hayot haqida muayyan tasavvur berishi bilan birga, ularga zavq-shavq bag‘ishlaydi. Masalan, Shukur Sa’dullaning «Lola va mushuk» she’rini olib ko‘raylik. Bu asar juda oddiy. Misralari ham sodda. U bir o‘qishdayoq kichkintoy mehrini o‘ziga tortadi, uni uyqudan barvaqt turishga, yuvinib-taranishga, ozoda, pokiza bo‘lishga o‘rgatadi. Bolaning uy hayvonlariga, jonivorlariga mehri, g‘amxo‘rligini oshiradi:

Men Lolaman, Lolaman,

Ozoda qiz bolaman.

Erta bilan turaman,

Yuz-qo‘limni yuvaman.

Xulosa qilib aytganda, bu davr bolalari o‘zlari tinglagen asarlari yordamida asta-sekin atrof-muhit bilan tanishadilar, ona yurtga mehr-oqibatli bo‘lishni, tabiatni asrashni, mehnatni sevishni o‘rganadilar.

Maktabgacha yoshdagi bolalar kitobxonligidagi o‘zaro farq bolalarning yoshi, bilimi, saviyasi bilan bog‘liq. Maktabgacha yoshdagi bolalar, asosan, tarbiyachilari, ota-onalari yordamida badiiy asarlar bilan tanishadi. Bu yoshdagi bolalarni tevarak-atrofdagi turli voqeа-hodisalar nihoyatda qiziqtiradi. Ularning bizni qurshagan olam haqidagi savollariga badiiy asarlarda mufassal javob berilgan. Bu davr bolalariga tavsiya etiladigan asarlarning harflari yirik-yirik bo‘lib, rasm va bo‘yoqlarga boy bo‘lishi talab etiladi. Bu davr bolalar kitobxonligida kichkintoy, albatta, bajarishi zarur bo‘lgan mas’uliyat bor. Masalan, ota-onsa, tarbiyachi topshirig‘ini so‘zsiz ado etish, namunali o‘qish, yurish-turishda o‘zgalarga ibrat bo‘lish, ona-Vatanni sevish va boshqalar.

Shu o‘rinda Quddus Muhammadiyning «Avval o‘yla, so‘ngra so‘zla» she’ri yuksak darajada turadi. Chunki bola maktabga qadam qo‘yishi bilan uning bolaligi, hayotga mas’uliyatsizligi tugaydi. Har bir bosgan qadamiga, gapiradigan gapiga e’tibor berishi talab etiladi:

O‘ylamasdan so‘zlagan so‘z
Odamni xafa qilar.
So‘z qovushmay, o‘ng-u ters,
Ma’noni chappa qilar.

Shu zaylda bolada kasb-hunarga ishtiyoq, ona-Vatanga sadoqat, ota-onaga muhabbat paydo bo‘ladi. Adabiyot orqali bolalar kitoblaridagi qahramonlarning xatti-harakatlarini baholashga o‘rganadilar, asarlardagi mardlik va jasoratni o‘rganadilar.

Sharq mutafakkirlaridan Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Ahmad Yugnakiy, Al-Buxoriy, Forobiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy asarlarida ham bolalar dunyoqarashini shakllantirishga doir ijod namunalarini uchratish mumkin.

Bu yoshdagi bolalarga xalqimizning shonli tarixi, bugungi hayoti haqida yozilgan turli janrdagi asarlarni tavsiya etish mumkin.

Bolalar adabiyoti o‘ziga xos xususiyatlari bilan kattalar adabiyotidan farq qiladi. Bolalar yozuvchisi dunyo voqealarini bolalar tasavvuri, tushunchasini nazarda tutib tasvirlaydi. Shu orqali kichkintoylarni olg‘a intilishga chaqiradi, hayotni chuqur sevishga yordam beradi. Bolalar adabiyotida didaktika ohangi ustun turadi.

Ma’lumki, og‘zaki adabiyot yozma adabiyot paydo bo‘lmasdan ilgari, uzoq o‘tmishdayoq mavjud bo‘lgan. Bu adabiyot xalq badiiy kamoloti va ma’naviy boyligining bitmas-tuganmas xazinasidir. Xalq og‘zaki ijodi turmush tajribalari asosida yuzaga kelgan bo‘lib, mehnat jarayoni bilan chambarchas bog‘langan. Xalq donoligi shu mehnat jarayonining turli va o‘ziga xos shart-sharoitlariga muvofiq ravishda bolalar uchun ham ajoyib ertaklar, qo‘schiqlar, topishmoqlar, maqollar yaratgan. Ularni bolalar juda sevib tinglaydilar va o‘qiydilar. Xalq og‘zaki ijodi bilan bolalar maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab tanisha boshlaydilar. Xalq og‘zaki poetik ijodidagi obrazlarning yorqinligi, so‘z ma’nolarining aniqligi, matnning ohangdorligi, musiqiyligi kabi xususiyatlar bola ruhiga orom, huzur bag‘ishlaydi, uni o‘ziga mahliyo etadi, chunki folklorda qayta

takrorlash bir fikrni boshqa so`zlar bilan takrorlashga o`xshashdir¹. Yana bir narsani alohida ta'kidlab o'tish lozimki, kichik va o'rta yoshdagi bolalar qahramonlik dostonlarini zavq-shavq bilan tinglaydi, ertak, qo'shiq va topishmoqlarga g'oyat qiziqadi. Xalq og'zaki poetik ijodida yaxshilik yomonlik ustidan, to'g'rilik egrilik ustidan g'alaba qiladi, mehnatkash xalqning intilishlari, turli orzu, istaklari haqqoniy va favqulodda qiziqarli ravishda hikoya qilinadi. Ko'rinib turibdiki, xalq og'zaki ijodida mehnat ahlining urf-odati, tabiat va jamiyat hodisalariga bo'lgan munosabati, baxtli hayot haqidagi ezgu tilak va orzulari, qayg'u va shodliklari, ularning qahramonlik, vatanparvarlik va insonparvarlik tuyg'ulari, dushmanga nisbatan g'azab va nafratlari, yengilmas iroda, haqiqat, adolat, baxt haqidagi o'y va tushunchalari aks ettiriladi.

Mashg`ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Yosh avlod tarbiyasida bolalar adabiyotining ahamiyati qanday?
2. Bolalar adabiyotining kattalar adabiyotidan farqi nimada?
3. Bolalar kitobxonligiga erishish uchun nimalar qilish kerak?
4. Yosh avlod tarbiyasida bolalar adabiyotining ahamiyati?
5. Bolalar kitobxonligi va u necha turga bo'linadi?
6. Bolalar adabiyotining kattalar adabiyotidan farqi?

Mustaqil o`qish uchun tavsiya etiladigan asarlar:

1. O`zbek xalq ertaklari.
2. O`zbek bolalar folklori (afsonalar, qo'shiqlar, maqollar, topishmoqlar).

Adabiyotlar:

1. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.
2. M.Jumaboyev. O`zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo'llanma. 1996 y.

¹Paul H. Fry. Theory of literature Yale University- 2012. Empson W. Chapter 6—Page 76

3. Z. Masharipova T.Matyoqbova O'zbek yozma adabiyotida folklor an'analari Toshkent – 2011
4. www. ziyonet.uz. Bolalar adabiyoti-
5. Paul H. Fry. Theory of literature Yale University- 2012

BOLALAR ADABIYOTI VA BOLALAR FOLKLORINING MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARI BILAN BOG'LQLIGI

Qo'shiqlar. Maqollar. Topishmoqlar. Masallar. Tez aytishlar. Ertaklar.

Adabiy ertaklar.

Reja :

- 1.Bolalar adabiyotiga qo`yiladigan talablar.
2. Bolalar adabiyotining folklori bilan aloqasi.
3. Bolalar adabiyotida folklor syujetlaridan foydalanish.
4. Bolalar adabiyotida xalq og`zaki ijodining namunalari.

Xalq og`zaki ijodi va bolalar kitobxonligi

Folklor hamma zamonlarda ham ijod sarchashmasi hisoblanib keladi. Shuning uchun ham insoniyat alla, qo'shiqlar, afsonalar, ertak va dostonlarda o`zining yuksak orzu-umidlari, zavq-shavqi-yu, kurashlarini ifodalagan. Xalq og`zaki ijodi o`zining mazmunan rang-barangligi, yuksak g`oyalar bilan yo`g`rilganligi bilan yozma adabiyotdan ajralib turadi.

Bolalar folklori ko`pincha kattalar tomonidan ijod qilinadi, ba'zi hollarda bolalar o`z o`yinchoqlari asosida o`zlari ham alla, qo'shiq va ovunmachoqlar to`qiydilar. Bularning hammasi bir bo`lib faqat yaxshi tarbiyani targ`ib qiladi. Bolalar xalq og`zaki ijodining pedagogika bilan bog`lanishi alladan boshlanadi.

Alla - qo`shiq

Alladir hayotda sevimli qo`shiq,

Onalar kuylaydi yurakdan jo`sib.

Bolasin umriga umrlar tilar,A

Allaga dildagi niyatim qo`sib.

Bu qanday sinoat, men bilolmadim,

Ta`rifiga so`zlar topa olmadim

Allalar eshitib, o`sib-ulg`aydim,

Dard cheksam, allani tinglab sog`aydim!

Bu hammaning gapi, hammaning dil so`zi, hammaning allaga, onaga iqrornomasi, ta`zimi. Yoshi ulug`mi, kichikmi alla eshitgan, alla og`ushida, ta`sirida o`sigan, ulg`aygan, esini tanigan, kamol topgan, inson bo`lgan.

Alla xalq og`zaki ijodining eng oliy namunasi hisoblanadi. Allada onaning o`yi, xayoli, ezgu niyati, porloq kelajak uchun intilishi, kurashi o`z ifodasini topgan bo`ladi. Alla millat tanlamaydi, uning matnini tushunmasa-da, ohangi-kuyini eshitgan har bir inson bosh chayqaydi, beshik kabi ohista tebranadi, orom oladi, o`zini-o`zi taniydi, xayoli bolaligiga ketadi, hayotda yo`l qo`ygan xato va kamchiliklarini tuzatib olishga intiladi. E'tibor bering:

Tol beshikni tebratib,

Ona aytar qo`shig`in.

Qo`sinq bilan tebratar

Dunyoning tol beshigin.

Bu beshikda ulg`ayar

Necha ming, millionlar.

Ona mehri ziyosi

Yuraklarga yo`l olar.

Bu beshikda tinglashar

Mayin-mayin allalar.

Uchib o`tgan el bilan
Olam bo`ylab taralar.
Tol beshikni tebratib,
Ona aytar qo`shig`in.
Qo`sinq bilan tebratar
Dunyoning tol beshigin.

Alla qadimiy xalq qo`shig`i. Alla va beshik xamohang yuradi. Bu haqda buyuk alloma Abu Ali ibn Sino, - ...Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo`llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo`lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badan tarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo`lgan iste'dodi hosil qilinadi, - deb alla va beshikning norasida kamolotida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tgan. Buni dildan his qilgan ona chaqalog`ini o`zi suyugan, e'zozlagan har narsadan yuqori qo'yib alla aytadi:

Sen bog`imning bahori,
Sen umrimning nahori,
Sen qalbimning ohori,
Onajoni shunqori, alla-yo, alla.

Odatda, onaning orzu-armonlari bir talay bo`ladi. Dilidagi ezgu niyatlarini allaga qo`shib jo`shib kuylaydi. Bola birinchi navbatda sog`lom fikrli, el-yurt o`g`loni bo`lib kamol topishi kerak. Mana bu allada shu g`oya yaqqol ko`zga tashlanib turadi:

Onasining erkasi,
Uxlab qolsin, alla-yo.
Bo`lsin inson sarasi,
Obro` olsin, alla-yo, alla.

Inson birdaniga yuqori martabali, o`qimishli, oq-qorani ajrata oladigan bo`lmaydi. Buning uchun qunt bilan o`qish, o`rganish, ilmli bo`lish kerak. Mana bu alla ham juda jozibali chiqqan:

Ko`chalarda o`ynab yursin,

Maktablarda o`qib yursin.

Mulla-yu, mudarris bo`lsin,

Martabasi ulug` bo`lsin.

Chaqaloq olamga kelishi bilan dastlab ota-onani taniydi. So`ng oila a'zolari, jonivorlar, parranda-yu, darrandalar bilan oshno bo`ladi. Tabiat insonga xizmat qiladi. Inson uni ehtiyot qilishi, parvarishlashi, o`sirishi, ko`paytirishi lozim. Shu ma'noda inson ruhiga o`z kuyi, qo`shig`i bilan quvonch bag`ishlaydigan qushbulbulni ham ehtiyot qilishi zarurligi bir qator allalarning asosini tashkil etadi:

Bulbul sayrar yozina, alla-yo, alla,

Qulluq qush ovozina, alla-yo, alla.

Bermang bulbula ozor, alla-yo, alla,

Bulbul beozor qushdir, alla-yo, alla.

Qadimda och-yupun hayot kechirgan mehnatkash xalq o`z farzandini kelajakda mard-pahlavon, botir bo`lib kamol topib yurt himoyachisiga aylanishiga umid bog`lagan. Shu bois ham alla-qo`shiqlarida farzandlarini yo`lbars yurakli, qoplon bilakli bo`lib kamol topishlari uchun allalar to`qib farzandi ongiga, shuuriga quyib tarbiya qilganlar:

Yo`lbarslarday yuraklim, alla,

Qoplondarday bilaklim, alla.

Yaxshi-yomon klinik, alla,

Menga juda keraklim alla.

Maqol

Bolalar xalq og`zaki ijodida maqollar yetakchi o`rinda turadi. Xalq yaratgan g`oyat ixcham, chuqur va tugal ma'noli gaplar maqol, deb yuritiladi. Maqol xalqning, bir necha avlodlarning aqlu farosati hamda turmush tajribasining yakuni, ular donishmandligining mahsulidir. Maqollarda hayotning achchiq-chuchugini tatib ko`rgan, turmushdagi hodisalarga aql ko`zi bilan qaraydigan, sof vijdonli,

olijanob, mehnatkash kishining biror voqeа-hodisadan, biror kishidan yoki biror ishdan chiqargan xulosasi bayon qilinadi. Bu xulosa biror kishi uchun (ko`proq bolalar uchun) yo`l ko`rsatuvchi bo`lib xizmat qilishi mumkin. Maqollar xalqning aql-idroki, ijtimoiy-tarixiy tajribasi, kurashi hamda mehnatining badiiy ifodasi sifatida yaratilib kelinmoqda.

Maqollar chuqur ma'noni ifoda eta bilishi, ixcham, pishiq va puxtaligi bilan xalq og`zaki ijodining boshqa janr turlaridan farq qiladi. Ularda mehnatkash xalqning orzu-umidlari, o`zaro munosabatlari, vatanparvarlik, insonparvarlik hislatlari, o`y-fikrlari o`ziga xos shaklda aks etgan bo`ladi. Shu sababdan ular bolalarni to`g`ri, mantiqiy fikrlashga, maqsadni qisqa, ixcham va lo`nda bayon etishga o`rgatadi, ularning badiiy didini oshiradi, tarixiy hodisalarning mohiyatini yaxshiroq, chuqurroq payqab olishga yordam beradi. Bundan tashqari, maqollar ona tilining eng nozik badiiy xususiyatlarini bilishga va so`z boyligini ham oshirishga ko`maklashuvchi bir vosita sifatida xizmat qiladi. Kuzatishlarimizdan shunday xulosaga keldikki, deyarli barcha maqollarda birinchi navbatda bola tarbiysi - odob yotar ekan. E'tibor bering:

Avval salom, ba'daz kalom; Avval o`yla – keyin so`yla; Bola aziz – odobi undan aziz; Inson odobi bilan, osmon oftobi bilan; Odob bozorda sotilmas; Odobning boshi til; Otang bolasi bo`lma, odam bolasi bo`l; Yaxshi xulq kishining xusni; Ustozingga tik qarasang, to`zasan; Hurmat qilsang, asta-sekin o`zasan; To`g`ri o`zar, egri to`zar bunday iboratomuz maqollar ro`yxatini yana cho`zish mumkin.

Bola to`g`ri so`z, odobli, aqli bo`lib kamol topmog`i lozim. Ana shunday bola bor ovoz bilan:

- Ong ko`zimiz ochamiz,

Tong ko`zimiz ochamiz.

Boqamiz keng olamga,

Barchaga teng olamga! – deydigan bo`ladi. Ularning harakat, intilish, kurashlarida yuqoridagi maqollarning o`rni, albatta katta bo`ladi.

Bola kamolotida birinchi navbatda salom-alik turadi. Salom-alikni o`rgangan, uni kanda qilmaydigan har bir bolaning ishi yurishadi, omadi chopaveradi. Axir xalq, - yaxshi gap bilan ilon inidan chiqadi, degan gapni bekorga aytmagan. Har qanday holatda ham salom og`irni engil qiladi, oldindagi to`sinq va g`oyalarni zabit etishda madodkor bo`ladi.

Ko`plab ertaklarimizda uchraydigan odamzod dushmanlari – devlar, jinlar, yalmog`iz kampirlar, ajdarlar ular huzuriga odamzod borganda, ularga salom bergenida – Haq saloming bo`lmaganida ikki yamlab bir yutar edim, - degan gapni qiladilar. Yuqorida eslab o`tganimizdek, salom-alikni dillariga jo qilib olgan bolalar hech qachon kam bo`lmaydilar.

Inson hamisha biror qarorga kelishi, fikr bildirishi, gapirishi uchun dilidagi so`zini nechog`lik to`g`ri-noto`g`ri ekanligining mag`zini chaqib, so`ngra aytishi lozim. Aksincha, bo`lsa, o`ylamay-netmay, og`ziga kelgan gapni aytsa, do`stlari, muallimlari, odamlar o`rtasida izza bo`lib qolishi hech gap emas:

O`ylamasdan so`zlash qanday?

Menimcha, bu mumkin emas.

Odam o`ylab so`zlaydi,

O`ylamasang so`z unmas.

O`ylamasdan so`zlagan so`z

Odamni qilar xafa.

Yo`q, bugina emas, quruq valdirayveradigan bola, - quruq so`z- quloqqa yoqmas, deganlaridek, o`zini-o`zi hijolat qiladi, el o`rtasida uyatga qoladi:

So`zi lop-lop, havoyi,

So`zining yo`q mag`iz-moyi.

Shunday bola so`zin el

Degan puchak, quruq el

Yoqmas degan quloqqa,

Bormas degan uzoqqa.

Mehnatlash xalq to`g`ri so`zlaydiganlarni, o`rnida gapiradiganlarni bog`bonga va u parvarish qiladigan daraxtga ham qiyoslashadi:

Egri shoxni bog`bon ham
Kesib tashlar ko`rgan dam.

Shu sabab to`g`ri o`zar
Egri esa ozar, to`zar.

Bunday g`oya bir qator ertaklarda, rivoyatlarda ham ilgari surilgan bo`ladi. Luqmoni Hakim bilan bog`liq «Sukunatning xosiyati» rivoyati necha asrlardan beri kenja avlod tarbiyasida muhim o`rin egallab keladi:

Luqmoni Hakim kunlardan bir kuni hazrati Dovudning oldiga boribdi. Dovud odatdagidek, sovut zirhli kiyimlar tayyorlash ya`ni- temir-tersaklar orasida ishlab o`tirgan ekan.

Luqmoni Hakim dunyoga kelganidan buyon bunday ustaxonaga kirmagan, bunday kiyimlarning tayyorlanishini ko`rmagan ekan. Shu boisdan bunday zirhli kiyimlar qanday kiyimlar ekanligini, uni kimlar kiyishini so`ramoqchi bo`libdi. Ammo ustozi: “Avval o`yla, keyin so`yla”, “Sabr qil-sabrning tagi oltin”, - deb o`rgatgan ekan. Shunga amal qilib, sabr qilibdi. Kiyimning tayyor bo`lishini kutib turibdi. Hazrati Dovud kiyimni tayyorlab, kiyib olibdi-da, shodlanib Luqmoni Hakimga shunday debdi:

- Luqmoni Hakim, mana ko`rdingizmi, men sovuq temirdan qanday issiq kiyim tayyorladim. Buni kiyib, bemalol jangga kirib, bosqinchi dushmanning dodini berish mumkin.

Bu gapni eshitgan Luqmoni Hakim: “Sukut qanday buyuk aqlilikdir. Ustozimning aytganini qilib, sukut saqladim-da, qo`pol xatodan saqlandim”, - debdi ichida.

Har bir bola ilqli, uquvli, kasb-hunarli bo`lib kamol topishi lozim. Agar inson bunday xususiyatlarga ega bo`lsa, birinchi navbatda o`zi hayotda qiyalmay, o`zgalarga muhtoj bo`lmay umr kechiradi. Ikkinchidan, bunday zotlar o`z oilasini ham qiyalmay boqadi, ona-Vataniga ko`mak beradi. Xalq bu haqda bekorga mana bunday maqollar to`qimagan:

Bilim – kuchda,
Kuch – bilimda.

Go`zallik – ilmu ma'rifatda.

Davlat tugar, bilim tugamas.

Ilm-aql bulog`i,

Aql – yashash chirog`i.

Ilmlining so`zi – o`q,

Ilmsizning so`zi – yo`q.

Oltin olma, bilim ol,

Bilim olsang, bilib ol.

Hunar oshatar, mehnat yashnatar.

Hunari borning oltin bilagi bor.

Bolalar xalq og`zaki ijodining, ayniqsa, maqollar janrida kichikntoylarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga mo`ljallangan asarlar alohida o`rinda turadi.

Bu mavzudagi maqollarning katta-ko`pchiligi bola hali mакtabga chiqmasidan oldinoq ularga tanishtiriladi. Ko`pincha, bu davr bolalariga vatanni sevish, unga hurmat qilish g`oyasi jonivorlar, parranda-yu, darrandalar misolida bo`ladi.

Vatani borning – baxti bor; Tug`ilgan ering – vataning; Ot aylanib qozig`ini topar; Vatansiz inson – kuysiz bulbul; Ko`lning otini balig`i chiqarar; Baliq suv bilan tirik, odam – el bilan; Bulbulga bog` yaxshi, kaklikka tog`; Har ko`katning o`z suygan tuprog`i bor; Har toycha o`zi suv ichgan bulog`ini maqtar; Har gulning o`z isi bor, Har elning o`z tunsi bor; Qush ham ketsa keladi, o`z elini sevadi va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Xalq maqollarida yaxshilik, halollik, to`g`rilik hamda rostgo`ylik ulug`lanib, yomonlik, yolg`onchilik va qalloblik qoralanadi.

Yuqoridagi sharhlardan ko`rinadiki, xalq maqolini qo`llab, yetti o`lchab bir kesib yashagan inson hech qachon kam bo`lmaydi.

Shu tariqa maqol janri rivojlanib, bolalarning ong-tushunchalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Qadim-qadim zamonlarda ham o`zbek xalqi o`z bolalarini kuchli, epchil, aqli qilib tarbiyalashga katta ahamiyat bergen. O`sha paytlarda hali bolalarga ta'lim-tarbiya beradigan maktablar yo`q edi. Ana shuning uchun ham xalq turli o`yinlar va boshqa vositalar o`ylab topgan. “Bekinmachoq”, “Chillak”ka o`xshash o`yinlarda ishtirok etuvchi bolalarda chaqqonlik, epchillik kabi jismoniy hislatlar paydo bo`la borgan. Xo`s, endi bolalarning zehnini charxlash uchun nima qilish kerak edi? Topishmoq, jumboq singari aqliy o`yinlar ana shu savolga javob izlash jarayonida xalq tomonidan yaratilgan. Topishmoqlarning ham ijodkori xalqdir.

Yuzaki qaraganda kattalar bilan bolalar, bolalar bilan kattalar o`rtasida topishmoqlar aytish, shunchaki bir ermakday tuyuladi, zerikmaslik uchun, vaqt ni tez o`tkazishga qaratilganday ko`rinadi. Aslida esa topishmoqlar fikr qayrovidir, ular orqali bola obrazli fikrlaydigan va obrazli so`zlaydigan bo`ladi. Topishmoqlar bolada so`z boyligini orta borishiga va nutqining o`sishiga yordam qiladi. Bolaga topishmoq topishni o`rgatish bilan unda fikrlashning asta-sekin yuksalishiga sabab bo`ladi. Demak, xalq og`zaki ijodining eng qadimgi va eng faol janrlaridan biri topishmoqdir. Topishmoqlar inson, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan chambarchas bog`langan bo`lib, hammavaqt real voqelikka asoslanadi. Unda atrofimizni o`rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Har bir topishmoq o`ziga xos shakl va mazmunga ega bo`lgan mustaqil bir asardir. Unda falsafiy, tarixiy, etnografik belgilar, tushunchalar, hodisalarning mohiyati nihoyatda go`zal, obrazli ifodalar bilan aks ettiriladi. Bu janr ikki kishi yoki jamoa o`rtasida berilgan jumboqli savolga javob qaytarish tarzida ijro etiladi. An'anaviy topishmoqlarning savol qismi tabiat, tabiat hodisalari, umuman har bir ob'ektga badiiy tus berilgan holda obrazlashtirish, taqqoslash, o`xshatish orqali jumboqlanadi. Javob qismi esa obrazlar orqali jumboqlangan ob'ekt-narsa yoki tabiat hodisalarning otini aytib berish, ma`nosini topish, yashiringan narsani echish, bilishdan iborat.

Shu narsa diqqatga loyiqliki, har bir topishmoq turmush bilan chambarchas bog`langan bo`ladi. Topishmoqda atrofimizdagi narsalarning badiiy-estetik tomonlari, xalqning urf-odatlari aks etadi. Unda tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni bir-biriga taqqoslash, o`xshatish orqali borliqni, undagi mavjud narsalarning mohiyatini yaxshiroq tushunishga katta yordam beradi.

Xalq og`zaki ijodining eng boy janrlaridan biri bo`lgan topishmoq ikki qismidan iborat bo`lib, topishmoqning asosiy qismi bo`lgan javob obrazlar orqali jumboqlangan ob`ekt-narsaning otini aytib berishdan iboratdir. Uning savol-jumboq qismi tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni, umuman, ob`ektni badiiy tus berilgan holda obrazlashtirish, taqqoslash, o`xshatish orqali jumboqlashdan tashkil topgan. Topishmoqning jumboq qismi bilan javobi birlikda bir butunlikni tashkil etadi.

Topishmoq o`z ichiga borliqdagi hamma narsa va hodisalarni, ularning turli-tuman ko`rinishlarini qamrab oladi. Osmon, ko`k, quyosh, oy, yulduzlar, tabiat hodisalari; odam va uning a'zolari; hayvonot dunyosi; qushlar, hashoratlar; daraxt, har turli o'simliklar, meva, sabzovotlar; uy-ro`zg`or buyumlari; mehnat qurollari, umuman, hamma narsalar haqida ko`plab topishmoqlar yaratilgan.

Zero, topishmoq hozirgi vaqtida ham o`zining g`oyaviy, tarbiyaviy ahamiyatini yo`qotgan emas. Hozirgi kunda ham har xil narsa va hodisalar haqida yangidan-yangi topishmoqlar yaratilmoqda. Topishmoqlar ayniqsa, kichkintoylarning fikrlesh qobiliyatini o`stirishga, ulami muayyan bir fikrni badiiy tusda ifodalashga va ziyraklikka, topqirlikka o`rgatadi.

Yaxshi tarbiya – bolalarni istagan paytda ojizni himoya qilishga tayyor turuvchi insonparvar kishilar sifatida voyaga etkazishdan iboratdir. Bolalikda bu - hayvonlarni himoya qilishdan, hatto, ninachilar, kapalaklar va gullarga rahmdil bo`lishdan boshlanadi.

Deylik, deraza oldida ikki bola turibdi. O`g`il bola – ikki yoshda, qiz esa to`rtda. Ular oynaga burunlarini taqagancha ko`chani tomosha qilishayapti. Oxiri ko`chaga qarash jonlariga tegib, oynaga urilayotgan kapalakni tutib olishdi-da,

qanotlarini yulib tashlab, uning o`rmalashini tomosha qila boshlashdi. Ularga bu juda qiziq tuyulardi. Avval uchib yurgan edi, endi bo`lsa o`rmalayapti.

- Dada, oyi, - deyishdi ular hayajonlari oshib-toshib. – Bu yoqqa kelib, mana buni ko`ringlar!

Ularning bu o`yiniga dadasining negadir qaragisi ham kelmadi.

- Kapalakning qanoti ham xuddi sizlarning qo`llaringizga o`xshaydi, - dedi u.

– Mabodo kuchli bir odam sizlarni ham kapalakka o`xshatib o`ynaganda yaxshi bo`larmidi? Hech kimning va hech narsaning jonini og`ritmaslik kerak.

Tabiiyki, bolalar nima qilishlarini bilmay, bir-birlariga tikilib qolishadi. Ana shunda ota jahlidan tushib, avval o`zi aytib bergan, bolalarning o`zлari o`qigan tabiatni – jonivorlarni, parranda-yu, darrandalarni, qurt-qumursqalarni o`ldirmaslik, parvarish qilish, ko`paytirishdek vazifalarni ularning eslariga solsa va shu yo`sinda jozibali topishmoqlar aytishni boshlab yuborsa, ayni muddao bo`lardi.

Uy hayvonlari, jonivorlar orasida hamma uchun yaqini, suyuklisi, e'zozlisi sigir hisoblanadi. Har qanday holatda ham sigir oila boquvchisi, yordamchisi hisoblanadi. U parvarish qilinsa, o`z vaqtida o`t-emi berib turilsa u sutu qaymoq bilan mehmon qilaveradi.

Tez aytish

Insoniyat odobining va odamiylik asosining ulug` qasri ustunlaridan biri – so`zlash va nutqning qimmatbaho gavharini muloyimlik va odob parmasi bilan teshmoq hisoblanadi. Axloq arkining yuqorisida o`tiruvchilarining aytishicha, insoniyatning kamoloti va bilimining baland martabalaridan biri chiroyli gapirish va chiroyli so`zlash bo`lib, bu bog`ning guli ilk bahoristonning nasimi bilan ochiladi va saodatning yorqin javohir dasturxonini aql savdogarigina yoza oladi. Yoqimli va qimmatbaho so`zлari donolik va iqbol arbobining toji bo`lgan yunon hakimlarining aytishlaricha, til har bir aql sohibi fazilati xazinasining kalitidir va har kimsaning bilimi miqdori uning so`zлari orqali ma'lum bo`ladi. Inson yuragidagi fikrini, yutuq va quvonchini, dard va alamlarini o`zgalar bilan

dardlashishi, baham ko`rishi lozim. Chiroyli, burro, dona-dona qilib gapirish ham bir mahorat, san`at hisoblanadi.

Xalqda chaqaloq olamga kelishi va unga parvarish ishlari boshlanishi bilanoq ota-onasiga, buvi-bobolar birinchi navbatda uning ko`zi, tiliga ko`proq e'tibor beradilar. Ko`zlarining nurafshon, tilining burro bo`lishi uchun bor kuch, mahoratlarini ayamaydilar. Inson gapirmasa, soqov bo`lsa bu og`ir ish, mushkul savdo hisoblangan. Shunga ko`ra qadim-qadim zamonlarda bolaga alla-qo`shiq aytishda onalar bu haqdagi ezgu niyatlarini mana bunday misralarda ifoda etishgan:

Uyingga bug`doy to`lsin,

Tiling burro bo`lsin,

Alla, bolam, alla-yo,

Jonim bolam, alla-yo.

Ko`rar ko`zim, alla-yo,

So`zlar so`zim, alla-yo!

Xalqda buni tez aytish deyiladi. Demak, xalq og`zaki ijodining eng ko`p tarqalgan va muhim janrlaridan biri tez aytish ekan. Tez aytish bolaning tilini ravon, burro qilishdan tashqari, aqliga – aql qo`shadi, ongini rivojlantiradi, xotirasini mustahkamlaydi, ota-onasiga, el-yurtiga, o`zini qurshab olgan olamga nisbatan mehr-muhabbatini oshiradi. Boshqacha ibora bilan aytganda, yangi avlod har gal o`zidan avvalgi avlodlar kashf etgan narsalarni hisobga oladi, o`zlashtiradi. Bu yo`l, shubhasiz, boshqalariga qaraganda oqilona, foydali, porloq kelajak yo`lidir.

Tez aytishni qayta-qayta mashq qildirish, berilgan matnni osongina diliga, tiliga jo qilib olish har tomonlama foyda so`z o`yini bilan ijro etiladigan har bir tez aytish zamirida bir nechta vazifalar yotgan bo`ladi. Shulardan birinchisi qayta-qayta mashq qilish, tinimsiz takrorlash natijasida bolaning nutqi chiqadi, tili ravon bo`ladi. Bularning hammasi yig`ilib bola tarbiyasiga bog`lanadi. Bola olamga kelishi bilanoq uni kelajakda komil inson bo`lib o`sishi uchun mana shunday

chora-tadbirlarni qo`llashga to`g`ri keladi. Aks holda bu ish kechiktirilsa, ko`zlangan natija chiqmay qolishi mumkin.

Novvoy non yopar,

Nonni novvot deb sotar, - deyilgan tez aytish shu asosda yuzaga kelgan.

Ertaklar

Xalq og`zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Xalq tomonidan yaratilgan ko`plab ertaklarda bolalarning o`ziga xos hayoti chetlab o`tilmagan. Hatto, turli yoshdagi bolalar uchun juda ko`p maxsus ertaklar yaratilgan.

Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning hamisha xalq hayoti, kurashi, tarixi, ruhiy olami, dunyoqarashi, urf-odatlari bilan chambarchas bog`lanishi, insonlarga axloqiy va ma`naviy yo`ldosh bo`lib ketishidadir. Ertaklar insonning ma`naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan sug`orilgan bo`lib, ijobiy kuchlar tabiat va ijtimoiy hayotda o`ziga dushman bo`lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g`olib chiqadi. Xalq ertaklarida uni yaratuvchilarning dunyoqarashi, axloq normalari va boshqa ijtimoiy muhim masalalar odilona hal etiladi. Ertaklar sodda va tushunarli bo`lgani uchun har qanday kitobxonga tez etib boradi. Ular orqali ham insonning ijtimoiy axloq normalari shakllanadi.

Bu hol ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarda aks etgan. O`tmishda yaratilgan ertaklarda xalqchillik kurashi o`zining haqqoniy badiiy ifodasini topgandir. Xalqning kelajakka bo`lgan komil ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g`alabasi, yorug`likning zulmatni engishi, ozod va baxtiyor hayotga erishish g`oyalari yorqin obrazlar orqali tasvirlangan.

Xalq ertaklarida el-yurtni ko`z qorachig`iday avaylab saqllovchi ajoyib qahramonlar ulug`lanadi; ayollarning haq-huquqlari himoya qilinadi; uzoq masofalar yaqin qilinadi; kishilar xarakteridagi yaramas odatlar, noma`qul illatlar tanqid ostiga olinadi; mardlik, epchillik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, saxiylik g`oyalari ulug`lanadi.

Xalq ertaklari o`z xususiyatlariga ko`ra bir necha turga bo`linadi: hayotiy ertaklar, hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli – afsonaviy ertaklar, ijtimoiy-maishiy ertaklar.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar kitobxonligi. Bu yoshdagi bolalar kitobxonligi asosan oiladan, bolalar bog`chalaridan, mahalla ertakchilari tomonidan amalga oshiriladi. Yana bir gap. Bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo`ladi. Avval eslatib o`tganimizdek bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do`stlik, mehnat ahli, jamoa, odob-axloq to`g`risida bo`lishi foydadan holi bo`lmaydi.

Bu davr bolalariga “Chivinboy”, “Qizg`anchiq it”, “Tuyaqush bilan qoplon”, “Maqtanchoq quyon”, “Rostgo`y bola”, “Arilar g`azabi”, “Tulki bilan turna”, “Sholg`om”, “Qumursqa”, “Kaptar sovg`asi” kabi ertaklarni o`qib, hikoya qilib berish mumkin.

Bog`cha tarbiyachilari, ota-onalar, mahalla ertakchilari oldida turadigan ishlardan eng muhimi kichkintoylarni mehnatga muhabbat ruhida tarbiyalashdir. Bu tarbiya bola hayotida alohida o`rinda turadi. Shuning uchun ham bolani yoshligidan boshlab bir ishga o`rgatish, kichkina vaqtidanoq unga bir yumish berib, ish qilishga o`rgatish lozim. Tili chiqib, u erga, bu erga yura boshlagan vaqtida ham bolaga biror ish berish lozim. Unga beriladigan bu ish ahamiyatsiz. Hatto, “ish” nomi berishga loyiq bo`lmasa ham, undan keladigan foyda zo`rdir. Chunki bunday yumishlar bolani mehnatni sevishga o`rgatadi.

Bu borada xuddi inson kabi tinib-tinchimas mehnatkash qumursqalar va ular haqida xalq to`qigan “Qumursqa” ertagini shu yoshdagi bolalarga o`qib, hikoya qilib, aytib berish yaxshi samara beradi.

Kichkina bolalar u yoqda tursin, hatto, kattalar ham uncha mensimaydigan qumursqaning ishchanligini, kechasi-yu, kunduzi tinmay mehnat qilishini uni kuzatgan odam sezadi, xolos.

Hayotda shunday: kim ko`p ishlasa, tinim bilmay mehnat qilsa sog`ligi yaxshi bo`ladi, boy-badavlat yashaydi, hech kimga hech qachon xor-zor bo`lmay umr

kechiradi. Qumursqa maqtanchoq emas, u oddiy va sodda. Shu oddiyligi, soddaligi, mehnatkashligi bilan ajralib turadi.

Savol-javoblarda muz, bulut, quyosh, yomg`ir, yer, o`t, mol, bo`ri, mergan-u sichqon kabilardan ham qumursqa ustun chiqadi. Qumursqaning o`ziga berilgan ta`riflarda ham bu ma`no ko`zga yaqqol tashlanib turadi:

- *Qorning nima uchun katta?*

\- Jigirim zo`r, - dedi qumursqa.

- Beling nima uchun ingichka?

- Mehnatim zo`r!

- Kallang nima uchun katta?

- Davlatim zo`r! Mehnatim zo`r, savlatim zo`r, men

zo`r, men zo`r!

Bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning asosiy qismini to`g`ri so`z, halol, pok bo`lish, yolg`on gapirmaslik, birovlarni aldamaslik kabi mazmundagi asarlar tashkil etadi. Masalan, “Rostgo`y bola” (turkman xalq ertagini) olib ko`raylik. Ertak qahramoni to`g`ri so`zligi, kattalarning pand-nasihatlariga qulq solishi bilan yosh kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi, ko`p bolalarning havasini keltiradigan ish qiladi.

Qaroqchilar azaldan yomon odamlar. Ular har doim zo`ravonlik qilib, bosqinchilik qilib birovlarning mol-mulklarini tortib olishgan.

“Rostgo`y bola”da ota karvon bilan yo`lga chiqqan o`g`lining qo`liga qirq tanga oltin berib:

- O`g`lim, hecham yolg`on gapirma, halol bo`lgin, - deb nasihat qilibdi.

Karvon yo`lda qaroqchilarga duch keladi. Qaroqchilar noinsoflik, bosqinchilik bilan hammani talaydi, mol-mulkini tortib oladi. Ammo bolaga mutlaqo e`tibor bermaydilar. Ota nasihatini olgan bola to`g`ri so`zligi bilan

qaroqchi, bosqinchi, yo`lto`sarlikda nom chiqargan bir necha muttahamni tarbiyalaydi, ularni halollig-u to`g`ri so`zligi bilan mag`lub qiladi:

Savdogarlar yo`l yurishsa ham mo`l yurishibdi, bir joyga yetib borishganda ularga qaroqchilar hujum qilishibdi. Qaroqchilar o`zaro maslahatlashib “mana bu yalangoyoqqa u-bu narsa bersakmikan” deyishibdi.

Qaroqchilardan biri bolani mashara qilib so`rabdi:

- Ey, yalangoyoq, sendan nimani ham olish mumkin?

- Menda qirqa oltin tanga bor, - deb javob beribdi bola.

- Senda qirqa oltin tanga nima qilsin? – deyishibdi qaroqchilar kulib.

Shunda bola chophonining yoqasini yirtib, oltin tangalarni ko`rsatibdi.

- Nega bularni bizga ko`rsatding? – deb so`rashibdi qaroqchilar.

- Biz senga pul bermoqchi edik, endi bo`lsa buni ham olib qo`yamiz.

- O`ech qisi yo`q, otam halol bo`l, yolg`on gapirma, deb o`rgatgan, - deb javob beribdi bola.

Bundan hayron bo`lgan qaroqchilar savdogarlarga mol-mulklarini, pullarini qaytarib berib, halol mehnat qilish uchun qaroqchilikdan voz kechishibdi.

“Sholg`om” (rus xalq ertagi) bu davr bolalar kitobxonligida asosiy o`rinda turadi. Ertak juda oddiy va sodda. Ammo ma’no va mazmuni, asarning tarbiyaviy ahamiyati kutilganidan ham ziyoda.

Ertak juda jo`n. Boboning sholg`om ekishi va bo`liq sholg`omni ko`plashib yilib olishi zikr etiladi. Ertakda ortiqcha so`z yo`q, qahramon yo`q. Hammasi risoladagidek. Ammo “Sholg`om”da kichkintoylar bilib, qulq solib o`sadigan jihatlari ko`p. Birinchidan, boboning mehnatkashligi yaqqol ko`zga tashlanib

turadi. Moboda bobo sholg`omni erga ekib tek qo`yib qo`yanida u mutlaqo kattakon bo`lib o`smanan bo`lar edi. Boboning o`yi-xayoli sholg`omda. Kechasiyu, kunduzi sholg`omga ishlov beradi, peshona teri to`kib ko`p mehnat qiladi. Demak, ertakda bolani mehnatkash bo`lishga, xuddi shu bobo kabi dalada ishlashga chaqiriladi.

Ikkinchidan, bola beshikdan boshlab ahil, do`st bo`lib o`sishi kerak. Kimki do`stlar bilan, jamoa bilan hamfikr, hamkor bo`lib o`ssa o`ziga ham, o`zgalarga ham yaxshi.

Yana ertakka murojaat qiladigan bo`lsak. O`sha bo`lig`, kattakon sholg`omni yerdan tortib, sug`irib olish masalasi yosh kitobxon uchun juda qiziqarli. Bobo, buvi, nabira, kuchuk, mushuk, sichqonlarning bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishlari bolalarni xursand qiladi. Ularda shunday qilib kuch-birlikda tushunchasi paydo qilinadi.

Ertakning uchinchi jihatni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning orzuniyati bo`lmish tabiatni sevish, jonivorlarni asrash, avaylash o`ziga xos o`rinda turadi. Kichikntoylar kuchuk, mushuk, hatto, sichqonni ham boqish, asrab-avaylash lozim ekanligini bu ertak orqali bilib oladilar.

Xuddi bobo singari mehnatkash bo`lish, kuch birlikda tushunchasini dilga jo qilib kamol topish, ayniqsa, ertak tinglovchining dil to`ridan joy olishi ertakning tarbiyaviy ahamiyati katta ekanligidan dalolat beradi.

Bu yoshdagi bolalar hayvonlar o`rtasidagi o`zaro ahillik va do`stlik kabi xislatlarni bilishni istashadi. Hayvonot olamida ham do`stga mehribonchilik qilish, bir-biriga g`amxo`r bo`lish, yordam qo`lini cho`zish bor ekanligi “Arslon bilan it”, “Tuyaqush bilan qoplon”, “Echki, qo`y va bo`rilar” kabi ertaklarda beriladi. “Tuyaqush bilan qoplon»ga nazar tashlaydigan bo`lsak, bu ertakda xuddi odamlar orasida bo`lganidek hayvonlar o`rtasida ham bir-birlariga yordam berish, ayniqsa, boshlariga ofat tushganda yurakdan, samimiyo ko`maklashish g`oyasi yotadi.

Qoplondonning boshiga musibat tushdi. Tomog`iga katta bir suyak qadalib qoldi. Dod-faryod qildi. Tuyaqush qoplonga yordamga kelib:

- Osmonga qarab og`zingni ochib tur, men suyakni olib qo`yay, - debdi qoplonga.

Qoplon osmonga qarab og`zini ochib turibdi. Tuyaqush uzun tumshug`ini qoplonning og`ziga solib, tiqilib turgan suyakni sug`irib tashlabdi.

Qoplonning ko`zlar ravshan bo`lib, o`limdan qutilibdi.

Bir oz joni orom olgandan keyin qoplon tuyaqushga qarab shunday debdi:

- Sen mard ekansan, menga yaxshilik qilding, endi kel ikkalamiz do`s^t bo`lamiz, zarur vaqtda bir-birimizga yordamga kelamiz, - debdi.

Tuyaqushga bu gap ma'qul bo`libdi. Tuyaqush bilan qoplon ikkalalari do`s^t bo`libdilar.

Xalqda, - o`zga bilan do`s^t bo`ldingmi, bir umrga bo`l, uni yaxshi-yomon kunlaringda sinama va unga riyokorlik ko`rsatma, - degan gap bor. Tuyaqush bu yo`ldan bormaydi. Oradan ko`p vaqt o`tadi. Kunlardan bir kun u qoplonni sinamoqchi bo`lib jo`rttaga:

- Voy dod, o`lyapman, qoplon meni qutqar! – deya bor ovoz bilan qoplonni yordamga chaqiradi.

Qoplon chin so`zli, do`s^tga sadoqatli, g`amxo`r va mehribon bo`lganligi uchun zudlik bilan tuyaqushning oldiga “shox, butoqlar orasidan ustidagi junlari yulinib, harsillab etib kelibdi”. Lekin u tuyaqushning yuzida tabassumni ko`rib hayron bo`ladi. Tuyaqushning surbetlik bilan “ko`rmaganimga ancha vaqt bo`ldi, ahd-paymonimiz esingdan chiqib qolmadimi deb, sinab ko`rmoqchi edim”, degan gapidan qattiq ranjiydi, dili og`riydi, do`s^tidan ko`ngli qoladi.

Do`s^tni aldagani o`zini aldagani bo`ladi. Sen birovni bir marta aldadingmi, tamom u senga ikkinchi marta ishonmaydi. Tuyaqushda ham xuddi shunday bo`ladi. Boshqa kuni bo`ri uni ushlab eb qo`ymoqchi bo`lib turganda u har qancha baqirib chaqirmasin, qoplon uning ovozini eshitsa ham do`s^tim jo`rttaga dodlayabdi, deb o`ylaydi va uning oldiga kelmaydi. Tuyaqush bo`riga em bo`ladi.

Kaptar azaldan inson bilan yaqin yashagan, insondan panoh izlagan, insonga ko`mak bergen. Kaptar qadimda bir yurtdan ikkinchi yurtga, bir odamdan ikkinchi

odamga maktublar olib borib berib aloqachilik vazifasini ham o`tagani ma'lum. “Kaptar sovg`asi” (tamil xalq ertagi)da inson va kaptar taqdiri haqida gap boradi.

Kijavanning ahvoli og`ir, kimsasiz o`rmonda bir parcha nonga muhtoj bo`lib hayot kechiradi. Uning qushlar, hayvonlarning tilini bilishi, ular bilan xuddi insonlar bilan gaplashgandek suhbat qurishi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga xush yoqadi. Kichkintoylarning ham o`sha Kijavan kabi qushlar bilan, hayvonlar bilan suhbat qurgilari keladi. Kijavan sog`lom, to`q, tetik jonivor, qushlar bilan gaplashsa xo`p yayrab xursand bo`ladi. Ba`zi hollarda och, zaiflarning yurak dardlarini tinglab, ularga qo`shilib aziyat chekishi, ko`z yoshi to`kishi bolalarning qalblariga yaxshilik urug`ini sochadi, ular ham xuddi Kijavan kabi bo`lishga xavasmand bo`ladilar. Kijavanning majruh kaptarga g`amxo`rlik qilishi kichiktoylarga quvonch ulashadi:

Bir kuni Kijavan juda qattiq och qolibdi. Biror narsa tamaddi qilay desa, hech vaqosi yo`q. U o`ylab-o`ylab, oxiri tayoq olib, o`rmonga jo`nabdi. O`rmonni aylanib-aylanib, u erda hech narsa topolmay, uyiga qaytibdi. Yo`lda ketayotib:

- Menga yordam ber, - degan zaif bir tovushni eshitib qolibdi. Kijavan bunday qarasa, u erda bir kaptar yiqilib yotgan emish.

- Men ucholmayman, qutqargin, - deb yalinibdi u Kijavanga.

Kijavanning bechora kaptarga rahmi kelibdi. Uni yerdan avaylab ko`tarib olib, bag`riga bosganicha, yo`lida davom etibdi. Kapasiga kelib, qushni ehtiyotlik bilan yumshoq o`ringa yotqizibdi.

- Tuzalib ketguningcha menikida yashaysan. Hech narsadan qo`rqmagan, seni xafa qilishlariga yo`l qo`ymayman. Qo`limdan kelganicha senga yordam beraman. Lekin hozircha senga ovqat beray desam, uyda eydigan hech vaqo yo`q, - debdi xafa bo`lib Kijavan.

- Qayg`urma, - debdi kaptar uni tinchlantirib, - o`rmonda mango daraxti bor. Daraxt kavagining ichida guruch bor, borib ana shu guruchni olib kelgin.

Daraxt kavagining ichida guruch bilan birga oltin, kumush, olmos, dur va boshqa qimmatbaho toshlar yog`du sochib yotgan bo`ladi. Kijavan o`sha yerdan bir siqim guruchni oladi, xolos. “Bu toshlarni nima qillardim, axir o`zimni bezatish

niyatim yo`q-ku?” - deb ularga tegmaydi. Guruchni majruh kaptarga edirishidan kitobxon xursand bo`ladi. Saxiy, qo`li ochiq, ko`ngli to`q Kijavanga nisbatan bolalarning mehr-muhabbatlari oshadi. Kijavanga kaptarning uzuk sovg`a qilishi, uzuk oddiy emas, balki sehrli ekanligi, Kijavan nimaiki so`rasa uzuk uning istagini muhayyo qilishi ertak tinglovchini qoyil qoldiradi. Ularda yaxshilikka yaxshilik qaytar ekan-da, degan fikr paydo bo`ladi.

Qo`li ochiq bo`lish, saxiylik qilish, do`singa sodiqlik namunasini ko`rsatish bu davrda tinglaydigan ertaklarning katta qismini tashkil etishi kerak. «Tulki bilan turna» ertagiga nazar tashlaydigan bo`lsak, bu holning butunlay teskarisini ko`ramiz. Dunyoda tulki zotidek mug`ombir, pismiq, aldamchi, riyokor bo`lmasa kerak. Ko`p ertaklarda turna insonga yaqin yuradi, unga ko`maklashadi, yordam beradi, saxiylikda ibrat ko`rsatadi.

Ertakda tulki va turnaning bir-birlarini uylariga chaqirib mehmon qilishlari haqida gap boradi. Maqtanchoq, mug`ombir, ayyor tulki oddiy, sodda turnani uyiga chaqirib:

- Albatta kelgin, jonginam, albatta azizim, juda yaxshilab mehmon qilaman! – debdi.

Ba`zan yangi do`sning fe'l-atvori qanday ekanligini o`zi yaxshi bilmay yurakdag'i borini oshkor qiladigan bolalar kabi turna ham tulkiga ishonadi, chinakamga meni mehmon qilar ekan-da, degan o`y-xayol bilan uning uyiga mehmonga keladi. Va tulki shirguruch pishirib, turnaning oldiga taqsimchada qo`yadi. Uzun tumshug`i bilan taqsimchaga taq-tuq uradi, ammo hech narsa eya olmaydi. Ayyor tulki esa bir zumda shirguruchni o`zi eb bo`ladi.

Ertakda turnaga alam qiladigan joyi shuki tulki o`zi pishirgan taomni o`zi eb, yana xushomadgo`ylik qilib, - Aybga qo`shmaysan-da, jon do`stim! Yaxshilab mehmon qilishga boshqa narsa topa olmadim! deb surbetlik qilib turishi bolalarning qahr-g`azabini keltiradi. Ularni hayotda tulki kabi ochko`z, aldamchi bo`lmaslikka da'vat etadi.

Ertakda turnaning ham bo`sh kelmasligi, tulkini uyiga chorlab, mo`ndiga o`zi tayyorlagan ovqatni qo`yib, uni bir zumdayoq uzun tumshug`i bilan o`zi eb

qo`yishi kichkintoylarni xursand qiladi. Ularda qilmish-qidirmish, sen birovga nima qilsang, senga ham o`sha qilganing albatta, qaytib keladi, degan tushuncha hosil

Mashg`ulotni mustahkamlash uchun savollar:

1. Bolalar adabiyotida folklorning o`rni?
2. Xalq og`zaki ijodiga nimalar kiradi?
3. Alla -qo`sishiq deganda nimani tushunasiz?
4. Ertak janrini aytib bering?
5. Maqol, tez aytish, topishmoq to`g`risida nimalar bilasiz?

Mustaqil o`qish uchun tavsiya etiladigan asarlar:

- a. O`zbek xalq ertaklari.
- b. Algomish dostoni
- c. O`zbek bolalar folklori (afsonalar, qo`shiqlar, maqollar, topishmoqlar)
- d. Yusuf Xos Hojib “Qutadg`u bilig”.

Adabiyotlar:

2. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.
3. M.Jumaboyev. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo‘llanma. 1996 y.
4. Z. Masharipova T.Matyoqubova O‘zbek yozma adabiyotida folklor an’analari Toshkent – 2011
5. www. zyonet.uz. Bolalar adabiyoti-
6. Paul H. Fry. Theory of literature Yale University- 2012.

ALISHER NAVOIY VA GULXANIY IJODIDA TA’LIM-TARBIYA MASALALARI

Reja:

1. Alisher Navoiyning qisqacha tarjimai holi.
2. Alisher Navoiyning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy qarashlari.
3. Gulxaniy asarlarida odob-ahloq tushunchasi.
4. Gulxaniyning «Zarbulmasal»asaridagi masallari tahlili.
5. “Maymun bilan Najjor”, “Toshbaqa bilan Chayon”, “Tuya bilan Bo‘taloq”masallarida real hayot haqiqatini ifodalanishi.

Besh asrdan ortiq vaqt davomida Alisher Navoiy asarlarini xalqimiz qo`lyozma kitoblar (devonlar, bayozlar va tazkiralar)dan o`qib o`rgandi, shoir g`azallari negizida yaratilgan qo`shiqlar ham navoiyxonlikda ayricha ahamiyat kasb etdi. Maktablarda ham, madrasalarda, davra va suhbatlarda ham shoir asarlariga rag`bat tobora kuchaya bordi.

Xususan, XIX asrning so`nggi choragidan e`tiboran shoir asarlarini ko`p sonli adadlarda toshbosma (litografiya) va tipografiyalarda chop etish yo`lga quyilgach, bu jarayon yanada chuqurlasha va kengaya bordi. XX asrda Navoiy asarlarini o`qib-o`rganish o`rta va oliy maktab dasturlaridan keng o`rin oldi,

asrning oxirlariga borib esa, bog`chalar ta`limi doirasiga ham kiritila boshlandi. Shu zaylda turli yoshdagi kitobxonning o`z Navoiysi qad rostlaydigan bo`ldi. Shu ehtiyoj "Xamsa" dostonlarining, shuningdek, "Lison ut-tayr"va "Mahbub ul-qulub" asarlarining hozirgi adabiy tilda qayta aytilgan nasriy bayonlari va tabdillarini yaratishga, qolaversa, kichik yoshdagi bolalarga mo`ljallangani "Qiziq hikoyalar"(1991) nashrini amalga oshirishgacha olib keldi.

Buyuk gumanist bolalarga kelajak sohiblari sifatida qaradi, shunga ko`ra ularning tarbiyasiga alohida e`tibor berish zarurligini uqtirarkan, bu sohadagi axloqiy qarashlarini "Xamsa"dostonlarida, xususan, dastlabki uch dostoni- "Hayratul-abror" ("Yaxshilarning hayrati"), "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun"da, shuningdek, "Lison-ut-tayr" ("Kush tili"), "Mahbub ul-qulub" ("Qalb sevgilisi") hamda "Arbain hadis" ("Qirq hadis") kabi asarlarida olg`a surdi. Bu asarlar bolalar navoiyxonligida ayricha mavqe hosil qilib keldi.



Navoiy bolalar tarbiyasida axloqiy qarashlarning muhimligiga ham alohida ahamiyat berdi.Bu jihatdan "Xamsa"ning kirish dostoni sanaluvchi "Hayrat ul-abror" hamda eng so`nggi asari "Mahbubul-qulub" favqulodda qimmatga ega.

"Hayratul-abror" ("Yaxshilarning hayrati") dostoni 1488 yilda yozilgan bo`lib, 64 bobdan tarkib topgan. Jami 3988 bayt (7976 satr)dan iborat. Dostonning 21 bobi-muqaddima, 40 bobi-asosiy qismi bo`lib, 20 maqolot, 20 hikoya va masaldan tashkil topgan. So`nggi 3 bobi-xotimasidir.

Dostonning asosini 20 maqolot tashkil etadi, hikoya va masallar ularga ilovalar sanaladi. Dastlabki to`rt maqolot imon, islom, salotin va "riyoyi xirqapo`shlar suluki" haqida bo`lib, keyingi maqolotlarda axloqiy tushunchalar

xususida bahs etadi. Shoir olg`a surgan axloqiy-ta`limiy qarashlar silsilasida xulq-odobni, mehnatsevarlikni, saxovatpeshalikni, mehribonlik vaadolatpeshalikni, umuman, insonni sharafovchi ezgu fazilatlarni targ`ib etish va insonni tubanlashtiruvchi yaramas odad va xislatlarni shafqatsiz tanqid qilish yetakchi tamoyildir. Jumladan, beshinchini maqolatda karam xususida mulohaza yuritiladi. Unda saxiylik bilan baxillik bir-biriga qarshilantirilib, axloqiy mohiyatiga baho beriladi.

Shoir talqinicha, saxovat-olijanob insoniy fazilat, lekin uning o`ziga xos shartlari bor. Bular tubandagilar; a) saxovat ehtiyojga nisbatan beminnat bo`lganidagina joizdir; b) saxiylik deb to`kib sochish -isrofdir; v) kimdandir tama`girlik bilan saxovat kutish-haromdir.

To`qqizinchi maqolotda ishqni vasf etsa, o`ninchisi maqolotda rostgo`ylik va to`g`rilikdan bahs yuritadi. Bunda shoir xilma-xil o`xshatishlar vositasida rostgo`ylik va to`g`riliknint yolg`onchilik va egrilikdan afzallik xususiyatlarini ochib beradi. Nihoyat yolg`on so`zlashi tufayli ovchi tuzog`iga ilingan durroj (tustovuq) holatini bayon etuvchi "Sher bilan durroj" masalini keltiradi. Masalda keltirilishicha, bir beshada sher yashar, har gal bolalasa, chumolilar (mur) uning bolasini nobud qilaveridan yurak oldirib kuygandi. Shu sababli:

Tishlabon ul moyai payvandini

Og`zida asrar edi farzandini.1

Biroq shu "beshada" bir durroj ham yashar, hamisha sher vahmidan cho`chiyveridan qo`qqisdan: "fir eta" uchar, bundan shervachcha seskanib ketardi. Bu holdan sher g`am chekardi, Nihoyat sherning

Ko`ngli bu ishdin bo`lib ozorlik,

Boshladi durroj bila yorlik.

Va unga boshiga har qanaqa tashvish tushsa, ko`maklashmoqqa so`z berib, qo`qqisdan uchaverib, uning bolasini qo`qitmasligini shart qilib qo`ydi. Endi durroj uning yonida cho`chimay emin-erkin yashay boshlaydi. Hatto shu eminligiga ishonch hosil qilish uchun sherni sinamoqchi bo`lib, bir gal ovchi domiga tushdim deya faryod ko`tardi. Sher uni qutqarmoqqa borsa, faryod yolg`on

bo`lib chiqadi. Durroj bu harakatini bir necha bor takrorladi. Shu sababli sher unga ishonmay qo`ydi, Boshqa bir mahalda durroj chindan ham sayyod domiga tushadi. Bu gal u:

Qichqiribon dom aro ul mubtalo,
Necha dedi, tot meni tuttilo.
Sher kulogiga etib ul makol,
Savtini doyimgidek etti xayol.
Ko`p eshitib erdi bu yolg`onini,
O`yla gumon etti chin afg`onini.
Har necha kim rost fig`on ayladi,
Sidqini ham qkizb gumon ayladi.

Shu tarika, durroj o`z yolg`onining qurboni bo`ldi. Masaldan kelib chiqqan xulosa shu!

Alisher Navoiy ana shu axloqiy-ta`limiy qarashlarini butun hayoti va ijodiy faoliyatining sintezi bo`lgan "Mahbub ul-qulub" ("Qalb sevgilisi", 1500) asarida yanada chuqurlashtiradi. Bu asar ustozlari Shayx Sa`diyning "Guliston", "Buston" va Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston" singari didaktik bitiklari an`analaridan ijodiy ilhomlanib yozilgan bo`lib, tarkibiy jihatdan uch qismdan iborat:

Birinchi qismi "Xaloyiq ahvoli va atf`oli kayfiyatida" ("Kishilarning ahvoli, fe`l-atvori va gap-so`zlarining ahamiyati haqida") bo`lib, 40 fasldan tashkil topgan. Ularda jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalar hamda ularning ijtimoiy mavqeini tavsiflash etakchilik qiladi. Odil podsholar, beklar, nomunosib noyiblar (o`rnbosarlar), zolim podsholar, diyonatsiz sadrlar (mansabdorlar), maqtanchoqlar, yasovullar, lashkarlar, shayxul-islom, qozilar, qonunshunos muftilar, mudarrislar, tabiblar, mutasavvuflar (bularni nazm gulistonining xushovoz qushlari deb ataydi muallif), kotiblar, maktab ahli, mutrib va mug`anniylar, ashulachilar, qissaguylar, va`zxonlar, munajjimlar, savdogarlar, kosiblar, xalq amaliy san`ati ustalari, mirshablar, zindoniylar, qoravullar, dehqonlar, bezorilar, g`arib va bechoralar, gadoylar, qushchilar va ovchilar, uylanish va xotinlar, riyokor shayxlar, xarobot ahli-rindlar haqida bat afsil ma`lumotlar berarkan, feodal jamiyatga xos ijtimoiy

tabaqalanish xususiyatlarini ochadi. Bunday vaziyatda Navoiy o`z zamonasining ulkan jamiyatshunosi sifatida gavdalanadiki, u bergen ma`lumot XV asrdagi ijtimoiy munosabatlar tarixini o`rganishda hamon qimmathli manba sifatida xizmat qiladi.

Navoiy iqtidorli o`quvchilarni, olimlarni, kotiblarni, shoirlarni san`atkorlarni hurmat qilishga chorlaydi. Uningcha o`qish ham, o`qitish ham g`oyat mas`uliyatli ish, chunki beqiyos qunt, havas va g`ayratni talab etadi. Bolalarni savodli, bilimli qilish yo`lida o`qituvchi chekadigan zahmat ozmuncha emas. Binobarin, shogirdning burchi, garchi ustoz unga bir harf o`rgatgan esa-da, o`sha ustoz hurmatini joyiga qo`ymoqdan iborat. Shogird ustozni umr bo`yi izzat qilmog`i, unutmasligi lozim:

Haq yo`lida kim senga bir harf o`qitmish ranj ila,
Aylamak bo`lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Asarning ikkinchi qismi "Hamida af`ol va zamima hisol xosiyatida" ("Yaxshi fe`llar va xislatlar to`g`risida") tarzida nomlangan va u o`n bobdan iborat bo`lib, axloqiy masalalarga bag`ishlangan. Unda inson axloqi yaxshi fe`llar va yomon xislatlarga bo`lingan holda talqin qilinadi. Yaxshi fe`llar silsilasida tavba, qanoat, sabr, tavoze` va odob, ishq tavsiflanadi, ularning mohiyatini ochish niyatida kichik-kichik tamsiliy voqealar keltirilib, inson kamolotidagi ahamiyati ko`rsatiladi.

Asarning uchinchi qismi "Mutafarriqa favoyid va amsol surati" ("Turli foydali maslahatlar va maqollar") tarzida nomlangan bo`lib, 118 tanbihdan tashkil topgan. "O`zbek tilining izohli lug`ati"da "tanbih," arabcha so`z bo`lib, "nojo`ya xatti-harakat uchun beriladigan ta`zir, koyish, ogohlantirish yoki jazo" (II t.,116-6.) tarzida izohlansa-da, Navoiyda u hikmat ma`nosida qo`llangan. Zero, ularda Navoiy umr bo`yi kuzatgan hayotiy tajribalarini lo`nda, qisqa va obrazli qilib, aforistik darajada ifoda etgan. S.G`anieva to`g`ri qayd etganidek, bu tanbihlarda "odam va odamiylik haqida, chin insoniy fazilatlar to`g`risida asrlar mobaynida xalq tajribasi va bilimining qaymog`i sifatida yig`ilgan fikrlar, shuningdek, Navoiyning uzoq hamda murakkab hayot tajribalarining natijalari, xulosalari

keltirilgandir. Navoiyning o`zi qayta-qayta takrorlagan "oz so`z-soz so`z" hikmatiga to`la rioya qiladi va hech qanday mubolag`asiz aytish mumkinki, deyarli xar bir jumla ta`kid va tanbih aforistik xarakterga ega bo`lgan hikmat va donolik namunalarini yaratadi."

"Navoiy aforizmlari" nomi ostida ular alohida terilib, 1947-yilda Hodi Zarif va 1961- yilda Y.Eshonqulovlar tomonidan kitobchalar shaklida nashr etilishi bejiz emas.

"O`ziga bino qo`ygan odam-aqlsizdir; o`ziga zeb bergen-beor, satangdir." "Eshitmoq-kishini boyitadi; ko`p gapirmoq-sayozlatadi, ko`p gapirgan-ko`p yanglishadi. Ko`p yegan-ko`p yiqiladi. Tan kasalining asosi-ko`p yemakdir, qalb kasalining-sababi ko`p demakdir. Ko`p demak-so`zga mag`rurlik, ko`p yemak-nafsga bandalikdir". "Takabburlik-shayton ishi va manmanlik-nodon ishi." "Xudparastlikdan butparastlik yaxshiroqdir." "Insoniyat bog`ining eng go`zal daraxti-ehsondir va odamiylik xazinasining eng bebafo gavhari xam ehsondir." "Saxovatsiz odam-yog`insiz bahor bulutiga va hidi yo`q mushk-anbarga o`xshaydi." "Himmat ahlining ixtisos-saxovatdir." "Himmatsiz kishi-er sonida emas," Oliyhimmat odam-balandparvoz lochindir; behimmat-sichqon ovlovchi kalxatdir." "Himmat egasi-qashshoq bo`lsa ham tubanlik qilmas; Himmatsiz odam-xazina topsa ham buyuklarga teng bo`lmas." "Yaxshiliklarni topmoq-edirmoqdir; ayblarni yashirmoq-kiydirmoqdir." "Aytur so`zni ayt, aytmas so`zdan qayt."

Bular shoirning avlodlarga qaratilgan o`gitlarigina emas, balki barhayot da`vatlari bo`lib, zamonlar osha navqiron naslni komillik sari undab kelmoqda.

Buyuk mutafakkir ana shunday o`lmas g`oyalar bilan kishilikning yangi-yangi avlodlari qalbiga yo`l topib, mangulik kasb etib kelmoqda.

Gulxaniy XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlaridan boshlab ijod etgan va bu davr o`zbek adabiyotida o`ziga xos o`rin tutgan yozuvchilardan biridir. Uning asl-ismi-sharifi Muhammad sharif bo`lib, Gulxaniy esa uning adabiy talaxxusidir. Taxminlarga ko`ra XVIII asrning 70-yillarida hozirgi Xo`jand viloyatining Darvoza qishlog`ida dunyoga keladi.

U o‘z ilmini oshirish maqsadida avval Namangan va so‘ngra Farg‘onaga keldi, qiziqchiligi, hozirjavobligi va hajviy she’rlari bilan kishilar o‘rtasida tanila boshlaydi. Ayniqsa, g‘ariblik turkumidagi ruboiy va to‘rtliklari bilan el og‘ziga tushadi. Shoir keyinchalik Qo‘qonga keladi va bu erda ko‘p qiyinchiliklar bilan yashaydi. Tirikchilik o‘tkazish uchun hammomda o‘t yoquvchi bo‘lib ishlaydi.

«Zarbulmasal» xalq ertaklari taxlitida yozilgan mukammal mazmunli o‘tkir saritik asardir.

Gulxaniy o‘zining bu asarida xalqning mazmundor maqollari, hikmatli so‘zları va qoririq gaplaridan mohirlik bilan foydalanadi. U hukmdorlar va ularning laganbardorlarini, saroy ahlining yaramas kirdikorlarini majoz yo‘li bilan o‘tkir satira ostiga oladi. Chunki u mehnatkash xalqning og‘ir, mashaqqatli hayotini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi, saroy bazmlari, keti uzilmas mayparastliklar, xalqni talash hisobiga bo‘lishini payqadi va bunday salbiy ishlar uning ko‘zini ochdi. Natijada unda saroy aristokratiyasiga nasbatan nafrat hissi tabora oshib bordi. Ammo shoir, shariatga ko‘ra, hukmron doiralardan noroziligin va nafratini ochiq-oydin ifodalay olmas edi. Shuning uchun majoziy shakldagi «Zarbulmasal» asarini yozishga kirishdi. Asarda shoirning maqsadi, hayotga, uni o‘rab olgan muhitga, hokim tabaqalarga bo‘lgan munosabati to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda etilmay, balki hayvonlar, qushlar va shunga o‘xhash majoziy obrazlarning tasviri orqali ifodalanadi. Shoir shu zaylda o‘zi yashagan zamon uchun aniq va xarakterli voqeahodisalarni, ularga o‘zining munosabatini, qarashlarini tasvirlaydi.

Muallif o‘z masalalarida majlziy obrazlar orqali o‘sha davrda hukmron sinf vakillarini fosh qiladi, mamlakatga xarobalik, xalqqa qashshoqlik keltirgan o‘zaro urushlarga qarshi ommaning noroziligin ifodalaydi.

Gulxaniy o‘z zamonasida sodir bo‘layotgan talon-taroj, xalqni qiynash, ortiqcha soliqlar solish kabi voqealarni ochiqdan-ochiq yoza olmas edi. U buni faqat ertak yo‘li bilan amalga oshirish mumkin ekanligini tushunadi.

Muhammad Sharif Gulxaniy XIX asrning birinchi yarmi Qo‘qon adabiy muhitida masal–tamsil janrida xalqchil asar yaratishga muvaffaq bo‘lgan shoirdir. Uning hayoti va ijodiga oid tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, Gulxaniy tabiatan

umor va hajvga usta, xalq urf-odatlari va til boyliklarini, maqol, matal, naql va rivoyatlarni chuqur biladigan ijodkordir. U fors-tojikcha g‘azallarida Jur’at taxallusini qo‘llagan bo‘lsa, o‘zbek kitobxonlariga Gulxaniy taxallusi bilan mashhur. Gulxaniy – olovqalb, majnunsifat ma’nolarini bildiradi. Gulxaniyning eng muhim ijodiy fazilati shundaki, u XIX asr folkloristi sifatida o‘zbek xalqining donishmandligini ifoda etgan masallar, maqollarni to‘plab, o‘zining mashhur “Zarbulmasal” asarini yaratgan. Shoir uni yaratishda xalq og‘zaki ijodi bilan birga, buyuk hind masali “Kalila va Dimna”dan, Firdavsiy, Jomiy, Hofiz Sheraziy, Shayx Sa’diy, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlar asarlari an’analaridan keng foydalangan. Chindan ham jahon adabiyoti xazinasining noyob durdonasi sanalmish “Kalila va Dimna” qadimgi hind folklori zaminida vujudga kelgan. Uni xind podshohi Dobshalim uchun faylasuf *Beydabo* yozganligi naql qilinadi. Jumladan, kitob muqaddimasigi ayrim fikrlar e’tirofga loyiq: “Har bir xalqning olim va faylasuflari qanday vositalar bilan bo‘lmasin, o‘z orzu va istaklarini amalga oshirmoq, mavjud tartibni intizomga solmoq uchun hamisha fikr yuritganlar, har xil tadbirlar ila ish ko‘rmoqchi bo‘lganlar, bu haqda har xil asarlar yozmoqqa intilganlar. Shulardan biri qushlarning va yovvoyi, yirtqich hayvonlarning tilidan yozilgan, g‘oyat chuqur ma’noli, nafis ramz va muammolarga to‘la ushbu kitobdir... Olimlar bu yo‘lni tanlab zo‘r imtiyozga ega bo‘lganlar: avvalo, bu bilan ular xohlagan so‘zlarini aytib, har bir bobni orzu qilganlari darajada bezash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Buning ustiga, ular shu yo‘l bilan nasihat, hikmat, latifa va hazil-mutoyiba javohirlarini bir-biriga qo‘sghanlar, toki dono odamlar bu kitobni mutolaa qilib, foydalansinlar, nodon odamlar esa, uni afsona deb o‘qisinlar.

Yosh shogirdlar esa, savodli bo‘lmoq, ilm orttirmoq, naql aytmoq maqsadida bu kitobda yozilganlarni osonlik bilan yodlarida saqlab qolgusidirlar. Katta bo‘lib, aql va tajriba egasi bo‘lganlarida, yodlab olgan va esda saqlab qolgan naqlar ustida fikr yuritib, ularni tushunganlarida dillari naqadar foydali hikmatlar bilan to‘lganligini ko‘radilar va o‘zlari kutmagan ulkan boylikka, bitmas-tuganmas xazinaga ega bo‘lganlarini biladilar. Bolalarning xursandligi katta bo‘lganda

otasidan meros bo‘lib qolgan xazinani topgan va shu tufayli umrining oxiriga qadar qiyinchilik ko‘rmasdan yashay olishini bilgan odamning sevinchiga o‘xshaydi.”²

Ta’kidlangan jumlalarni Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari haqida ham aytish mumkin. Bu esa asarning yosh kitobxonlar uchun g‘oyat muhimligini asoslaydi. Gulxaniy ham Yapaloqqush va Ko‘rqush suhbatida ayrim hikoyatlar bayonini “Kalila va Dimna”nadan topmoq joizligini ta’kidlaydi.³ “Zarbulmasal” Umarxonning amri, istagi bilan yozilganligi, u xalq orasida keng tarqalgan zarbulmasallarni – xalq maqollarini yig‘ib, kitob holiga keltirish lozimligini aytgani hamda Gulxaniy shu nozik xizmatga loyiq, deb topilgani nazarda tutilsa, mazkur asarlarning maqsad-mohiyati juda yaqinligi oydinlashadi.

“Zarbulmasal” so‘zi “zarb” va “masal” so‘zlarining qo‘shilmasidan iborat bo‘lib, adabiy atama sifatida masal, maqol, matal keltirib so‘zlamoqlikni anglatadi. Zero, undagi pandnamo hikoyatlar, xususan, majoziylik, qushlar, hayvonlar tilidan so‘zlash, “Tuya bilan bo‘taloq”, “Maymun bilan najor”, “Toshbaqa va chayon”, “Bozanda va Navozanda” kabi bir qancha masallar hamda xalq maqollarining keltirilishi bilan ham yuqorida zikr qilingan asardan ijodiy ilhomlanib yozilganligini tasdiqlaydi. Ammo, aytish joizki, “Kalila va Dimna” turli mavzudagi hikoyatlar zamirida qurilgan pand-u hikmatlardan iborat, voqealar bayoni, hikmat va maqollar ifodasi ham mumtoz adabiyotga xos yashirin, majozlar tilida so‘zlashdan iborat. Undagi masallar garchi turli parranrdalar, qushlar va yirtqich hayvonlar o‘rtasidagi munozaralar, munosabatlar orqali hikoya qilinsa-da, yuksak andisha, falsafiy va purhikmat o‘gitlar ustuvorlik qiladi. Gulxaniy esa feodal jamiyatining kishisi sifatida o‘tkir satiraga keng o‘rin bergan. Binobarin, “Zarbulmasal” majoz asosiga qurilgan qissa bo‘lib, unda turmush voqeа-hodisalari, turli ijtimoiy toifaga mansub kishilarning fe’l-atvorlari, bir-biriga munosabatlari qushlar, hayvonlar tilida bayon qilinadi. Muhimi, asarda xalq maqollari va naqllari (400 dan ortiq) keng o‘ringa ega. Undagi asosiy voqeа-hodisalar qushlar–

² Kalila va Dimna. S.G`aniyeva tarj. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1992. –B.38.

³ Bu haqda qarang: Gulxaniy. Zarbulmasal. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2009. –B.8

hayvonlar timsollari orqali ifodalanganligi, bosh qoliplovchi hikoya boyo‘g‘li va Yapaloqqush hikoyasi bilan bog‘lanib ketuvchi katta-kichik masal-hikoyalari ham keltirilganligi uchun adib uni “Zarbulmasal” deb nomlagan. Qushlar obrazlari asarning asosiy mazmunini belgilaydi, hayvon-hasharot va kishi obrazlari qushlarning o‘zaro suhbatlarida, ular tomonidan keltirilgan naql-u rivoyatlarda namoyon bo‘ladi.

Asar sujetidagi voqealar xalq ertaklariga monand yozilgan: Yapaloqqush o‘g‘li Kulonkir sultonni uylantirish maqsadida o‘z yaqini Ko‘rqushni Boyqush huzuriga sovchilikka yuboradi. Boyo‘g‘lining nihoyatda go‘zal, quyosh yanglig‘ Gunashbonu ismli qizi bor edi. Yapaloqqushning har qancha qalin bo‘lsa topilur deya o‘z tarafidan sovchilikka borishga unaganida, Ko‘rqush quyidagi maqollar orqali unga gap uqtirmoqchi bo‘ladi: “Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur”, “Yolg‘on masal turmas”, “Uyat o‘limdan qattiq”, ”Ermon yog‘ochining egilgani–singani, er yigitning uyalgani – o‘lgani”, “Oyoq yugurigi oshqa, og‘iz yugurigi boshqa...” Sen kim, Boyo‘g‘lining eshigiga kishi yubormoq kim? Hech bilmasmusenki, “Teng tengi birla, tezak qopi birla”. Yapaloqqush: “Andin bizning nima kamligimiz bor?”, –deganda esa Ko‘rqush: “Maqtangan qiz to‘yda uyalur”, “O‘zini maqtag‘on o‘lumning qarovuli”. Sening ahvoling olamg‘a ma’lumdir. “Oyni etak birla yashirsa bo‘lurmi?”, “Chumchuq semursa, botmon bo‘lurmi?”, “Olako‘zanak ola bo‘lsa ham, arslon bo‘lmas, olato‘g‘anoq olg‘ur bo‘lsa ham, ahvoli ma’lum” kabi.

Ana shunday maqolli aytishuvlar, “sovchi”ning yo‘ldagi hamsuhbatlari orasidagi masallar hikoyasi, bir-ikki bordi-keldidan so‘ng ming xaroba–chaldevor(chordevor) qalin badaliga Boyo‘g‘li rozilik beradi. Yapaloqqush shonu shavkat bilan to‘y anjomlarini keltiradi, o‘sha davrdagi quda-andachilikka xos hamma rasm-rusumlar, milliy odatlar bajo keltirilib, to‘y marosimlari o‘tkaziladi. Bu marosimlarda ikki tomondan juda ko‘p qushlar–Ko‘rqush, Hudhud, Turumtoy, Kordon, Bozanda, Navozanda, Anqo, Humo, Ukob, Lochin, Oqqush, Turna, G‘oz, O‘rdak, Suqsur, Kaklik, Bedana, Olato‘g‘anoq, Zarqaldoq kabilar qatnashadi va har biri o‘ziga yarasha xizmatni ado etadilar. Farg‘ona iqlimida xarobalar kam

bo‘lganligi uchun Mavorounnahr iqlimidan (Buxoro amirligi) 1000 chordevor topishib, kelin Gunashbonu mahriga to‘laydilar.

Ko‘rinadiki, Gulxaniy asarda aniq makon (Ho‘qand, Buxoro) va zamon (XIX asr), hayotiy voqelik (feodal jamiyatidagi notenglik)ni hamda xalq an’analarining yaxshi-yomon qirralarini majoz va kinoya, so‘z o‘yinlari, kesatiqlar orqali bayon etadi. Garchi unda o‘z yurti (Qo‘qon) va uning xoni (Umarxon)ga sodiqlik, u boshqarayotgan yurtning boshqa hududlardan ko‘ra obodroq ekanligiga ishora etilsa-da, Xolboqi misgar, Yodgor po‘stindo‘z, Muhammad Amin mufti, Otaboy amin, Sayid Azimxon, eshon kalla haqidagi hajviy-rivoyaviy epizodlarni ochiq-oydin keltiradi.

Muallif o‘z masallaridan majoziy obrazlar orqali hukmron sinf vakillarini fosh qiladi, mamlakatga xarobalik, xalqqa qashshoqlik keltirgan o‘zaro feodal urushlarga qarshi ommaning noroziliginu ifodalaydi. Shuning uchun Yapaloqqush va Boyo‘g‘lining bir-biriga quda bo‘lishi voqeasini keltiradi. Bu ikki quda to‘y bahonasi bilan mamlakatni xonavayron qiladi. Yozuvchi Ko‘rqush, Hudhud, Kulonkirsulton, Sho‘ranul, Malik Shohim va Kordonlarning bir-birlariga aytgan masallari, hikoyalari orqali asarning g‘oyaviy mazmunini ravshanlashtiradi. Gulxaniy “Maymun bilan najor” masalida hunar va hunar ahlini ulug‘laydi, qo‘lingdan kelmaydigan ishga aslo urinib kulgi bo‘lma, ko‘r-ko‘rona birovga taqlid qilib falokatga yo‘liqma, degan fikrni maymun qismati orqali ko‘rsatadi. Bu masal axloqiy tarbiyaviy mavzuda bo‘lib, ishning mohiyatini bilmay, pala-partish kirishuvchi va oxirida o‘zi sharmanda bo‘lib qoluvchi kishilarga o‘git-nasihat tarzida keltirilgan.

Mehnatkash xalqning og‘ir hayoti va mehnati, huquqsizligi va nochorligi, ayanchli qismati esa “Tuya bilan bo‘taloq”da badiiy tasvirlangan. Gulxaniy bu masalda Sarbon, Tuya va Bo‘taloq orqali xususan, o‘zi yashayotgan jamiyatdagi tengsizlikni, uning og‘ir mashaqqatlarini bayon qiladi. Chunki, xalq uchun “tirikchilik toshdan qattiq”, Sarbon o‘z g‘amida, tuya og‘ir yuk ostida, Bo‘taloq esa ona sutidan mahrum. Gulxaniyning “Toshbaqa bilan chayon” masalida esa bir-biriga zid va qarama-qarshi ikki obraz berilgan: toshbaqa-aqlii, farosatli,

safarlarda ko‘p yurib, ancha tajriba orttirgan, insofli, sodiq va qadrdon do‘st timsoli, chayon esa uning ziddi. U boshqalarga yomonlik qilishdan huzur qiladi, yaxshilikni bilmaydigan kimsalarning ramziy obrazidir. Gulxaniy qissadan hissa chiqarib, kishilarni hushyorlikka odamoxunlikka undab: “Aslning xatosi bo‘lmas, nojinsning oshnosи bo‘lmas”, “Bo‘ynida illati borning oyog‘i qaltiraydi”, –degan maqollarni keltiradi. “Zarbulmasal” majoz va masallar, xalqning jonli iboralari asosiga qurilgan asar. Undagi she’riy va nasriy matnlar turli badiiy san’atlar vositasida ta’sirchan ifoda etilgan.

“Zarbulmasal” ham “so‘z matosi qadim o‘tmishda to‘qilgani, ranginkamon rishtalari butun yer yuzini, go‘zal so‘z gilamlari bilan burkab chiqqan” yodgorliklarga monandligi jihatidan, nafaqat kattalar, balki bolalar ham zo‘r qiziqish bilan o‘qib kelayotganligi uning bolalar kitobxonligidagi muhim o‘rnini belgilaydi. Umuman, asarda zarb, zarblast usulidan foydalanilgani uchun nomi “Zarbulmasal” hisoblangan. Unda 400 dan ortiq maqol va iboralar singdirilgan. Asar tarkibida quyidagi masallar bor: “Toshbaqa bilan chayon”, “Tuya bilan bo‘taloq”, “Maymun bilan Najjor”, “Kabutar bilan zog”, “Yodgor po‘stindo‘z”, “Dumsiz eshak”, “Yolg‘onchi tuya”. Asardagi masallarning jami 15 dan ortiq.

“Zarbulmasal” xalq orasida “Yapaloqqush hikoyasi” ham deyiladi.

Maymun bilan Najjor (Nasriy bayoni)

Kashmir o‘lkasida go‘zal, dov-daraxti ko‘p, sermeva, xushbo‘y gullari, rohatijon suvlari serob bir tog‘ bo‘lardi. Shu yerda Maymun iste‘qomat qilardi. Kunlarning birida o‘z hunarini yaxshi bilgan, mohir duradgor shahar azoblaridan qutulib, yog‘och izlab shu toqqa keladi. Bir yog‘ochni kesib, pona qoqib, unutib qoldirgan teshasini olib kelishga jo‘naydi. Buni kuzatib o‘tirgan Maymun duradgorga g‘avasi kelib tezda u kesgan yog‘ochning ustiga chiqib olib, uning ishini davom ettirmoqi bo‘ladi. Dumi yog‘och yorig‘iga kirib qolib dumidan ajraladi.

Najjor juda aqlli va mohir hunarmand. U «shaharning zindonidan ozod bo‘lib» toqqa chiqadi. Tog‘ni sevib qoladi. »Tog‘ning Shiriniga Farhod“ bo‘lib qoladi. Gulxaniy uning mehnati va mehnatdagi mahoratini ulug‘laydi. Shu yo‘l

bilan asarda hunarni va hunar ahlini kuylash va ulug‘lash, kishilarni hunar o‘rganishga chaqirish kabi muhim g‘oyani ilgari suradi. Maymun nihoyatda kaltafahm, u aql-farosatini ilatmagani tufayli dumi yog‘och orasiga qisilib qolib, dumidan ayrıldi.

Savollar:

1. Alisher Navoiyning bolaligi, o‘qishi to‘g‘risida tushuncha bering?
2. «Xamsa» dostoni haqida nima bilasiz?
3. Navoiyning odob-axloq haqidagi asarlari?
4. Alisher Navoiyning bolaligi, o‘qishi to‘g‘risida tushuncha bering?
5. «Xamsa» dostoni haqida nima bilasiz?
6. Navoiyning odob-axloq haqidagi asarlari?
7. Gulxaniyning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
8. «Zarbulmasal»dan kutilgan maqsad nima?
9. Gulxaniyning qanday masallarini bilasiz?
- 10.“Zarbulmasal” xalq orasida qanday nom olgan?

Mustaqil o`qish uchun tavsiya etiladigan asarlar:

- 1.“Toshbaqa bilan chayon”,
- 2.“Tuya bilan bo‘taloq”,
- 3.“Maymun bilan Najjor”,
4. “Kabutar bilan zog“”,
- 5.“Yodgor po‘stindo‘z”
6. “Yolg‘onchi tuya”.

Adabiyotlar:

1. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.
2. M.Jumaboyev. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo‘llanma. 1996 y.
3. Z. Masharipova T.Matyoqubova O‘zbek yozma adabiyotida folklor an’analari Toshkent – 2011
4. www. zyonet.uz. Bolalar adabiyoti-
5. Paul H. Fry. Theory of literature Yale University- 2012

II BO`LIM. O‘ZBEK BOLALAR ADABIYOTINING VUJUDGA KELISHI VA UNING IJODKORLARI FAOLIYATI

**O‘zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi. O‘tgan asrning 30-40 -
yillaridagi o‘zbek bolalar adabiyoti. Hozirgi davrdagi o‘zbek bolalar
adabiyoti**

Reja:

1. O‘zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi.
2. O‘tgan asrning 30-40–yillaridagi o‘zbek bolalar adabiyoti.
3. Hozirgi davrdagi o‘zbek bolalar adabiyoti.

Boy va rang-barang xalq og‘zaki ijodi namunalari yozma adabiyotning maydonga kelishi va rivojlanishida boy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu yerda yana bir narsani ta’kidlab o‘tish kerak: badiiy adabiyot taraqqiyoti jamiyatning umumiyligi taraqqiyoti bilan ham uzviy bog‘liq. Bu jihatdan Mahmud Koshg‘ariyning «Devon-u lug‘otit turk» asarini eslab o‘tish o‘rinlidir. XI asrning buyuk tilshunos olimi bu kitobda bizga ko‘pma’lumotlar beradi. Unda XI asr adabiyoti bilan birga, avvalgi zamonlarda paydo bo‘lib, og‘izdan og‘izga, avloddan avlodga ko‘chib yurgan qo‘sish va lirik she’rlardan namunalar ham keltirilgan. Ayniqsa, mehnat,

qahramonlik, marosim, mavsum qo'shiqlari haqida bat afsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» (Saodatga olib boruvchi bilim), Ahmad Yugnakiyning «Hibat- ul-haqoyiq» (Sevimli haqiqatlar) dostonlarida hamda Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy-larning asarlarida til, ilm, fan, axloq-odob masalalari qamrab olinadi. Haydar Xorazmiy, Qutb, Durbek, Sakkokiy, Lutfiy singari shoirlarning adolatsizlik va zulmni qoralashga, oddiy insonning og'ir ahvoliga achinish, orzu-armonlarini qisman bo'lsa-da yoritishga qaratilgan asarlari tarixda muhim rol o'ynaydi. Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy g'azallari timsolida XIII asr o'zbek she'riyati hayotiy voqealarni aks ettirish sohasida katta badiiy tajriba to'pladi. Bu tajriba Alisher Navoiydek buyuk san'atkorning voyaga yetishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni tayyorladi.

Alisher Navoiy butun faoliyati va ijodini insonning baxt-saodati uchun kurashga, xalqning osoyishtaligiga, o'zaro urushlarning oldini olishga, obodonchilik ishlariga sarflagan, donishmand davlat arbobi, o'zbek adabiy tiliga asos solgan va o'zbek mumtoz adabiyotini yangi taraqqiyot pog'onasiga ko'targan buyuk so'z san'atkori bo'lib, davrining madaniy hayotiga rahbarlik qildi, ilm-fan, san'at va adabiyot ahliga homiylik qilib, ko'plab shogirdlar yetishtirdi.

Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) dostonining 40- bobida rostgo'ylikning ajoyib fazilat ekanligini maqtab yozadi: "Har kim o'ziga to'g'rilik (halollik)ni odat qilgandan keyin charxning teskari aylangani bilan nima ishi bor. Yo'l qancha to'g'ri bo'lsa, (manzil) shuncha yaqin. Nayza to'g'ri bo'lganidan doim boshi yuqori. Arqon har narsaga chirmashgani uchun mol, qo'ylarni bog'laydi. Sarvning qomati to'g'ri bo'lgani uchun xazon kulfatidan omonda va doimo yam-yashil... kimning qo'li egri bo'lsa, u o'g'ri bo'ladi".

Bugungi o'zbek bolalar adabiyoti yildan yilga rivojlanib bordi. O'tgan asrning 30-yillarga kelib, o'zining professional shoir va yozuvchilariga ega bo'ldi. Poeziya (Zafar Diyor, Adham Rahmat, Ilyos Muslim, SHukur Sa'dulla, Sulton Jo'ra, Mahmuda Oqilova, Quddus Muhammadiy), proza (Majid Fayziy, Dorjiya Oppoqova, Hakim Nazir), dramaturgiya (Zafar Diyor, Dorjiya Oppoqova)

sohalarida bolalar ijodkorlari yetishib chiqdilar. Sadriddin Ayniy, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Oybek, SHokir Sulaymon, Elbek va G‘ayratiyalar ham o‘zbek bolalar adabiyotini yuksaltirish ishiga o‘z hissalarini qo‘shdilar.

Bu davrda Zafar Diyorning «Qo‘shiqlar» (1933), «Tantana» (1936), «SHe’rlar» (1939), «Muborak» (1940), «SHe’r va hikoyalari» (1940) to‘plamlari va «Mashinist» (1935) poemasi, «Baxtli yoshlik» dramasi, «Jo‘natish», «Nojo‘yaliklar» hikoyalari; A. Rahmatning «Dum» (1938), «Baxtli yoshlik» (1939), «Zavqli allalar» (1940), «SHe’rlar» (1940), «Hiylagar tulki» (1940) kitoblari; Sulton Jo‘raning «Fidokor» (1940); Ilyos Muslimning „O‘suv» (1932), «Zaharxandalar» (1932) to‘plamlari, «Miqti keldi» poemasi (1934); SHukur Sa’dullaning «Hayqiriq» (1933) to‘plamlari bosilib chiqdi.

Bu davrda qardosh xalqlar adabiyotidan juda ko‘plab asarlar o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Buning natijasida o‘zbek bolalar adabiyoti har tomonlama boyib bordi. Ayniqsa, «Yosh turkistonliklar», «Bolalar yo‘ldoshi», «Bolalar dunyosi», „O‘zgaruvchi bolalar», «Yosh kuch» kabi nashrlarning yo‘lga qo‘yilishi bolalar adabiyotining har tomonlama rivojlanishiga sabab bo‘ldi.

Xullas, bolalar adabiyotining mavzu doirasi kengaya bordi. Yoshlik, maktab hayoti, ona yurt tabiatni, xalqlar do‘stligi, ilm, hunar va texnikaga muhabbat mavzulari bolalar adabiyotidan keng o‘rin oldi.

Xalqimizda «Ona yurting omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas», degan naql bor. Ikkinci jahon urushi yillarida Oybek, Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Sobir Abdulla, Uyg‘un, Maqsud SHayxzoda, Zafar Diyor, Amin Umariy, G‘ayratiy, Mirtemir, Ilyos Muslim, Sulton Jo‘ra va boshqalar fashist bosqinchilarining yer bilan yakson bo‘lishiga komil ishonch g‘oyasi bilan yo‘g‘rilgan asarlar yaratdilar. Uyg‘unning «Xayrlashuv», Zafar Diyorning «Kichkina jangchi», Ilyos Muslimning «Yovni tutday to‘kamiz», Sulton Jo‘raning «Tekstil kombinati to‘quvchilar», Ra’no Uzoqovaning «Talpin, yurak» she’rlari bolalar adabiyotida urushni la’natlovchi dastlabki asarlardan bo‘ldi.

Bu davr bolalar adabiyotining asosiy mavzusini urush davridagi xalq qahramonlarining fashist bosqinchilariga qarshi jasoratlarga to‘la kurashi «Xat»

(Hamid Olimjon), «Sen yetim emassan» (G‘afur G‘ulom), «Vatan haqida», «Yigitlarga» (Oybek), «Kurash nechun?», «Kapitan Gastello» (Maqsud SHayxzoda), «Vatan haqida qo‘sishiq» (Uyg‘un), «Vatan», «CHavandoz» (Temir Fattoh), «Qurol bering menga ham!», «Bizning oila» (Zafar Diyor), «To‘pchi Muhammad» (Sulton Jo‘ra), «Onamning aytganlari» (Adham Rahmat), «Biz yengamiz» (Hasan Said) kabi asarlarda o‘z ifodasini topdi.

Zafar Diyor yaratgan qahramonlar yosh bo‘lishiga qaramay juda qasoskor. Ular tinchlik, osoyishtalik shaydolari, nemis-fashist bosqinchilarini qattiq qahrg‘azab bilan la’natlaydilar.

Nemis-fashist bosqinchilari barcha qatori yosh bolalarning ham osuda hayotini buzdi. Ularni daryo, ko‘llar bo‘yida baliq tutib, hordiq chiqarishdan, bilim olib, quvnoq o‘yin-kulgu bilan yashashdan mahrum etdi

Urush davri bolalar adabiyotida front orqasini mustahkamlash ishi ham alohida mavzu bo‘lib qolgan edi. Zafar Diyorning «Maktab — sening fronting», «Poezd ketar frontga», «Temirchilar minbari», SHukur Sa’dullaning «Yoshlik», «Sen nima qilding?» kabi asarlarida bolalarning front orqasini mustahkamlashdagi jangovar mehnatlari namoyon bo‘ladi.

Urushdan so‘nggi davr bolalar she’riyatida ona-Vatan, go‘zal diyor, hur o‘lkamiz to‘g‘risida yaratilgan asarlar diqqatga sazovordir. «Yashna, Vatan» (I. Muslim), «Obod o‘lkam», «Yurtimizning yuragi» (P. Mo‘min), «Mening Vatanim», «Baxtli bolalar» (Q. Hikmat), «O‘lkamizning tongi otmoqda» (A. Rahmat), «Dehqon bobo va o‘n ikki bolakay qissasi» (A. Oripov), «Ona degan so‘z» (O. Matjon) kabi bu mavzuda yaratilgan she’rlarni sanagan bilan tamom bo‘lmaydi.

Abdulla Oripovning «Dehqon bobo va o‘n ikki bolakay qissasi» she’ri bolalar adabiyotining keyingi yillarda qo‘lga kiritgan jiddiy yutuqlaridan bo‘ldi. O‘zbek bolalar she’riyatida O‘zbekiston haqida ko‘plab asarlar bor. A. Oripov ularni takrorlamasdan o‘ziga xos original asar yozgan. SHe’r qahramonlari o‘n ikki viloyatdan chiqqan a’lochi, jamoatchi o‘quvchi bolalar. Ular o‘z joylarining tarixini yaxshi bilishadi. Poezdda o‘zlariga hamroh bo‘lgan boboning savollariga lo‘nda-

lo'nda qilib javob berishadi. O'zbekistondagi har bir viloyatning o'ziga xos boyligi, shaharlari, bag'rikeng odamlari kitobxon ko'z o'ngida bir-bir gavdalanadi.

O'zaro suhbat asosiga qurilgan bu she'rda boboning yakuniy nutqi juda salmoqli. To'rt misra she'r bilan tobora gullab-yashnab borayotgan, o'z taqdirini o'zi bunyod etayotgan diyorimizning husni jamoli, salobati va qudrati bir butunligicha ifoda etilgan:

O'zbek xalqi avvaldan mehnatkash xalq. Ishchanlik bizga ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan. Q. Muhammadiyning «Etik», «Buvimning hikoyasi», H. Yoqubovning «Sirdaryo oftobi», SHukur Sa'dullaning «Hovlimizning bolalari», «Dastyor qiz», «Bog'bon qiz», Ilyos Muslimning «Oyxon va rayhon», «Ishchan asalarilar», «Sening sovg'ang», Po'lat Mo'minning «Dalalarga qarasam», «Oftob chiqdi olamga», Qudrat Hikmatning «Bobo va nabira», «Jo'jam, yurma laqillab», Tolib Yo'ldoshning «Vaqt qadri», Yusuf SHomansurning «Baraka», «Tikuvchi» she'rlari bevosita mehnat mavzusiga bag'ishlangan.

SHoirlarimiz o'z asarlarida bolalarni mehnatkash bo'lishga, mehnat ahlini hurmat qilishga, ularning peshona terlari evaziga bunyod etilgan narsalarni e'zozlashga, asrab-avaylashga da'vat qiluvchi she'rlari bilan kitobxon mehrini qozonmoqdalar.

Bolalarni bog'cha yoshidan boshlaboq tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash muhim ishlardan biri hisoblanadi. Bolalar ijodkorlari bu masalaga alohida e'tibor bermoqdalar. «Kichkinabog'bon haqida doston», «Suv bilan suhbat», «Yuksak tog», keng o'tloq va mard o'rtoq haqida qissa» (Z. Diyor), «To'rt fasl» (SH. Sa'dulla), «Bizning bog'ga kelinglar» (G. G'ulom), «Boychechak», «G'uncha» (Uyg'un), «O'rik gullaganda» (H. Olimjon), «Yurtimiz tabiat», «Tillaqo'ng'iz» (I. Muslim), «Tabiat alifbosi», «Qanotli do'stlar» (Q. Muhammadiy), «Bahor», «Tog' manzarasi», «Suv» (Q. Hikmat), «Toshbaqa» (Y. SHomansur), «Bircho'ntak yong'oq» (M. A'zam), «Kamalak afsonasi» (O. Matjon) va boshqalar shular jumlasiga kiradi.

Bolalar shoiri Olim Mahkam o'ziga o'zi talabchan qalamkashlardan. U o'zining har bir asarini qayta-qayta ishlaydi, tilining sodda, badiiy mukammal

bo‘lishiga katta e’tibor beradi. Uning «Kapalak» she’rini olib ko‘raylik. To‘rt misradan iborat bu asar naqadar oddiy, naqadar sodda. Ammo juda ta’sirchan. SHe’rda insonlar u yoqda tursin, hatto hasharot-u qurt-qumursqalar ham tabiatning mudom guldek yashnab turishi tarafdori ekanligi ayon bo‘ladi.

Po‘lat Mo‘minning «Xoh o‘qishda, xoh ishda», «Sinfimiz qo‘shig‘i», «Ustozlar»; Ergash Raimovning «Endi katta bolaman» kabi asarlarida shu kunning nafasi sezilib turadi.

Odatda, bolalar orzular qanotida yashaydi. «Endi katta bolaman» she’rida bolaning orzu-niyati nihoyatda buyuk — tezroq o‘sib, ulg‘ayib mакtab o‘quvchisi bo‘lish:

Bultur edim oltida, Yillar yurmas ketiga,
Yoshim yetmay qoldi-da.Bu yil to‘ldim yettiga.
Maktabga yozishmadi, Endi katta bolaman,
O‘qishga olishmadi. Men maktabga boraman.

Ikkinci jahon urushidan keyin o‘tgan davr ichida o‘nlab poemalar, ertaklar, dostonlar maydonga keldi. Oybekning «Zafar va Zahro», «Bobom»; Quddus Muhammadiyning «Dunyoda eng kuchli nima?», «Solijon»; SHukur Sa’dullaning «Laqma it», «Ikki donishmand»; Po‘lat Mo‘minning «O‘rinbosarlar», «Eh, rosa shirin ekan», «Xolning jiyron velosipedi», «Oltin nay», «Jalil eshitgan ertak»; Qudrat Hikmatning «Toshbaqalar hujumi», «Bobodehqon hangomasi», «CHovkar», «CHirchiq farzandi»; Ramz Bobojonning «CHo‘pon o‘g‘li»; Safar Barnoevning «Biz dehqon bolasimiz», «Oltin shahar haqida afsona», «Oltin oshiqlar»; Miraziz A’zamning «Aqli bolalar», «Bedananing buvisi»; Toshpo‘lat Hamidning «Asrorqulning qo‘chqori»; Ergash Raimovning «Bir dona yaproq»; Azim Usmonning «G‘aroyib ajdarho»; Kavsar Turdievaning «Toshkesarlar mamlakatida» kabi doston va ertak-dostonlari yaratildi.

Hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotida she’riyat rivoj-langani kabi nasrda ham salmoqli asarlar yuzaga keldi.Yozuv-chilarining yangidan yangi avlodlari kamol topdi. Ayniqsa, hikoyachilik o‘sdi. Bolalarning yoshi, qiziqishi, dunyoqarashiga to‘la javob bera oladigan hikoyalar bunyod etildi. Hakim Nazir,

Yoqubjon SHukurov, SHukur Sa'dulla, Xudoyberdi To'xtaboev, Turg'unboy G'oipov, Rahmat Azizzxo'jaev, Latif Mahmudov, Farhod Musajon, Sobir Yunusov, Oqiljon Husanov, Mahmud Murodov, Nodir Nazarov, Ergash Raimov, Safar Barnoev, Abusaid Ko'chimov, Anvar Obidjon va boshqalarning o'nlab hikoyalar to'plamlari bosilib chiqdi.

Juda ko'p hikoyalarda kichkintoylarning hayotlari o'z ifodasini topmoqda. SHodmonbek Otaboevning «Itolg'i» hikoyasi qush, qurt-qumursqalarni sevish, ardoqlashga qaratilgan. Itolg'i chumchuq va chug'urchuqlarni tutib olib yeydigan qush. SHukurali aka Itolg'ini jiyani SHavkatga sovg'a qiladi. SHavkat uzum qo'riqlashda undan foydalanmoqchi edi. Ammo qush ularnikida o'zini erkin sezmaydi. Buning sababini surishtirganda SHavkatning otasi bu qush ozod va erkinlikni qo'msayotganligini tushuntiradi. SHavkat qushlarni yaxshi ko'radigan, rahmdil bola. U Itolg'ini qafasda uch kun zo'rg'a ushlab turadi. Qafasda qush emas, o'zi o'tirgandek bo'ladi va Itolg'ini qafasdan butunlay chiqarib yuboradi. Qush bolaga «rahmat» degandek parvoz qilib ketadi.

Bolalar qissachiligidagi ham ko'plab yaxshi asarlar yaratildi. Oybek, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhordan tortib bugungi kunga qadar hisoblaydigan bo'lsak, ularning soni nihoyatda o'sdi. Bunga misol qilib Hakim Nazir, Shukur Sa'dulla, Xudoyberdi To'xtaboev, Hojiakbar SHayxov, Anvar Obidjon, Latif Mahmudov, Farhod Musajon, Habib Po'latov, Muqimjon Niyozov, Rustam Rahmonov, Iboxon, SHukur Xolmirzaev, Oqiljon Husanov, Marva Jaloliddinova, Asad Dilmurod, Abusaid Ko'chimov, Ergash Raimov, Mamatqul Hazratqulov va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Bu davr bolalar qissachiligining mavzu doirasi juda kengaydi. Kattalarning mehnati, ularning jasoratlari («Yonar daryo»), ikkinchi jahon urushida ishtirok etish («Rustamjonning sarguzashtlari»), tobora gullab-yashnab borayotgan go'zal shaharlarimiz va bag'rikeng, insonparvar odamlarimiz («Komandirning boshidan kechirganlari»), o'tmishda zulmkorlarga qarshi kurash, baxtli va yorug' kun uchun intilish («Kachal polvon»), ikkinchi jahon urushi davrida bolalar hayoti va ularning daladagi faoliyati («CHangalzordagi sharpa»), chorvadorlarga ko'mak («Oq otli»),

o‘quvchilarning dalachilik brigadalari («Zamon»), sho‘x va o‘zboshimcha bolalar, ularning qayta tarbiyasi («Bizning roman») kabi mavzular bu davr qissachiligida yetakchi o‘rinda turadi.

Bu davr bolalar qissachiligida sarguzasht, ilmiy-fantastika janrlari ham rivoj topdi. Xudoyberdi To‘xtaboev («Sariq devni minib», «Qasoskorning oltin boshi», «SHirin qovunlar mamlakatida»), Hojiakbar SHayxov («Samo mahvaridagi namoyish», «SHom kamari», «Ajdodlar xotirasi»), Mahkam Mahmudov («Teskari ko‘zlar sayyorasi»), Anvar Obidjon («0099 nomerli yolg‘onchi», «Dahshatli meshpolvon»), Olloyor («Fazogir chumoli»), Oqiljon Husanov («Tog‘da o‘sgan bola») va boshqalar bu janrda samarali ijod qilmoqdalar.

Bolalar tarbiyasida dramaturgiya janrida yaratilgan asarlar ham katta rol o‘ynaydi. Hakim Nazir, Adham Rahmat, Po‘lat Mo‘min, Mamarasul Boboev, Turg‘unboy G‘oyipov, Narimon Orifjonov, Latif Mahmudov, Farhod Musajonlarning pesalari o‘zining bolalarbopligi bilan kichkintoylar quvonchiga quvonch qo‘shib kelmoqda.

Hozirgi zamon o‘zbek bolalar badiiy adabiyoti bilan birga bolalar adabiyotshunosligi va adabiy tanqid ham pog‘onama-pog‘ona o‘sdi, rivojlandi. Bir qator darslik, qo‘llanma, majmua, monografiya, kitoblar yozildi. O‘nlab nomzodlik va doktorlik dis-sertatsiyalari himoya qilindi. SHu zaylda hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyoti rivojlanishda davom etmoqda.U yangi yozuvchilar, yangi asarlar bilan tobora boyib bormoqda.Bir so‘z bilan aytganda, bu adabiyot jonajon O‘zbekistonimizning tobora gullab-yashnashi uchun xizmat qilmoqda.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. Bolalar adabiyotining paydo bo‘lishi haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Bu adabiyotning maydonga kelishida SHarq allomalarining roli nimada?
3. O‘tgan asrning 30- 40- yillarida kimlar bolalar adabiyoti bo‘yicha ijod qildi?
4. O‘tgan davrda she’riyat, nasr, dramaturgiya, bolalar adabiyot-shunosligining rivoji qanday bo‘ldi?

5. Bolalar adabiyotining so‘nggi yillar davri yutuqlari to‘g‘risida nimalarni bilasiz?

Mustaqil o`qish uchun tavsiya etiladigan asarlar:

1. Shukur Sa’dulla asarlarini o`qish.

2. Xudoyberdi To‘xtaboev ” Sehirli qalpoqcha “.

Adabiyotlar:

1. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.
2. M.Jumaboyev. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo‘llanma. 1996 y.
3. Z. Masharipova T.Matyoqubova O‘zbek yozma adabiyotida folklor an’analari Toshkent – 2011
4. www. ziyonet.uz. Bolalar adabiyoti-
5. Paul H. Fry. Theory of literature Yale University- 2012

A.AVLONIY VA H.H. NIYOZIY IJODIDA TA'LIM-TARBIYAGA OID G`OYALAR

Reja:

1. A.Avloniyning hayoti va ijodi.
2. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining ta ’limiy va tarbiyaviy ahamiyati.
3. H.H. Niyoziy- ma’rifatparvar shoir.

Abdulla Avloniy pedagog, jamoat arbobi va yozuvchi 1878- yilda Toshkent shahrida to‘quvchi oilasida dunyoga keldi.U boshlang‘ich diniy mакtabda va madrasada o‘qidi, ilm-fanga ixlos qo‘ydi. O‘zbek va boshqa Sharq xalqlari adabiyotini berilib o‘rgandi. Abdulla Avloniy 14 yoshidan boshlab she’rlar yozishni mashq qila boshladi. Uning bu davrda yozgan ilk she’rlari o‘sha davr vaqtli matbuot sahifalarida bosilib turdi.



Abdulla Avloniy xalqni ilm-fan nurlaridan bahramand qilishni o‘zining birdan bir burchi deb bildi va 1904- yilda o‘zi yashab turgan joy — Mirobodda mакtab ochdi. Abdulla Avloniy mакtab har tomonlama bolani o‘ziga tortishi uchun harakat qiladi.Uning qo‘lidan duradgorlik ishlari ham kelar edi.Shuning uchun u yozuv taxtasi, parta yasab, barcha o‘quv jihozlarini o‘zgartirdi.

Bu yerda o‘qiydigan bolalarning ko‘pchiligini kambag‘allarning bolalari tashkil etganligi sababli tarbiyachi boy-badavlat do‘stlarining ko‘magida «Jamiyat xayriya» tashkil etadi. Bu bilan bolalarga bepul kiyim-bosh, oziq-ovqat, daftar, qalam berilishini ta’minlaydi.

Avloniy ochgan mактабning shuhрати tobora ortib, o‘quvchilarning soni ko‘paya boradi.

Abdulla Avloniy o‘zi tashkil qilgan maktabda bolalar diqqatini asosiy fanlarga jalgan etib, ularning tezda savodini chiqarishga va aniq fanlardan bahramand bo‘lishlariga harakat qildi. U bolalarga jug‘rofiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlardan ma’lumotlar berdi.

U 1907- yilda «Shuhrat» deb nomlangan gazeta tashkil etdi va uning sahifalarida mehnatkash xalq manfaatlarini himoya qilishga doir fikrlarni targ‘ib etdi. Jumladan, gazetaning birinchi sonida: «Matbuot har insonga o‘z holini ko‘rsatuvchi, ahvol-olamdan xabar beruvchi, qorong‘u kunlarni yorituvchi, xalq orasida fikr tarqatuvchi, ilm, ittifoq, hikmat g‘oyalarini yoyuvchidir», deb yozgan edi.

Abdulla Avloniy «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» deb nomlangan to‘rt qismidan iborat bo‘lgan darsligida bolalarni maorif-madaniyatga chorlaydi, yaramas xulq-odatlarni esa tanqid qiladi.


O‘sha davr xalq pedagogikasida Abdulla Avloniyning «Birinchi tarbiyachi» — «Alifbe», «Ikkinchi tarbiyachi» — «O‘qish» kitoblari katta rol o‘ynadi.

Abdulla Avloniy 1904- yildan umrining oxiriga qadar o‘qituvchi bo‘lib ishladi. U ko‘plab she’rlar, «Maktab guliston», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklar bilan hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotiga poydevor qo‘ygan edi. Uzoq yillar qayta-qayta nashr etilgan «Turkiy guliston yoxud axloq» Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Nosir Xusravning «Saodatnama», Sa’diyning «Guliston» va «Bo‘ston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Donishning «Farzandlarga vasiyat» asarlari kabi o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Unda Abdulla Avloniy o‘zining ijtimoiy va axloqiy qarashlarini bayon etgan. Asarning so‘zboshisida muallif bu haqda shunday yozadi: «Men bu asarimni maktablarimizning yuqori sinflarida ta’lim bermak ila barobar ulug‘ adabiyot muhiblari — axloq havaskorlarining e’tiborlariga taqdim qildim».

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889- yilda Qo‘qon shahrida tabib oilasida tavallud topdi.Uning pedagogik faoliyati 1911-yildan boshlandi. U dastlab Qo‘qon shahrining Hojibek guzarida kambag‘allarning farzandlari va yetim-esir bolalar uchun maktab ochdi.

Hamza mehnatkash xalq ommasi va uning bolalarini o‘qitish va tarbiyalash maqsadida, ularni moddiy jihatdan ta’minlashni nazarda tutib «Yordam jamiyat» tashkil qildi. SHu jamiyat orqali u o‘quvchilarni o‘quv qurollari, kiyim-kechak va oziq-ovqat bilan ta’minlab turdi.



1914-yilda jahon urushining boshlanishi Turkiston boshiga tushgan balo bo‘ladi. Urush ta’sirida mehnatkash xalq yanada qashshoqlashadi, bolalar nihoyatda ayanchli ahvolda qoladilar.Bu hol Hamzaga ta’sir qiladi. SHoir ularning og‘ir ahvolini ifodalovchi she’r va maqolalari bilan matbuotda muntazam ravishda qatnashib turadi. Hamza 1914-yilda «Sadoyi Turkiston» ro‘znomasida bosilgan she’rida xalq ahvolini shunday ta’riflaydi:

...Kambag‘allar titrashib yurgay yalang‘och izg‘ushub,
Oh, bu faqir-u asorat onlara sayyoddir,
Dil shikasta, bag‘ri xun, ko‘zida yosh shashqator,
Otasiz, baxtsiz yetimlar holiga faryoddir.

Shunday sharoitda Hamza «bir iloj qilib kambag‘al bolalarni aqchasiz... tarbiya va o‘quvgaga boshlarini band qilmoq» choralarini izlaydi, she’r va maqolalarida bolalarni o‘qishga chaqiradi. Bu g‘oyani Hamza «O‘qi» she’rida bayon etadi. O‘sha yili u yetim va kambag‘al bolalar uchun «Doril yetim» (Etimlar maktabi)ni ochadi va o‘zi o‘quvchilik qiladi. Hamza birinchi sinf o‘quvchilari

uchun «Engil adabiyot», 2- sinf uchun «Axloq hikoyalari» o‘qish kitoblarini tuzadi.

Hamza 1915-yilda Marg‘ilonga borib, kambag‘al bolalari uchun maktab ochadi. 1918- yilda Farg‘onaga borib o‘qituvchilikni davom ettiradi va u yerda yosh san’atkor-ixlosmandlarni to‘plib, «Sayyor dram truppa» tashkil qiladi. 1919-yilning boshlarida Hamza Qo‘qondagi 1- boqimsiz bolalar uyiga mudir qilib tayinlanadi. Bu yerda u uch sinfli maktab ochib, o‘zi o‘qituvchilik qiladi. 1922 — 1924- yillarda shoir Qoraqalpog‘istonning Xo‘jayli tumanidagi 1- bolalar uyi mudiri va o‘qituvchisi bo‘lib ishlaydi. 1925- yilda esa Farg‘onaning Avval qishlog‘iga o‘qituvchi qilib tayinlanadi va g‘oyat og‘ir sharoitda ishlaydi. Ayni vaqtda u xalqni yangi zamon qurilishi tomon chaqiruvchi ijodini davom ettiradi.

Shoir 1928 — 1929-yillarda Shohimardonga borib o‘qituvchilik qiladi.

Hamzaning tarbiyachilik faoliyatini uning shu mavzuda yozgan asarlari yanada to‘ldiradi. Uning ilm va tarbiyaviy mavzuda yaratgan «Ilm ista», «Maktab», «Kitob», „O‘qi», «Qalam», «Hikoya», «To‘g‘riso‘zbola», «Hikoyat», «Toshbaqa va Chayon», «Bolaning yomon bo‘lmog‘iga sabab bo‘lgan onaning jazosi» kabi she’rlari xarakterlidir. Bu asarlar shoirning 1914- yilgacha bo‘lgan ijodidan namuna sifatida tahsinga loyiqlik.

Hamza xalqni o‘qitish, savodxon qilish uchun tinimsiz intiladi va kurashadi, maktablar uchun darslik va qo‘llanmalar yozishni o‘ziga maqsad qilib oladi. Hamza yozgan darsliklar uning o‘sha davrdagi dunyoqarashi, badiiy ijodi, bolalar adabiyotini tushunishi ibratlidir. Bu g‘oya “Engil adabiyot”da o‘z aksini topgan.

Mustahkamlash uchun savollar

1. A. Avloniyning qanday darsliklarini bilasiz va ularning mazmuni nimalardan iborat?
2. Abdulla Avloniy o‘zining qaysi kitob va asarlari bilan hozirgi o‘zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga hissa qo‘shgan?
3. Abdulla Avloniyning dramatik asarlari haqida nima bilasiz?
4. Hamzaning qanday darslik kitoblarini bilasiz?

5.«O‘qi», «Ilm ista», «Maktab» asarlarida shoir nimaga chaqiradi?

6. Shoirning qanday masallarini bilasiz?

Mustaqil o`qish uchun badiiy asarlar:

1. Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asari.

2. Hamzaning “Gul” turkumidagi she’rlari.

Adabiyotlar:

1.M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti.Darslik.2010 yil.

2.M.Jumaboyev. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo‘llanma.1996 y.

3.Z. Masharipova T.Matyoqubova O‘zbek yozma adabiyotida folklor an’analari Toshkent – 2011yil.

4. www. ziyonet.uz. Bolalar adabiyoti-

5.Paul H. Fry. Theory of literature Yale University- 2012yil.

**G‘AFUR G‘ULOM VA QUDDUS MUHAMMADIYNING HAYOTI
VA IJODIY FAOLIYATI**

Reja:

1. G‘afur G‘ulomning hayoti va ijodi.

2.Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati.

G‘afur G‘ulom. 1903 yilda Toshkent shahrida tavallud topgan otashnafas kuychi G‘afur G‘ulom hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotining yuksalishida muhim o‘rin egallaydi.

1918- yilda G‘afur G‘ulom 8
oylik tarbiyachilar tayyorlash kursiga
kirib o‘qidi va 1919-yildan boshlab



tarbiyachilik, o‘qituvchilik ishlari bilan shug‘ullana boshladi. Bolalarni bilim va madaniyat quchog‘iga tortishda u astoydil xizmat qildi. U Toshkentdag‘i «Urfon» nomli maktab qoshidagi boquvchisiz bolalar uyida tarbiyachi va mudir bo‘lib ishladi.

1923- yildan adabiyot maydoniga qadam qo‘ygan G‘afur G‘ulom o‘z ijodini bolalarga atab she’r yozishdan boshladi. She’riyat bu bizning shunday shaxsiy vaqtimizki, biz unda yashashimiz qiyin bo‘lgan dunyoning majmuasidir⁴.

U butun ijodi davomida yosh avlodni unutmadi va unga munosib adabiy meros qoldirdi. SHoirning «Mukofot» (1940), «She’rlar» (1946), «Tongotar qo‘shig‘i» (1949), «Bari seniki» (1953), «Bir g‘uncha ochilguncha» (1955), «Siz mening yoshligimsiz» (1958) she’riy to‘plamlari, o‘rta va katta yoshdagi bolalar uchun «SHum bola», «Tirilgan murda» (1934), «Yodgor» (1935) kabi ajoyib asarlari bolalar adabiyotida munosib o‘rin tutadi.

Shoir «Bari seniki» she’rida yuksak vatanparvarlik g‘oyasini ilgari suradi. Ayni chog‘da, o‘z xalqining baxtini, go‘zal Vatanning istiqbolini kuylagan shoir hayotga bo‘lgan muhabbatini Vatanga bo‘lgan muhabbati tuyg‘usi bilan yonmayon ko‘radi, bolalarga ikkovini bir butun holda tushuntiradi. Buni shoir bola tilidan quyidagicha ifodalaydi:

Muncha ham chiroylisan, aziz Vatanim,
Bodomday ming ko‘z bilan sevar badanim.

⁴Paul H. Fry. Theory of literature Yale University- 2012 T.S Eliot . Chapter 6–Page 70

Sensan avval-oxir, sensan sevganim,
Jonom, yurak qonim, hatto shu tanim
Bir butun holicha bari seniki.

G'ulomning «Tirilgan murda» asarida jamiyatga dog‘ bo‘lib tushadigan dangasalik o‘rtasidagi kurash asosida mehnatning tarbiyalovchi qudrati ko‘rsatiladi. Muallif ijodiy maqsadni Mamajonning boshidan kechirganlari va uning o‘zi tomonidan yozilgan kundalik sahifalari vositasida kulgili tarzda hikoya qiladi. Asar prolog va epilogdan tashqari, olti fasldan iborat bo‘lib, ularda mulla Mamajonning 1925- yildan to 1933- yilgacha o‘tgan davrda boshidan kechirganlari yozilgan. Asarda G‘afur G‘ulom o‘z qahramoniga «so‘z» berib, uning o‘ziga xos xarakterini yaratadi.

Adibning «Tirilgan murda» asari ikki qismdan iborat. Ikkinchi qismda uning jamoa xo‘jaligiga kirishi va qayta tarbiyalanishi, farovon hayotga erishishi tasvirlanadi.

G’.G’ulomning o‘zbek bolalar adabiyotini rivojlantirish sohasidagi hizmatlarini alohida umumlashtirish yo‘nalishidagi ilk urinishlar XX asrning o‘rtalaridayoq yuzaga kelgan edi. O’shanda pedagogika bilim yurtlarida o‘qishga mo’ljallangan bolalar adabiyoti faniga oid o‘quv qo’llanmalari va xrestomatiyalarida G’.G’ulom alohida ijodkor sifatida taqdim etilib, uning haqida portret-maqola va asarlaridan namunalar berila boshlangan edi.G‘afur G‘ulomning bolalar shoiri va nosiri qiyofasiga otalik va murabbiylik tuyg‘ulari chuqur singishib ketgan. Bunda etimlikda kechgan bolalik hotiralari ta’siri ayricha rol o‘ynaganini alohida ta’kidlash joiz. Shu holat uni qo‘liga qalam olib ilk she’rini yozishga undagan edi.«Bir kuni, - deb yozgan edi u o‘zining «Kechmish va kechirmishlarimdan» xotiranomasida, - bolalar bog’chasidagi yetim bolalardan 15 tasini bizning internatga o’tkazdilar. Men bu go’daklar bilan birga tunab qoldim. Kechasi uxlamay, kuzatuvchilik qilib chiqdim. Shu kecha o‘z yetimligim, boshimdan kechirganlarim va shu yetim bolalar ahvoli... to’g’risida she’r yozdim. Shu she’rimni birinchi she’rim desam bo’ladi”. O’sha ilk she’ridayoq u bolalarining ham hazrati Odam farzandi ekanligini, binobarin, ular ham insonday yashash va

ulg’ayish huquqiga ega ekanliklarini ularning o’z tillaridan favqulodda bir ko’tarinkilik bilan ifoda etgan edi.

Biz Odam bolasimiz,

Odamning donasimiz.

Biz o’sib ulg’ayamiz,

Olim bo’lish g’oyamiz.

G’afur G’ulom yetimlikda ulg’ayganini umr bo’yi unuta olmadı. Yetimlik uni o’ksik qalb sohibiga aylantirgan va mudom ta’qib etganligi tufayli bolalarga atab qaysi mavzuda she’r yozmasin, o’sha zahoti xotirasi qatlaridagi yetimlik armonlari uyg’onishi tabiiy edi. Kattalar uchun yozilgan va XX asrdagi o’zbek she’riyatida voqeaga aylangan «Sen yetim emassan»da ham, bolalarga atab bitilgan «Bayram maktubi» va boshqa qator she’rlarida ham bu holni kuzatish mumkin. Inchunin, shoirning roppa-rosa ellik ikki yasharligida yaratgan «Bayram maktubi» she’rida o’qiymiz:

O’ttiz sakkiz yil burun
Bugungi siz bilan teng
O’n to’rt bolalarda edim.
Tongsiz, uzun kechqurun
qora qo’ynin ochar keng
Ko’z o’ngida uchurum.

Maktab qayoqda deysiz?
Nonning hatto o’zi yo’q,
Bo’z yaktak, yirtiq ishton,
Eshiksiz, o’tsiz, nursiz,
Vayronalar qup-quruq,
Halq tentirar parishon
Oq podshoning urushi
Yurtni yergacha toptab,
Tekkan edi tinkaga.
Och qo’shining yurishi
Er yuzini gur o’rtab,
O’xshardi alangaga.

Rus mustamlakachiligi siyosatining butun fojeasini bolalik xotirasi vositasida shu xilda fosh etarkan, qonxo'r fashistlar ming-minglab bolalarni ota-onalaridan ayru etib, yetim qoldirayotganidan jirkanganida yana o'sha «o'ninchi yillar sargardonligi»ni eslamay, o'tolmaydi:

G'.Gulomning o'smirlar kitobxonligining asosini tashkil etgan «Netay», «Yodgor» va «Shum bola» қissalarida shu muammo tahlil қilindi. Adib asarlarida etimlikni keltirib chiqargan sabab va oqibatlarga badiiy nazar solish yo'lidan boradi. Uning talqinicha, yetimlik-mohiyat e'tibori bilan o'gaylik ham. Chindan-da, o'z otasi yo onasi (ba'zan har ikkovi)dan bevaqt ajralib, o'gay ota yoki o'gay onadan shafqat emas, shafqatsizlik ko'rgan bolakayning achchiq va alamli qismati-shunday foje' qismatdir. Bunday holatda yetimning o'gayligi birmuncha shaxsiy fojea sanalishi mumkin. Ammo G'afur G'ulom masalani shu holda echish yo'lidan bormagan, aksincha u o'tmishtagi nobop tuzum va bemehr jamiyatning shafqatsizligi ham o'lganni tepkilab, etim-esirlarga o'gaylik qilishi fojeasini ochishga harakat qildi va aytish mumkinki, bunga muvaffaq ham bo'ldi. Bu jihatdan Netay va SHum bola-qoravoyning etimlik qismati talqini e'tiborni tortadi.

«Yodgor» qissasida yetimlik syujetni harakatga solgan motiv.Unda yetim go'dak Yodgorning qismatiga munosabat hal qiluvchi rol o'ynaydi. S.Mamajonov to'g'ri ta'kidlaganidek: «Yodgor» poetik ma'lum jihatidan ramzli nom. Go'dak Yodgor asarda tasvir ob'ekti bo'lmasa ham yozuvchi uchun yangi insoniy munosabatlarni ko'rsatib berish uchun ola bir vosita rolini o'ynaydi, xolos. Bu go'dak Mehri va Jo'ralar, ularning ota-onalarining qalb dunyosini ochib beruvchi bir kalitdir, ohu go'dak asar voqeasini yaratadi, konfliktga keskin tus beradi, syujetni o'stiradi va uni ikkiga bo'lib tashlab, keyin yana bir-biriga qo'ohadi, Shu go'dak xarakterlarni rivojlantiradi, ochadi. U asardagi voqealar va odamlarni bir-biri bilan munosabatga kirituvchi, asarning hamma bo'lagini yozuvchining ko'rish markaziga bog'lab, tortib turuvchi magnitdir: Mehrining o'z sevganiga shu go'dak halaqit beradi. Jo'raning «aybsiz aybdor» bo'lib onasi, aka va ammalari oldida ta'naga qolishida shu go'dak sababchi bo'ladi, xuddi sxuningdek, Jo'raning

insoniyligini olib beruvchi, Saodat sevgisini sinovdan o'tkazuvchi va Mehriga hayot haqiqatini tushuntirgan ham shu go'dak – «Yodgordir».

XX asr o'zbek bolalar adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Quddus Muhammadiy 1907 yili Toshkentda dehqon oilasida dunyoga keldi. O'rta maktabdan keyin qishloq xo'jaligi bilim yurtida, so'ng O'rta Osiyo Davlat universitetining biologiya fakultetida tahsil oldi.

Ijodga, ayniqsa, bolalarga bo'lgan mehri uni shoir qildi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamic. Quddus Muhammadiyning ilk asarlari "Sharq haqiqati" gazetasiga "Yer yuzi" jurnalida chop etilgan. Keyinchalik uning "Sandal va pechka", "O'z-o'zini tanqid" kabi mashhur dostonlari yaratildi.

Quddus Muhammadiy 1941 – 1944 yillarda taniqli baxshi – Islom shoirga kotiblik qilib, uning terma va dostonlarini yozib olish bilan mashg'ul bo'ldi.



Urushdan keyingi yillarda esa uning birinchi she'riy to'plami "Sinov" (1947) nomi bilan nashr etildi. Shundan so'ng "O'quvchiga esdalik" (1947), "She'r va ertaklar" (1947), "Orzu" (1948), "Bahor keldi" (1950), "Dunyoda eng kuchli nima?" (1951), "Qirq o'g'il va qiz" (1951), "Bizning do'stlarimiz" (1952), "Sen tug'ilgan kun" (1952), "Yangi uy" (1953), "Mehribon do'star" (1953), "Qo'ng'izboy bilan sichqonboy" (1955), "Tugmacha" (1956), "Tanlangan asarlar" (1957) kabi o'ttizdan ortiq kitoblari bosilib chiqdi.

Fidoiy shoir faqat bolalar shoirigina emas, bolalar adabiyotining jonkuyari va targ'ibotchisi sifatida ham o'nlab maqolalar yozdi. Uning "Bolalar adabiyotining yanada ravnaqi uchun" (1961), "Bolalar adabiyotini o'rganaylik" (1963), "Ilhom bilan" (1967) kabi maqolalari shular jumlasidandir.

Bir umr kichkintoylarning katta adabiyotini yaratish uchun samarali ijod qilgan otaxon shoirlardan biri Quddus Muhammadiyda shunday misralar bor:

Egri shoxni bog ‘bon ham

Kesib tashlar ko ‘rgan dam.

Shu sabab to ‘g ‘ri o ‘zar

Egri esa ozar, to ‘zar.

Ha, kimki bola tarbiyasida xuddi bog‘bon kabi yo‘l tutadigan bo‘lsa, uning farzandi kelajakda o‘qimishli, aqli, hushli bo‘ladi. Zero, Quddus Muhammadiyning ham maqsad-murodi shunday. Otaxon shoirning har bir asaridan kichkintoylarni to^riso^z, o‘qimishli bo‘lishga chorlovchi misralarni topish mumkin.

Kichkintoylarning buyuk shoiri Quddus Muhammadiy 1907 yilda, Toshkent shahrida mehnatkash dehqon oilasida dunyoga keldi. Bo‘lajak shoirning otasi Muhammad Alibek Abdurahmonbekov savodli kishi edi. U dastlabki ma’lumotni otasidan oldi.

1925 yilda otasi vafot etgach, Quddus Muhammadiy avval amakisinkida, so‘ngra esa matab-internatda tarbiya oladi. Internatda Q. Muhammadiyning birinchi she’ri – “Chuvalachi” maydonga keladi va bu yerda chiqadigan “Quyosh” nomli devoriy gazetada e’lon qilinadi.

Shu ilk mashqlaridayoq bo‘lajak shoirning nafosat olamini kuzatish va badiiy idrok etish iste’dodi hamda umumlashtirish mahorati yaqqol ko‘rinadi.

U yetti yillik matabni muvaffaqiyatli tamomlab, Toshkent qishloq xo‘jalik texnikumiga o‘qishga kiradi. Bu yerda u bolalar uchun she’rlar yoza boshlaydi. Uning “Tong o‘yini”, “Paranji”, “Ahmad va asalari”, “Seleksiya stansiyasi” nomli she’rlari vaqtli matbuotda bosilib chiqadi.

1931 yildan Q. Muhammadiy matabda botanika o‘qituvchisi bo‘lib ishladi, shu bilan birga O‘rta Osiyo davlat universitetining biologiya fakultetida o‘qiy boshladi. Bolalar uyidagi va universitetdagi hayot, mehribon murabbiy va muallimlarning g‘amxo‘rliklari Q. Muhammadiy qalbida bir umr o‘chmas iz

qoldiradi. Bu yerdagi o‘zaro do‘slik bo‘lajak shoir qalbini tog‘dek ko‘tarib yuboradi.

Quddus Muhammadiy Oybek, H. Olimjon, G‘. G‘ulomlarni o‘zi uchun ustoz deb bilgan, ulardan o‘rgangan, ular bilan doimo ijodiy muloqotda bo‘lgan. Ilk she’rlaridan biri “Tong o‘yini” orqali ulkan adib Oybek bilan tanishadi. Oybek bu iste’dodli bolalar shoirini hamisha qo‘llab-quvvatlab, ijodiga g‘amxo‘rlik qilib kelgan.

Bir kuni yozuvchilar uyushmasida mushoira bo‘ladi. Mushoiraga raislik qilayotgan Hamid Olimjon she’r o‘qish navbatini Quddus Muhammadiya beradi. Q. Muhammadiy zavq bilan “Sa’va sayrarkan” she’rini o‘qiydi. Uning ijodiy qobiliyatini payqagan H. Olimjon she’r tugashi bilan yoniga chaqirtiradi. Qachondan beri she’r yozishini, qayerda ishlashini surishtirib, she’r ma’qul tushganini aytadi. So‘ng bolalar uchun she’rlarning kamligi haqida to‘xtalib, shunday ajoyib she’rlarni ko‘proq yozishni ta’kidlaydi.

Quddus Muhammadiy ijodiga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri hozirjavoblikdir. Shoir asarlarida ona-Vatanga muhabbat, a’lo o‘qish, xulq-odobda boshqalarga namuna bo‘lishga da’vat etish, fan va texnikani o‘rganish masalalari asosiy mavzulardan hisoblanadi.

Ikkinci jahon urushi davrida Quddus Muhammadiy Islom Shoirga adabiy kotiblik qiladi. Bu yerda u xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan yaqindan tanishadi. Islom Shoirdan ko‘p narsalarni o‘rganadi.

Shoirning birinchi she’rlar to‘plami 1946 yilda “O‘quvchiga esdalik” nomi bilan bosilib chiqadi. Shundan keyin uning 60 dan ziyodroq turli nom va tillardagi kitoblari chop etiladi.

Quddus Muhammadiy doimo zarur mavzularda asarlar yaratib keldi. Har bir she’rni kundalik hayotimizdan olib yozdi. Yozganda ham qiziq yozdi, qizg‘in yozdi, soz yozdi. Bolalarni o‘qishga, hunar o‘rganishga, odobli bo‘lishga, mehnatga chorlaydi, qiziqtirdi. Buni shoirming “O‘quvchiga esdalik” she’rida ko‘rish mumkin. Asarda maktab o‘quvchisining ma’naviy qiyofasi va vazifalariga mufassal to‘xtalib, o‘qish, bilim o‘rganish zarurligini ta’kidlaydi:

*Bo 'lay desang bog 'bon,
Yo Vatanga posbon,
Yo osmonda uchuvchi,
Yo dengizda suzuvchi,
Nimani qilsang tilak,
Bariga o 'qish kerak.*

San'atkorning qaysi turkumda yaratgan asarini olmang, barchasida hayotbaxsh ruh, bolani nimagadir chorlash, yaxshilik, a'lo o'qish, axloq-odobli bo'lishda boshqalarga o'rnak ko'rsatish, qushlar va jonivorlarga mehribon bo'lishdek ibratomuz ma'no va mazmun yotadi.

Shoir o'quvchi bolalar hayotining faqat eng muhim, hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan masalalarinigina qalamga oldi va ularni badiiy jihatdan yorqin va ifodali qilib tasvirlashga urindi. Bu esa u tomonidan ishlatilgan tasvirlash vositalarining naqadar o'rinli va mazmundorligini tasdiqlaydi, obrazli ibora eng qisqa ifodali va mazmundor ibora ekanini isbotlaydi.

Quddus Muhammadiy sofdil, a'lochi o'quvchi bolalarni samimiy sevadi, o'z she'rlarida bunday bolalarni maqtaydi. "A'lochi Sodiq", "Sinov", "Mening orzum", "Bizning uyda", "Yasha, Omon!", "Besh", "Solijonning darsxonasi" va boshqa she'rlari a'lochi o'quvchilar haqida yaratilganligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Shoir bu she'rlari orqali a'lo o'qish, tinmay mehnat qilish bilangina ilm-fan sirlarini egallash mumkinligini bolalar qulog'iga quyadi.

Quddus Muhammadiy ijodining yana bir qirrasi satirik va humoristik asarlari bilan bog'liq. "Nomsiz erkatoylar haqida", "Dum", "Ahmadjonga uyat", "Lapashang", "Ravshanjonning qo'li tilga kirdi" kabi ko'plab she'rlarida bolalar xarakteridagi yaramas odatlar ayovsiz tanqid qilinadi. Ayniqsa, shoirning "Dum" she'ri shu jihatdan e'tiborlidir. Ulgurmovchi, uyga berilgan vazifani tayyorlamay "dum" bilan yuruvchi o'quvchilar haqida nasr va nazmda yozilgan ko'pgina asarlarni bilamiz. Ammo Quddus Muhammadiy "dum" chilar ustidan kulish uchun mutlaqo yangi so'z va qiyofa topgan.

She'r quvnoq misralardan tashkil topgan bo'lib, bolalarning ruhiga, pedagogik-ruhiy xususiyatiga mos tushadi:

Bir mакtabda gap mish-mish,

Turg'unning dumi bormish.

Dum bilan yurish inson sha'niga yarashmasligi, ikkichi, qoloq, ishyoqmas Turg'unlarning bunday yaramas dumdan qutulib ketishi zarurligi asarning mantiqiy xulosasidir.

Shoir ijodiga nazar tashlasak, mehnatga muhabbat mavzusi alohida o'rin tutishini aytish mumkin. "Bobomning mehnati", "GES qurilishi", "Mirob", "Bu binoni kim qurgan?", "Etik", "Madraim payvandchi", "Mamajon shofyor" va boshqa shu kabi she'rlarda mehnat simfoniyasi jaranglab turadi. Bu yerda shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, mehnat ahlini sevish, ularning bunyodkor faoliyatlarini qadrlash birinchi o'rinda tasvirlanadi.

"Etik" she'rining qahramoni Solijon degan bola. U hali kichkintoy bo'lishiga qaramasdan mushohadasi o'tkir, odobli. U "O'rdak burunli kavkazcha etigiga gard yuqtirmaydi". Shunga ko'ra uni olifta bola ekan, deb o'ylash ham mumkin.

Shoir Solijon bilan uning etigi orasidagi munozaraga diqqatni qaratadi. Etik o'zining chiroyliligini ko'z-ko'z qilmoqchi bo'ladi:

Ko 'p chiranma husningga,

Rahmat deb qo'y bir marta

Seni tikkan ustangga.

Solijonning "o'rdak burunli kavkazcha", etigini "puf-puflab" kiyib yurishi uning tikilishiga sarf qilingan mehnatni yaxshi bilishidan, e'zozlashidan. Bolalar tabiatan olam sirlarini bilishga astoydil qiziqadilar. Shoirning "Dunyoda eng kuchli nima?" she'ri ana shu qiziqishning badiiy ifodasi sifatida e'tiborga loyiq. Shoir filni "tog'ni ortsang ko'taradi", sherni "filni ham tikka yeydigan", suvni "daryo, soy, irmoqlari, buloqlari ko'p", sovuqni "daryolarni tosh qotirgan", issiqni "qish, sovuqni qochirgan", tog'larni "tog'-u toshni qulatar", quyoshni "qarimaydi, uchmaydi" deb har xil mavjudot va hodisalarga xos e'tiborli xususiyatlarni g'oyat jonli, qiziqarli ifodalab, ularni bolalarning suhbati orqali she'riy ravishda

ifodalaydi. Buni o‘qigan bola hodisalarning ma’nosи nimadaligini, ularning hayotdagi o‘rnini tushunib oladi. Bu bolaning fikrini, qobiliyatini, ongini, dunyo haqidagi tushunchasini oshiradi. Ayniqsa, yosh kitobxon dunyoda kuch-qudrat, aql-zakovatda insonga teng keladigan hech narsa yo‘q ekanligini bilib oladi:

O‘sha kuchli o‘zimiz,

Borliqning egasimiz...

Xotiringiz bo‘lsin jam,

Dunyoda kuchli odam!

Maktab o‘quvchilari har yili necha ming tonnalab temirtersaklar yig‘ib topshiradilar. Bu hol an'anaga aylanib ketgan. Maktab o‘quvchilari bu ishga astoydil kirishib, “kim ko‘p to‘plashadi” o‘ynaydilar. Natijada musobaqalar qizib ketadi. Shoир temir-tersak yig‘ish chog‘ida o‘quvchilarning qizg‘in mehnatini, temir-tersaklarning xalq xo‘jaligidagi o‘rnini, ulardan nimalar tayyorlanishini “Temirlar o‘yini” she’rida ifodalaydi.

Temirlar o‘yinini ifodalashda shoир bolalarbop vosita, ohang topgan. She’rni o‘qir ekansiz, temir-tersaklarni jonlantirish asosida ularning har biriga o‘ziga xos tasvir topishi va g‘oyani obrazli ifodalay olishini kuzatish mumkin:

Temirlar jarang-juring,

O‘ynashib diring-diring,

Deyishar: “yuring-yuring”,

Tushdilar qiziq – tansa,

Sakrashar assa-assa.

“Temirlar o‘yini”dagi “siniq pero”, “buzuq ruchka”, “eski chelak”, “cho‘loq ketmon”, “zang bosgan mix”, “keraksiz kalit”, “uzuq zanjir”larning o‘z holiga achinishi, bolalar mehnati, tashabbusi tufayli ular ham xalq xo‘jaligini rivojlantirishda yaroqli bo‘lishidan xushnudligi yanada aniq, jonli, lo‘nda ifodalanadi: endi ular keraksiz bo‘lib, har yerda sochilib yotmaydi. Zavodlarda eritilib, qayta quyilganidan so‘ng mehnat quollariga aylanadi, yana o‘z o‘rnini topadi.

Shoir she’rning ikkinchi qismida maktab bolalari o‘zлari to‘plagan temir-tersaklarni zavodga topshirgach, undan nimalar bo‘lishini tushuntirishga o‘tadi:

...Elektr salqi simlar,

Trolleybus, dizellar.

Poyezd, vagon, po ‘lat iz,

Daryoni shart to ‘sgan GES...

Hattoki qisqich, chelak,

Tegirmonda sim elak,

Palovimiz kapgiri,

Chovli, kastrul – bari.

Quddus Muhammadiy she’rning qiziqarli, bolalarbop bo‘lishi uchun jonlantirish usulidan ustalik bilan foydalanib, temir-tersaklar ahamiyatini ularning o‘zлari tilidan so‘zlatadi. Har qaysisiga xos va mos sifatlarni topadi. Deyishar: “Yuring, yuring”, “biz qachon bo‘lamiz Z1L?”, “Traktorga vint bo‘lib, paxta maydonin ko‘ray”, “Qurilishga boramiz”, “Temir mehnatkash do‘stim” kabi jonlantirishlar she’rning g‘oyaviy-badiiy tomondan yuksak bo‘lishini ta’minlab, uning ta’sir kuchini oshirgan.

Shoir she’rning yengil vaznda, ravon va ohangdor bo‘lishi uchun yorqin qofiyadosh so‘zlar topa olgan:

Siniq pero dikillab,

Buzuq ruchka likillab...

Temir ishin bilaman,

Qayda ko ‘rsam ilaman,

Maktabga topshiraman

Zavodga oshiraman.

Tabiat go‘zalligiga bo‘lgan buyuk muhabbat shoirga hamisha hamrohdir. Maktabda muallimlik qilib yurgan paytida barg mavzusini o‘tar ekan “Bargjon” she’rini yozadi. Shu tariqa uning “Momaqaymoq”, “Qoqi o‘t”, “Bog‘imizda bir nok bor”, “Tut”, “Tolim gullaydi-yu nega meva tugmaydi?”, “Tok daraxti bir xil-u

uzumi nega har xil?”, “Shaftoli doktor”, “Asalari va Ahmadjon” kabi she’rlari paydo bo‘ldi.

Shu jihatdan shoirning Hamza nomidagi respublika davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan “Tabiat alifbosi” turkumiga kirgan beshta to‘plami e’tiborlidir. Shoir bu to‘plamlarga kirgan she’rlarida tabiat hodisalari, narsa va buyumlar, koinot mo‘jizalari haqida poyetik xulosalar chiqargan. Bu xulosalar g‘oyat bolalarbopdir. Chunonchi, zilzilani yerning gimnastika qilishi deb ta’riflasa, chuvalchangni “er traktori” deb ataydi, gilosning qizilligini kichkinligidan uyalishidan degan xulosaga keladi. Xullas, tabiat mavzusidagi har bir she’rida shu tariqa bolalar xususiyati va tushunchasiga xos ibratli fikr ifoda etiladi.

Quddus Muhammadiy yosh kitobxonlar qalbida tabiat va inson kuychisi sifatida har doim e’zozli bo‘lib qoladi.

Quddus Muhammadiy tarjima sohasida ham o‘zini sinab ko‘rdi. Uning jahonning mashhur adiblari S. Marshak, S. Mixalkov, A. Barto, K.Chukovskiy asarlaridan qilgan tarjimalari o‘zbek bolalar adabiyoti uchun katta ahamiyatga ega badiiy tarjima namunalaridan bo‘lib qoldi.

Quddus Muhammadiy sofdir, a’lochi o‘quvchilarni samimiyligi sevadi, o‘z she’rlarida bunday bolalarni maqtaydi. “A’lochi Sodiq”, “Sinov”, “Mening orzuyim”, “Bizning uyda”, “Yasha, Omon”, “Besh”, “Solijonning darsxonasi” va boshqa she’rlari shunday o‘quvchilar haqida yaratilganligi bilan muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Shoir ijodining yana bir muhim qirrasi yengil hajvni badiiy adabiyot bilan uyg‘unlashtiradi. “Nomsiz erkatoylar haqida”, “Dum”, “Ahmadjonga uyat”, “Lapashang”, “Ravshanjonning qo‘li tilga kirdi” kabi ko‘plab she’rlarida bolalar fe’lidagi yomon odatlar ayovsiz tanqid qilinadi.

Uning ijodida mehnatga muhabbat mavzusi alohida o‘rin tutadi. “Bobomning mehnati”, “GES qurilishi”, “Mirob”, “Bu binoni kim qurgan?”, “Etik”, “Madraim payvandchi”, “Mamajon shofyor” va boshqa she’rlarida mehnat shukuhi jaranglab turadi.

Tabiat go‘zalliklariga ulkan muhabbat shoirga hamisha hamrohdir. U maktabda muallimlik qilib yurgan paytida “Bargjon”, “Momaqaymoq”, “Qoqi o‘t”, “Bog‘imizda bir nok bor”, “Tut”, “Tolim gulladi-yu nega meva tugmadi?”, “Tok daraxti bir xil-u, uzumi nega har xil?”, “Shaftoli doktor”, ”Asalari va Ahmadjon” kabi she’rlarini yozdi.

Shoirning to‘rt kitobdan iborat “Tabiat alifbosi” kitobi o‘z vaqtida mashhur bo‘lib ketdi. Tez orda “Ochil dasturxon” (1970) kabi xalq og‘zaki ijodi an’analari ruhidagi asarlari ham shuhrat topti va adibga cheksiz sharaf keltirdi. Uning “Qanotli do‘sstar” nomli she’riy kitobi 1970 yilda Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. U 1977 yili O‘zbekiston xalq shoiri unvoni bilan taqdirlandi.

Boalarning buyuk va kamtarin shoiri Quddus Muhammadiy 1997 yil 22 iyunda Toshkent shahrida vafot etdi.

AHMADJONNING KITOBOXONLIGI

Hay-hay chiroylı kitob,
O‘qimokqa juda bop.
Bizning Ahmad qayokda?
Qidirgani bu yoqda.

Ahmadjon kelib qolar,
Kitobni qo‘lga olar.
Bir-bir varaqlar sekin,
Rasmi kam ekan lekin.

Ana sichqon, mushukvoy,
Ana xo‘roz, kuchukvoy.
Ana mug‘ambir tulki,
Pisib turishi kulki.

Ana o‘rdak, ana g‘oz,
Ana maymun — sho‘x darvoz.
Xo‘roz qichqirar: “Qu-qu!”

Bunday yo‘lbars, sher yo‘g‘-u...

Shu bilan qolar kitob,
Go‘yo o‘qiydi hisob.
Talabimiz Ahmaddan,
Ko‘rganini – suvratdan

Bizga ham aytsin, qani,
Kitobda hamma ma’ni.
Xameleon degan jonvor
Nechun uzun tili bor?

Olmaxon nozik hayvon
Nechuk dumi kattakon?
Hammadan qiziq ukki,
Tumshug‘i Efi-dukki.

Nechun yurmas kunduzi,
Nega yonadi ko‘zi?
Juda qiziq shaparak,
Xuddi jajji charxpalak.

O‘rdakning bag‘ri yoyiq,
Gavdasi misli qayiq?
Savolim bo‘ldi odosh,
Javob kutaman, yo‘ldosh!

QISH HAM CHIROYLI

Hay-hay ko‘rkam qish,
Qorlari kumush.
Guppa-guppa qor
Bo‘ralab yog‘ar.

Sovuq chirsillar,
Suv muz, qirsillar,
G‘uborsiz havo
Jonlarga davo.

Tanda ham qaynoq,
Hamma yoq oppoq.
Daraxtlar go‘zal,
Shoxlarni bezar.

Qor doka yo‘rgak,
Novdalar go‘dak.
Uyquda mizg‘ib
Yel esar izg‘ib.

Tarnov, bo‘g‘otda
Sumalak katta.
Osilib qator
Shag‘amdek qotar.

Bir gala chumchuq
Hovlida chirq-chirq.

Pir-pir uchishar,
Tomga qo‘nishar.
Anhor suvi muz,
Qora tikon tuz —
Singari rangi.
O‘ynashib yangi
Besh-o‘nta bola,
O‘quvchi sara,
Yaxmalak otib,
Qor-muzga botib
Ketdi tarqashib,
Tepadan oshib.
Gaz yonar boz-boz,
Uyning ichi yoz,
O‘yin bo‘ldi bas,
Tayyorlaymiz dars.
O‘tirib asta
Havas payvasta,
Ochishar kitob,
Yechishar hisob.
Hay-hay ko‘rkam qish,

Qorlari kumush.
Guppa-guppa qor,
Bo‘ralab yog‘ar.

SHE’RIM, OCHIL DASTURXON

She’rim, ochil dasturxon,
She’rim — ochiq dasturxon.
El o‘g‘lin qilay mehmon,
Bo‘layin ulkan mezbon.
Shoiringman mehribon,
Qilgim kelar ulkan ish,
Dunyoda eng ko‘rkam ish.
She’r bulog‘im qayna, jo‘sh,
She’rjonim, bo‘l oqqush,
She’rim hayot bog‘bonim,
She’r askarim — posbonim.
Pahlavon beozorim,
Ko‘ngillarni yozarim,
Yuragim osmonisan,

El-yurtim posbonisan,
Tinchligim kaptarisan,
O‘quvchim daftarisan.
Qadrdon mакtabimsan,
Yuragim, rubobimsan.
Sensan qo‘sinq, ulkan kuy,
Sen kirmagan biron uy,
Sen bo‘lmagan bayram, to‘y,
Qolmasin hech bir elda.
Yangra she’rim, ming tilda.
Xalq yuragin makon et,
Xalqim ko‘nglin osmon et.

Yoqimli bo‘l havodek,
Jon ozig‘im navodek,
Jon bag‘ishla o‘likka,
Zavq bag‘ishla tirikka.

She'r desam jonio erir,
Jonu jahonim erir.
Onamning allasi she'r,
Hofizlar yallasi she'r.
Xalqimga madadkorim.

“Hayt” tuyaga madorim.
She'rim, ochil dasturxon,
She'rim — ochiq dasturxon.

BAHOR KELDI

Qo'llarida soz bilan,
Gul g'uncha parvoz bilan,
Silkinib parvoz bilan,
Uchib turna, g'oz bilan,
Qadrdon bahor keldi.
Bahorni kuting bog'da,
Bog' emas, dala, tog'da,
Maysa yashnagan chog'da,
Qushlar sayrar butog'da,
Sevikli bahor keldi.
Har narsada o'zgarish,
Erib, oqib jo'nar qish.
Har yoqda yashnar turmush,
O'rik gulladi kumush,
Mehnat bahori keldi.
Bezanar maktab bogi,
Gulga to'lib quchog'i.
Toshar hayot irmog'i,
Maktab dam olar chog'i,
O'quvchi, bahor keldi.
O'tmasin go'zal fursat,
Qani g'ayrating ko'rsat.
Imtihon, sinovga vaqt
Hozirmi, darslaring taxt,
Hushyor bo'l, bahor keldi.

Darsni mustahkamlash uchun savollar:

1. G‘afur G‘ulomning vatanparvarlik haqidagi qaysi asarlarini bilasiz
2. G‘afur G‘ulomning vatanparvarlik haqidagi qaysi asarlarini bilasiz?
3. Maktab gigienasi haqidagi she’rlarini bilasizmi?
4. «Bari seniki», «Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi!» asarlarining tarbiyaviy ahamiyati nimada?
5. Quddus Muhammadiy o‘qish haqida qanday she’rlar yozgan?
6. Odob-axloq to‘g‘risida qanday asarlar yozgan?

Mustaqil o`qish uchun badiiy asarlar:

1. G‘afur G‘ulom hikoyalari.
2. Quddus Muhammadiy she’rlaridan yod olish.

ZAFAR DIYOR, SULTON JO'RA VA SH.SA'DULLANING HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Zafar Diyorning hayoti va ijodiy faoliyati.
2. Shukur Sa'dullaning hayoti va ijodi
3. Sh.Sa'dulla ijodida hayotiy voqealaming badiiy tasviri
4. Xulosa

Zafar Diyor 1912- yilda Namangan viloyatining Chust tumani, Samsoqtepa qishlog‘ida kambag‘al dehqon oilasida tug‘ildi. 1916-yilda Zafarlar oilasi Toshkent shahriga ko‘chib keladi. Zafarning otasi dalada, onasi esa bosmaxonada mehnat qiladilar.



1927-

yilda Zafar to‘liqsiz o‘rta maktabni bitiradi va Samarqanddagi Narimonov nomli pedagogika texnikumiga o‘qishga kiradi. Texnikumda ko‘proq ilm-fan sirlaridan bahramand bo‘lishga harakat qiladi. Uning dastlabki she’riy mashqlari bilim yurti devoriy gazetasi sahifalarida ko‘rina boshlaydi.

Yigirmanchi yillarning oxiri va o‘ttizinchi yillarning boshlarida uning bolalar gazeta va jurnallarida ilk she’rlari chop etila boshladi. Zafar Diyorning birinchi she’ri yosh shoirlarning «Qurilish kuylari» degan to‘plamida bosilib chiqdi. Ko‘p o‘tmay uning birinchi she’rlar to‘plami «Qo‘schiqlar» nomi bilan 1933-yilda nashr etildi.

Yosh shoir 1933- yilda bilim yurtini muvaffaqiyatli bitirgach, o‘qituvchi bo‘lib ishlay boshladi. Bu hol uning mакtab va bolalar hayoti bilan yaqindan tanishishida, yosh avlod hayoti haqida yozadigan asarlarining hayotiy va puxta bo‘lishida ijobjiy o‘rin tutadi.

1934-yilda Zafar Diyor Samarqanddan Toshkentga qaytadi va hozirgi «Tong yulduzi» gazetasida adabiy xodim, keyinroq esa mas’ul kotib bo‘lib ishlay boshlaydi. SHu bilan birga, u hozirgi Toshkent davlat pedagogika universitetining til va adabiyot fakultetiga kirib, o‘qishni davom ettiradi. O‘zbek hamda qardosh xalqlar yozuvchilarining asarlarini qunt bilan o‘qiydi, o‘rganadi.

O‘sha yillari gazetada Zafar Diyor bilan birga ishlagan yozuvchi Hakim Nazir o‘z esdaliklarida shunday yozadi: «Men Zafarni o‘ylasam uni nuqul shod-hurram bolalar qurshovida, quvnoq chehrasidan nur taralib, sertabassum lablaridan she‘r durdonalari yog‘ilayotganday ko‘raman. CHindan ham, u bolalarga juda yaqin edi. Maktablar va bolalar uylarida, kutubxona va bog‘chalarda bot-bot bo‘lar, yosh kitobxonlarga yangi-yangi she‘rlarini bolalarcha muloyim, sodda, shirali ovoz bilan o‘qib berar, ayrim she‘rlarini yoddan ifodali o‘qir, bolalarga ham she‘r o‘qitib eshitardi. Shunda u o‘zining qaysi she‘rlari bolalar ko‘rigidan yaxshi o‘tganini, qaysi she‘rni ko‘proq sevib qolganlarini ko‘rar, bolalarga yoqtirish uchun qanday she‘rlar yozish lozimligini fahmlab olardi. «Biz bolalarga nuqul o‘rgatibgina qolmay, ulardan o‘rganib ham turishimiz kerak», derdi.

Zafar Diyorning «Binafsha» she‘rini yoddan bilmagan o‘quvchi bo‘lmasa kerak. She‘r o‘zining ravon o‘qilishi, qofiyalarning jarangdorligi bilan o‘quvchini o‘ziga tortadi:

Binafshaxon, binafsha,

Kulishlaring chiroyli.

Bog‘imizda ochilib,

Turishlaring chiroyli.

Shoирning «Mamlakat», «Kazbek», «Tilsiz o‘rtoq», «Madriddan kelgan mehmon» kabi she‘r va dostonlari shoир ijodining har taraflama yuksalishidan dalolat beruvchi liro-epik asarlardir.

Zafar Diyor bolalarning xatti-harakatlarini, orzu-intilishlarini yaxshi biladi.

Zafar Diyor baxtli bolalarning go‘zal bog‘lardan, chamanzorlardan, rang-barang gullardan, bahordan olgan quvonchini «Bahor keldi», «Orzu», «Qaldirg‘och», «Qushlar haqida qo‘shiq», «Binafsha» kabi she’rlarida sodda, ravon tilda, ohangdor, yengil qofiyali, o‘ynoqi misralarda shoirona talqin etadi va ular qalbida hayotga mehr uyg‘otadi.

Zafar Diyor bugungi o‘zbek bolalar dramaturgiyasi taraq-qiyotiga ham barakali hissa qo‘shdi. U bolalar hayoti haqida «Baxtli yoshlik», «Yosh vatanparvarlar», «Omonat», «Uch og‘ayni» kabi qator dramalar ham yozgan.

O‘zbek bolalar nasrini rivojlantirishda Zafar Diyor ham o‘z hissasini qo‘shgan. Uning «Jo‘natish», «Cho‘pon qizi», «Nojo‘yaliklar» kabi hikoyalari shular jumlasidandir.

Zafar Diyor bolalar adabiyotining hamma janrlarida qalam tebratdi. U bolalarning turmushi, talab-ehtiyojlari hamda orzu-tilaklarini, turmushini, ularning ruhiyatini puxta bilganligi uchun bolalarning yoshiga, ong-tushunchasiga moslab, g‘oyaviy-badiiy jihatdan puxta asarlar yaratdi.

BINAFSHA

Binafshaxon, binafsha
Kulishlaring chiroysi:
Bog‘imizda ochilib
Turishlaring chiroysi.
Hamma chiqar dalaga
Binafshalar tergali,
Men ham terdim bir dasta
Opamizga bergali.
— Mana, opa, binafsha,
Qarang, qanday chiroysi.
— Yuring, — dedi opamiz, —
Binafshalar teraylik.
Binafshalar ochildi
Chakkangga taq, chakkangga:
Atir hidi sochildi,

Chakkangga taq, chakkangga.
Lazzat olib hididan
Bolarilar uchadi.
Ipakqanot kapalak
Barglarini quchadi.
Seni maqtab kuylaydi,
Bog‘ aylanib qushchalar.
Darak berib bahordan,
Quvontirding shunchalar.
Binafshaxon, binafsha
Kulishlaring chiroyli.
Ko‘ksimizda hid sochib
Turishlaring chiroyli!

KAPALAK

Hoy, kapalak, kapalak,
Qanotlaring ipakdak.
Muncha shoshib uchasan,
To‘xta, so‘z!ayin andak.
Uchrataman har kuni
Seni har kun bog‘chamda,
So‘rib gullar sharbatin
O‘ltirasan olchamda.
Borib ushlay deganda
Shoshib darhol uchasan.
Sira tutqich bermasdan
Guldan gulga ko‘chasan.
Mendan aslo qochmagine,
Do‘s bilaman o‘zimga.
Pildir-pildir uchishing,
Oh, yoqadi ko‘zimga.
Uch, uchaver, uchaver,
Go‘zal bog‘cham — gulshanda.
Sira ozor bermayman
Sevgim, fikrim bor senda.
Kapalakjon, kapalak,
Qanotlaring ipakdak.
Do‘s bo‘laylik ikkimiz,

To‘xta, so‘zlayin andak!

TO‘P

To‘pim, to‘p-to‘p etasan,
Ursam uchib ketasan.

Havolanib nariga —

Do‘sṭlarimga yetasan.

O‘ynatasan ko‘zimni

Hovliqtirib o‘zimni.

Biroz ko‘proq o‘ynasam,

Terlatasan yuzimni.

Senga sira to‘ymayman,

Bo‘sh ekanman qo‘ymayman.

Ovunchog‘im, — deb seni

Do‘sṭlarim-la o‘ynayman.

To‘pim, to‘p-to‘p etasan.

Ursam uchib ketasan.

Handalakdek yumalab

Bizni xursand etasan.

Shukur Sa'dulla 1912 yilning yanvarida Jizzax shhrida xizmatchi oilasida dunyoga keldi, boshlang‘ich ma'lumotni ona shahridagi Narimonov nomli maktabda oldi. 1924 yildan Samarqand pedagogika bilim yurtida tahlil ko‘rdi. SUNgra Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston davlat universitetida o‘qidi. 1931-72 yillarda Sh.Sa'dulla O‘zbekiston davlat va «Yosh gvardiya» nashriyotlarida muharrir, bo‘lim boshlig‘i, bosh muharrir o‘rinosari, bosh muharrir vazifalarida mehnat qildi.



Shukur Sa'dullaning «Hayqiriq»,
«Uch ayiq», «Ayyor chumchuq»,
«Yoriltosh», «Ikki sandiq», «Sen nima
qilding?», «Shohista», «Shirin kun»,
«She'rlar», «She'r va ertaklar»,
«P'esalar», «Dastyor qiz»,
«Komandirning boshidan
kechirganlari», «Kachal polvon», «ism

qo‘yilmagan xat», «Sening bayraming», «Mening aziz bolalarim» va boshqa kitoblari bosilib chiqdi.

Odatda, boychechak juda erta ochiladi. U qor erib-erimasdanoq ko‘zga tashlanadi. Buni ko‘rgan odamlar «Ha, bahor yaqinlashib qolibdi», deydi. Shoir «Boychechak» asarida xuddi shu fikrni lo‘ndaqilib chizib beradi:

Ochildimi boychechak,
Endi har yon gul demak,
Chunki bahorr elchisi -
Shu mitgi gul — boychechak.

Albatta, boychechak paydo bo‘lganidan keyin bahor boshlanadi, yomg‘ir ustiga yomg‘ir yog‘adi. Yomg‘ir tabiat husniga husn qo‘sadi, odamlar ruhini engillatadi. Shukur Sa‘dulla «Yomg‘ir yog‘aloq» she‘rida bahor yomg‘iriga muhabbat bilan munosabatda bo‘ladi.

Shoir ijodida yumoristik she’rlar ham bir talay: «Shalabbo» «Anqov», «Injiq», «Ivirsiq», «Bizning oyi» kabi asarlarida shoir dangasa, o‘z ustida ko‘p ishlamaydigan, izlanishni yoqtirmaydigan, injiq, ivirsiq bolalar ustidan qattiq kuladi.

Ivirsiqda shoir o‘yinqaroq, kun bo‘yi koptok o‘ynab, uyga berilgan vazifani bajarish, o‘z vaqtida uyqudan turish o‘rniga qotib uxbab darsdan kech qolgan Siddiq nomli bolaning maktab o‘quvchilariga xos bo‘lmagan qiliqlarini fosh qiladi:

Daftari ochiq-sochiq,
Qolgan vazifa chala.
Soat yurar:: chiq-chiq-chiq,
Echilmagan masala.
Yana jaranglab soat,
To‘qqizga zang uradi,
«Ivirsiqjon» betoqat -

Endi shoshib turadi.

Shukur Sa'dulla xalq og'eaki ijodini sevgan va undan ijodiy foydalangan shoirlardan biri edi. U «No'xatpolvon», «Laqma it», Ayyor it», «Ayyor chumchuq», «Chol bilan bo'ri» kabi o'nlab asarlarini ertaklar asosida yaratdi. Xalq ertaklarini jo'ngina she'rga solib qo'ya qolmadi. Balki unga ijodiy yondashdi. Davrimizga, bolalarning istak-armonlariga moslashtirdi.

Dramaturg Shukur Sa'dullaning «Yoriltosh», «Gulxan», Bizning bog'chamiz», «Dalada bayram», «Vatan ishqisi» (daramaturg Z.Fatxullin bilan hamkorlikda yozilgan), «Ikki bilaguzuk», «Zubayda», «Afsona yaratgan qiz» p'esalarini tomoshabinlar yaxshi bilishadi.

AYIQ

O'rmonda bo'lганмисиз?
Ayiqni ko'рганмисиз?
Ustida po'stini bor,
Pisand emas unga qor.
Men uning naslidanman,
Ayiqning aslidanman.
Otamdan qoldi po'stin,
O'sha po'stin menga to'n.
Farqim shu: men qo'g'irchoq,
Bolalarga o'yinchoq!

BUZOQ

Men buzoqman, buzoqman,
Shoxim chiqqan — suzoqman.
Lekin yumdalab tortmang,
U yon-bu yonga otmang.
Iflos yerga yo'latmang,
O'yinchoqman, qulatmang.
Buksangiz qayrilaman,
Oyoqdan ayrilaman.
Sigir bolmayman unda,
Qaymoq bermayman kunda.

Mayli, o'ynang erta-kech,
Lekin ozor bermang hech!

TOYCHOQ

Toychog'im bor — uchqur ot,
Quralay ko'z — tulpor zot.
Egar-jabduq uraman,
Minib, olg'a suraman.
O'zi yog'och, yoli qil,
Ovunchog'im, olg'a yel!

ULOQCHAM

Kichkina qora — uloq,
O'ynar oshib umbaloq,
Men bilan inoq, o'rtoq.
Ko'kat bersam yamlaydi,
Orqamdan hech qolmaydi.
Kappalaydi o't bersam,
O'ynaydi quloch kersam,
Suzadi musht o'qtalsam.
Boshchasida shoxi bor,
Dumchasida oqi bor.

MITTI

Mitti degan mushugim,
O'taketgan olg'ir, shum.
Mitti poylab turadi.
Sichqonvoyni ko'radi.
Sichqon mushukni ko'rib,
Qochar teshikka urib.
Sichqon qochib qutular,
Mushuk esa tutilar.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

- 1.Zafar Diyorning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
- 2.Shukur Sa'dullaning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?

Mustaqil o`qish uchun asarlar:

- 1.Zafar Diyor “Mashinist” dostoni o`qish.
2. Shukur Sa'dulla she'rlaridan yod olish.

Adabiyotlar:

- 1.M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.
- 2.M.Jumaboyev. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo‘llanma. 1996 y.
- 3.Z. Masharipova T.Matyoqubova O‘zbek yozma adabiyotida folklor an’analari Toshkent – 2011
4. www. ziyonet.uz. Bolalar adabiyoti-
5. Paul H. Fry. Theory of literature Yale University- 2012

SULTON JO‘RANING HAYOTI VA IJODI. HAKIM NAZIRNING HAYOTI VA IJODI.

Reja:

1. Sulton Jo‘raning hayoti va ijodi.
- 2.Sulton Jo'raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili.
3. Hakim Nazirning hayoti va ijodi.
4. Hakim Nazirning mehnat, odob-axloq, vatanparvarlik mavzulariga bagishlangan asarlarining ahamiyati haqida.

Sulton Jo`rani o`smirlar kuychisi sifatida yaxshi taniymiz. Shoир she`rlarining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari rang-barang. Uning “Oy nechta”, “Lola”, “Sog`inchli salom” kabi she`rlarida bolalar olamining ifodasi ufurib turadi. S.Jo`raning pedagog shoир sifatida yozgan “Tinish belgilarining majlisi”, “Kimning xati chiroyli” she`rlari ta`lim-tarbiyaviy jihatdan dolzarb. Shuningdek,

shoirning “Yolg`onchi” dostoni, “Zangori gilam” ertaklarining syujeti va kompozitsiyasi o`ziga xos qimmatga ega.



She’riyatda havas Sulton Jo’ra qalbida juda erta uyg’ondi. U bilim yurtida o’qib yurgan kezlarida klassik va sovet shoirlarining asarlarini mutolaa qilib, o’zi ham ularga taqlidan she’rlar mashq qila boshladи. Keyinchalik shoir tarjimai xolida bu yillarni xotirlab “Birinchi marta 1927 yilning oxirida “Mehnat qo’ynida” degan she’r yozdim, u “Yangi yo’l” jurnalida bosildi”-deb aytgan edi.

Sulton Jo`raning dastlabki she`rlari 1933-yilda Buxoro yosh shoirlarning “She`rlar” to`plamida nashr etildi. Uning 1939-yilda “Fidokor”, 1941-yilda “Moskva” she`riy to`plamlari, 1942-yilda “Iroda” nomli pyesasi nashr etildi. Shoir vafotidan so`ng 1951-yilda rus va o`zbek tillarida “Tanlangan asarlar”, tinch qurilish yillari davrida iste`dodli shoirning “Havorang gilam”, “Zangori gilam”, “Bruno”, “Parvoz”, “Qaldirg`och” kabi kitoblari bosilib chiqdi.

Ayni choqda, u “yaxshi”va “a`lo”baholarga o`qish uchun kurashish, rostgo`y va intizomli bo`lish, madaniy va pokiza kiyinish, savodxon va chiroyli yozuv malakasini egallash kabi ta`lim- tarbiyaviy masalalarni ham badiiy vositalarda talqin etdi. Bunday g`oyalar shoirning “Yozgi yomg`irdan so`ng ”(1936), “Qizlar”, “A`lo” va “Yaxshining maqtovi ”, “Zangori gilam”, (1939), “Lola”, “Oy nechta?”, “Tinish belgilarining majlisi”, “Cho`ntak”, “Sirkda”(1940), “Qarzdor”, “Qaldirg`och”, “Yolg`onchi”, “Dengiz tagida”,(1941), “Sog`inib”(1942), “Sog`inchli salom”, “Salom xat”(1943) kabi asarlarida o`z ifodasini topdi.

Sulton Jo`ra o`z vatanining ozodligi, xalqining erki uchujngina emas, balki ularning porloq kelajagi bo`lgan kichkintoy do`stlarining baxti uchun ham kurashdi. Qirg`in maydonlarida bosqinchilar bilan olisha turib, navqiron avlodga o`z alangali salomini yo`llay oldi.

She'riyat sirlarini qunt bilan o'rganish, jiddiy va muttasil mashq Sulton Jo'raning adabiyot dargohiga o'z ovozi bilan kirib kelishiga imkon berdi. U poeziya olamiga katta umid bilan kirib kelgan yillar o'zbek adabiyotining yanada ko'tarilish davriga to'g'ri keldi. Bu paytlar yangi hayot davrini tarannum etuvchi. 30-yillar o'zbek poeziyasining eng yaxshi namunalarini yaratgan Oybek, Hamid Olimjon, G'afur G'ulom va Uyg'unlarning qator asarlari nashr etilgandi. Bular butun vujudi bilan poeziyaga berilgan Sulton Jo'raka ta'sir etmay, uni to'lqinlantirmay qolmadi. Shuning uchun ham shoir "Bu yillarda adabiyotga qiziqib Uyg'un, Hamid Olimjonlarning she'rlarini ko'p o'qirdim... yohud Shayxzoda, G'afur G'ulomlarning barcha asarlarini qiziqib o'rganib chiqdim,"-deb takror-takror yozadi. "Mening o'sishimga o'rtoq G'afur G'ulomning tashabbusi bilan 1939-yilning dekabrida Toshkentda adabiy kecha o'tkazildi".

1940 yilgacha, shoirning o'zi «birinchi she'riy to'plamim» deb e'tirof etgan «Fidokor» majmuasi bosilgunigacha, u, asosan, davriy matbuotda bosilgan she'riy va publitsistik asarlari bilan shunday e'tibor qozona olgan edi. Rost, bu asarlarning kattagina qismi katta yoshdagilarga mo'ljallangan esa-da, u bolalar va o'smirlarni qam unutmadi, ular uchun g'oyaviy-badiiy jihatdan yetuk asarlar yozib, bolalar va o'smirlar kuychisi sifatida tanildi. U turli yoshdagi bolalar ruhiy olamini nafis his qila olganligi sababli ular xarakteridagi tabiiy soddalikni, tinib-tinchimaslikni, ayrim hollarda yolg'onchiligu dangasalikni yorqin ifoda eta oladigan «Lola», «Oy nechta», «Cho'ntak», «Mamatning kechirimi», «Yolg'onchi», «Qarzdor», «Kimning xati chiroyli», «Yaxshi» va «A'lo»ning maqtovi», «Harflar paradi», «Tinish belgilarining majlisi» kabi XX asrning 30-yillaridagi o'zbek bolalar she'riyatining betakror namunalarini yaratdi.

Sulton Jo'ra adabiyot maydoniga kirib kelgan davrda rus va jahon ilg'or adabiyotining eng yirik namunalari bilan tanishish, mutolaa qilish imkoniga ega edi. Yana bir dalilni alohida ta'kidlash kerak. Ma'lumki, ana shu yillarda o'zbek adabiyotshunosligida ham muhim muhim asarlar maydonga kelgan edi. Bu davrda e'lon qilingan "Lirika uchun", "So'nggi yillarda o'zbek poeziyasi"(Oybek), "O'qish va o'rganish qiyinchiliklari to'g'risida" (Hamid Olimjon), "Realizmni

egallash yo'lida” (Hamid Olimjon, Uyg'un), “O'zbek sho'ro adabiyotida dunyoqarashni egallash haqida chet ta'sirlar bilan kurashish masalasi” (O.Hoshim), “Bir reaksiyon nazariya to'g'risida” (O.Sharafiddinov) kabi asarlar va adabiyotimizning qisqa, lekin mazmunli tarixiy yo'lini xarakterlovchi boshqa maqolalar Sulton Jo'ra ijodining g'oyaviy takomilida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu yillari adabiyot maydoniga kirib kelgan Zulfiya, Usmon Nosir, A. Umariy, Hasan Po'lat, Z.Diyor, Parda Tursun kabi iste'dodlar o'rtasida avj olgan qizg'in ijodiy musobaqa esa Sulton Jo'rani ham ijodiy kamolot sari rag'batlantiradi.

TINISH BELGILARINING MAJLISI

Besh-oltita tinish belgi kelib bugun,
O'tkazmoqqa qaror qildi jiddiy yig'in.
Rais bo'ldi undov belgi — mirzaterak,
Dedi: — Har kim o'z rolini aytmoq kerak.
Tushuntiring nedur sizning vazifangiz?
So'z vaqtini ko'proq beray oz desangiz.
O'z joyida ishlatmasdan Turg'un, G'ani,
Balki sizni xafa qilgan? So'zlang, qani.
Birinchi so'z nuqtavoya — U bosh, katta, —
Nuqta chiqdi bir dumalab misli koptok:
— Fikrlarning bekatiman — Nuqtadirman,
Har darak gap oxirida to'xtaydirman.
Boshqa fikr boshlanajak mendan keyin,
Ba'zan quloq solmasalar men ne deyin?
Paravozlar suv olgandek bekatlardan,
Menga yetgach, olmoq kerak to'liq bir dam.
O'zimdan so'ng qo'ymoq zarur zo'r bosh harf,
Biroq ba'zan unutadi bizni Zarif.
Har bir bosh harf yonimdagi bir soqchidir,
Qaysi bola buni qo'ysa zap yaxshidir.
Gapim tamom, bundan bo'lak menda ne bor?
O'ylaymanki, so'zim qolmas bee'tibor.
— Endi sizga gap navbati, o'rtoq „So'roq“, —
Ana, chiqdi so'roq belgi, misli o'roq.
U qoqilib ketmay qoldi arang qulab,

Yo bu belgi yoki zirak taqqan qulqoq.
— Sen singari rolim aytsam, nuqta, do'stim,
Har so'roq gap bitgan joyda mening postim.
Mendan so'ng ham katta harf qo'ymoq shartdir,
Bunga odat qilinmasa, yomon darddir.
Uqdingizmi? Yetadimi? Bormi savol?
Yoki o'zim so'rayinmi sizdan savol?
Undov novcha o'zi oldi so'z galini,
Mixday turib bayon qildi o'z holini:
— Mazmunidan undov, sevinch, nafrat, g'azab,
Yo hayajon ma'nosini anglatsa gap,
Shunday jumla adog'ida bo'lar joyim,
Mendan so'ng ham bosh harflar kelar doim.
Eh... Naqadar soz bu kungi yigilishimiz!
Bu yaxshi ish, har choq shunday yigilishingiz!
— O'rtoq rais, endi menga navbat bering, —
Deb so'z oldi kichik to'qmoq — bizning vergul.
O'nim tengdosh boiaklarning orasida,
Fikrlarning „razyezdi“ men: menda birpas
Olib o'tar har o'quvchi yarim nafas.
Undalma so'z kelib qolsa gap boshida
Undan keyin men turaman yonboshida.
Gar undalma gapda kelsa qoq o'rtada,
Uning ikki yonboshida men jo'rttaga:
„Qani, endi, undalmaxon, qochib boq-chi“ —
Deb bo'lurman, yubormayin unga soqchi.
Gar undalma gap so'ngida kelsa, u choq,
Undan oldin qo'yilurman, tushun, o'rtoq!
Sirkdag'i qiziqchidek qo'shtimoqlar
Bir mahalda kulib chiqdi xushdimog'lar:
— Korxonalar, xo'jaliklar, gazeta, jurnal —
Hokazoga ot qo'yilgan bo'lsa darhol
Uni qurshab oladirmiz ikki yondan...
Ko'chirma gap ketolmaydi bizdan qochib,
Uni doim olamiz keng quchoq ochib.
Mana rais „Vaqt tamom, to'xtatingiz“, —
Deb qoldi-ku. Mayli, endi yo'q gapimiz.
Eng oxirda shoshib-pishib, nari-beri

Jindakkina sayrab qoldi gugurt-tire:
— Dialogda mening eng ko‘p turar joyim.
Yana ma’no takrorlansa, men bor doim.
Goho bir so‘z sig‘may qolsa to‘lib xatga,
Ayamasdan bo‘g‘inidan qirqib hatto
Qolganini ko‘chirarman bo‘lak yo‘lga,
Biroq shartim — so‘z qolmasin o‘lda-jo‘lda.
— Ko‘p cho‘zdingiz, anglaysizmi, o‘rtoq, tire?
— Mayli bitdi, qaror bo‘lsa o‘qib bering.
Shunda rais dedi: — Endi majlis yopiq!
Har bir vakil jo‘nab ketdi yo‘lin topib.

ОY NECHTA

I

Yulduz, Qunduz, singil va opa
Boshladilar katta tortishuv.
Yulduz dedi: — Oy bitta faqat
Qunduz dedi: — Yo‘q, ikkita-ku!
— Kech bo‘lsin-chi, ko‘ramiz, qani,
Kimning gapi rostga chiqarkan?
— Yulduz bo‘lsang oyni ko‘rgani
Undan ilgariroq chiqarsan?..

II

Ana keldi kutgan kecha ham,
Yonib chiqdi qizil shirmon oy.
Chopib ketdi Yulduz ko‘chaga,
Qunduz dedi: — Hovlidan boqay.
Ikkovi ham ko‘rarkan oyni,
Bir-biridan olishdi darak:
— Unda bormi?
— Ha, bittasi bor.
Qaysisining oyи kattaroq?
Ishonmadi biri-biriga

Va dedilar:

— Oy nechta, oyi?

— Yoting endi.

Faqat bitta osmonning oyi!

Katta boigach, aylanaylarim,

Oyning o‘zin minib ko‘rarsiz.

— O‘shanda-chi, oyijon, bizga

Katta shoti olib berarsiz?

III

Men ham shunday bolaligimda

Oyni ikkita deb yurardim.

O‘sha paytim tushib esimga

Shu she’rni yozib yubordim.

Hakim Nazir o‘zbek bolalar nasrining otaxon ijodkorlaridan, kichkintoylarning sevimli adiblaridan biridir. U bolalar uchun o‘ndan ziyod qissa, roman, pesa, son-sanoqsiz hikoyalar yaratdi. «So‘nmas chaqmoqlar», «Yonar daryo», «Kenjatoy» qissalari, «Lochin qanotlari» romani, o‘nlab hikoyalari ko‘pgina xorijiy tillarga tarjima qilinib, chet ellarda ham o‘z o‘quvchisini topdi.



a

Zahmatkash adib 1915- yilda Toshkent shahrida mahsido‘z-kosib oilasida dunyoga keldi. Onasi Malika otinning mакtabida boshlang‘ich ma’lumot olgandan keyin, poyabzal fabrikasigirdi, shu bilan birga kechki ishchilar dorilfununi (industrial texnikum)da o‘qishni davom ettirdi. Hakim Nazir bolaligidan kitobxonlikka juda o‘ch bo‘ldi, gazeta va jurnallarda bosilgan asarlarni chanqoqlik bilan o‘qib chiqardi. Undagi o‘qish-yozishga bo‘lgan qiziqish uni hozirgi «Tong yulduzi» gazetasi

tahririyatida ishlashga olib keldi. 1934 — 1935-yillardan dastlabki hikoya, ocherklari gazetada, «Yosh kuch» jurnalida bosilib chiqdi. Bular havaskorlik mashqlari edi. Adib jiddiyroq asar yozish uchun hayot taassurotlaridan tashqari chuqur nazariy ma'lumot ham zarur ekanligini anglatdi. Kunduzi tahririyatlarda ishlab, kechki Toshkent davlat pedagogika institutida o'qidi va til-adabiyot fakultetini muvaffaqiyatli bitirdi. Biroz vaqt o'qituvchilik qildi. Adabiy ishga astoydil berildi. 1942-yildan boshlab o'n bir yil davomida O'zbekiston radio qo'mitasida bo'lim boshlig'i, bosh muharrir bo'lib ishladi. So'ng Badiiy adabiyot nashriyotida bosh muharrir, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida kotib, adabiy maslahatchi vazifalarini bajardi. Mazkur vazifalarni yozuvchi ijodiy ish bilan qo'shib olib bordi. Qunt, chidam bilan o'z ustida ishlashi, tinimsiz ijodiy izlanishi tufayli Hakim Nazir bolalar yozuvchisi sifatida kitobxonlarga tanildi. 1940-yilda «Kenja» (yangi nomi «Quyosh qachon tutiladi?»), 1946- yilda «Salim ota» nomli hikoyalari respublika tanlovlardida sovrindor bo'ldi. 1951-yilda esa rus tilida chiqqan «Malchiki iz kishlaka» hikoyalar to'plami Moskvada bo'lib o'tgan tanlovda mukofot oldi.

Sevimli yozuvchimizning ijod yo'liga sinchiklab nazar tashlasak, uning dastlabki ijodiy izlanishlari hikoyachilikdan boshlanganini ko'ramiz. Uning birinchi kitobi «Qishloqdagi jiyanlarim» ham hikoyalardan jamlangandir. «Qishloqdagi jiyanlarim» (1948), «Besh baho» (1955) «Cho'l havosi» (1958), «Yaxshi ism» (1962), «Meni taniysizmi?» (1963), «Bolajonlarim» (1964) nomli hikoyalar to'plamlari birin-ketin e'lon qilinib, bolalar va o'smirlarning ma'naviy mulkiga aylandi.

Hakim Nazirning ko'pgina hikoyalari bog'cha yoshidagi yoki endigina birinchi sinfga qadam qo'ygan bolalar hayotini aks ettirishga bag'ishlangan. Buni adibning «Bir og'iz so'z», «Rasmlı kitobcha», «Davronning qushchasi», «Qaysargina ukam», «Yaxshi ism», «Ikki o'rtoq», «Bulbul», «Qanddon», «Ignə», «Bir tup g'o'za» kabi hikoyalari misolida aytish mumkin. Bu hikoyalarda bolalar o'rtasidagi o'zaro do'stlik, axloq-odob, a'lo o'qish, jamoat ishlarida faollik

ko‘rsatish, kattalarning yumushlariga ko‘mak-lashish, qushlar va jonivorlarga g‘amxo‘r bo‘lish, orzu-umidlar qanotida yashash va boshqa masalalar aks etganini ko‘ramiz.

Muallif «Qishloqdagi jiyanlarim» to‘plamidagi «Valijonning dadasi» hikoyasida bolalarning jangchilarga hurmat va muhab-batini tasvirlaydi. Buni ikkinchi jahon urushidan qahramon bo‘lib qaytgan Valijonning dadasini butun qishloq ahli zo‘r hurmat va katta tantana bilan kutib olganini ko‘rsatish orqali ochadi. «Boshoq» hikoyasi bolalarning o‘qishdan bo‘sh vaqtlarida ota-onalarga yordam berishlarini Azimjon, Mamat, Salimjon, Toshtilla obrazlarida gavdalantiradi. «Jiyanimning toychasi» hikoyasi kitobxonni qishloq bolalarining xarakterlari va hayoti bilan tanishtiradi. Mahmudjon bilan Omonning otasi paxtadan mo‘l hosil olish uchun kim o‘zishga kirishadi. Bolalar o‘z otalarining g‘olib chiqishi uchun kuyib-pishib harakat qiladilar. Mahmudjon jonidan aziz toychasini aravaga qo‘sib, paxta tashishga kirishadi. Bu bilan yozuvchi qishloq bolalarining o‘ziga xos xususiyatini yaratadi. Kichik bir parcha orqali katta bir voqeani — bolalarning ulug‘ ishlarga qo‘l urganligini haqqoniy ko‘rsatadi.

Hakim Nazirning «Yonar daryo» qissasi o‘zbek bolalar adabiyotining katta yutug‘idir. «Gazqaynar» manzarasini yorqin bo‘yoqlarda gavdalantirgan bu asarda o‘sha davrda Qizilqum sahrosi kishilarining jasorati, jo‘shqin hayoti, qahramonligi hamda bir-biriga chin mehribonligi tasvirlanadi, shuningdek, oiladagi bola tarbiyasi, bunda ota-onaning tutgan o‘rni ko‘rsatiladi. Asarda voqeа o‘n ikki yoshli o‘quvchi Damir tilidan hikoya qilinadi. Bundan ikki yil avval otasi vafot etib, singlisi Popuk ikkovi onasining qaramog‘ida qolishgan. Ko‘p vaqtłari ishda o‘tadigan ona bolalar tarbiyasiga kam e’tibor bergen. Damir esa keksa buvisining o‘ta mehribonligi, yumshoqligi tufayli o‘yinqaroq, o‘qishga kamhafsala, o‘jar bo‘lib qolgan. Natijada, u onasiga bo‘yin egmaslikka harakat qiladi. Damirlarning uzoq qarindoshlari Sulton amaki ularning uylariga tez-tez kelib turadi, shuning uchun bolalar unga o‘rganib qolishgan. Keyinchalik ota sifatida shu oilaga kirgan Sulton amaki Damir xarakterining shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Damir xarakterida iz qoldirgan ikkinchi muhim voqeа uning Qizilqumga safari bo‘ladi.

Bu uning ko‘z o‘ngida yangi olam ochadi, uni mehnat quchog‘ida chiniqtiradi. Gazchilarning «G‘ildirab yuradigan posyolkasi», «Cho‘pon boboning boshchiligida» ochilgan «Mo‘jiza quduq», bemorligiga qaramay Sulton amaki ko‘rsatgan fidokorlik, umuman, gazchilarning afsonaviy qahramonligi Damir ruhida keskin burilish yasaydi.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. Sulton Jo‘raning hayoti va ijodi haqida nimalar bilasiz?
2. Sulton Jo‘raning “Kimning xati chiroyli”, “Zangori gilam” dostonini yodlash.
3. Hakim Nazirning maktabgacha ta’lim va kichik yoshdagi bolalarga bag‘ishlangan qaysi asarlarini bilasiz?

Mustaqil o`qish uchun asarlar:

1. Sulton Jo‘raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili.
2. Hakim Nazir hikoyalari o`qish

PO‘LAT MO‘MINNING HAYOTI VA IJODI. POIAT MO‘MIN IJODIDA ODOB-AXLOQ MAVZUSI. PO‘LAT MO‘MIN - QO‘SHIQCHI SHOIR

QUDRAT HIKMATNING HAYOTI VA IJODI. QUDRAT HIKMATNING TINCHLIK VA BAXTLI BOLALIK HAQIDAGI SHE’RLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. QUDRAT HIKMAT DOSTONLARIDA ILGARI SURILGAN G‘OYALAR

Reja:

1. Po’lat Mo’minning hayoti va ijodi
2. P o ia t Mo‘min ijodida odob-axloq mavzusi.
3. Qudrat Hikmatning hayoti va ijodi.

4. Qudrat Hikmat dostonlarida ilgari surilgan g‘oyalar.
5. Xulosa



Bolalarning suyukli shoiri **Po`lat Mo`min** yoshligidanoq adabiyotga havas qo`ydi. U Toshkent pedagogika bilim yurtida o`qib yurgan vaqtida adabiyot to`garagiga faol qatnashadi. Adabiyotni qunt bilan o`qidi, o`rgandi. O`rta ma`lumot oigach, hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining o`zbek tili va adabiyoti fakultetiga o`qishga kirib, uni muvaffaqiyatlama omologlagach, aspiranturada o`qidi, maktablarda o`qituvchilik qildi.

So`ngra O`zbekiston davlat nashriyotida ishladi. P. Mo`min qayerda ishlamasin, doimo adabiyotga muhabbat bilan qaradi, uni qunt bilan mutolaa qildi, o`rgandi. Kichik-kichik she`rlar yoza boshladи. 1944 yilda «Bahorga sayohat» nomli birinchi she`ii bosilib chiqdi. Birinchi she`rlar to`plami esa 1949 yilda «Sayrang, qushlar» nomi bilan nashr etildi. Kitob adabiy jamoatchiiik tomonidan iliq kutib olindi. To`plamdan munosib o`rin olgan «Haykal», «Alia va Jalla» (ertak) singari asarlari mazmundorligi, qiziqlarliligi bilan kitobxonlarning e`tiborini o`ziga jalb etdi. Bolalarga atab ijod etish, bu sohada muvaffaqiyat qozonishi uchun esa qobiliyat va istakning o`zagina yetmaydi. Belinskiy ta`rffi bilan aytganda, bolalar yozuvchisi bo`lib tug`ilish kerak. Bu bolalar yozuvchisi mohir pedagoglarday bola qalbining bilimdoni bo`lsin, nozik *did* egasi, go`dak tabiat va psixologiyasining bilimdoni, mehribon va bolajon, kamtarin va samimiyligi, bolalarcha soddadil ham dono bo`lsin, degan mazmunni taqozo etadi, albatta. Biz Po`lat Mo`min ijodida ana shunday olijanob xususiyatlar mujassamligim his etamiz.

Shoirning tinimsiz ijodiy mehnati tufayli «Hunardan unar», «To`g`ri o`sgan gul bo`lar», «Aql qaerda bo`lar», «O`rinbosarlar», «Oltin nay», «Bir yarim

Karim», «Endi adashmaydi», «Barcha bola do`st bo`lsa», «Rahmatga rahmat», «Gazpolvon ertak aytar», «Chang yutar both», «Do`sting qancha ko`p bo`lsa», «Oftob va odob», «Yaxshilarga o`xshasam», «Bu juda soz», «Eson va Omon», «Oltmish olti oltin qo`l», «Ustozlar izidan», «Bolalarning baxti kulgan», «Bir yuz bir oltin qo`l» she`riy to`plamlari; «Chanoqvoy bilan Qovoqvoy», «Bahodirning botirligi», «Oq fd yo`qoldi», «Suqatoy-konfetvoy», «Ona bolam deydi» kabi ertaklari, pesalari yuzaga keldi. Bu kitoblarga kirgan eng yaxshi she`r va qo`schiqari, doston va ertaklari bolalar adabiyoti xazinasiga munosib hissa bo`lib qo`schildi, uni boyitdi. Bu asarlardan bir qanchasi jahon xalqlari tillariga tarjima qilinganki, bu faqat shoirning emas, balki o`zbek bolalar adabiyotining ham yutug`i, obro`sni hisoblanadi.

Kimda-kim a`lo va yaxshi baholarga o`qish uchun astoydil intilsa, harakat qilsa, zahmat cheksa, shubhasiz, u maqsadiga erishadi, samarali biiim oladi. Agar bu intilish jismoniy mehnat bilan qo`shib olib boriisa, yanada muvaffaqiyatlbo`ladi. Po`iat Mo`min ta`iim va jismoniy mehnatga bag`ishlangan she`rlarida mehnat va mehnatsevar bolalar haqida fikr yuritadi. Ba`zan ishyoqmas, dangasa, yalqov o`quvchilarni tanqid qiladi. Masalan, «Besh oldim, besh!» degan she`rini olaylik. Asar qahraraoni uzoq vaqt past bahoga o`qib yurardi, fanlarni ko`ngildagidek o`zlashtira olmaganidan do`stlari, ota-onasi va o`qituvchilar oldida gunohkordek his qilardi o`zini. O`quvchi bunday qiyin ahvoldan faqat ko`proqdars tayyorlashi, kitob o`qishi bilan qutulib ketishi mumkinligiga ham ishonrtgdi. Nima boiadi-yu bir kuni u uyga berilgan topshiriqni qayta-qayta o`qiysi, dars va kitobdan boshqa hech narsani o`ylamaslikka harakat qiladi. Natijada ertasi kuni «besh» baho oladi. Shu-shu bola kitobni sevib qoladi. Qunt qilish, berilgan topshiriq ustida ko`p mehnat qilish lozimligini tushunib yetadi. O`zidagi bunday ijobiy o`zgarishdan xursand bo`ladi. Boladagi bu quvonch va hayajonni shoir yosh kitobxon ruhiyatiga mos ravishda chizib beradi:

Shunday qilib do`silarim,

Aytsam yurak so`zlarim,

Yurishib qoldi ishim

Ko`payib ketdi «besh»im.

Boialar shoirming «Tuganmas kon», «O`qituvchi baho qo`yganda», «Ko`chalarni to`ldirib», «Sizga nima bo`ldi, o`g`ii bolaiar?», «Yuqumli «2»lar», «Bilsa bo`lar ekanku!», «Sentyabrdan Mm sevinar?» kabi she`rlarida ham a`lo va yaxshi o`qish uchun mtilayotgan, harakat qilayotgan bolalar to`g`risida yozilgandir.

Ba`zan o`quvchi-bolalar orasida mug`ambir, pismiq bolalar ham topilib qoladi. Shoirning «Qo`l ko`tarib qo`Iga tushdi» degan asari ana shunday bolalarga bag`ishlangan. Asar qahramoni aslida dangasa, ishyoqmas, qoloq o`quvchi. U buni o`qituvchisiga sezdirmaslik ucimn har kuni dars paytida «Men aytaman, deb ko`taradi qo`i». O`qituvchi esa boianing bunday mug`ombirligini sezmaydi, u darsni yaxshi o`zlashtiribdi, deb undan so`ramaydi. Oxiri bir kuni «Mayli, ayta qol» deydi. Shunda haligi bola savolga javob bera olmay, o`qituvchi va o`quvchi do`stlari oldida izza bo`ladi:

Darvozasiga Urilganday gol Qo`Iga tushgandi Uko`tarib qo`l.

Shoir she`rlarida kichkintoylarning jismoniy ishga intilishlari ham yaxshi ochib beriladi. Uning «Oftob chiqdi olamga», «Er chopildi —javob topildi»

she`rlari fikrimizning dalilidir. «Oftob chiqdi olamga» asarida u xalq og`zaki ijodidan unumli foydalangan. She`rda bolalaming harakati, urinishi, kattalar ishiga ko`maklashishi nihoyatda ta`sirli va shirali ifodalangan.

Po`lat Mo`min haqiqatan ham oftob — bu olam-olam quvonch, shodlik, mehnat, yashash, yasharish ramzi ekanligini kichkintoy do`stlari qulog`iga quyishga, buni bola obrazi orqali yanada yorqinroq, ta`sirliroq aks ettirishga harakat qiladi:

Oftob chiqdi olamga, Chopib bordim dadamga. Dadam ko `chat ekardi, Salom berdim dadamga.

P. Mo`minning «Yer chopildi — javob topildi» asarida mehnatdan zavqlanish tuyg`usi yorqin ifodalangan. Asar qahramoni dastlab uyga berilgan topshiriq — misollarni ishlay olmaydi. Shunda u jismoniy mehnat qilishga kirishadi — yer chopadi. Terlab-pishadi. Natijada ko`ngli yorishadi, fikri oydmlashadi. Uyga

berilgan misollarni ham yechadi, yerni ham chopadi. Barcha savolga javob topildi. Shu bahonada yer ham chopildi.

Po`Iat Mo`minning «5» baho qo`srig`i», «Xursandmisiz?, Xursandmiz», «Sentyabrim», «Uch baho — puch baho» singari qo`sriqlari o`qish, ilmli bo`lish mavzuiga bag`ishlangan. O`z ustida ko`p ishlash, kitob o`qish, dars qoldirmaslik «a`lo» o`qishning mustahkam garovi ekanligini shoir «Uch baho — puch baho» qo`srig`ida ancha tanqid qilib o`tadi. Onalarni, keksalarni hurmat qilish, e`zozlash («Achrom-achom buvijon», «Mehribonim, oyijon!»); o`zaro hurmat, do`stlikni joyiga qo`yish («Bir jahon boialarimiz»); har bir shodiyona, bayramlarni zo`r tayyorgarlik bilan kutib olish, chevarlik kasbini bolalikdan bilib borish («Ko`ylagim») mavzulariga bag`ishlab shoir o`nlab qo`sriqlar yaratganki, bunday qo`sriqlar bolalaming jon-dili hisoblanadi.

Po`Iat Mo`min axloq va odob kuychisi hisoblanadi. Bu masala ko`proq uning «Birovlar», «Bir odamning afsusi», «So`zi shunaqa — o`zi shunaqa», «Behzodni bilasizmi?», «Ulg`aydimi aqlingiz?», «Qo`ing oltin — yo`ling oltin», «Birinchi bo`l, birinchi» kabi she`r va qo`sriqlarida ochib beriladi.

Po`Iat Mo`min «Alia bilan Jalla», «Ziyarak fil va ziqna boqqol», «Har kimniki o`ziga, oy ko`rinar ko`ziga», «Unutgan o`g'il», «Oltin nay», »Dono bola», «Bilganni qari — bilmaydi pari» singari ertak-dostonlarida xalq og`zaki ijodi namunalaridan unumli foydalangani ko`rinib turadi.

Po`Iat Mo`min dostonchi-shoir sifatida ham juda qadrlidir. Uning «Oltin noklibor», «Ko`cha — ko`pchilik uchun», «Eh, rosa shirin ekan», «Xolning jiyyon velosipedi», «Ko`ngil istar yaxshilik» degan poemalari allaqachon kichkintoylarning sevimli asarlariga aylanib ketgan. Shoirning dostoniaridabolalalar o`rtasidagi do`stlik, birodarlik, o`qituvchi va jonajon muktabga muhabbat, birlik, baynalmilallik kabi masalalar ilgari surilgan. Bolalar hayotida sodir bo`ladigan yutuq va kamchiliklar badiiy bo`yoqiarda, qiziqarli epizodlarda chizib berilgan. Bir so`z bilan aytganda, maktab o`quv Maririинг hayoti zavq-shavq bilan tasvirlangan.

Po`lat Mo`min o`zining ertak-pesalari bilan ham yosh kitobxonlar o`rtasida shuhrat qozondi. Uning «Qovoqvoy bilan Chanoqvoy», «Suqatoy-konfetvoy», «Ona bolam

deydi, bola onam deydi» nomli fantastik ertak-pesalari uzoq vaqtlardan beri bolalarning quvonchiga quvonch qo`shib kelayotir.

Qovoqvoyning dangasaligi, lapashangligi, erkaligi, tantiqligini o`tkir kulgi ostiga oluvchi va Chanoqvoyning bilimdonligi, donoligi va mehribon do`stligini ulug`lovchi «Qovoqvoy bilan Chanoqvoy» bolalami yaxshilikka da`vat etadi.

Bu asardagi yaxshi fazilatlar dramaturgning boshqa bir ertak-pesasi «Suqatoy-konfetvoy»da ham ko`ringan. Tematikasi va g`oyaviy yo`nalishi, uslubi jihatidan bu ikki asar bir-biriga yaqin. Unda ham ilm, odob, haloUik va mehnatsevarlik ulug`lanadi. Voqeа Bilim xola, Janjal xola, Qurt o`rtasidagi kurash asosida rivojlanadi.

Po`lat Mo`minning butun e`tibori, ijodining mohiyati bolalarga hayot yo`ini ko`rsatib berishga intilishdan iborat. Shu pesadagi Aqljon bilan Odobjon aytganidek:

Bugina enias, bolalar Po`lat Mo`minning o`nlab topishmoqlarini ham sevib o`qib, o`rganadilar va zehnlarmi charhlaydilar.

Muallifning «Qovoqvoy bilan chanoqvoy» asarinng ta`iim-tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Undagi ertaklarga xos shartli, allegorik obrazlar tomonila aniq va hayotiy zaminga asoslanlgan.

Pesaning bosh qahramonlaridan biri Qovoqvoymdir. Uning timsolida tiaЖdangasalik va beg`amlik oqibatida darslarni o`zlashtira olmay, sinfda qoluvchi lapashang va po`k bolaning tadrijiy takomilini mujassamlashtirgan. Do`stlari ta`sirida Qovoqvoyning asta-sekin tuzala borishi, ilg`orlar qatoriga kirib, mehnatsevarlik va epchiffik darajasiga ko`tarffishi bilan bog`liq voqealar, bu yo`ldagi kishilar o`rtasidagi munosabat, tortishuv va kurashlar pesaning asosini tashkil etadi.

P.Mo`min ertak syujetini harakatga keltirishda bosh va yordamchi konfliktlardan foydalanadi. Qishloq xo`jalik ekinlarining ashaddiy dushmanlari chigirtka va kapalaklar o`z urug`larini paxtakorlarga tarqatmoqchi bo`ladilar-u, Tarvuz, Qovun, Chanoqvoy, Paxtaoy, G`ujumoy, Lavlagi hamda Sholg`om kabi kuchlar ta`qibidan qo`rqadilar. Qovoqvoyning befahm, landavur, beg`am hamda qo`rkoqligi zararkunandalarga ish beradi. Ular paxtazorlarga sochishni buyurib, tuxumlari

solingan xaltachani Qovoqvoysa zo`rlab tutqazadilar. Hashorotlar undan o`z maqsadlari yo`lida foydalanish uchun harakat qilsa, ijobiy qahramonlar Qovoqvoysi tarbiyalamoqchi. Mana shu o`rtadagi kurash asar konfliktimng boshqa yetakchi tomonini tashkil etadi.

Mehnatga bo`yni yor bermay, darslarni o`zlashtira olmaganidan tashqari, Qovoqvoy tanbal, yalqov, fahm-farosati kam, bo`shang, ayni vaqtda u, haddan ziyoda chirancoq. Uning xarakteridagi bu sifatlar asardagi ijobiy kuchlar bilan bo`lgan ziddiyat va to`qnashuvlarda ochib tashlanadi, Qovoqvoy asta-sekin tuzalish tomon yo`naltiriladi. Bir-birini o`rtoqlarcha samimiy tanqid qilishga asoslangan ijobiy kuchlar o`rtasidagi shu ziddiyatlar dramatik konfliktning yordamchi chizig`ini yuzaga keltiradi.

Konfliktning yordamchi liniyasi esa yaxshi ishlangan va qahramonlar xarakterini chizib berishda, asarning muvaffaqiyatini ta`minlashda katta xizmat qilgan. Po`lat Mo`min Qovoqvoyning maqtanchoqligini fosh etib, uni izza qilishda to`g`ridan-to`g`ri zalga — tomoshabinlarning o`ziga murojaat etish ЪДап о`ziga xos yutuqqa erishgan Qovoqvoyning «Mendan karra jadvalni so`rang, suv qilib ichib yubordim» degan mazmunda kerilib savol-javob o`ynashi zalni faollashtiradi, maqtanchoqning miyasi g`ovlab, o`sal bo`lishi qalblarga samimiy kulgi shavqini soladi.

Chirancoq Qovoqvoyningjismoniy zaif va po`kligi kamtarin Tarvuz bilan yuz bergen tortishuv va to`qnashuvlarda, boks musobaqalarida bilinib, sharmanda bo`ladi. Qovoqvoy Tarvuzdan yengilib zil ketsa, ikkinchi tomondan qadam-baqadam g`ayratga kira boradi, badan tarbiya mashqlari foydasini, mehnatsevarlik manfaat keltirishini anglaydi.

Qovoqvoyning qayta tarbiyalanishida ayniqsa Chanoqvoy hal qiluvchi rol o`ynaydi. Boshda Chanoqvoyning odilona, samimiy, do`stona maslahatlariga mensimay qarab, qulq solmagan Qovoqvoy «Sehrgar» gaplarini jon dili bilan tinglaydi, uning ko`rsatmalariga amal qilib, karrani o`rgana boradi, g`ayratga kiradi, faollashadi, zararkunanda hashoratlarga qarshi kurashish, ularni tutishda faollik ko`rsatish darajasiga ko`tariladi. Biroq uning xarakteridagi zaif tomonlari

tezda uzil-kesil yo`qolmaydi. U endi do`sstlariga «Sehrgar»ni uchratganligi bilan maqtanadi. Muhimi shundaki, do`sstlar uni qayta tarbiyalashga, o`z saflariga qaytarishga muvofFaq bo`ladilar.

Asarda Chanoqvoy xarakteriga mos va yetarli material berilgan. Xususan, muallif uning tilini individuallashga alohida e`tibor bergan. Pesaning she`riy kuchi, yumoristik va satirik fazilatlari ham Chanoqvoy, Qovoqvoy, Tarvuzvoy nutqida, ularning dialog va monologlarida yaxshi ko`rinadi.

Oftob va odob

Oftob yaxshimi?

Odob yaxshimi?

Oftob berar nur,

Odob-chi huzur.

Lolalar uchun

Oftob yaxshidir.

Bolalar uchun

Odob yaxshidir.

Oftob bo`lmasa,

Qorong'u tushar.

Odob bo`lmasa,

G'am-qayg'u tushar.

Oftob ko`rinar

Tog'-tepalikda.

Odob ko`rinar

Salom-alikda.

PAPKA BILAN SIYOHDON

Siyohdon bilan papka

Tushibdi hasrat — gapga.

Gaplar cho`zilmish ancha,

So`zlashibdi bilgancha.

Papka debdi: — Siyohdon,

Bu ishing juda yomon.

Atrof toidi siyohga,

Arzga boray qayoqqa.
Bunaqangi boima bez,
Axir chiqib ketgin tez.
Shunda papka ichidan
Siyohdon debdi chindan:
— Hurmatli do‘stim, Papka,
Mendan qilmagin o‘pka,
Uyi tomon ketganda
Koptok qilib tepganda,
To‘kilaman har yonga
Ayb qo‘yma sen menga,
Egamiz o‘zi nodon,
Bizni asraydi yomon.
Nima desa egamiz,
Unga bo‘yin egamiz.
Egamdan ko‘p hasratim,
Taqdirlamas xizmatim.
Ichim to‘la non uvoq,
Shu ham bo‘ldimi siyoh?
Papka debdi: — Siyohdon,
Topgin iloj va imkon.
— Qochgin, — debdi Siyohdon, —
Egamiz boisin sarson.
Papkadan kitob, daftar:
— Ma’qul, — debdi bu gaplar.
Papka bir kuni taqqa —
Qochmish noma’lum yoqqa...
O‘sha papka egasi
Qarabsizki, ertasi,
Darsga kepti bepapka,
Rosa qolibdi gapga.

TISH CHO‘TKA, POROSHOK VA ATIRSOVUN ERTAGI

O‘qib ko‘ring, do‘stlarim,
Yozdim sizga bir ertak.
Yaxshi payqab oladi
Bo‘lib tursa kim sergak.
Afsona deb o‘ylamang

Yozganimni tag‘in siz.
Eshmat degan bolani
Siz ham yaxshi tanirsiz.
Ha, men uning ishlarin
Sizga ta’rif etaman.
Bilganimning ko‘pini
Bitta-bitta bitaman.
Eshmat nima bo‘pti-yu
Yalqovlashib qolibdi.
Keyin ancha darslardan
„2“, „3“ ham olibdi.
Maktabiga kechikib,
Borar emish ba’zida.
Vazifani bajarmay
Qizararmish darsida.
Tongda badantarbiya
Qilmoq juda ham foyda.
Lekin barcha ishida
Yo‘q-da tartib-qoida.
Ozodalik odamning
Tani-joniga malham.
Hammom degan joyga-chi
Bormabdi uch oyda ham.
Ustidagi kiyimin
Yurmas tozalab, taxlab,
Hatto odat bo‘yicha
Yuvinmasmish yaxshilab.
Qarang, bir kun Eshmatning
Tishi og‘rib qoldi-ku.
Kuni bilan voy-voylab
Borolmadi darsga u.
Xo‘sh, oshnalar, Eshmatni
Hozir yozmay turamiz.
Nega bunday boiganin
Sababini ko’ramiz.
Eshmatvoyda bor edi
Poroshok, cho‘tka, sovun.
Yuvingga bulami
Ishlatmapti u nechun?

Shundan keyin poroshok,
Sovun bilan tish cho'tka
Rosa suhbat qilishdi,
O'tirishib bir chetga.
Qani, keling, bilaylik,
Uchalasin didini.
Sovunxon gap boshlabdi
Gurkiratib hidini:
— Sizga aytsam rostini,
Juda asl narsaman.
Atirgullar husnidan
Yashnab turar keng chaman.
Mening atir hidimni
Chamanzordan olishar.
Xizmatimga hamisha
Ko'plar qoyil qolishar.
Agar gapni cho'zvorsam,
Do'stlar meni kechiring,
Fikr-u yodim tozalik,
Dushmaniman kir-chirning.
Kimki meni ishlatsa
Bo'lar sog'lom, ozoda.
Shu ishimdan tarqatdim
Yurtga yaxshi ovoza.
Lekin mening qadrimga
Eshmat sira yetmaydi.
Qolib ketdim chang-chungda
Qarang, parvo etmaydi.
Oldinlari Eshmatning
Yuzini ko'p yuvardim.
Uning tani-jonidan
Kasallikni quvardim.
Ko'rdingizmi Eshmatning
Qochip qopti mazasi.
Qildi o'ziga o'zi,
Tortmoqda u jazosin. —
Bor-yo'q gapni gapirdi,
Sovun rosa ko'pirdi.
Tingladi ham tish cho'tka

Va poroshok oitirib.
Shu paytda to'satdan
Jimlikni buzdi cho'tka.
Soqolini silkitib,
O'midan turdi tikka.
— Qarang, bizning Eshmatni,
Uxlolmaydi voy-voylab.
Poroshok va men bilan
Tish yuvmadi bir oy lab.
Oldinlari tishlari
Ko'rinardi dur kabi.
Bajarilardi nuqlu
Eshmatning har talabi.
Fabrikada men uchun
Talay mehnat qilishgan.
Keyin dorixonaga
Tczda olib kelishgan.
Men ham sizday aslman,
Gavdam toza suyakdan.
Qadrlashar har yerda
Do'stlarim chin yurakdan.
Poroshokvoy ma'qullar
Cho'tkavoyning so'zini,
Ulug'sifat tutardi
Poroshokvoy o'zini.
Shunday qilib uch o'rtoq
Rosa uzoq so'zlashdi.
Eshmatvoyga har gapda
Yaxshilikni ko'zlashdi.
Endi, yana, eshiting,
Eshmatvoydan gapni siz.
Tish og'rig'i tuzalib,
Ketgan emish bilsangiz.
U boribdi doktorga
Ushlab olib lunjini
Kiribdi yurib zo'rg'a,
Tishlariga doktor ham
Achinganday bo'libdi.
Ko'rsa Eshmat tishlarin

Kir-chirlarga to‘libdi.
Doktor opa Eshmatga
Ko‘p nasihat qilibdi.
Maslahatni ma’qullab,
Eshmat uygaga kelibdi.
Tishlarini yuvibdi
Poroshok-la cho‘tkalab.
Badantarbiya qilibdi
Ertasiga ertalab.
Bu ishlarni Eshmatvoy
Odat qilib olibdi.
Ko‘rgan tanish-bilishlar
Xursand bo‘lib qolibdi.
Eshmat barcha ishida
Saqlar tartib-qoida.
O‘qishi ham sog‘ligi
Bo‘lib qolgan joyida.



Qudrat Hikmatningbolalr shoiri sifatidagi qirralari rang-barang. Uning badiiy olami nihoyatda boy. Shoirning so‘z va topilmalari, o‘z fikrini badiiy tamsillar yordamida obrazli ifodalash orqali betakror badiiy nutq yarata olish mahorati o‘ziga xos uslubini belgilaydi.

Qudrat Hikmatning bolalar uchun yozgan ko`pgina she`rlarida obrazlilik yetakchi. Xususan, shoirning badiiy san’atlar va tasviriy ifodalar vositasida manzara yaratish mahorati diqqatga sazovor.

Aytaylik, 3-sinf o‘qish kitobida shoirning “Ayamajiz” she’ri keltirilgan.⁵ O‘qituvchi o‘z kasbiy mahorati va adabiy-nazariy bilimi hamda tajribasiga ko`ra she`rni turli usul, yoxud o`yinlar vositasida maroqli o`tishi mumkin. Ammo, Q.Hikmat she`rlariga xos badiiy bo`yoqdorlik o`quvchidan dastlab, so‘z san`ti

⁵ M.Umarova, Sh.Hakimova. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik.T., 2010. –B.84.

mo`jizalarini ilg`ay bilishni taqozo etadi. E'tibor berilsa, she'rning har bir misrasida obrazli detal va tasviriy ifoda uchraydi:

*Biyday cho`lu dalalar,
Bo`ralar qor kapalak.

Bog`lar sokin, mizg`ishar
Misoli oq kapalak.*

Ta'kidlangan so`zlar ham lugaviy ma'nosi, ham obrazli ifodasiga ko`ra muhim. “Biyday” so`zining lug`aviy ma'nosini 3-sinf o`quvchisi anglab yetishi gumon. Shu sababli bu she'rda “ochiq”, “yalang”, “keng” ma'nosida qo'llanayotgani, yana, o`z va ko'chma ma'no ifodalayotgani oydinlashtirilishi lozim. Haqiqatan, qishda dala-dasht hosildan bo`shab, ancha keng bo`ladi, ochilib qoladi. Ammo shoir shiddat bilan qor yoqqandagi (*bo`ralar*) holatga ko`proq urg`u berayotir. Oppoq qor hamma yoqni qoplaganda bir tekisdagi yalanglik ko`zga tashlanadi. Badiiy so`zning jarangi shunda aks etgan. Shoир qorning kapalaksimon yog`ishiga muvoziy oqqa burkangan bog`lar tasvirini chizib, uning “mizg`ishi”ni-da, (ozgina uxlagan, ko`z ilintirgan) kapalakka qiyoslaydi. Shoирning topilmasi shundaki, bog`larning qor yoqqan vaqtdagina sokinlashuvi, yilga nisbat olganda “mizg`ish”dir. Kapalak uyqusini-da, hech kim ko`rmagan. O`quvchi bu kabi ramziy detallar mohiyatini teran anglasagina, she'rning badiiy tas'sirchanligi, estetik zavqi oshadi. Binobarin, she'rdagi “muz oyna”, “sumalak shodalari”, ayamajiz-qishning eng sovuq kunlarini yalmog`izga o`xshatilishi kabilar nafaqat badiiy topilma, balki xalqona ifodasiga ko`ra ham e'tiborni tortadi.

4-sinf O`qish kitobida Q.Hikmatning “Qish tozg`itar momiq par” nomli yana bir she'ri berilgan.⁶ Bunda har bir so`z ustida ishslash muhim. Ya'ni so`z va iboralar o`z yoki ko'chma ma'noda qo'llanayotganini o`quvchilar anglab yetishi zarur. Masalan, she'rning birinchi to`rtligi shunday boshlanadi:

*Savab bulut to`shagin
Qish to`zg`itar momiq par.
Yerga serbar oq namat*

⁶S,Matchonov va boshq. O`qish kitobi. 4-sinf uchun darslik.T., 20011. –B.82.

Yozilganday yaltirar.

Ta'kidlangan so'zlar ko`chma ma'noda obrazlilik kasb etgan. Shuningdek, bunda she'riy san'at namunalarini kuzatish mumkin. Tashxis – jonlashtirish bolalar she'riyatida eng ko`p uchraydigan san'at. Q.Hikmat o`xshatishlari esa mantiqiy asosga ega bo`lishidan tashqari, sodda va betakrordir. To`shakni yumshoq qilish uchun momiq paxta savab solish, ostiga namat tashash (yungdan bosib ishlangan palos, kigiz) insoniy xislatlarga xos. Tabiat hodisasi insondagi ana shu holatlarga o`xshatilmoqda. Bunda momiq parni to`zg`itib savash– qishda qorning mayin, ezg`ilab yog`ishi (o`xshatilayotgan narsa)ga ko`chirib o`tkazilgan.

Ushbu she`rda lirik qahramonning qishdan zavqlanish kechinmasi, ayni paytda qor ko`p yog`ib, sovuq izg`irinning ziyoda bo`lishi tufayli bolalarga xos arazi ko`zga tashlanadi. Hamchunun yosh lirik qahramon qorga:

– Namuncha

Zeriktirding uchqunlab?

Yog`masding-ku ilgari

Surunkasi uch kunlab...

Yetar shuncha yog`ganing

Uzoq dala qirga bor! –deya murojaat qiladi.

Bu jihat apostrofa –ya`ni narsa yoki hodisaga xuddi jonli mavjudotga kabi murojaat etish asosida yuzaga kelgan. Shunga o`xhash, Q.Hikmatning “Bahor” she`ri obrazli ifodalarga boy.

Uchib yurar mayin shamollar

Yelpib- yelpib anhor yuzini

Qirg`oqlarda soyabon tollar

Oyna suvda ko`rar o`zini

She`rni o`qigan yosh kitobxon uning estetik zavqi va jozibadorligini darrov ilg`aydi. Bolalar she`riyati uchun badiiy yuksak tasvir va obrazlilik kamyob hodisa. Shoир chizgan bahor manzarasi umumadabiyotga, nozik tuyg`ularga boy chinakam she'r namunasi bo`la oladi:

“ Ko’kni quchgan teraklar tinmas, Oro berar kulrang po`stiga” misralari jonlashtirishning hamda noyob badiiy topilma namunasi. Bu bolalarning yosh xususiyatlariga juda mos.

Ammo bilamiz-ki, mumtoz adabiyotimizda jlonlantirishning ikki turi keng qo`llangan. Biri tashxis (shaxsga bog`liq)- jonsiz narsalarni jlonlantirish; ikkinchisi intoq (nutq bilan bog`liq) - nutqsiz narsalarni nutq egasi sifatida tasvirlash. Qudrat Hikmat she`rlarida intoq ham ko`p ishlataladi. (masalan “Temirjon bilan telefon” she`rida telfonning insondek shikoyat qilishi ,”Eshak nega hangraydi” she`ridagi sher, fil, tulki, kiyik, eshak va cho`chiqalarning majlisda she`rva eshakning savol javobi kabi...), ammo yuqoridagi “Bahor” she`rida shoir tashxis usulidan mohirona foydalanib, ko`klam obrazini san`atkorona tasvirlaydi. Shu sababli, bu she`rda Bahor o`ziga oro, zeb berib, husnidan sarxush , go`zal qiz sifatida gavdalanadi; tonggi shabboda, tol, maysa , o`t, chinor va teraklar xuddi odamdek bir- birlarini kuzatadilar, ilhomlanadilar, yoki o`zlarini yelpiydilar va h.k. Binobarin, shoir bahordagi dov-daraxtlarni, shamolni insoniyashtiradi.

Umuman, Qudrat Hikmat she`riyatning badiiy xususiyatlari serjilo, shoir fikrlarni rassom singari chizayotganga o`xshaydi. She`r xoh bolalar o`yinlari, xoh boshqa mavzularda yozilgan bo`lmasin , ular eng avvalo bollarni tevarak atrofdagi voqealar va hodisalar bilan tanishtiradi.

Zotan, Qudrat Hikmat she`rlaridagi voqeabandlik obrazlilik qofiyalarning ixchamliligi, hatto sodda tuzilishi, til xususiyatlari barcha-barchasi shoir she`rlarining g`oyaviy- badiiy ematsionalligini oshirishga xizmat qiladi.

V.G.Belenskiyning bolalar bilan obrazlar vositasida gapirish lozimligi haqidagi fikrlari baayni Q.Hikmat ijodiga xosligini uqish mumkin. Zero, Qudrat Hikmat she`rlarni o`qib ulg`aygan o`quvchi o`z ona tilimiz boyliklaridan voqif bo`lib, badiiy so`z qudratini teran his etadi, Vatan va yurt iftixori bilan yashaydi.

ERTALAB

Osmon tiniq, zangori,

Beg‘ubor aft-angori.

Yarqirab nur anhori,

Oftob chiqdi olamga.

- Assalom! - der Yer pastda,

- Assalom! - der el asta.

- Qancha orzu-havasda

- Oftob chiqdi olamga.

- Dovon oshib shod-xandon,

Xursand bo‘lib u chandon,

Yashasin deb har bir jon,

Oftob chiqdi olamga.

BAHOR

Uchib yurar mayin shamollar,

Yelpib-elpib anhor yuzini.

Qirg‘oqlarda soyabon tollar

Oyna-suvda ko‘rar o‘zini.

Tong yellari o‘ynoqlab sekin,

Jiydazorga kirib yo‘qolar.

Maysa o‘tlar tebranib sekin,

Orqasidan kuzatib qolar.

Chumchuqlarning og‘zida cho‘p-xas,

In qo‘yishar tutlar ustiga.

Ko‘kni quchgan teraklar tinmas,

Oro berar kulrang po‘stiga.

Bedapoya, yam-yashil o‘tloq,

Chinorlarda qushlar chug‘urlar,
Ko‘klam ko‘rkin ko‘rdingmi, o‘rtoq,
Chamanzordek hammayoq gullar.

TOG’ MANZARASI

Go‘yo ko‘kka ustun tog‘,
Kiygan suvsar, oq qalpoq.
Cho‘qqilari o‘rkachdek,
Tosh gavdasi keng, yalpoq.
Ko‘ksin bezar alvon gul,
Kifti archa - to‘nlari.
Sho‘x qo‘shiqlar aytadi
Shalola - fontanlari.
Har xarsangi ming botmon,
O’rtasida nil hovuz.
Butalarning tagiga
In qo‘yishgan g‘oz, tovus.
O’tzorlarda chiyovlar
Qirg‘ovulu tustovuq.
Ba’zan quyosh yilt etar,
Ba’zan tushar tez sovuq.
Chodir - uyni ivitib,
Savalaydi sel, jala,
Hurkib kiyik, jayronlar
Qochishar gala-gala.

ALISHER VA KITOB

Kitobga o‘ch o‘g‘ilcham,

Oltin topgan singari,
Chiqsa yangi bir asar
O'qir mendan ilgari.

Mayli, bo'lsin hikoya
Yoki to'rt yo'l quvnoq she'r.
Ayvonchada muk tushib,
Sharillatar Alisher.

Qosh qorayib ketkuncha
Qo'ldan tushmas kitobi.
Unga yoqqan she'rlarning
Hozircha yo'q hisobi.

Olimdek serharakat,
Ishlar puxta berilib.
Uncha-buncha yoshlardek
Oshib ketmas kerilib.

Turna qator savolga
Soldat kabi doim shay.
Hozirjavob bo'lmasdi,
Shuncha kitob o'qimay.

MIX

Qalpoq kiygan askarga
O'xshaydi mix polvon ham.
Birikadi u bilan
Eshigu rom, narvon ham.

U bor uylar saranjom.
Havas qilar har asbob.
Ko‘rinishdan kamsuqum,
Ro‘zg‘or uchun qulay, bop.
Maxsus katak qutida
Saqlashadi tejalab.
Qurilishda ustalar
Ishlatishar rejalab.
Goh yanglishib ko‘p joyga
Qoqib ayb qilishsa,
Qalpogini qiyshaytib,
Uni mayib qilishsa,
Norozilik bildirib,
Mix qoladi qayrilib.
Deraza ham o‘rnashmas
Kesakidan ayrilib.
Ko‘rsa o‘yinqaroqlar
Tepib, sochib ketadi.
Ko‘zim tushsa nogahon
Jonom achib ketadi.
Turli-tuman buyumning
Pay tomiri o‘shadir.
Bo‘lak-bo‘lak yog‘ochni
Bir-biriga qo‘shadir.
Bir istagim bor, uka,
Mixday to‘g‘ri, o‘tkir bo‘l.
Hurmat qilib do‘stlaring
Shunda senga berar qo‘l.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. Shoirlarning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Po'lat Mo'minning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlaridan qaysilarinibilasiz?
3. Qudrat Hikmatning mакtabgacha ta'lif va kichik yoshdagi bolalarga bag'ishlangan qaysi asarlarini bilasiz?

Mustaqil o`qish uchun asarlar:

- 1..Po'lat Mo'min asarlari o`qish
- 2.Qudrat Hikmat she'rlarini yodlash

Adabiyotlar:

- 1.M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.
- 2.M.Jumaboyev. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo'llanma. 1996 y.
- 3.Z. Masharipova T.Matyoqubova O'zbek yozma adabiyotida folklor an'analari Toshkent – 2011
4. www. ziyonet.uz. Bolalar adabiyoti-
5. Paul H. Fry. Theory of literature Yale University- 2012

XUDOYBERDI TO`XTABOYEV VA FARHOD MUSAJON HAYOTI VA IJODI

Reja:

1. Xudoyberdi To`xtaboyevning hayot yo`li.
2. Adib qissalarining g`oyaviy-badiiy mundarijasи.
3. Xudoyberdi To`xtaboyev – bolalar romannavisi.
4. Farhod Musajonning hayoti va ijodiy yo`li.
5. Adib qissalarining g`oyaviy-badiiy mundarijasи.

Novcha niholcha hamon ajal bilan olishib yotibdi, jang bobokalonlar aytishganidek, beomon, shafqatsiz edi. Birin-ketin yashil bargchalari qoyjirab taslim bo`lishdi, shoxchalaridagi hayot so`ndi. «Tanam tirik hali, — entikib dedi novcha niholcha, — men yashashim kerak, albatta yashayman...» U kimdandir yordam kutgandek jovidirab atrofga qaray boshladi. Meni bu yerga ekib, ketmonini asfaltda darangSatib sudrab ketgan bolalar kelib qolmasmlkan, deb yana bir bora ko`cha boshiga ko`z tashladi, yomg`ir tomchilaridan umidvor bo`lib, buiut bo`lmasa ham ko`kka tikilib, uzoq qotib turdi... Keyin to`satdan sersuv adirlarda birga o`sgan ukalarining o`ligiga ko`zi tushib qoldi.. Qiziq, hammalari tik turgancha jon berishibdi... O`tgan yili xuddi shu kecha-kunduzlarda hammalari tirik, yayrab-yashnab batq urib o`sishayotgan edi... Endi bo`lsa... «yo`q, men yashashim kerak...». - Suv! Suv! Suv!


Qaddi-qomati kelishgan novcha niholcha asta-sekin o`zidan ketib, allaqanday sehrli xayolot nash`asi bilan mast bo`la boshladi, keyin o`sha kun — haddan tashqari qizdirib yuborgan 19 iyun kuni kunduz soat oltilarda jon berdi. Tik turgancha qotib qoldi u...

Bu atoqli adib Xudoyberdi To`xtaboyevning shoh asarlaridan biri - «Nihollar nolasi»dan parcha. Bu asarni bolalar behad sevib o`qiydilar, o`zlariga xulosalar chiqaradilar. Haqiqatan ham nihol — daraxtning xuddi inson kabi joni borligi, ozuqa suvga ehtiyoji; parvarish qilinmasa yosh kitobxon qalbini achitib, tug`yonga solib halok bo`lishi asosini tashkil etadi.

Xudoyberdi To`xtaboyev katta-yu kichik bolalaming sevimli adibi. U hozirgi zamон o`zbek bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastika janrlarining rivojlanishiga katta hissa qo`shib kelayotgan talantli adib sifatida kitobxonga ma`lum va mashhurdir.

Xudoyberdi To`xtaboyev 1932 yilning 17 dekabrida Farg`ona viloyatining O`zbekiston tumaniga qarashli Kattatagob qishlog`ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Boshqa bolalar qatori Xudoyberdi ham poda boqdi, yer chopdi, paxta terdi, xullas, qishloqda bo`ladigan hamma mehnatlarda hol-qudrat ishtirok etdi, hayot nimadan iborat ekanligini yoshligidanoq bila boshladi. Bo`lajak adib ikkinchi jahon urushi

yillarida o`qishni yig`ishtirib, dalada ketmon chopdi, hisobchilik qildi, mashaqqatli mehnat bilan suyagi qotdi. Qo`qon pedagogika bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagan X.To`xtaboyev ona qishlog`ida tarbiyachilik qilar ekan, unda iimga cheksiz ishtiyoq uyg`onadi. Shuning uchun ham u o`qituvchilikni tashlab, Toshkent davlat dorilfununiga o`qishga kirdi. Bu yerda Alisher Navoiy, Bobur, G`G`ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor asarlarini sevib o`qidi, o`rgandi.



Universitetni tugatib, Bog`dod tumanida o`qituvchilik qildi. Ilmiy bo`lim mudiri, direktorlik lavozimlarida ishlab, bolalarni ilm-fan nuriaridan bahramand etish ishlarida faoliyat ko`rsatdi. She`riy mashqlari vaqtli matbuot sahifalarida e`lon qilina boshladi.

Bu esa bo`lajak adibni markazga - Toshkentga ijodiy ish bilan jiddiy shug`ullanishga chorlar edi. Shunday ham bo`ldi. U 1958 yilda Toshkentga ko`chib keldi. «Toshkent haqiqati» gazetasiga ishga kirdi. X.To`xtaboyev bolalikdan to`g`ri so`z, halol, pok va mehnatsevar bo`lib o`sdi. Gazetada ishlar ekan, ba`zi porok odamlarni ko`rib, ularning qilmishlarmi hazm qila olmadi. Bunday kishilarmng sir-asrorlarini fosh etishga, el-yurt o`rtasida munofiqlarning yaramas tomonlarini ochib tashlashga qaror qildi. Bu borada unga feleton janri qo`l keldi. 1962 yilda respublikamizning otaxon gazetasi - «O`zbekiston ovozi» ga feletonchi bo`lib ishga o`tdi. Bu yerda 300 dan ziyod feleton yozdi. «Hadik», «Tilxat», «Ona», «Xarakteristika», «Barvaqt aytilgan azon», «Domlaning uyiga o`t ketdi», «Maxsus topshiriq», «Jonginam, shartningni ayt» kabi kattalar uchun qissa va hikoyalar yozgan X. To`xtaboyev bolalar uchun ham hikoyalar yarata boshladi. Uning «Birinchi daraxtim», «Qochoqlar», «Qizg`anchiq», «Dadajon, yozmang», «Kelvordim, dada», «Vali bilan Salim», «Shoshqaloq», «Yaxshi-yaxshi» singari o`nlab hikoyalari yosh kitobxonlarda katta qiziqish uyg`otdi. «Kichkina rais»

hikoyasining qahramoni kichkintoy o`quvchi bola. Lekin Foziljonning xatti-harakati, intilishi, paxta dalalarini sergaklik bilan kuzatishi, fikr yuritishi raislarga xos.

Foziljonning ona zaminga, odamlarga nisbatan qiziqishi ta`sirli chizilgan. Kimsasiz, g`irt yetim bola o`z qishlog`i, atrofidagi odamlar bilan sevinib, quvonib yashaydi. O`zini ularning bag`rida erkin his etadi.

Xudoyberdi To`xtaboyevda yozuvchilikka ishtiyooq uyg`otgan, qobiliyatming shakllanishida muhim rol o`ynagan, asarlariga qaytarilmas rang va jilo bergen narsa hayot, vaqtli matbuot, redaksiyalardagi qaynoq ijodiy muhit va qunt, chidam bilan o`qish, o`rganish, o`z ustida ishslash bo`ldi.

Hayotda turli xarakterdagи odamlar ko`p bo`ladi. Birov yaxshilik qilaman deb yomonlik qilib qo`yganini o`zi ham sezmay qoladi. Birov o`zini jamoat uchun g`oyat foydali odamman deb o`ylaydi, aslida esa zararkunanda bo`lib chiqadi. Yana birov bilar-bilmas har narsaga aralashaveradi, o`rtagatushadi, so`z beradi, lekin baribir men haqman, shunday qilishim kerak deb biladi. Ana shunday kishilargabag`ishlangan «Jonginam, shartingni ayt» qissasi Xudoyberdi To`xtaboevni hajvchi adib sifatida kcng kitobxonlar ommasiga tanishtirdi.

Xudoyberdi To`xtaboyev uzoq yillar feletonchi bo`lib ishlab, kishilarning yurak dardini, hasratini qunt bilan o`rgandi. Bunday shikoyatlarga sabab bo`layotgan shaxslarning xatti-harakatlarini mufassal bilib olishga intildi. Davrdan orqada qolgan, sarqit deb atalgan illatlar botqog`igabotgan, molu dunyoga hirs qo`ygan shaxslar haqida birtalay feletonlar yozdi. «Sariq devni minib», «Sariq devning o`limi» nomli asarlari ana shu faktlarniumumlashtirish asosida yuzaga keldi, desak to`g`ri bo`ladi.

Ma`lumki, hajviy qissalarimiz barmoq bilan sanarli edi. «Kalvak maxsum», «Toshpo`lat tajang», «Tirilgan murda», «Shum bola»dan keyin ancha vaqt bu janrda aytarli asar yaratilmadi. Keyingi yfflarda Abdulla Qodiriy va G`afur G`ulomning an`analarini Xudoyberdi To`xtaboyev davom ettirib, bu «bo`shliq»ni to`ldirishga harakat qildi.

O'n to'rt yoshli o'smirga aytadigan gapingizdan albatta, farq qilislii kerak», deb ta⁴ Mdlaydi u. Yozuvchining bolalar va o'smirlarga atab yozgan asarlarining qiziqarli, o'qimishli, jozibali bo`lishining asosiy sabablaridan biri ham shu. Shuning uchun ham Xudoyberdi To`xtaboyevning birinchi yumoristik-sarguzasht qissasi, bolalar hayotidan olingen «Sehrli qalpoqcha» tez orada bolalar hurmatiga sazovor bo`ldi va uni jamoatchilik juda yaxshi kutib oldi.

Yozuvchining yumorga moyilligi, oddiy vaziyatlardan ham kulgi chiqara olish iste`dodi ilgarigi asarlariga nisbatan bu asarida yana ham chuqurroq sezildi. «Sariq devni minib» asarini qiziqarli syujet asosiga quradi, asarning hikoyachisi — bayonchisi qilib undagi barcha voqealarning ishtirokchisi, guvohi bo`lmish Hoshimjonni qo`yadi, tilga olinadigan voqealar uning tilidan hikoya qilinadi. Yozuvchi Hoshimjonning hikoyasi orqali uning hayot yo`li sarguzashtlarini, o`ziga xos xarakteri va psixologiyasini atroflicha ochib beradi. Shuningdek, Hoshimjon xarakterida Xo`ja Nasriddinning va xalq ertaklaridagi «tegirmonga tushsa butun chiqadigan» zukko bolalarning fazilatlari yaqqol mujassamlashganligini ko`ramiz.

«Sariq devni minib» da o`qish, ilm cho`qqilarini egallash uchun va insonning o`z orzusi, ezgu niyatiga erishish uchun barcha imkoniyatlarni yaratib bergen zamonamizda yashashiga qaramay, dangasalik, yalqovlik qilgan, hayotda yengil-elpi yashashga yo`l axtargan va adashgan bolalar — hoshimjonlar kulgi ostiga olinadi:

Hoshimjon dehqon oilasidan chiqqan, sho`xligi olamni buzadigan bir bola. U hayotdagagi ko`p narsaga mehnatsiz, qiyinchiliklarsiz oson yo`l bilan erishgisi keladi. Mehnatsiz va ilmsiz ham kishi istagan narsaga erisha olishi, katta obro` orttirishi mumkin, deb o`ylaydi. O`z fikrida qat`iy turgan Hoshimjon muddaosini amalga oshirish uchun buvisi aytib bergen ertakdagagi sehrli qalpoqchani izlashga tushadi, uzoq izlanishlardan keyin istagan ishini hech qanday mashaqqatsiz bajarishga yordam beradigan sehrli qalpoqchani tashlandiq molxonadan topib oladi. Endi u o`zini orzulariga batamom erishadiganday his etadi, «Ortiqcha» fanlami dars jadvalidan chiqarishni rad etgan direktor, har xil vazifalar berib «miyasini qotiradigan» o`qituvchilariga o`qimasdan ham har qanday kasb egasi, mashhur odam bo`la olish, ko`krak to`la nishonlar bilan shon-shuhratlar, katta obro`ga ega bo`iish

mumkinligini ko`rsatib qo`ymoqchi bo`ladi va shu maqsadda sehrli qalpoqcha bilan safarga chiqadi. Shunday qiiib uning sarguzashtlari boshlanadi.

Ming afsuski, sehrli qalpoqcha bu borada Hoshimjonga ko`mak berolmaydi. Sehrli qalpoqcha muhayyo etgan imkoniyatlar har safar kutilmagan ko`ngilsiz oqibatlarga olib kelaveradi. Hoshimjonning baxti endi kulay deb turganda ishning pachavasi chiqib qolaveradi. U davlat xo`jaligida agronom bo`lib ham, «shoirlik qilib» ham, qurilishda muhandislik qilib ham, qo`g`irchoq teartida artistlik qilib ham ko`radi, mashhur sayohatchi sifatida butun dunyoni kezmoqchi ham bo`ladi. Lekin hamma yerda ilmining, tajribasining yo`qligi ishning pachavasini chiqaraveradi. Hoshimjon qaerga bormasin, qanday ish qilmasin pirovardida sharmanda-yu sharmisor bo`ladi. Uning agronomlik va muhandislik «faoliyati» jinoyatga olib keladi, qamalishiga sal qoladi, shoir bo`laman deb rasvo bo`ladi, «kulug` artist» teatrda quviladi.

Qissada Hoshimjon o`z sayohati davomida qanchadan-qancha ajoyibotlarning guvohi bo`lib, qiziq, kulgili sarguzashtlarni boshidan kechiradi. U o`qimay, mehnat qihnay, o`z ustida ishlamay juda ko`p narsalarga erishmoqchi bo`ladi, lekin u hech narsaga erisha olmaydi. Chunk! unga ilmsizligi pand beradi.

Yozuvchi Hoshimjon obrazini butun qirralari bilan ochishga uringan. Boialarga xos o`yinqaroqlik ham, soddaligu beg`uborlik ham, g`ururlilik, to`g`ri so`zlik, shumlik bir oz maqtanchoqlik, hatto o`rnida yolg`onni ham do`ndirib yuboradigan, o`zini boshqalardan ajratib ko`rsatishga intilish odatlari, boialarga taqlidchilik, dovyurak, epchil va raiyi tetiklik, xafachilik va mhiy tushkurdikdan yiroqlik ham Hoshimjon xarakteriga xos xususiyatdir.

Xudoyberdi To`xtaboyevning «Sariq devning o`limi» sarguzasht romani uch qism («O`rtoq polkovnik», «Sariq devni quvib», «Sariq devning o`limi yoki olam guliston bo`lgani»)dan iborat. Bu roman asosida ham Hoshimjon sarguzashtlari yotadi. Kitobni o`qib uning yangi sarguzashtlaridan xabardor bo`lasiz, sehrli qalpoqcha yana madadga keladi, ajoyib-g`aroyib karomatlar ko`rsatadi. U Hoshimjonga jiddiy masalalarda — o`g`ri, muttaham, tekinxo`rlarni fosh etishda yordam beradi.

Endilikda Hoshimjon aynan avvalgi o`yinqaroq Hoshimjon emas, balki to`qqiz yillik maktabni bitirib, ulg`ayib, birmuncha quyulib, esi kirib, oq-qorani tanib qolgan yigitcha. Endi u o`z hayoti, taqdiri, jamiyatga foyda yetkazadigan odam bo`lib yetishi haqida jiddiy o`ylaydi, biror kasb egallash haqida bosh qotiradi. Boshida sartarosh bo`ladi. «Bilasizku, bir ishga ahd qilsam, uni oxiriga yetkazmaguncha qo`ymaydigan odatim bor. Jonirnni qiyab bo`lsa ham maqsadimga erishaman», deb shu kasb orqali odamlarga xizmat qilishga bel bog`laydi. Keyin milisiya maktabiga kirib o`qib, uni bitirgandan so`ng milisionerlikka ishga o`tadi. Kitobdag'i barcha voqeа-hodisalar, sarguzashtlar Hosliimjonning ana shu rnilisionerlik nuqtasidan boshlanadi, hamma gap-so`zlar qahramonning shu kasb-kori bilan bog`liq holda davom etadi.

Romanda yaxshilik, ezgulik ramzi sifatida milisiya polkovnigi Salimion, uning madadkori Hoshimjon, yomonlik, eskilik ramzi tarzida Odil battolgavdalaniadi.

Ular o`rtasida tinimsiz shiddatli kurash ketadi. Odil nihoyatda makkor, u Salimjon boshiga juda ko`p og`ir savdolar solgan, uyiga o`t qo`yan, uning yakka-yu yolg`iz farzandining qo`liga to`pponcha tutqazgan, jinoyaiga yetaklagan. Asar pirovardida butun umri davomida xalqqa, yaxshi odamlarga zarar yetkazish bilan shug`ullangan Odil battol va uning hamtovoqlari qonuniy mag`lubiyatga uchraydi, haqiqat,adolat,ezgulik g`olib chiqadi.

Xudoyberdi To`xtaboyev o`z romanida yulg`ichlarga, qalloblarga qarshi kurashda butun xalq bir kishiday bo`lib birlashsa, bu ishni butunlay o`z qo`liga olsa, Odil battollarga qiron keladi, ulardan nom-nishon ham qolmaydi, degan fikrni o`rtaga tashlaydi.

«Sariq devni minib» qissasi, «Sariq devning o`limi» romanining eng yaxshi fazilatlaridan bin tffining shiradorligi va o`ynoqiligidadir. Muallif bosh qahramon Hoshimjonning tilini alohida e`tibor bilan ishlagan. Bu til nozik qochirimlarga boyligi va jonliligi, shu bilan birga bolalar tiliga mos holda soddaligi bilan ajralib turadi. Qahramonning xarakteri uning so`zlaridan shundoqqina bilinib turadi.

Fantastik-sarguzasht janri bolalar adabiyotining eng qiziqarli janrlaridan biridir. Bunday asarlar bolalarning ongi va psixologiyasiga kuchli ta`sir ko`rsatadi,

ularni o`qishga, o`rganishga, izlanishga o`rgatadi, jamiyatimizning faol quruvchilarini tarbiyalashga yordam beradi.

«Qasoskorning oltinboshi» romani markazida bosh qahramon — tarixiy shaxs, xalq qasoskori Namoz taqdiri yotadi. «Qasoskorning oltin boshi» tarixiy-biografik roman emas, shuning uchun ham muallif Namozning hayotini batafsil yoritib berishni maqsad qilib olgan emas. Lekin adib o`rni-o`mi bilan uning hayotiga doir ma`lumotlar berib borgan. Bu ma`lumol l;n uning xarakterini tushunib olishda kitobxonga yordam beradi.


Namoz faqatjismonan emas, aqlan ham yetuk. U haqiqat uchun qasoskoi, qo`rqmas, tadbirkor, ochiq ko`ngil qahramon sffatida gavdalantirilgan. U atroflga o`zi kabi dovyurak yigitlarni to`plab, zulmkorlarga qarshi kurashga undaydi.

Halolligi, mardligi,adolatliligi, yetimparvarligi uchun xalq Namozniyaxshi ko`radi va uni Go`ro`g`liga qiyos qiladi. «Go`ro`g`libek Namozboy qiyofasida paydo bo`lgan emish. Afsun o`qisa ko`zdan g`oyib bo`lib qolarmish, Undan o`q o`tmas emish, qilich chopmas emish...»

Namozning mardligi, jasorati xalq qalbida mangu yashab kelayotganligi «Qasoskorning oltin boshi» da yaxshi chizib berilgan.

Talantli bolalar adibi Xudoyberdi To`xtaboyevning «Sir ochildi», «Ақйука Омонбой билан Давронбоўнинг қишлоққа газ олиб келганлари хақида жн қисса», «Беш болали ўигитча», «Ширин қовунлар мамлакатидаги яхши сарларниң жангы», «Мунгли ко`злар», «Жармати одамлар» каби ўирік асарларының **yuzij** I көліші о`zbek bolalar adabiyotining yutug`i hisoblanadi. U bolalar iieliu yanada o`qimishli asarlar yaratish maqsadida tinimsiz izlanmoqda.

Farhod Musajonov



Farhod Musajonov 1933 yil 19 dekabrdan
Toshkent shahrida tug‘ilgan.

Farhod Musajonov — ko‘p qirrali
ijodkor. U nosir, dramaturg va
kinossenaristdir. 1933 yilning 19 dekabrida
Toshkentda tavallud topgan. 1956 yilga kelib,
Toshkent Davlat universitetining sharq
fakultetini muvaffaqiyatli tugatgan.

Respublika radiosи, televideniesи hamda «O‘zbekiston madaniyati» gazetasи,
«G‘uncha» va «Sharq yulduzi» jurnallarida ishlagan. «O‘zbekfilm» (1967)
studiyasida xizmat qilgan. 1968—1970 yillarda Moskvada ssenaristlar Oliy
kursida o‘qigan. 1976 yillari «O‘zbekfilm»da turli lavozimlarda, «O‘bekkino»
aksionerlik kompaniyasida xizmat qilgan.

O‘zining qisqa hajmli va hayajonli hikoyalari, mazmundor qissalari,
kichkintoylarni to‘lqinlantiradigan pesalari bilan bolalarning quvonchlariga
quvonch ulasha olgan qalamkashlardan biri Farhod Musajon 1933 yilda Toshkent
shahrida tug‘ilgan. 1956 yilda ToshDUNing sharq fakultetini tamomladi. Bir necha
yil O‘zbekiston radiosida, “O‘zbekiston madaniyati” gazetasida, “G‘uncha”
jurnalida mehnat qildi. 1966 yildan esa “O‘zbekfilm”da muharrir, keyinchalik bosh
muharrir vazifalarida o‘z faoliyatini davom ettirdi.

F. Musajonning ilk asari 1955 yilda e’lon qilingan. Shundan so‘ng
“Daradagi qishloqda” (1960), “Turdi, galstuk va men” (1970), “Oftobni quvlab”
(1970), “Chin do‘stlik” (1976), “Chevar qiz” (1982), “Buloq suvi” (1982), “Turdi,
velosiped va men” (1983), “Glotok rodnikovoy vodi”, “Tekin tomosha” (1989)
kabi kitoblarining maydonga kelishi bolalar uchun katta bayram bo‘ldi.

1977 yilda adib o‘zining bolalarga atab yozgan barcha hikoyalarini jamlab,
yigirma ikki taboqdan iborat katta kitobini qayta ishlagan va to‘ldirilgan holda
chop ettirdi. Bu kitobini ham ilgarigisiga o‘xshab “Tekin tomosha” deb atadi.

Oldingisidan farqli o‘laroq, bu kitob uch qismdan iborat: kichkintoylar uchun, o‘rtancha yoshdagilar va o‘smirlar uchun.

Farhod Musajon ijodining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, uning aksar hikoyalari quvnoq hazil-mutoyiba hissi bilan sug‘orilgan. Adibning barcha hikoyalarda beg‘ubor va zavqli bolalik davri ruhiyati saqlangan. Shuning uchun uning hikoyalari oson o‘qiladi, oson hazm bo‘tadi. Natijada ta’sir kuchi ham ortadi.

Adib ijodining yana bir jihat u o‘z personajlarini yomon yoki yaxshi, adabiy atamalar qo‘llab aytadigan bo‘lsak, salbiy yoki ijobiya ajratmaydi. Ularga baho berar ekan, fe’l-atvori qandayligini tasvirlar ekan hech qachon kuchli iboralarni, “ablah, iblis, yaramas, gazanda” va hokazo haqoratomuz, qattiq-quruq so‘zlarni ishlatmaydi. Zero, inson sifatida endi shakllanayotgan bolalarga nisbatan bunday o‘tkir so‘zlarni ishlatish insofdan vaadolatdan emasligini tushunadi. U o‘z qahramonlarini, qandaylidan qat’i nazar, o‘yinqaroqmi, lapashangmi, ayyormi, dangasami, maqtanchoqmi – hammasini birday sevardi va sevib tasvirlardi. Uning uchun yomon bola umuman yo‘q, kamchiligi bo‘lishi mumkin, deylik yolg‘onchiroq, xasisroq, xudbinroq, lekin nokas bola yo‘q, har qanday bolani ham to‘g‘ri yo‘lga solib yuborish mumkinligiga ishonardi. Va shu muborak maqsad yo‘lida ijod qildi.

Farhod Musajonning o‘ziga xos uslubi bor edi. Uning asarlaridan bir parchagina o‘qigan odam muallifning kimligini aniqlab olishi mumkin. U aniq, sodda, tushunarli va ixcham yozardi. Shu sababli katta mahorat evaziga yillar davomida paydo bo‘ladigan va shakllanadigan badiiy soddalik tufayli uning asarlari o‘qimishli chiqadi. Bolalar tili bilan aytsak, hikoyalari “rostakam bo‘lgan voqeaga o‘xshaydi”. Darhaqiqat, adib voqealarni xuddi hayotdagidek ishonarli va qiziqarli qilib so‘zlab beradi. Bu juda muhim. Negaki bolalar hikoya voqealariga ishonmasalar asarning ta’sir kuchi yo‘qqa chiqadi. Mana shu omil – ishontira olish mahorati Farhod Musajon ijodining eng muhim xususiyatlaridan edi.

Farhod Musajon barcha yoshdagagi bolalar uchun yozdi. Uning kitoblari orasida maktabgacha tarbiya yoshidagi, maktab yoshidagi, kichik va o‘rta hamda

katta yoshdagi bolalarga va o'smirlarga bag'ishlangan asarlarini ham uchratish mumkin.

Ma'lumki, maktabgacha tarbiya bolalar kitobxonligi, asosan, ota-onalar, tarbiyachilar tomonidan amalga oshiriladi. Bolalar o'zлari tinglagan asarlari yordamida atrof-muhit bilan tanisha boradilar. Ona yurtga, tabiatga muhabbat xislatlari; mehnat qilish va mehnat ahlini hurmat qilish kabi fazilatlar shu yoshdan shakllana boshlaydi. Turmushda qizg'anчиq bo'lmaslik, kasbhunar egallashga intilish, kattalarni hurmat qilish kabi ijobiy fazilatlar ham shular jumlasiga kiradi. Bolalarning pedagogikpsixologik xususiyatlarini yaxshi o'rgangan Farhod Musajon kichik yoshdagi bolalarga bag'ishlab "Eng yaxshi chana", "Shodiyona kun", "Shiqildoq", "Pahlavon va nimjon", "Sovg'a", "Ajoyib buzoqcha", "Yaxshilik", "To'lab ber", "Varrak", "Dog" kabi o'nlab hikoyalar yaratgan.

Adibning "Varrak" asarining mazmuni oddiygina varrak yasash voqeasi asosiga qurilgan. Asarda kichkintoylarni bolalikdan boshlab mustaqil harakat qilishga chaqiriladi.

Ana shunday jozibali asarlaridan yana biri "Eng yaxshi chana"dir. Bu hikoyada qo'li ochiq, saxovatli, bag'ri keng bo'lish, xasis, ziqna bo'lmaslik kabi g'oyalari kichkintoylar ongiga yetkaziladi.

Latifjonga dadasi chana olib beradi. Quvonchdan bolaning boshi ko'kka yetay deydi.

Latifjon boshda ancha qizg'anчиq bo'ladi. Shuning uchun chanada bitta o'zi uchadi. Boshqalarni chanaga yaqin keltirmaydi, unga birovning qo'li tegib ketsa, chanani ko'tarib uyiga chopadi.

Latifjonning dadasi o'g'lidagi bunday qizg'anchiqlikni payqaydi, lekin unga pand-nasihat qilib o'tirmaydi. Aksincha, quyidagi ibratli hikoyatni keltiradi:

– Bilasanmi, – debdi dadasi o'g'liga, – men bu ajoyib chanani qayerdan oldim? Bunaqasi magazinda sotilmaydi, bu buyurtma bilan qo'lda yasalgan chana. Uning yoshi oltmishda. Ha, oltmish yil burun bu chanani bir og'aynimning dadasi olib bergen ekan. Og'aynim o'sha paytda sendek ekan. Chananing chiroyliligini ko'rib uchishga uning ham ko'zi qiymabdi. Kattaroq bo'lganimda ucharman, hozir

bolalar tortib olib eskitib qo‘yishadi, deb asrab yuraveribdi. Oradan yillar o‘tibdi, bir kuni qarasa bolaligi tugab, chol bo‘lib qolibdi. Endi unga chana kerak emas ekan, chunki qariganda uyalmasdan chana uchadimi?! Og‘aynim chanani menga sovg‘a qilar ekan, beg‘ubor bolalik chog‘imda maza qilib ucholmadim, ishqilib sening o‘g‘lingga yaxshi xizmat qilsin dedi. Shunaqa, o‘g‘lim, qizg‘anchiq odam zavqdan mahrum bo‘ladi!

Latifjon boshda dadasing bu gaplariga tushunolmaydi. Yuragining allaqayeri jiz etgandek bo‘ladi. Nihoyat u dadasiga yuzlanib:

– Ertadan boshlab ayamasdan uchaman, – dedi.

Adibning “Sovg‘a” hikoyasi bolalarni mehnatkash bo‘lishga da’vat etadi. Oqiljonning gul ekishi, uni mehr bilan parvarish qilishi kichik kitobxonda katta taassurot qoldiradi.

“Turdi, galstuk va men” hikoyasi uzoq yillardan beri yosh kitobxonlarning sevimli asarlaridan biri sifatida e’zozlanib kelinadi.

Hikoyada ozodalik, shahar tozaligi uchun kurashish bosh masala qilib qo‘yiladi. Turdi va G‘iyos kabilarning shahar tozaligida faol qatnashmaganliklari, dangasaliklari fosh qilinadi.

Xullas, Farhod Musajon o‘zining maktabgacha va mактаб yoshidagi kichik bolalarga bag‘ishlab yozgan hikoyalarida salmoqdur fikrlarni sodda, bolalarbop shaklda aytadi. Adib nasihat qilish yo‘lidan bormaydi, aksincha, bolalar hayotida ko‘p uchrab turadigan oddiy voqealarni tasvirlaydi va aytmoqchi bo‘lgan muhim gaplarni ana shu voqealar mag‘ziga singdirib yuboradi.

Farhod Musajonning “Orzuga ayb yo‘q”, “Bo‘sh kelma, Aliqulov”, “Buloq suvi” kabi va boshqa qissalari o‘zbek bolalar adabiyotida muhim o‘rinda turadi.

Farhod Musajon dramaturg sifatida ham yoshlarning mehrini qozongan. “Xayolparastlar”, “Oq kabutar”, “Sabil qoldi”, “O‘g‘limni qaytarib beringlar” pesalari shular jumlasiga kiradi.

Bular orasida, ayniqsa, “O‘g‘limni qaytarib beringlar” asari mashhur. Dramaturg uning nomini o‘zgartirib “Najot istab” deb qaytadan ishladi. U hozirgi

O‘zbek Milliy teatrda sahna yuzini ko‘rdi. Dushanbeda, va Almatida, Tataristonda qo‘yildi.

Pesada, asosan, bola tarbiyasida ota-onaning o‘ynaydigan beqiyos katta roli haqida gap boradi.

Farhod Musajonning kattalarga bag‘ishlab “Bahor nafasi”, “Bu ko‘zlarga ishonsa bo‘ladi”, “Xotin kishining ra’yi”, “Ko‘r shofyor”, “Zo‘raki kashanda”, “Nozik masala”, “Kalla-pocha”, “Himmat”, “Bog‘ ko‘cha” kabi kitoblari bosilib chiqqan.

Iste’dodli bolalar adibi, dramaturg va ssenarist F. Musajonov «Shuhrat» medali bilan taqdirlangan (2000). 2013 yil 28 may kuni Toshkent shahrida vafot etgan.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. Yozuvchining tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. Xudoyberdi To’xtaboyevning sarguzashtik romanlarini tahlilqiling?
3. Farhod Musajonning maktabgacha ta’lim va kichik yoshdagi bolalarga bag‘ishlangan qaysi asarlarini bilasiz?

Mustaqil o`qish uchun asarlar:

- 1.Xudoyberdi To’xtaboyevning asarlari o`qish
- 2.Xudoyberdi To’xtaboyevning hikoyalari o`qish
- 3.Farhod Musajonning hikoyalari o`qish.


III BO`LIM. HOZIRGI DAVRDAGI O`ZBEK BOLALAR ADABIYOTI TARAQQIYOTI

**MIRAZIZ A’ZAMNING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI.
M.A`ZAM SHEHRLARIDA HAYOTGA MUNOSABAT, IJTIMOIY
ZIDDIVATLARNING BADIY TALQINI. ADIB DRAMALARINING**

MAKTAB SAHNASIDAGI AHAMIYATI. TURSUNBOY ADASHBOYEV IJODIDA ONA-TABIAT VA VATAN MADHI. T.ADASHBOYEVNING SO'NGGI YILLARDAGI IJODIY FAOLIYATI. SHOIRNING ONA- TABIAT VA VATAN MAVZUSIDAGI SHE'RLARI BADIYATI

Reja:

- 1.Miraziz A'zamning hayoti va ijodi
- 2.M.Ahzam shehrlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini.
- 2.Tursunboy Adashboyevning hayoti va ijodi.



Miraziz A'zam 1936-yilda Toshkent shahrida tug‘ildi. Maktabda o‘qib yurgan kezlaridayoq she’riyatga qiziqdi. She’riy mashqlarini Quddus Muhammadiy va keyinchalik Qudrat Hikmat boshchilik qilgan adabiy to‘garakda sinovdan o‘tkazar, ijodiy izlanish, o‘qish va o‘rganishni qizg‘in davom ettirar edi.

Adabiyot va she’riyatga bo‘lgan chanqoqlik uni ToshDuga yetakladi. Adabiy mashqlari bolalar va o‘quvch ilar gazetalarida, «Gulxan», «G‘uncha» jurnallarida bosila boshladi.

Universitetni muvaffaqiyatli tamomlagan Miraziz A'zam bir qator gazeta va jurnallarda ishladi. Shoirning bolalar va kattalarga bag‘ishlangan «Metallurg», «Aqli bolalar», «Senga nima bo‘ldi?», «G‘alati tush», «Er aylanadi», «Erga dovruq solamiz», «Haqiqatning so‘zlari», «Sabot», «Tuyg‘ular», «Bir cho‘ntak yong‘oq», “Qirq bolaga qirq savol”, “Eng yorug‘ yulduzlar”, “Sevaian”,

“Tuyg‘ular”, “Sabot”, “Haqiqatning ko‘zлari”, “Imon” kabi asarlari bolalar kitob javonlaridan mustahkam o‘rin olgan.

Bolalarning jo‘shqin shoiri Miraziz A’зам ozod va obod Vatanimiz haqida jo‘shib she’rlar, dostonlar yaratgan ijodkor sifatida e’zozlanadi. E’tibor bering, uning bir she’rida yosh qalbning ona yurtimizga bo‘lgan faxri, g‘ururi, mehri, sadoqati quyidagicha o‘ynoqi misralarda o‘z ifodasini topgan:

Vataniimz guliston,
Guliston bo‘lsin,
Kundan kunga yashnasin
Bo‘ston bo‘lsin.
Hayot to‘kin, farovon,
Tinch-omon bo‘lsin.

Suyukli bolalar shoiri Vatanimizni qanday sevsما, ardoqlasa, ona –tilimizni ham ana shunday muhabbat bilan sevadi. “Ona tilim” asarida ilgari surgan fikrlari bolalarni ona-tilimizni sevishga, ardoqlashga chaqiradi:

Ona tilim, turkiy tilim,
Ardoqligim, o‘zbek tilim.

Avaylayman seni doim
Qoboq ila ko‘zdek tilim.


Miraziz A’зам har bir asarida bolajonlar uchun, albatta, bir yangilik, yaxshi gap aytish ishtiyogi bilan qaynab-toshadi va buning uddasidan chiqadi. Masalan, «Er aylanadi» she’rini olib ko‘raylik. Bunday olib qarasangiz, bu bir oddiy gap. Axir necha ming asrdan beri u aylanadi, yana aylanaveradi, bu haqda jozibali she’r bo‘lishi mumkin emas, degan tushuncha xayolingizdan o‘tadi. Lekin she’rni o‘qiydigan bo‘lsangiz sizning tasavvuringiz butunlay o‘zgaradi. Murg‘ak qalb u yoqda tursin biz kattalar ham yerning aylanishi, onlarning o‘tishi, shamolning esib turishi bilan o‘sib-ulг‘ayishimiz, kamol topishimiz, bunyodkorlik ishlarimiz ko‘z o‘ngimizdan o‘tadi. Qilgan yaxshi-yomon ishlarimizni o‘ylaymiz. «Er aylanadi» she’rida xuddi shu haqda bahs yuritiladi:

Asta-asta shamol esadi,

Asta-asta yer aylanadi.
Asta-asta odam o'sadi,
Asta-asta yer aylanadi.
Asta-asta ulg'ayar aql,
Asta-asta yer aylanadi.
Asta-asta yetilar naql,
Asta-asta yer aylanadi...

Miraziz A'zamning «Qirq bolaga qirq savol», «G'alati tush», «Nurhon bilan Burhon», «Ota bilan bola», «Bir cho'ntak yong'oq» (turkum), «Alla», «Bola va ona», «Yo'tal bobo» kabi she'r va qo'shiqlari, «Asror», «Erk qushi», «Ona yurt osmonida», «Antiqa» kabi doston, ertak-dostonlari bolalarda katta qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Bolalar adabiyoti taraqqiyotiga katta ulush qo'shayotgan Miraziz A'zam hozir yangi-yangi asarlar ustida ishlamoqda.



Tursunboy Adashboev 1939-yilda Qирғизистонning О'ш вилоятига қарашли Olabug'a туманидаги Safed Bulon qishlog'ida tug'ilган. У Ташкент давлат dorilfununini hamda Jahon adabiyoti institutini bitirgan. Shoir «Olatog'-lolatog'» kitobida yozganidek, ikki elning farzandidir:

O'zbek, qирғиз qoni singgan,
Sizga aytsam to'g'riman.
SHu boisdan ikki xalqning
Erka shoir-o'gliman.

Tursunboy Adashboev o'zbek va qирғиз tillarida ijod qiladi.

«Kamolning olmasi» deb nomlangan birinchi kitobi 1967-yilda talabalik chog'idayoq nashr etilgan. Keyinchalik Tashkentdagi «Yosh gvardiya», Bishkek shahridagi «Mektep» nashriyotlarida «Biz sayohatchilar» (1969), «Ala-Toluk

bolomun» (1971), «Arslonbob sharsharasi» (1973), «Surnay» (1975), «Nur daryo» (1977), «Guldasta» (1979), «Olatog‘-lolatog‘» (1982), «Oqbura to‘lqinlari» (1985), «Sovg‘a» (1987) to‘plamlari bosilib chiqdi.

Kichkintoylarga qisqa va lo‘nda she’rlar yozish, qissadan hissa chiqarish Tursunboy Adashboev ijodining eng muhim fazilatlaridan biridir. Ijodkorning «Sumalak» sarlavhali she’ri shu jihatdan e’tiborli:

Boychechaklar nish urib,

To turguncha o‘rnidan.

Bahor qishni tarnovga,

Osib qo‘ydi burnidan.

Tursunboy Adashboevning kulgiga boy, hazil-mutoyiba bilan yo‘g‘rilgan asarlari boshqa xalqlar tillariga ham o‘girilgan. Masalan, «Pesnya Jovoronok», «Podarok», «Olti oyoqli xo‘tikcha», «Olatog‘ ohanglari» singari bir talay kitoblari rus, latish, qozoq va o‘zbek bolalar she’riyati antologiyalaridan munosib o‘rin olgan. 1989 — 90- yillarda uning «Arslonbob afsonasi», «Sichqonning orzusi», «Uch bo‘taloq va sirli qovoq» to‘plamlari nashr etildi.

Ijodkor qator uchrashuvlarda, gazeta va mahallalardagi suhbatlarda berilgan savollarga qaytargan javoblarida she’r yozishning sir-sinoatlarini o‘ziga xos yo‘nalishda ochib bergenligini kuzatamiz:

— Nima uchun bolalarga she’r yozasiz?

— Ezib yomg‘ir yog‘ganidan keyin, yetilgan yerni, zavq-shavq bilan haydagan qo‘shchining mehnatini sira kuzatgan-misiz? Kichkintoylarga she’rlar mashq qilar ekanman, ana shu dehqonga o‘xshab ter to‘kishga harakat qilaman. Demak, har kim qo‘lidan kelgan yumushni uddalashi kerak. Qisqasi, bolalarga she’r yozishdan o‘zga ish qo‘limdan kelmaydi.

— Sizda she’rning tug‘ilishi qanday kechadi?

— Asosan, hayotni, bolalarning so‘ngsiz olamiga aloqador ikir-chikir, voqeя va hodisalarni sinchiklab kuzatishdan tug‘iladi. Masalan, oddiy bir tugmani chumolini yo‘liga qo‘yib, xatti-harakatini kuzatsangiz, taxminan quyidagicha mashq qog‘ozda aks etishi mumkin:

Charchab, horib

Yumushdan

Qaytar edi

Qumursqa.

Tugmani

Olib qo‘lga,

Tashladim

Uni yo‘lga.

U yon-bu yon

Bo‘yladi.

Tog‘ ekan deb

O‘yladi...

— She’rlaringizda manzara yaratish mahoratini kimdan o‘rgangansiz?

— Har bir misra ustida ishlash va manzara yaratish san’atini ustoz Qudrat Hikmatdan o‘rganganman.

Kichkintoylar uchun atalgan she’rlar to‘q mag‘iz qofiyalar asosiga qurilgan taqdirdagina o‘qish uchun o‘ng‘ay, yodlash uchun oson ko‘chadi. Zotan, Zafar Diyor, Qudrat Hikmat she’riyatining umrboqiyligi ham ana shundadir. Tursunboy Adashboev ham ustozlari izidan borib kutilmagan qofiyalar topadi. Bu muallif qalamga olgan mavzuni o‘quvchiga tezroq yetib borishiga xizmat qiladi. Shoirning ijodiy fazilatlaridan yana biri she’rlarining qisqa, lo‘ndaligida.

Tursunboy Adashboev jahon bolalar she’riyati vakillarining asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilish borasida ham faol ish olib borayotir.

Tursunboy Adashboevning ijodi bilan tanishgan kishi bir narsaga amin bo‘ladi: bu asarlar bolalar ham, kattalar ham baravar o‘qiydigan ibrat kitobidir.

Tursunboy Adashboevning eng sara she’rlari jamlangan «Orzularim — qo‘sh qanotim» deb nomlangan kitobini sinchiklab o‘qib chiqib, quyidagi xulosaga

kelish mumkin: qalamga olingan mavzular bolalarning o‘ziday beg‘ubor, hajman qisqa va lo‘nda. Kutilmagan qofiyalar esa she’rning ravonligini oshirib, kichkintoylarning osongina yod olishini ta’minlaydi.

Tursunboy Adashboev vaqtli matbuotda, nashriyotda va har ikki respublikaning Yozuvchilar uyushmalarida xizmat qiladi. SHuningdek, jahon bolalar adabiyotining eng yetuk vakillari asarlarini maromiga yetkazib tarjima qilgan. Qirg‘iz xalq eposi — «Manas»ning nasriy variantidan tortib S. Eraliyev, S. Jusuyev, T. Qosimbekov, J. Mavlonov, B. Sarno‘g‘ayev, N. Alimbekov kabi ijodkorlarning o‘ttizga yaqin asarlari o‘zbek tilida bosilib chiqqan.

Ikki elning ardoqli shoiri Tursunboy Adashboevning xizmatlari munosib baholangan. Ijodkor «O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi» degan nom va «Do‘stlik» ordeni bilan taqdirlangan. Shuningdek, «Qirg‘izistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi» hamda «Manas» ordenining sovrindoridir.

TONGDA

Tongda hushtak chalgandim,
Chiqib shuvoq boshiga,
Ma’qul bo‘pti ovulning
Kattasiga, yoshiga.
Bu qilig‘im Xo‘rozning
Tekkan emish g‘ashiga...
Meni ko‘rsa Dakanboy,
Minib jahl otiga,
Ko‘cha-ko‘yni to‘zg‘itib,
Zo‘r berar qanotiga.
Shayton kirdi oraga,
Sizga aytsam dangalin,
Yerni uzib olguday
Uning tirnoq-changali.
Chigirkani egarlab,
Quva ketdim Xo‘rozni.
Adabini beray deb,
Shumtakani, darozni.

Lekin otim yiqilib,
Oyog‘im sinib ketdi.
Chigirtkani jilovlab,
Dakanboy minib ketdi.
...Tomoshaning qizig‘i
So‘qmoqli yo‘lda bo‘pti.
Xo‘roz bilan Chigirtka
Tulkiga o‘lja bo‘pti...

KAPADA

Sanjar bobosi bilan
Qovun poylar kapada.
Ko‘kda yulduz marjoni,
G’ir-g‘ir esar shabada.
Nabirasi bidillab,
Cholni tutar so‘roqqa.
Yarmi kemtik oy chiqdi
O’xshab oltin o‘roqqa. –
Bobo, qarang, tunov kuni
Butungina oy edi.
Birov uni sindirib
Qo‘yganmi, deb koyidi...

OLTI XURJUN

Yodimda yo‘q, bahormidi
Yo xuftonmi, nahormidi?
Sheriklarim Mutalmidi,
Balki Abduqahhormidi?
Xullas O’ng‘or toqqa chiqib,
Kapalakning sutin ichib
Kezib tog‘ning uyog‘idan,
Kungayidan, buyog‘idan
Terskayini - kesganidan,
Chilvirkо‘li paydo bo‘lgan,
Toychog‘imning tuyog‘idan.
Oltmish olti ko‘k baqani
Tutib olib qayirmokda

Biz olti kun sarson bo‘ldik
Terisini ayirmoqqa.
Dovulg‘idan kergi yasab,
Tuyoqparin kerib qo‘ydik.
Har birini tongdan boshlab
Ro‘yan bilan bo‘yab-oshlab,
Olti xurjun tikib berdik,
Cho‘pon tog‘am Xoliqulga.
Shunday gaplar, bo‘sh yurmadik,
Do‘stim, yozgi kanikulda.

OSMON QAYDAN BOSHLANADI?

Tokqa boshin qo‘ysa quyosh,
Ufq ortin cho‘g‘ qilarkan.
Burgut uchun osmon asli
Boshlanadi cho‘kqilardan.

Chumolining vaqtiz ziqroq,
Gapi qisqa, qalbi qaynoq.
Uning uchun ko‘k gardishi
Oltin rangli momaqaymoq.

Mirzacho‘llik dehqon bobo
Gurung boshlar olisdan:
- O’tar osmon chegarasi,
Bizning qovun polizdan.
-
Muruntovlik mergan aytar:
- Kuni-kecha qaytdim ovdan.
O’zim ko‘rdim, osmon asli,
Boshlanarkan Tangritog‘dan.

TUPROQ

Ajdodlardan meros bo‘lib
Qolgan tuproq.
Bobolarning qon va teri
Tomgan tuproq.

Qizg'aldoqlar ochilganda
Qilmay kanda,
Qir-adirlar gulxan bo'lib
Yongan tuproq.
To'kin-sochin dasturxonni
Solgan tuproq.
Dori-darmon, sinovlardan
Tolgan tuproq.
Qotilni ham, botirni ham
Sukut saqlab,
Ehtiyotlab, o'z bag'riga
Olgan tuproq.
Bobolarning qon va teri
Tomgan tuproq.

CHUMCHUQLARGA UYADIR

Ashraf aka ANOR so'ydi,
Anormisan-anor deysiz.
Har donasi gavhar misol,
Yalt-yult etar FANOR deysiz.
"A" harfini olgan edik,
Yo'q narsadan "bor" bo'ldi.
Barchamizga tanish hayvon,
Qo'sh o'rakchili NOR bo'ldi.
Bolakaylar, bilib qo'ying,
Nor degani TUYAdir.
"T" harfini qisqartirsak,
Chumchuqparga UYAdir.

QUDRAT HIKMAT AYTGAN EDI...

Bolalarga she'rlar yozsang,
Mavzu turfa, yangi bo'lsin.
Qizg'aldoqday yonib turgan
Ko'rki bilan rangi bo'lsin.
Har bandida, satrlarda
Maqsad tayin, qisqa bo'lsin,
Sho'x, o'ynoqi, rostgo'ylikda

Ibratli gap — nusxa bo‘lsin.
Bolalarga she’rlar yozsang,
Mavzu turfa, yangi bo‘lsin.
Qizg‘aldoqday yonib turgan
Ko‘rki bilan rangi bo‘lsin.
Har bandida, satrlarda
Maqsad tayin, qisqa bo‘lsin,
Sho‘x, o‘ynoqi, rostgo‘ylikda
Ibratli gap — nusxa bo‘lsin.
Kutilmagan qofiyani
Marvaridday terib tashla,
Pand-nasihat masalasin
Otasiga bergin oshna.
Bo‘lar-bo‘lmas gapni yozib,
She’rning qadrin arzon qilma.
Kitobxonning vaqtin teja,
Behudaga sarson qilma.
Qobig‘ingga o‘ralmasdan
O‘qi jahon durdonasin,
Asalari qoldirmaydi
Gulning sara bir donasin.
Bolalarga asar yozsang,
Quvnoq, dilgir sodda bo‘lsin.
Kichkintoning so‘z boyligi
Lug‘ati ham yodda bo‘lsin.
Vaznlarni ixcham qilgin,
Xulosani ayla puxta.
Aniq fanga yo‘naltirib,
Falsafani et omuxta...

RAVIL ALIBEKOVNING XAZINASI

Qirq yillik surat — tasma
Bor boyligi — topingani.
Uch xonali uydan boshqa
Yo‘qdir uning oshirgani.
Lentalarda aksin topgan
O‘zbekiston solnomasi,
Bunga dalil “Tong yulduzi”,

“Gulxan”, “G‘uncha” oynomasi.
Turfa, go‘zal tasvirlarga
Teng kelmagay dur, marvarid,
Imkoni yo‘q, shu sababdan
Oltin, kumush qilmas xarid.
Boqar bizga ehtiros-la,
Burgut kelbat ustoz Oybek.
G‘ofur G‘ulom va Mirtemir,
Ham Zulfiya opam oydek.
Muhrangan Asqad Muxtor,
Shayxzoda, Qahhor yashar.
Ana, Quddus Muhammadiy,
Qudrat Hikmat suhbatlashar.
Bu tengi yo‘q xazinadan.
O‘rin olgan buyuk zotlar.
Zar, zabarjat saqlaganday,
Ravil Albek ehtiyotlar.
So‘nggi paytda bir xavotir
Unga tinchlik bermayotir,
Xazinaga eng munosib
Daryo dilni izlayotir.

OLAQNATNING POLOPONLARIGA NASIHATI

Nasibang bog‘u-rog‘da,
Azizim, polaponim.
Lochinlar ham lol qolsin,
Joningga payvand jonim.
Burgutlarday yovqur bo‘l!
Barcha gap ahillikda.
Paytin topib, bexosdan
O‘ljangga tashlan tikka!
Qorayaloq, Qarqunoq,
Qarg‘a bilan Hakkalar —
Ular o‘g‘ri, inidan
Quvib chiqing yakkalab.
O‘jarlik, muttahamlit
Faqat bizga yarashar,
Buni ayni zamonda

Botirlik deb sanashar.
Mevazor bog‘ni ko‘rib,
Ko‘zinglar to‘rt bo‘ladi.
Olmurutni cho‘qimang,
Bandlari mo‘rt bo‘ladi.
Tatib ko‘ring mayliga
Mevaning har xiliga,
Tanlab yenglar, iltimos,
Eng shirin, sarhilini.
Chilgi bilan uzumni
Shingilida qoldirmang,
Gilos, xurmo, noklarni
Chumchuqlarga oldirmang.
Olg‘irlarning hamisha
Olchi turar oshig‘i,
Bo‘lmang aslo qushlarning,
Siz yalama qoshig‘i.
Olaqanot deydilar,
Ota-bobong otini.
O‘tirmagin bolajonim,
Musichaday tortinib...

G‘URG‘ULDAY

Mayna kabi bir qush bor,
Asli nomi G‘urg‘ulday.
Farosatli, jonsarak,
Ovozlari bulbulday.
Sho‘x, sharqiroq soylarning
Suv tol o‘sgan poyiga
Uya solar, shamolda
Tebranar o‘z joyida.
Ilonlarga chap berib,
Sho‘ng‘iydi suv ostiga.
Yoayrati sig‘mas uning,
Jajji qaddi-bastiga.
Jayronga alla aytib,
Oqlarni uyg‘otar.
Sarkashlikda tengi yo‘q,

Oy ham xotirjam botar.
Tinimi yo‘q shu qushcha
Tadbirkor chiqib qoldi,
Hozir juda urf bo‘lgan
Telefon topib oldi.
Bu xushxabar haqida
Jar soldi Olahakka.
G‘urg‘uldayning makoni
Qushlarga bo‘ldi pakka.
Zarg‘aldoq, G‘urg‘uldayni
Tabriklab, ko‘nglin xushlar,
Ko‘rib qo‘l telefonni
Maynalar yoqa ushlar.
Ko‘ribsizki, ayni payt,
Tog‘lik turfa qushlarmi
Telefonda bitirar,
Shaharga xos ishlarni.
Bayram bilan qutlaydi
Qarqunoq xolasini,
Chittak tergar o‘qishga
O‘tmagan bolasini.
Rahmat aytar qo‘shnilar
Bunday savob yumushga,
Telefon haqi uchun
Ninachi-yu, qumursqa.
Xayollar mo‘jizaga
Aylangan shu chog‘larda
Bozor tarzi oqibat,
Yetdi hatto tog‘larga...

Darsni mustahkamlash uchun savollar

- 1.Yozuvchining tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
- 2.Miraziz A’zamning asarlarini tahlilqiling.
- 3.Tursunboy Adashboevning qanday kulgiga boy, hazil-mutoyiba bilan yo‘g‘rilgan asarlarini bilasiz?

Mustaqil o`qish uchun asarlar:

- 1.Miraziz A'zamning asarlarini o`qish
- 2.Tursunboy Adashboevning hikoyalari o`qish

Adabiyotlar:

- 1.M.Jumaboev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.
- 2.M.Jumaboev. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo‘llanma. 1996 y.
- 3.Z. Masharipova T.Matyoqubova O‘zbek yozma adabiyotida folklor an’analari Toshkent – 2011
4. www.ziyonet.uz. Bolalar adabiyoti

**QAMBAR OTANING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI. QAMBAR
OTANING MAKTABGACHA VA KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI
BOLALARGA BAGMSHLANGAN SHE'RLARINING MAVZU DOIRASI.
QAMBAR OTA YARATGAN DOSTON VA DOSTON-ERTAKLARDA
ILGARI SURILGAN G‘OYALAR. MUHAMMAD AII YARATGAN
TARIXIY ROMANLARDAGI BOLALAR OBRAZLARI. MUHAMMAD
ALINING ONA-TABIAT TASVIRI CHIZILGAN ASARLARI.
MUHAMMAD ALINING XALQ AFSONALARI ASOSIDA YARATGAN
ASARLARIDA ILGARI SURILGAN G‘OYALAR. MUHAMMAD
ALINING TEMURIYLARGA BAG‘ISHLAB YOZILGAN ROMANLARI
HAQIDA.**

Reja:

1. Qambar Ota hayoti va ijodi
2. Muhammad Ali hayoti va ijodi



Qambar ota (O'tayev) 1941 yil Kattaqo`rg`on shahrida tug`ilgan. 1961 yili Samarqand gidromeliotsiya texnikumi, keyin Samarqand Davlat univaersitetining filologiya fakultetini tamomlagan. Qambar otaning bolalar va kattalar uchun mo`ljallangan “Kitobcha va buzoqcha” (1970), “Chinor” (1976), “Bizning koinot”(1980), “Yoshlik quvonchi” (1974), “Vatan tuprog`i” (1976), “Qiyofa”(1981) kabi to`plamlar nashr etilgan.

SEL

Yomg‘ir tez-tez shivalar,
Do‘l, sel yerni savalar.

Chaqmoqlar gumburlar,
Larzada o‘ngirlar.

Bilib qo‘y, sir emas,
Barcha suv bir emas.
Yodingda tut faqat,
Sel toshsa beshafqat...

QIZG‘ALDOQLAR

Qizg‘aldoqlar bahorda
Tog‘ bag‘riga yetibdi.
Tarnovlardan nahorda
Tomga chiqib ketibdi.

Tortib ohanrabosi,
Yosh yuraklar choparlar.
Go‘zallik muddaosи —
Cho‘g‘dayidan toparlar.

Dillarni etib mushtoq,
Alvonlanib to‘lg‘onar.
Mehr tarab, topib ardoq,
Adirlarda cho‘lg‘onar.

Davra olib o‘ynashar,
Poylarida ol ranglar.
Shodon qo‘sish kuylashar,
Taralar sho‘x ohanglar.

O‘tday yonar tog‘larda
Qizg‘aldoqlar, lolalar.
So‘lim bahor chog‘larda
Gulday yashnar bolalar.



Chiroy qo'shib bog'larga,
O'g'il-qizlar gul yashnab,
Yordam berar bahorga,
Ekinlarni tarashlab.

SEL



Yomg'ir tez-tez shivalar,
Do'l, sel yerni savalar.
Chaqmoqlar gumburlar,
Larzada o'ngirlar.

Bilib qo'y, sir emas,
Barcha suv bir emas.
Yodingda tut faqat,
Sel toshsa beshafqat...

YAPROQLAR

Nur emishib quyoshdan
Yaproqchalar yayraydi.
Bu quvonchga qo'shilib
Shoxda qushlar sayraydi.

Zumrad, yashil tovlanib
Shovullaydi bog'larda.
Soyasiga chorlaydi
Kun qizigan chog'larda.

Bizlar uchun chang yutib
Tozalaydi havoni,
Ko'zimizga yashnatib
Ko'rsatadi dunyoni.



YAPROQLAR

Nur emishib quyoshdan
Yaproqchalar yayraydi.
Bu quvonchga qo'shilib
Shoxda qushlar sayraydi.

Zumrad, yashil tovlanib
Shovullaydi bog'larda.
Soyasiga chorlaydi
Kun qizigan chog'larda.

Bizlar uchun chang yutib
Oozalaydi havoni,
Ko‘zimizga yashnatib
Ko‘rsatadi dunyoni.

QIZG‘ALDOQLAR


Qizg‘aldoqlar bahorda
Tog‘ bag‘riga yetibdi.
Tarnovlardan nahorda
Tomga chiqib ketibdi.

Tortib ohanrabosi,
Yosh yuraklar choparlar.
Go‘zallik muddaosi -
Cho‘g‘dayidan toparlar.

Dillarni etib mushtoq,
Alvonlanib to‘lg‘onar.
Mehr tarab, topib ardoq,
Adirlarda cho‘lg‘onar.

Davra olib o‘ynashar,
Poylarida ol ranglar.
Shodon qo‘shiq kuylashar,
Taralar sho‘x ohanglar.

O‘tday yonar tog‘larda
Qizg‘aldoqlar, lolalar.
So‘lim bahor chog‘larda
Gulday yashnar bolalar.



Muhammad Ali O`zbekiston xalq yozuvchisi, Davlat mukofoti laureati (taxallusi, haqiqiy ismi-familiyasi - Ahmedov Muhammad ali) serqirra qalam sohiblaridan biri hisoblanadi. Adib she'riyat va nasr, publitsistika va tarjima janrlarida ko`p asarlar yaratgan. Uning katta-kattaaslar yaratish baroborida kichkintoylarni ham unutmay she'r vaafsonalar yozayotganligi quvonchli hodisadir.

Bolalar mavzusini yoritish, bolalar uchun ijod qilish ijodkordan katta mas'uliyat talab qiladi. Adib o`zining tarixiy mavzuga bag`ishlangan «Boqiy dunyo» (she'riy roman), «Ulug` saltanat», «Sarbadorlar», «Abadiy sog`inchlar» nomli romanlarida bolalarning yorqin obrazlarini chizib berdi. Ayniqsa, bu «Ulug` saltanat» tarixiy dilogiyasida yaqqol ko`zga tashlanadi. Biz unda Muhammad Sulton, Xalil Sulton, Mirzo Ulug`bek singari shaxzodalarning bolalik davrlari tasvirlangan sahifalarni ko`ramiz. «Boqiy dunyo» she'riy romanida esaasar qahramonlaridan biri Farhodning bolaligi tasvirlari, ayniqsa uning ismi ma'nosining yangicha talqinda berilishi juda qiziqarli va ibratlidir.

Shoirning bolalarga bag`ishlangan she'r vaafsonalarida ham mavzular rang-barangligi bilan ajralib turadi. Adib bolalar uchun asar yozganda bolalar xarakterining o`zigaxosligini unutmaydi. Bolalar har narsaga hayrat bilan boqadilar, hamma narsa ularga qiziq tuyuladi. Ular har bir narsani ilk bor ko`radi, har bir narsaga qarab dunyonи o`zicha ilk bor kashf eta boradi, bundan beqiyos quvonadi. Shoir ana shu kashfiyotni tasvirlashga harakat qiladi.

«Bo`taloq» she'rida bo`talog`iga boqib quvongan, atrofida parvona bo`lgan bolakay obraqi chiziladi. Bolagaayniqsa, bo`taloqning lo`k-lo`k etib

chopishi, unga «cho`k-cho`k!» deyish juda yoqadi, uning o`zi ham birga chopishga tayyor:

*Bo`talog`im yayraydi,
Yantoq bersam chaynaydi.
Yam-yashil o`tloqlarda
Lo`k-lo`k chopib o`ynaydi.
Bo`talog`im lo`k-lo`k,
Lo`killama cho`k-cho`k!*

Shoir o`z she'rlariga ko`p hollarda tabiat manzaralarini, hayvonat olamini, o`t-o`lanlarni mavzu qilib oladi. Bu esa shoir she'rlariga tabiiylik baxsh etadi.

Bolalarning odobigaodob, mehnatsevarliklariga mehnatsevar-lik, ona-tabiatga nisbatan mehrlariga mehr qo`shadigan asarlaridan biri «Shudring»dir.

Kichkintoylar ona tabiat qo`ynida yayrab-yashnab kamol topadilar. Ona tabiatdagi har bir xolat ular uchun bir yangilik, kashfiyat bo`lib qolaveradi. Bolalardagi bunday xolatni yaxshi bilgan Muhammad Ali o`zining «Shudring» she'rida shu haqda so`z yuritadi.

Shudring kuz, kuz faslining boshlanishi bilan boqliq. Yerga shudring tushishi bilan meva-chevalar, poliz ekinlari pishadi. Yurtda to`kin-sochinlik boshlanadi. SHu ma'noda she'r qahramonining zo`r quvonchu qo`li ochiqlik bilan aytgan mana gaplari juda hayotiy chiqqan:

*Bog`imizga bir qarang,
Gul ochildi rang-barang.
Tongda shudring tushibdi,
Gulga chiroy qo`sibdi.
Bog`dan nari poliz bor,
Unda qovun-tarvuz bor.
Qovunlar katta-katta,
Mehmon bo`ling, albatta!*

Onalarni ulug`lagan «Onamlarning bayrami» degan she'rni bayram munosabati bilan xonadonda yuz bergan quvonchli kayfiyat nurlantirib turadi.

Bolaning nazarida butun tabiat aziz onajonini qutluQ ayyom bilan qutlashga shaylangan. Qushlar hovlini to`ldirib uchib yurishibdi, ariqlarning labida ham o`t-o`lanlar ko`karib chiqibdi, oppoq bodam esa, gullarga ko`milgan shoxini ko`z-ko`zlab, darchadan onajonisining xonasiga «qo'l» cho`zib turibdi... Bayramga bolaning ham sovQasi bor: u o`nta «5» olib qo`ygan!

Muhammad Alining xalq afsonalari asosida «Ninachi haqida ertak», «Uch oltin Qisht», «Sirli qushlar» nomli asarlar yaratganligi ham diqqatga sazovordir. «Ninachi haqida ertak» (1977) xalqimiz orasida qadimdan mashhur bo`lgan «Kim zo'r» degan afsonagaasoslangan. Asar qahramoni, - nomidan ko`rinib turibdi, - Ninachi. Qish kirib qolganini sezmagan, yozni tarala-bedod qilib o`yin-kulgi bilan o`tkazgan, uysiz-joysiz Ninachi qayga borishini bilmay “xazon cho`pni hassa qilgancha” yo`lda boradi. Muz ustidan o`tayotib oyoQi toyib ketadi va quyruQini sindirib qo`yadi. U bu falokatdan qattiq ozor chekadi va Muzga, sen zo`r ekansan, deydi. Muz esa, men zo`r emasman, agar zo`r bo`lsam, Quyosh eritib yuborarmidi, Quyosh zo`r, deydi. Ninachi so`ng Quyoshga, uni berkitib olgan Bulutga, uni bag`rini teshib o`tgan YOmQirga, keyin yomQir ipiga osilib erga tushib, uni shimib olgan Erga, erni teshib chiqqan Maysaga, uni bosib keta olgan Otga va nihoyat uni minib olgan Odamga keladi... SHoir adolat qidirib yurgan Ninachi sarguzashtini juda jonli va qiziqarli tasvirlaydi, o`qiganda tabiat manzaralari o`quvchi ko`z o`ngidan bir-bir o`tadi. “Uch oltin Qisht” afsonasini shoir o`z otasidan eshitgan. Voqeа juda qiziq va ibratli. Uch aka-uka – To`nQich, O`rtancha, Kenja-uzoq safarga chiqishib uchta oltin Qisht topib oladilar. Har biriga bittadan Qisht to`g`ri keladi. Biroq nafs tuzoQiga tushgan To`nQich bilan O`rtancha fitna uyushtirishib, Kenjani o`ldirmoqchi bo`ladilar va uni ovqat olib kelishga yuboradilar. Kenja ovqat olib kelib dasturxonga qo`yayotganda uning boshiga Qisht bilan urib o`ldiradilar. Keyin xursand bo`lishib, ovqat eyishga tutinadilar. Va shu zahotiyoy til tortmay o`ladilar. CHunki Kenja ham uchta Qishtning hammasini o`ziga olmoqchi bo`lib, akalar ovqatiga pinhona zahar qo`sghan edi... SHoir bu afsonasida inoqlik, hamjihatlikni ulug`laydi, ochko`zlik, nafsga berilishni qoralaydi. Asarni o`qigan o`quvchi sadoqatu ixlos yo`lini tutish,

halol bo`lish kerakligini, ezgu ishlarda birlashish lozimligini, yomonlik qilish asli insonning ishi emasligini anglaydi, yaxshilikning umri uzun, yomonlikning esa davri qisqa, degan haqiqatning boqiyligini tushunib etadi.

“Sirli qushlar” shoirning hind xalq afsonalaridan ilhomlanib yozgan asaridir. Unda halollik, fidoyilik, chin insoniylik motivlari ulug`lanadi.

Muhammad Ali ijodida Amir Temur mavzusi alohida o`rinni egallaydi. U 1967 yildayoq jasorat ko`rgazib, sohibqironning bunyodkorligini ulug`lagan va Mustaqillik yillarida maktab darsliklariga kiritilgan “Gumbazdagi nur” dostonini yozgan edi. “Sarbadorlar” tarixiy dilogiyasida (1989) o`zbek prozasida birinchi marta 24-30 yoshli Amir Temurning obrazi chizib berildi.

2007 yilda Davlat mukofotiga sazovor bo`lgan “Ulug` saltanat” tarixiy roman-dilogisi (“Jahongir Mirzo” – 1999, “Umarshayx Mirzo” - 2004)da adib Amir Temur hayoti va uning suronli davri, o`zbek xalqining milodiy o`n to`rtinchı asrdagi turmush-hayoti, ijtimoiy hayotda va tafakkurlarda ro`y bergen o`zgarishlar haqida qiziqarli va ishonarli hikoya qiladi.

2008 yilda yozuvchi “Ulug` saltanat” tetrilogiyasini yaratish ustida izlanishlarini davom etdirib, uchinchi kitob-“Mironshoh Mirzo” romanini yozib tugatdi.

Romandagi voqealar milodiy 1392-1399 yillarda Turon, Xuroson, Fors, Movarouqofqoz mamlakatlarida yuz beradi. CHingizzon imperiyasini tiklashga katta umidlar boqlagan, aslida Amir Temur qo`llovi bilan Oltin O`rdani egallagan “tutingan o`Qil” To`xtamishxon goh-goh Turon yurtiga bosqinlar uyshtiradi, Xulaguxon mulkiga ko`z tikib, SHirvon, Sultonija, Tabriz va boshqa shaharlarni qo`lga kiritish niyatida qilich yalanQochlaydi. Uning maqsadi Oltin O`rda davlatini kuchaytirish, Buyuk Ipak yo`lini qo`lga kiritish edi. Amir Temurday qudratli hukmdorga qarshi kurashishga yuraklari dov bermay, Misr sulton, Iroq hukmdori, Oltin O`rda xoni barchasi birlashib katta kuchga aylanishni dilga tugadilar.

Amir Temur o`zining idroki, zukko va donishmandligi bilan xalqaro vaziyatni teran kuzatib, bilib turar edi. U saltanatning jahondagi mavqeini yuksaklarga

ko'taradigan, ayni paytda davlat xazinasini boyitib turadigan Buyuk Ipak yo'lini albatta, dushmanlarga berib qo'ymas edi. Uning ustiga, o'n to'rtinchi asrning oxirgi o'n yilida Eronda hukm surgan muzaffariylar, Iroqda jaloyiriylar, qoraqo'yunlilar qabilasi o'zaro urushlarga tortilgan, hatto, hajga borguvchilar yo'li tahlikali tus olgan, o'sha mamlakatlar notinchligidan qaroqchilar tomonidan talanardi. Adolatpesha Sohibqironning ra'yi bularning barini jimgina kuzatib tura olmasdi. Tarixda "Besh yillik yurish" deb nom olgan safar sabablari ana shunday edi. Muallif romanda Amir Temur tilidan: "Turon tursa bo'ron bo'ladi" degan muxtasar jumlanli o'rinali ishlataladi. Bu so'zlar Sohibqironning o'ziga bo'lgan katta ishonchini, bemisl kuch-qudratini yorqin ifodalab turar edi.

Yozuvchi yuqorida nomlari zikr etilgan asarlarda ham, yangi romanida ham Amir Temur obrazini yaratishga kirishar ekan, Amir Temurni dastavval inson sifatida ko'rsatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

"Ulug' saltanat"da buyuk davlat arbobi, bunyodkor, ilm-fan homiysi va ulug' sarkarda, adolatparvar Amir Temur o'quvchi ko'z oldida donishmand ota, suyukli yor, mard va sheryurak zot, ahli ayoliga mehribon, kechirimli, o'z nafsi jilovlay olishga qodir, teran aql sohibi, komil insonlarning komili sifatida namayon bo'ladi. Sohibqironning farzandlariga mehri alohida tahrinlarga sazovor, adib uning buyuk inson sifatida ko'rsatishga erishadi, mehr bilan Sohibqironning insoniy fazilatlarini qalamga oladi.

Suyuqli o'Qil Umarshayx Mirzoning bevaqt halok bo'lganini eshitganda, Sohibqiron ko'zlariga to'lgan yoshdan bir tomchisini ham erga tushirmaslikka o'zida kuch topa oladi: "Qo'limdagi qarchiQayimni ovga solmoqqa shaylanQon erdim. QarchiQayimning o'zini merganlarning mergani ovlab ketdi, burgutga bergisiz qarchiQaymni!..." – deydi bosiqlik bilan.

Turon qo'shini Jazira viloyatining Mordin qal'asini (hozirgi Turkiya hududida) zabt qilib turganda, Sultoniyah shahridan SHohruh Mirzo xonardonida o'Qil tuQilganligi (Ulug'bek Mirzo edi) xabari etadi. "Olloh taolo bizga nabira ato etdi!-dedi sohibqiron Mordin tarafga ko'z qirini tashlab. – Haq o'z bandalariga ravo ko'rgan yaxshi odatlardan biri, shukur aylamakdur. Alhamdilulloh, shukur

qilamen, shukronasiga Mordin elining joni-molidan kechamen! Ulug`bek Mirzo sharofatidan Mordin ahlining gunohlaridan o`tdum! Qatli om to`xtatilsun, barchaga omonlik berilsun!”. Bu so`zlarda Sohibqironning insoniyligi ayon ko`rinib turibdi.

Romanda xotin-qizlar obrazlari mehr bilan chizilgan. Mahdi ulyo Saroymulkxonim, Xonzoda xonim, Tuman oqa, Cho`lponmulk oqa, Oqqiz begimlar jonli odamlarday harakat qiladilar. Ayniqsa, muallifning yutuqlaridan deb hisoblash mumkin bo`lgan shaddod qizlarimizning vakilasi, Amir Temurning bo`lajak nabira kelini, Jahonshoh ibn Jokuning qizi SoQinch bika obrazi yaqqol o`quvchining esida qoladi. Asarning tili juda ravon, o`qilishi engil, unda Amir Temur davri ruhi ufurib turadi. Bu juda muhim. Muallif ko`p tarixiy faktlardan asar Qoyasiga xizmat qiladiganlarini tanlab olib to`g`ri yo`l tutgan. Atoqli adibimizning ko`p o`qigani, sabr-toqat bilan izlangani, o`sha davr tarixini chuqr o`rgangani, yaxshi bilishi, bilibgina qolmay, tasavvur eta olishi, ko`ra olishi e`tiborga loyiq. Mustaqilligimiz-bizga olamga keng boqish, o`z-o`zimizni anglab etish imkoniyatini yaratdi, xalqimiz erishgan buyuk Qalaba sifatida tarix zarvaraqlariga yozildi.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. Shoirning hayoti va ijodi haqida gapirib bering.
2. Shoirning o`qish, odob haqidagi qaysi asarlarini bilasiz?
3. Uning Vatan, tabiat va bolalar o`yinlari haqidagi asarlarining o`quvchilarga ta`siri qanday?
4. Shoir she`rlarida bolalar hayoti qanday aks ettirilgan?
5. Muhammad Ali she`rlarida, asosan, qanday g`oya ilgari surilgan?
6. Dramaturg sifatida Anvar Obidjonning qaysi asarlari

Adabiyotlar:

- 1.M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.
- 2.M.Jumaboyev. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo‘llanma. 1996 y.
- 3.Z. Masharipova T.Matyoqubova O‘zbek yozma adabiyotida folklor an’analari Toshkent – 2011
4. www. zyonet.uz. Bolalar adabiyoti.

**ANVAR OBIDJON IJODI O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTIDAGI
YANIGICHA YO'NALISH SIFATIDA. ANVAR OBIDJON SHE'RLARIDA
KITOBXON ONGIGA TA'SIR QILISH EMAS, QALBIGA YO'L
TOPISHGA BO'LGAN URINISHLAR. ANVAR OBIDJONNING "SEN
ESHITMAGAN QO'SHIQLAR" TURKUMI - O'QUVCHILARNING ENG
SEVIMLI TO'PLAMI. ANVAR OBIDJON - USTOZLAR E'TIROFIDA.
ABUSAID KO'CHIMOVNING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI.
ABUSAID KO'CHIMOVNING KICHKINTOYLARGA BAG'ISHLANGAN
SHE'RLARIDA ILGARI SURILGAN G'OYALAR. ABUSAID
KO'CHIMOV ERTAK VA DOSTONLARINING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI**

Reja:

- 1.Anvar Obidjonning hayoti va ijodi.
2. Anvar Obidjon – ustozlar e’tirofida.
- 3.Abusaid Ko‘chimovning hayoti va ijodi.
- 4.Abusaid Ko‘chimov ertak va dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.
- 5.. Xulosa



Anvar Obidjon. Hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotining taraqqiyotiga juda katta hissa qo‘sib kelayotgan Anvar Obidjon 1980-yilda «Bahromning hikoyalari» nomli to‘plami chiqqanidan so‘ng adabiy jamoatchilikning e’tiboriga tushdi. Oradan shuncha vaqt o‘tib ham, u o‘zining munosib o‘rnini mustahkam saqlab turibdi, uning ko‘p qirrali ijodiga bo‘lgan qiziqish tobora ortmoqda.

Ibrohim G‘afurov, Xudoyberdi To‘xtaboev, Abdug‘afur Rasulov, Said Ahmad, Safo Matjon, Rahmon Qo‘chqor, Miraziz A’zam, Mamasoli Jumaboev, Mahmud Sattor, Kavsar Turdieva, Tursunboy Adashboev, Lola Sodiqova-Zvonaryova, Rahmatulla Barakaev, Hulkar Hamroeva kabi munaqqid va adiblarimiz bu ijodkorning asarlari to‘g‘risida bir-biridan ko‘tarinki maqolalar yozishdi. Izlanuvchi olma Zamira Ibrohimovaning «Quvnoqlikka yashiringan iztiroblar» nomli kitobida (A. Navoiy nomidagi Milliy kutubxona nashriyoti, 2005) adibning nazm va nasrdagi asarlarining nihoyatda o‘ziga xosligi, o‘quvchini o‘ziga mahliyo eta olish sirlari keng talqin qilib berilgan.

Anvar Obidjon ijodi yuzasidan fikr bildiruvchilarining barchasi doimo bir narsaga, ya’ni uning bolalar adabiyotiga yangicha bir yo‘nalish olib kirganiga alohida urg‘u berib o‘tishadi. Noto`g`ri so`zlash yo`nalish emas⁷. (M. Arnold)

Kichkintoylar shoiri Tursunboy Adashboev bu holni soddagina ta’riflab: «80-yillarga kelib Anvar Obidjon bolalar she’riyatidagi ob-havoni bir yo‘la yangiladi», deb yozgan edi.

Anvar Obidjonga xos kashfiyotning siri shundaki, shoir bolalarning ongidan ko‘ra ko‘proq ko‘ngliga ta’sir o‘tkazish yo‘lidan bordi. Binobarin, ko‘ngilga

⁷ M. Arnold Theory of literature Yale University- 2012 Chapter 7–Page 92

qattiq o‘rnashmagan narsa ongda uzoq vaqt saqlanishi, saqlanganda ham faol harakatga sabab bo‘lishi qiyin.

Tahlil qilib ko‘rish uchun «Bahromning hikoyalari» kitobidagi «Bezori» degan she’rni olaylik:

Qarg‘a kirdi	— Menga qara,
Kinoga,	Vey, Laylak,
O‘xshab	Yeganmisan
Buratinoga.	Hech kaltak?
Hammajoylar	Qani,
Edi band,	Turchi o‘rningdan.
Borib dedi	He, o‘rgildim
Nopisand:	Burningdan!

«Bezori»da esa, Anvar Obidjon she’rxonning ko‘ngliga yo‘l izladi va o‘quvchiga quvnoq kayfiyat bag‘ishlovchi qiziq holat, kulgili obraz yaratish orqali bunga muvaffaq bo‘la oldi. Dilozor bezorining ko‘pchilik uncha xushlamaydigan, isqirt joylarda ivirsib yuruvchi qarg‘a qiyofasida berilganining o‘zi jajji kitobxonning ko‘nglida unga nisbatan ijirg‘anish hissini uyg‘otadi va bolaning g‘ashiga tegishi mumkin bo‘lgan quruq nasihatlarni aytishga hojat qolmaydi.

Sharoit shunday ekaniga qaramasdan, Anvar Obidjon bariibir o‘z uslubiga sodiq qolib, o‘zi tanlagan yo‘lda turib, tinimsiz ijod qilaverdi. Hali qishloqda yashab turgan vaqtlarida, asosan, o‘tgan asrning 70-yillari o‘rtalaridan boshlab yaratgan turkum- turkum she’rlari avvaliga matbuotda bitta-ikkita bo‘lib ko‘rinib turdi. Shoir 80-yillar boshida Toshkentga ko‘chib kelgach, she’rlariga endi matbuotdan kengroq o‘rin berib borildi, bolalar adabiyotini nazorat qilib turuvchi ko‘zlar ham uning uslubiga asta-asta ko‘nika borib, yangidan yangi kitoblari nashr etildi. Anvar Obidjonning she’riy turkumlari haqida so‘zlaganda bir narsani qayd etib o‘tish lozim bo‘ladi. Ba’zi qalamkashlar turli yillarda bitilgan she’rlarining mazmuni yaqinroqlarini jamlab, keyinchalik turkumga aylantirishadi. Anvar Obidjon esa, avval o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lgan turkumni kashf etib, keyin

shu yo‘nalishda she’rlar yaratgan. Buni qaysi bir turkumga razm solmang, undagi she’rlarning shakli, hajmi, vazni deyarli bir xil ekanligidan sezish mumkin.

Anvar Obidjonning she’riy dostonlari ham talaygina. «Odil Burgutshoh va «Zamburug» laqabli josus haqida ertak»da agar yurt ichidagi odamlar ahil bo‘lib, hushyor bo‘lib yashamasa, tashqi g‘animlar har qanday qudratli va obod o‘lkani ham hiyla-nayranglar bilan kuchsizlantirishi, vayron qilishi mumkinligi to‘g‘risida so‘z boradi. «O‘g‘irlangan pahlavon haqida ertak» esa bir qarashda, asosan, bosqinchilikni qoralagandek tuyulsa-da, bunda eng asosiysi millatning tili masalasidir. Dostonda go‘dakligida boshqa yurtga o‘g‘irlab ketilgan bola tengsiz pahlavon bo‘lib ulg‘aygach, bosqinchilarga qo‘silib o‘z xalqiga qarshi jang qilgani, hatto o‘z onasi bilan olishib, onaning tilini tushunmagani bois, halok bo‘lishiga sal qolgani hikoya qilinadi.

Anvar Obidjonning bolalarga atalgan «Qo‘ng‘iroqli yolg‘onchi» nomli birinchi pesasi 1983-yilda Respublika yosh tomoshabinlar teatrda sahnalashtirilgan. Keyinchalik mazkur teatrda va Farg‘ona, Guliston, Qarshi, Qo‘qon teatrlarida uning «Pahlavonning o‘g‘irlanishi», «Topsang, hay-hay», «To‘tiqul», «Samozvanes», «Qorinbotir», «Alamazon», «Navro‘z va Boychechak» kabi pesalari namoyish etildi. «O‘zbekfilm» kinostudiyasida uning ssenariylari asosida «Tilsimoy — g‘aroyib qizaloq», «Dahshatli Meshpolvon» kinolari suratga olingan.

OTA O’GITI

Har bitta so‘z - suvdek aziz,
Har bitta so‘z - nondek uvol.
Til boyligin bog‘ deb bilsak,
Har bitta so‘z - bitta nihol.

Biron so‘zni isrof qilmoq
Bir ko‘chatni yulmoqlidir.
Bora-bora, otameros –
Bog‘ni xarob qilmoklikdir.

E bolam, yot yurtga borsang,
Ne atalur eling, derlar.
Qay millatning vakilisan,
Bormi ona tiling, derlar.

Shunda, mening qutlug‘ tilim –
Navoiyning she’ri, degil.
Yurtim - Ulug‘begu Bobur,
Amir Temur yeri, degil.

Ayt g‘urur-la Beruniylar,
Farg‘oniylar ajdodim, deb.
Koshg‘ariylar darsin tinglab,
O’tkirlangan savodim, deb.

Maqtanma hech qimmat kiyim,
Oltinlaru qasring bilan.
Faxr et doim qudratli yurt,
Boy til, nasab-nasling bilan.

Obro‘yingni baland tutmoq,
E bolam, o‘z qo‘lingdadir.
Sening olamdagи narxing
Vatan, millat, tilingdadir.

BULBULNING SALOMNOMALARI

Qo‘rqoqlarning ko‘rqog‘i g‘ilay Quyonga salom,
Yo‘qdir yaqin o‘rtog‘i, sho‘rlik Chayonga salom.

Shoxdan shoxga yugurgan, dumida uy supurgan,
Yong‘oq chaqib tupurgan sho‘x Olmaxonga salom.

Arg‘amchidek buralar, yantoqlarga o‘ralar,
Qo‘ng‘iz o‘tsa mo‘ralar, bo‘g‘ma Ilonga salom.

Ho‘kizlarni yiqitgan, Qashqirlarni qo‘rigitgan,
Bor jonzotni hurkitgan shoh Arslonga salom.

Xo‘tikchaning qondoshi, ochlikka zo‘r bardoshi,
Kamroq bo‘lsa ham oshi, erkin Qulonga salom.

Xumbosh hamda xirqiroq, oziq tishi oshnichoq,
Ochko‘zligi sap chatoq, xasis Qobonga salom.

Nafsi o‘lja tilagan, qo‘lin qonga bulagan,
Asta mo‘ylov silagan pismiq Sirtlonga salom.

Meshkay qorni qavoqdir, burni tappak tovokdir.
Ikki lunji lavokdir, go‘l Karkidonga salom.

Guldor go‘ni kelishgan, qurtlarni yeb to‘lishgan,
Daraxtlarda in teshgan Qizilishtopga salom.

Chidab sovuq-ushukka, insof tilab Mushukka,
Pishloq sudrar teshikka, olg‘ir Sichqonga salom.

O‘g‘rilarning ustasi, qushning xunuk tusdasi,
Ko‘rib qo‘ying nusxasin, sur Zag‘izg‘onga salom.

Tupu kun yer qazigan, zaxda yotib ozigan,
Ko‘p tirishib, oz yegan go‘sxo‘r Yumroiga salom.

Igna-bigiz sotuvchn, kuzda loyga botuvchi,
Ilon poylab yotuvchi Tipratikonga salom.

Bebahodir po‘stini, poylar hatto do‘stini,
Sipo demang siz uni, ayyor Qoplonga salom.

Rizqin mag‘rur izlagan, yuksaklarni ko‘zlagan,
Dushmanlarni tuzlagan botir Tarlonga salom.

Bulbul kabi izillar, tog‘-toshlarda g‘izillar,
Yirtqichlardan bezillar, do‘stim Jayronga salom.

CHIRMANDA QO‘SHIG’I

Yum-yumaloq qosqonim,
Bak-baka-bum.
Bo‘ynimda mis marjonim,
Bak-baka-bum.
Menga tushar shapaloq,
Bak-baka-bum.

MILTIQCHA QO’SHIG’I

Do‘konlarda sotilaman.

Paq-puq.

Yelg‘ondakam otilaman,

Paq-puq.

Yoqtiraman mard o‘rtoqni,

Paq-puq.

Cho‘chitaman lanj, qo‘rqoqni...

Paq! Puq!

PARVARDA

Tug‘ilgandi Bo‘richa
Sakkizinchi yanvarda.
Bugun bir yil to‘libdi,
Adashmasa agarda.
Va’da qildi oyisi
Unga quyon go‘shtini.
Va’da qildi dadasi,
Unga kiyik to‘shini.
Bilmassa ham yosh Bo‘ri
Dunyoning keng-torligin,
Eshitgandi dunyoda -
Shirinliklar borligin.
Injiqlandi u birdan:
«Sovga qiling parvada,
Hech bo‘lmasa yeb ko‘ray
Sakkizinchi yanvarda».
Taskin berdi oyisi:
«Bolam, adir - do‘konmas».

Dadasi der: «Shaharga –
Borib kelmoq osonmas».
Fursat poylab erkatoy,
Chikdi-yu g‘or - uyidan,
Shahar tomon yugurdi
Chopqir anhor bo‘yidan.
Chiroqlarga angrayib,
Tushib borgan choq pastga;
Uni ushlab shaharda,
Qamadilar qafasga.
Endi uni yosh-qari
Qilar har kun tomosha.
U termilar adirga
Baland-baland tom osha.
...Yillar o‘tib oradan,
Sakkizinchı yanvarda,
Bir qız yuvvosh Bo‘riga
Tashlab o‘tdi parvarda.

BEHI

Ikki yuzim burushqoq,
Dema meni urishqoq.
Ishga solib aqlimni,
Sezdirmayman jahlimni.

Agar shirin bo‘lmasam,
Xushomadni bilmasam,
Meni darrov kesishar,
O’rnimga nok ekishar.

KALAMUSHLAR KEMASIDA

Ostki qismin yemangiz,
Cho‘kib ketar kemangiz!

MAYMUNLAR TELEVIZORIDA

Ko‘rsatamiz bananni,
Yalamanglar ekranni.

BURGUTLAR DARSЛИGIDA

"Tutdik to‘rtta Qarqunoq,
Yarmin yedik. Juftmi, toq?"



Abdusaid Ko'chimovni mактабдoshлari «muxbir bola» deb atar edilar. Chunki uning lavha va xabarlari tez-tez gazetalarda chiqib turardi. U a’lo o‘qish, jamoat ishlarida faol qatnashish bilan birga, adabiyotni jon-dildan sevar, «O‘zbek xalq ertaklari», «Alpomish», «Go‘ro‘g‘li», «Tohir va Zuhra», «Uchar gilam», «Gulliverning sayohatlari», «Temur va uning komandasи», «Shum bola» singari kitoblarni qo‘ldan qo‘ymay o‘qirdi.

Adabiyotga bo‘lgan muhabbat uni, o‘rta maktabni 1967-yili tamomlaganidan keyin, Toshkentdagи Nizomiy nomidagi pedagogika institutiga yetaklab keldi. U 1968—1972-yillarda mazkur institutning (hozirgi universitet) o‘zbek tili va adabiyoti fakultetida tahsil oldi.

Institutda o‘zbek va jahon adabiyoti durdonalari bilan yanada chuqurroq tanishdi. Ulkan adiblar ijodi unga mahorat mакtabi vazifasini o‘tadi. Bu yozuvchilardan haqqoniq qiyofa yaratish, jonli xarakter chizish, qiziqarli badiiy usullar bilan bolalarni katta hayot ichiga olib kirish yo‘llarini o‘rgandi. So‘zning sehrli kuchini his qildi. Ehtimol, ushbu hodisalar bo‘lajak shoир va adibning tuyg‘ulariga yanayam kuchliroq g‘ulg‘ula solgandir.

Abdusaid Ko‘chimovning mehnat faoliyati 1972-yilda «O‘qituvchi» nashriyotida musahhihlikdan boshlandi. Ushbu nashriyotda olti oy ishlaganidan keyin, bolalarning respublika gazetasi «Tong yulduzi»ga adabiy xodim bo‘lib ishga o‘tdi va 1984-yilgacha ana shu gazetada bo‘lim mudiri, mas’ul kotib vazifalarida mehnat qildi. Gazetachilik ishi Abdusaid Ko‘chimov qalamini charxlab, adabiy ishga yo‘llabgina qolmadi, balki keng hayot ichiga olib kirdi,

bolalar dunyosi, ruhiy olami bilan do'stlaشتirdi. Hayotiy kuzatishlar yangi mavzu, yangi material berdi. Bu yillar ijodkorning tarjimai holida hayotni o'rganish, anglash, tushunish va adabiyot sirlarini egallash davri bo'lib qoldi, deyish mumkin. Gazetachilik ishi yuzasidan tez-tez safarlarga chiqqan qalamkash respublika shahar va qishloqlarini kezdi, yirik qurilishlarda, maktablarda bo'ldi. O'zining bo'lajak qahramonlari bilan yaqindan tanishdi. SHu tariqa uning asarlarida odobli, a'luchi, mehnatkash, tirishqoq va ayni paytda, o'jar va sho'x bolalarning xilma-xil qiyofalari paydo bo'ldi. Ana shunday asarlardan biri «Mening O'zbekistonim» dostonidir. Doston bolalar adabiyotidagi tipik usullardan biri — sayohat janrida yozilgan. Dostonda mamlakatda sodir bo'layotgan voqeа va hodisalar Bobo bilan Nabiraning xayolan qilgan sayohati vositasida juda qiziqarli hikoya qilinadi. Bu doston 1979-yilda alohida kitob — albom shaklida nashr etildi.

Tinimsiz izlanishlar, hayotdan va ustozlar ijodidan o'qib o'rganishlar Abdusaidga ijodda o'z ovozi, o'z yo'lini topib olishga imkon yaratdi. SHoirming uchinchи kitobi — «Toshburgut» (1981-yil) Abdusaid Ko'chimovning Ma'lum kamolotga yetganiga dalolatnama bo'ldi, deyish mumkin.

«Maqtanchoqlar», «Mish-mishvoy», «Inoqlar», «Yolg'on-chi-sayohatchi», «Jazo», «Suflyor» she'rлarida yuksak humor bilan birga bolalarda uchraydigan sodda mug'ambirlik, maqtanchoqlik, o'yinqaroqlik ajoyib mahorat bilan tasvirlanadi. «Suflor» asari ana shu jihatdan e'tiborli.

She'r bir sinfdagi oddiy va hayotiy voqeа zaminiga qurilgan. Bayram arafasida bolalar sinfda pesa qo'ymoqchi bo'ladilar. Rollar taqsimlanadi. Birov ot, birov chol, yana birov quyon. Barcha rollar taqsimlab bo'lingach, o'qituvchi:

Sahnada o'z so'zidan
Adashgudek bo'lsa kim,
Unga parda ortidan
Xolis yordam beruvchi,
Bilmay qolgan so'zini
Sekin aytib turuvchi,

Suflyor kerak, — deb qoladi. Tarbiyachining gapini eshitgan bolalar yoppasiga Hakim degan bolaga qaraydilar.

Abdusaid Ko‘chimovning ijodi bilan tanishar ekansiz, uning asarlarida bola xarakterining shakllanishida oila, jamoa va do‘st-birodarlarning roli muhim ekanini ko‘rsatish alohida o‘rin egallashini ko‘rasiz. Aksariyat asarlarida bolalarning ijtimoiy hayotda o‘ynaydigan roli batafsil tilga olinadi, tahlil va tasvir etiladi. «Biz o‘n yetti o‘rtoqmiz», «Uch do‘st, Ali bobo va anzur piyoz haqida ballada», «Er — boyliklar onasi» kabi she’rlari xuddi shunday xususiyatga egadir. Ularda baxtning kaliti mehnat ekanligi shunchaki bayon qilinmaydi, balki mehnatsiz, qiyinchiliklarni yengib o‘tmasdan hech narsaga erishib bo‘lmasligi bolalarbop badiiy bo‘yoqlarda mahorat bilan tasvirlanadi. Dangasalik va ayyorlik bilan do‘stlik qadrini yerga urish, mulohazasizlik, maqsadsizlik va maslaksizlik oxir-oqibat xunuk oqibatlarga olib borishi qoralanadi. Shoirming «Chanoq» dostonini o‘qigan kishi bunga yana bir karra ishonch qiladi.

Abdusaid Ko‘chimovning «Yosuman», «Toshburgut», «Vulqonlar» kabi ertaklariadolat, do‘stlik kabi insoniy tuyg‘ular talqiniga ayricha yondashilgani bilan xotirada muhrlanadi, o‘quvchi qalbini junbushga keltiradi. Binobarin, yosh avlodni chin odamiylik ruhida tarbiyalash, jamiyatga munosib kishilar qilib kamol toptirishdek muqaddas mavzuda asar yaratish har qaysi qalamkashning birinchi vazifasidir.

Shoir o‘zining «Chaman» dostonida mazkur vazifani yana bir karra go‘zal bir shaklda ado etgan. Tarixiy mavzudagi mazkur yirik asar yosh kitobxon qalbida vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, dushmanlarga qahr-u g‘azab uyg‘otishi bilan yuksak hayotiy va badiiy ahamiyatga molikdir.

Ijodkorning faoliyatida bolalar uchun yozilgan qissalar va hikoyalar, ayniqsa, muhim o‘rin egallaydi. Uning «Mening yulduzim», «Halqa», «Baland tog‘lar» kabi kitoblaridan o‘rin olgan asarlari yuksak badiiy salohiyati bilan bolalar nasrini bezab turadi. Bu asarlarni inson xarakterini yaratishdagi betakror mahorati bilan ham o‘zbek nasrining eng sara namunalari, deb bemalol aytish mumkin. SHunday xususiyatlari uchun ham adibning bir qator hikoya va qissalar, she’rlari jahondagi

ko‘pgina xalqlar tiliga tarjima qilindi. Xitoyda uning ikki kitobi «Halqa» (1993-yil) va «Hayot hukmi» (2000-yil) nomlari bilan nashr etildi. «Boychechak» hikoyasi, «Baland tog‘lar ostida» qissasi asosida ko‘p seriyali badiiy filmlar yaratildi. 1987-yilda chop etilgan «Halqa» kitobi G‘afur G‘ulom nomidagi mukofotga sazovor bo‘ldi. Tabiat mavzusida yozgan asarlari uchun esa 1984-yil YuNESKO mukofoti bilan taqdirlandi.

Adibning barcha nasriy asarlariga xos bo‘lgan yana bir fazilat bor. Bu kattalar va kichiklar, otalar va bolalar o‘rtasida azaliy munosabatlarning nozik qirralarini o‘ta sezgirlik bilan idrok etish va badiiy qiyofasini topa bilishdir. Muallif o‘z asarlarida hamisha hayotiylikka, tabiiylikka intiladi. Hech qachon voqealarni to‘qib chiqarmaydi, to‘qimalik ham hamisha o‘ta tabiiy tasviri bilan asar qahramonlari qoniga singdirib yuboriladi. Misol uchun «O‘g‘il» hikoyasini eslaylik. Hikoya qahramoni Avaz ismli oddiy qishloq bolasi. Uning otasi bir zamonlar o‘zbek xalqi boshiga mislsiz kulfatlar keltirgan mash’um «Paxta ishi» bo‘yicha olib borilgan tekshiruvda nohaq qamalgan. Bola hayot murakkabliklarini tushunishga hozircha qodir emas. SHu boisdan u otasi «ikki tonna paxtani qo‘sib yozgani uchun», degan kattalarning alfoviga ishonadi. Otasining «kamomadi»ni qoplash va ozodlikka chiqib olishiga yordam berishga astoydil bel bog‘laydi. Ertadan kechgacha, hatto kun-u tun, yomg‘ir tinmagan ezgin damlarda ham paxta teradi. Lekin tergani ikki tonnaga yetganda haqiqatni biladi. Nishonboy tabelchiyam, Suvon traktorchiyam aldamchi eka-nini anglaydi. Beg‘ubor bolaning ruhiy dunyosi ostin-ustun bo‘lib ketadi. «Yolg‘onchi! — dedi kutilmagan nohaqlikdan yurak-bag‘ri o‘rtanib ketgan Avaz,— Hammangiz aldamchisizlar, aldamchi! Aytaman, hammangizni otamga aytaman! Ota, otajon! — Bola keskin burildi-yu, izillab yig‘lagancha yomg‘ir sim-sim yog‘a-yotgan kimsasiz dala bo‘ylab yugurib ketdi...» Hikoya ana shunday dilo‘rtar satrlar bilan yakunlanadi. Bolaga hech qachon yolg‘on so‘z aytmaslik kerakligi, uning murg‘ak qalbiga yolg‘on sig‘masligi va har qanday yolg‘on uning ruhiyatiga putur yetkazishi hikoyada o‘z ifodasini topgan.

«Boychechak» hikoyasida esa ana shu g‘oya yanada chuqurroq talqin etiladi. Bu asarning sujeti ham oddiy va sodda: qishloqdagi an'anaga ko‘ra har yili erta bahorda «Boychechak» qo‘shig‘i aytildi. Boychechakni birinchi bo‘lib topib kelganlar doimo boshqalar oldida ayricha ehtiromga ega bo‘ladilar. Qo‘zivoy ismli mittigina bola bu yil ana shu hurmatga sazovor bo‘ladi. Tog‘asi unga «Boychechak» keltirib beradi. Sevinib ketgan bolalar to‘planishib, yarim tunga qadar uyma-uy «Boychechak» qo‘shig‘ini aytadilar. Odatga ko‘ra, tushgan pul hammaga teng bo‘linishi, boychechak egasiga esa ko‘proq berilishi lozim edi. Ammo jo‘raboshi — Murod chilim Qo‘zivoyga hammadan kam pul beradi. Boshqa bolalar nohaqlikni sezgan esalar-da, avvaliga jim kuzatib turishadi. Biroq Qo‘zivoy pulni otasi urushda halok bo‘lgan, onasi ko‘pdan buyon betob bo‘lib to‘sakda mixlanib yotgan do‘sriga bermoqchi ekanini bilishgach, chidab turisha olmaydi. Nafaqat bolalar, hatto Murod chilimning o‘zi ham qilmishidan pushaymon yeydi va boshqalardan berkitib, paytavasi orasiga yashirgan chaqalarni o‘rtaga tashlaydi. Bolalar hamma pulni olib, onasi bemor bo‘lgan Usmonlarnikiga qarab yo‘l olishadi. Uyat va or-nomusdan ezilgan jo‘raboshi hamrohlarining ko‘ziga tik qarashga botinmay o‘zini zim-ziyo tun qa‘riga uradi.

Hikoya quyidagicha yakun topadi:

«— O‘zidan ko‘rsin, — dedi bolalardan biri.

Bahrilla pullarni shu holicha gazetaga o‘radi. Bolalar eng quvonchli xabarni yurtdoshlariga yetkazishga oshiqayotgan elchilardek, g‘uvullab Usmonlarnikiga jo‘nashdi. Oldinda pildirab ketayotgan Qo‘zivoyning shodligi ichiga sig‘masdi. Uning xayolida qo‘lidagi boychechak mash’al singari hammalarining yo‘lini yoritayotgandek tuyular va shuning uchun ham qo‘lini baland ko‘tarib ketib borardi».

Ko‘pchilik e’tibor bermaydigan shunchaki voqeadan g‘oyat ulkan xulosalar chiqaruvchi bunday barkamol asarlar bolalar adabiyotida uncha ko‘p emas. Bu hikoya yuksak badiiy mahorat mevasi bo‘lgani uchun ham adabiyotimiz xazinasidan munosib o‘rin egallaydi.

Adibning «Qochoq», «Halqa», «Ishqibozlar» kabi hikoyalari ham o‘zbek bolalar adabiyotida yaratilgan eng sara asarlar qatoriga kiradi.

Abdusaid Ko‘chimovning qissanavislikda erishgan muvaffaqiyatlari, ayniqsa, havas qilgulikdir. Bugungi kunga kelib yigirmadan ortiq kitob muallifi bo‘lgan Abdusaid Ko‘chimov nafaqat bolalar, ayni chog‘da kattalar adabiyotining ham ko‘zga ko‘ringan ijodkorlaridan biriga aylandi. Uning «Ikki bahor», «Umid daraxtlari», «Qiyofa», «Yosuman», «Ko‘zlarimning qarog‘idasan», «Muhabbat bog‘lari», «El suv ichgan daryolar» kabi kitoblarini barcha yoshdagi o‘quvchilar sevib o‘qishmoqda.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. Anvar Obidjon hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
2. Shoirning o‘qish, odob haqidagi qaysi asarlarini bilasiz?
3. Anvar Obidjon hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
4. Uning Vatan, tabiat va bolalar o‘yinlari haqidagi asarlarining o‘quvchilarga ta’siri qanday?
5. A. Ko‘chimovning hayoti va ijodi haqida nimalarni bilasiz?
6. Shoir she’rlarida bolalar hayoti qanday aks ettirilgan?
7. A. Ko‘chimovning adib sifatida bolalar adabiyotida tutgan o‘rni qanday?

Adabiyotlar:

1. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.
2. M.Jumaboyev. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo‘llanma. 1996 y.
3. Z. Masharipova T.Matyoqubova O‘zbek yozma adabiyotida folklor an’analari Toshkent – 2011
- 4..www. ziyonet.uz. Bolalar adabiyoti-
5. Paul H. Fry. Theory of literature Yale University- 2012

HAMZA IMONBERDIYEVNING HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI.
HAMZA IMONBERDIYEV ASARLARINING MAVZU DOIRASI. HAMZA
IMONBERDIYEVNING “ADOLAT KALITI” ERTAGIDA ILGARI
SURILGAN G'oyalar. ABDURAHMON AKBAR IJODIDAGI RANG-
BARANGLIK. ABDURAHMON AKBARNING QOFIYALI NASR(SAJ’)
SHAKLIDAGI TURKUMIDAGI SHE’RLARNING O‘ZIGA XOSLIGI.
ABDURAHMON AKBARNING VATAN, TABIAT VA BOLALAR
O‘YINLARI HAQIDAGI SHE’RLARI HAQIDA. ABDURAHMON
AKBARNING ALIFBO SHEHRLARI HAQIDA

Reja:

1.Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati.

2. Abdurahmon Akbar ijodining rang-barangligi.

1.



Hamza Imonberdiev 1954- yilda Qozog‘iston Respublikasi Chimkent viloyatining Suzoq qishlog‘ida dehqon oilasida tavallud topdi. Hozirgi Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universitetining filologiya fakultetida Abusaid Ko‘chimov, Abdug‘affor Hotamov kabi yozuvchilar, SHuhrat Jabborov, Hamid Habibullaev kabi taniqli jurnalistlar bilan birin-ketin o‘qidi.

Talabalik yillarda yuqoridagi ijodkor do‘satlari bilan O‘tkir Rashid rahbarlik qilgan fakultetning «CHashma» to‘garagida, universitetning «Ma’rifat yo‘lida» gazetasida she’riy mashqlarini tobladi. Universitetni imtiyozli diplom bilan tamomlagan bo‘lajak bolalar shoiri H. Imonberdiev o‘z mehnat faoliyatini «Tong yulduzi» gazetasida boshladi. Umrining so‘nggi o‘n yilini esa «Cho‘pon» nashriyotida, kichkintoylar uchun katta adabiyot chop etadigan maskanda muharrirlik bilan o‘tkazdi.

Talabalik yillaridayoq ijodda kitobxon ko‘ziga tashlanib qolgan bolalar shoiri Hamza Imonberdiev «Quvnoqlar quvonchi», «Shokoladxo‘rlar», «Kulgi shaharchasi», «G‘aroyib pufak», «Oydagi tomosha», «Qutichada mitticha», «Lofchilar — aldoqchilar», «G‘aroyib Kent hangomalari», «Bir kunlik mo‘jiza» kabi kitoblar muallifi sifatida bolalar dilidan mustahkam joy oldi.

Shoir asarlari rang-barang, mavzu doirasi keng. U har bir katta-kichik asarida kenja kitobxon do‘stlarini nimagadir o‘rgatadi, o‘rganishga, ibrat olishga, turmushda xulosa chiqarib yashashga chorlaydi.

Xalqda: «Birovgaga chuqur qazisang, unga o‘zing qulaysan», degan naql bor. Bu borada «Kalila va Dimna»da juda ibratomuz bir hikoya bor. U har qanday odamga ta’sir qiladi:

«Bir kuni Qoraquloq o‘rmon chetiga chiqib o‘tirgan edi, bir sichqonning jahd-u jadal bilan daraxt tomirini kemirayotganini ko‘rib qoladi.

Daraxt tilga kirib unga dedi:

— Ey, dilozor va sitamkor! Nima uchun jonim rishtalarini qirqyapsan?

Sichqon uning nola-yu zoriga e’tibor bermay, o‘z ishini davom ettiraverdi. Nogah bir burchakdan ilon chiqib, sichqonga hamla qildi va bir zumda yutib yubordi. Qoraquloq bu voqeadan «Dilozorning jazosi ozor ekan», degan xulosa chiqarib oldi.

Shu vaqt bir tarafdan tipratikan kelib, ilonning dumidan tishladi-yu, boshini ichiga tortib g‘ujanak bo‘lib oldi. Ilon jahl bilan unga o‘zini ura boshlagan edi, a’zoyi badanini tikanlar pora-pora qilib yubordi. Ilon o‘sha zahoti o‘ldi. Qoraquloq bundan ibrat darsi oldi. Ilon o‘lgach, tipratikan boshini chiqarib, uning yaxshi-yaxshi joyidan tanlab yedi. Qorni to‘ygach, daraxt soyasida koptokdek bo‘lib yumalab, huzur qilib yotgan edi, nogah bir och tulki kelib qoldi. Tipratikanning nayzalaridan qo‘rqib, uni hiyla bilan o‘ldirmoqchi bo‘ldi. U tipratikanni ag‘anatib qorniga yozildi. Tipratikan yomg‘ir yog‘yapti shekilli deb o‘ylab, boshini chiqargan ham ediki, tulki bir hamla bilan uni cho‘rt uzdi, bo‘shashib qorni ochilib qolgan tipratikanni ishtaha bilan yeb oldi. SHu vaqt bo‘riga o‘xshagan vahshiy bir it kelib, tulkini turgan yerida bo‘g‘ib, uning go‘shti bilan ochligini qondirdi.

Qoraquloq bu ajoyibotlarni ko‘rib, hayron qolib yotar edi.

It endi dam olishga hozirlik ko‘rayotganda bir qoplon kelib, uning siynasidan oldi. Qoplon hali itni tugatmagan ham edi, ovchi kelib, bir o‘q bilan uni tinchitdi. Qoplanning joni hali uzilmagan edi, u yerdan bir otliq o‘tib qoldi. Unga qoplonning terisi yoqib, ovchi bilan urisha boshladи. Qilich solib, ovchining boshini tanidan judo qildi va qoplonning terisini olib yo‘lga tushdi. U yuz qadam ham yurmagan ediki, oti qoqilib, yerga yiqlidi. Gardani sinib, shu onda halok bo‘ldi».

Bolalar shoiri Hamza Imonberdiev «O‘q» she’rida xuddi shunga yaqin bir voqeani yosh kitobxonga havola qildi. Kamondan bemavrid otilgan o‘q hayotda bosar-tusarini bilmaydi, u o‘ta dahshatli, qasd qilish ishtiyoyida hammaga dag‘dag‘a qiladi. O‘q hech kimni nazar-pisand qilmaydi, chor tomonni nobud qilaman, otaman, bag‘rini tilaman, o‘ldiraman, deb oldinga intilaveradi:

Kelib qoldi ro‘baro‘	O‘tib ketdi bir yondan.
Ona Jayron yo‘lida.	Hamon uchib borar u
Quyosh ko‘kda qotdi tosh,	Qora ajal qo‘lida.
Nafasini yutgancha.	Kelib qoldi ro‘baro‘
Gullar ma’yus egdi bosh	Keksa CHinor yo‘lida.
O‘zlogin unutgancha.	— Hoy, ko‘zingga qara-da,
Qochar Jayron quyunday	Titrab dodladi CHinor,
Tuyog‘idan chaqnar o‘t.	Bag‘rimdagи inlarda
— Jon o‘q, tegma, uyimda	Axir palaponlar bor!
Kutar bolam, ko‘zi to‘rt!	O‘q voz kechib nishondan,
O‘q voz kechib nishondan,	O‘tar-ketar bir yondan...

Odatda, kim haddidan oshsa, yon-atrofdagilar bilan hisob-kitob qilib yashamasa, o‘ziga ortiqcha bino qo‘ysa, albatta, hayotda qoqiladi. CHor tomonga dahshat solib, hammaningjonini olmoqchi bo‘lgan o‘q o‘ziga nisbatan zo‘rroq mergan otgan o‘qqa duch kelib vayron bo‘lishi kitobxon bolalarmi quvontiradi.

Inson hayotda sog'lom, tetik, qo'rqmas, jasoratli bo'lib kamol topishi zarur. Mabodo u soyasidan ham cho'chib, hadiksirab, qo'rqib yashaydigan bo'lsa, bunday bola kelajakda omadsiz, tolesiz bo'lib qoladi.

Bolalar adabiyotida o'y o'ylash, xayol surish, xayoliy orzular bilan yashash ijobiyl natija berishi to'g'risida ko'p gapiriladi. Bunga misol qilib G'afur G'ulom, Quddus Muhammadiy, Po'lat Mo'min, Miraziz A'zam asarlaridan ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Bolalardagi bunday shirin tuyg'ularni Hamza Imonberdiev ham to'g'ri payqay olgan. «Lofchilar — aldoqchilar» asarida u kichkintoylardagi mana shunday orzu-havasni o'ziga xos usul bilan ochib berishga erishgan.

Ali xayolan qushcha shaklini yaratdi. Uni tomosha qilishga Valini chaqirdi. Vali ko'rsaki, qushcha yo'q. Lekin Alining bo'sh kelmasligi kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi.

Hamza Imonberdiev o'zi bilimdon, o'ta madaniyatli, to'g'riso'z, halol, pok, ozod va obod O'zbekistonimizni juda qattiq suyadigan ajoyib inson bo'lganligi uchun ijodining mundarijasi ham shunday. Adolat masalasida u ko'p jon kuydirar va bu haqda ko'plab asarlar yaratgan edi.

Hadislarda to'g'riso'z, halol, pok bo'ling, deyiladi. Kimki bunga qattiq amal qiladigan bo'lsa, el-yurt o'rtasida xijolat bo'lmaydi, obro'-e'tibori oshadi. «Adolat kaliti» ertagida Hamza Imonberdiev xuddi shu haqda gap yuritadi. Asar boshlanishidayoq yosh kitobxonlarni o'ziga tortadi:

Hayron quyosh, loldir oy,
Necha kun-u necha oy
Ikki elat urushar,
Bir-birlarin qirishar.
O'rtaga kimki tushsa,
Biz haqmiz, deb turishar.

Hamma gap, hamma balo ana shu «biz haqmiz»da. Buning asl boisi, sababini hech kim tushunmasligida. Qonli urush davom etaveradi. Bundan podshoh ham hayron:

Podshohning boshi qotgan,
Halovatin yo'qotgan.
Ojizligin his etib.
Og'ir xayolga botgan.

Chorasiz qolgan podshoh bu ishni — qonli urushni to‘xtatish chora-tadbirini qidiradi. Bu jumboqni yechadigan, urushga chek qo‘yadigan adolatli, xalq manfaatini o‘z manfaatidan yuqori qo‘yadigan bir Odilbek otli qozini toptiradi.

Hamza Imonberdievning o‘nlab qo‘shiqlari, ko‘plab doston-ertaklari bolalar tilida kuylanmoqda, o‘qilmoqda.

KIRPITIKAN

Barglar chirt-chirt uzilib,
Sho‘ng‘ib ketar har yonga.
O‘xshar go‘yo mushukdan
Qochgan sariq sichqonga.
Barcha qush va jonzotlar
Qish g‘amida ushbu choq.
Olmaxon yong‘oq g‘amlar,
Pana joy izlar Maymoq.
Yashar faqat bir kirpi
Boshqa bir tashvish bilan.
Tinmay izg‘ir qaygadir,
Band qandaydir ish bilan.
Qiziqsinib bir kuni
Baqa to‘xtatdi uni.
Dedi: —Hoy, kirpitikan,
Javob bergil so‘roqqa,
Har kuni leykang bilan
Shoshilasan qayoqqa?
—E, qo‘shni, bu sayyohlar
Rosayam tegdi jonga.
Ermakka gulxan yoqib,
Xavf solishar o‘rmonga.
Shunga bo‘lib ko‘z-qulqoq,
Yuribman kun kechirib —
Ular yoqib ketishgan
Gulxanlarni o‘chirib...

CHANOQVOY

Chanoq besh barmogida
Paxtani ushlab turar.
Teruvchini baholab,

Ko‘nglini hushlab turar.
Bir tola ham qoldirmay
Toza tersang qancha sen,
Aio qo‘ydim deganday
Ko‘rsatar besh panjasin.

BIR SO‘Z

Men Loladan xafaman,
Boshqa o‘rtoq topaman.
— Shaddod, — degan so‘zimga,
Qarab turib ko‘zimga,
Dedi qasddan:
— Bilvol, san
Badbashara,
Xumboshsan!
Shunchalik aybim ko‘pmi?
O‘zida-chi, ayb yo‘qmi?
Bo‘ldi, undan xafaman,
Boshqa o‘rtoq topaman.
Neki bersa oyimiz
Boiib yerdik doim biz.
Ranjitsa uni birov,
O‘ch olar edim darrov.
Uni do‘stim degandim,
U deb kaltak yegandim.
U boisa bitta so‘zga,
Qaramay yuz-u ko‘zga
Shuncha gapni to‘qidi,
Bitta do‘stim yo‘q endi...
Men Loladan xafaman,
Boshqa o‘rtoq topaman.

URUSHQOQLAR

Qoida yog‘och-avtomat,
„Urush-urush“ o‘ynaymiz.
Kalishlar — granata.
Bir-birimiz poylaymiz.

Goh ko‘krakka uramiz:
— Dushmanga yer yo‘q, — deb.
Goh yuztuban qulaymiz,
Naq yurakdan „o‘q“ yeb.
Ba’zida chinqiramiz:
— Paq-puq, otdim, yiqil, — deb.
Dushman tan olmas: — O‘qing
Qiyshiq ketdi, — nuql deb.
Hamma bola o‘yinda
„Jang“ qiziydi tobora,
Faqat Nodir raketa
Yasash bilan ovora.
— Urushqoqlar ichida
Yashab netaman,— der u.
— Olis sayyoralarga
Uchib ketaman,— der u.
Buni eshitib bizlar
Darrov uni o‘raymiz.
— O‘zing bilan bizni ham
Ola ket, — deb so‘raymiz.
Rozi bo‘lar do‘stimiz:
— Chiqinglar, — deb imlaydi.
— Biz kashf etgan sayyora
Urush nima bilmaydi!

VAQTNING HAJMI QANCHА?

O‘ylab ko‘rsam, vaqt degan
Rezinali to‘rxalta,
Neki tiqsang ichiga
Sig‘averar, zo‘r xalta.
Masalan, bir soatda
Nimalar qilish mumkin?
Kitob, gazeta o‘qish,
Samokat minish mumkin.
Do‘sting bilan urishib,
Mumkin hatto yarashish.
Tort yeayotgan ukangga

„Yordamlashish“, „qarashish“,
Alg‘ov-dalg‘ov qilib so‘ng
Mumkin yigish uy ichin.
Ko‘chirish mumkin hatto
Telefonda uy ishin.
Ha, shulaming bariga
Bir soatgina darkor.
Bir kunda bir soatdan
Yana, eh, qanchasi bor.
Harakat zo‘r bo‘lsa, vaqt
Rezinali to‘rxa!ta.
Neki tiqsang ichiga
Sig‘averar, zo‘r xalta!

OLAMOSHIM

Tokchadagi qaymoqdan
Ko‘tarmay sira boshin,
Ichayapti qarasam,
Uyalmay Olamoshim.
Avvaliga „pisht“ deb bir
Quvmoq bo‘ldim-u, biroq
Rahmim kelib negadir
Tikilib qoldim uzoq.
Quloqlarin chimirib
Ichar edi bir mayin.
Beparvoligim sabab
Qomi ochgani tayin.
Oyoq uchida asta
Chiqib ketdim hovliga—
Bir gal qaymoq yemasam
Yemabman-da, mayliga.

QO‘POLLIK

Afsus, qo‘pollik qildim,
Akam urdi do‘q,
— Bor, ko‘zimga ko‘rinma,
Hech keraging yo‘q!

— Bilmay qoldim, ishoning,
Aka, so‘zimga.
— Bas, dedim, bas, ko‘rinma
Endi ko‘zimga.
O‘tib ketdi bunday so‘z
Jon-u tanimdan.
Ko‘zlarimga to‘lib yosh
Ketdim yonidan.
Ko‘rinmayman ko‘ziga,
Bo‘pti, ketaman.
Yolg‘iz akam toshmehr,
Bunda netaman?!
Ha, ketaman bir o‘zim,
Bosh oqsa qayga.
Balki sharga osilib
Uchaman oyga.
Balki minib G‘irko‘kni
Jangga kiraman.
Yog‘och qilichim sermab,
Yovni qiraman.
Dushman bilan solishib,
O‘larman oxir.
Nima qila olardim
Akamsiz axir.
Kelib qabrim boshiga
Akam bosh egar.
Kechir meni, uka, deb
Balki yosh to‘kar.
Hech kim nobud bo‘lmagan
Mening yoshimda...
— Uka!
Boqsam turardi
Akam boshimda.
Xayollarim har yoqqa
Sochilib ketdi.
Xufton dilim charaqlab
Ochilib ketdi.
Akam bo‘lsa yonimda
Quvnab ketaman.

Shunday akam turganda
Oiib netaman?!

TURNALAR

Dovul turib dengizda
Havo tamom buzildi,
Kechga borib turnalar
Safl bexos uzildi.
Qolib ketdi bir turna
Dosh berolmay jalaga.
Qirrovlari yetmadi
Bee'tibor galaga.
Xavotirda onasi
Safdan chiqar qayrilib.
Qayoqqa ham borardi
Dilbandidan ayrlib.
Qushlar charchab-horigan,
Tugab borar kuch-sabot.
Tortmoqchiday domiga
Toiqinlar sapchir bot-bot.
Azoblardan qushchaning
Ko'zlarida yosh qotdi.
—Chidolmayman, onajon,
Qanotlarim tosh qotdi.
Netardi onayizor
Yuragin o'rtar bu sas:
—Yana biroz sabr qil,
Sabr qil, bolam, birpas.
Ko'p o'tmay ufq bo'zarib
Jala ham tindi asta,
Alg'ov-dalg'ovli borliq
Tinchib qoldi birpasda.
Yotar dengiz yastanib,
Na boshi, na cheki bor.
Dengiz uzra tumalar
Uchib borar bemador.
Shu choq olisda yolg'iz

Kema ko‘zga chalindi.
Shod qirrovlab turnacha
Onasiga yalindi:
— Uchaylik o‘sha yoqqa,
Tog‘-qoyaga o‘xshaydi.
— Yo‘q! yo‘q! Bu — suzar orol,
Qanotsizlar yashaydi.
Ular haqda avlodlar
Biror xush so‘z aytmagan.
Ularga yaqinlashgan
Hech vaqt omon qaytmagan.
Yo‘q, quloqsiz turnacha
Ilmayin ona so‘zin,
Uchib ketdi suzuvchi' —
Oroldan uzmay ko‘zi».
Ona tuma qirrovi
Ko‘kni tutar bu damlar:
— Ojizlarmiz,
sizlarga
Insof bersin,
odamlar!



Abdurahmon Akbar. 1962-yilda Yangiyo‘l tumani Niyozbosh qishlog‘ida tavallud topgan. U 1987-yilda hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan. A. Akbar «Kichkintoy va paxtaoy», «Ehtiyyotkor toshbaqa», «Uyquchining tushlari» kabi o‘ndan ortiq she’riy kitoblar muallifi. Kichkintoylar dunyoni o‘zgacha idrok qiladilar. Kattalar uchun oddiy tuyulgan narsalar ular ko‘z o‘ngida fojiali ko‘rinishi, kattalar uchun og‘riqli va armonli tuyulgan yechilmas masalalar esa ular nazarida oddiy, yechimini topishi qiyin emas. Masalan, mana bu she’riy parchadagi kabi:

Meni ko‘rsa tog‘amning ko‘zlariga yosh kelar,
Botirim, polvonim deb opichlab yurar uzoq.

Yoshi dadajonimdan ancha kichik bo‘lsa-da,
G‘o‘zasi kabi rangpar, paxtasidek sochi oq.
Ona, tog‘amning nega bitta ham bolasi yo‘q?
Qiliqlari, yuzlari menga rosa o‘xshaydi,
Menga o‘xhab arazchi, menga o‘xhab hazilkash.
Ammo bitta gapiga sira tushunolmayman,
Nimaydi, ha, «Bunchalar, bunchalar qiyin yashash?»
Ona, tog‘amning nega bitta ham bolasi yo‘q?
Shoir «Qo‘rqqanga qo‘sha ko‘rinar» nomli she’rida bolakaylarni mard, botir va ziyrak bo‘lishga da’vat etadi:

Kech kirib, ko‘kda hali
Oy kezmagan pallada,
Norni kuchuk quvlabdi
Sukut to‘la dalada.

Adabiyotshunos Rahmatilla Barakaevning Abdurahmon Akbar ijodiga bergen bahosi ham e’tiborga loyiq. Muallif «Istiqlol davri bolalar adabiyoti: an’ana, vorislik va izlanish» nomli tadqiqotida shoir ijodining quyidagi qirrasiga alohida e’tibor qaratadi: «Abdurahmon Akbarning mumtoz adabiyotimizdagi qofiyali nasr (saj)ni eslatuvchi «Shoir dadam haqida she’riy hikoyalar» turkumini she’riy shaklga sig‘magan fikrlar tizimi deyish to‘g‘iroq bo‘lar edi. Abdurahmon bu she’rlari bilan bolalar adabiyotimizga fikrlovchi, o‘ychan bola timsolini olib kirdi.

A. Akbarning shakliy izlanishlari ham e’tiborga molik. Uning raqamli she’rlari kichik mакtab yoshidagi bolalar she’riyatini yangicha shakl va mazmun bilan boyitdi:

(«Salom xat») Shoirning ijodini kuzatgan adabiyotshunos Zamira Ibrohimova Abdurahmon Akbarning hayotiy voqeа va xayoliy tasavvurlardan ta’sirchan manzaralar yaratgani haqida, jumladan, shunday yozadi: «Bu manzaralar xuddi aqli farzand oilaga fayz-baraka, ota-onaga rahmat olib kelganday, ko‘ngillarda mammuniyat tuyg‘ularini paydo qilib, yosh kitobxonning xayolot olamini boyitadi, kengaytiradi: o‘quvchi chirildoqlarning sokin oqshomni to‘ldirib kuylashlarida osoyishtalik gashtini

anglagandek, yog‘gan yomg‘ir tomchilaridagi mo‘jizani tuygandek, asalari, chumolilarning mehnatiga xos go‘zallik, fayz-ziynatni ko‘rgandek bo‘ladi».

Etti qalam, yetti rang,

Qalamdonni qo‘yatur,

Etti ohang — kamalak.

Kel, quyoshjon, tezroq kel.

Qaerlarda yuribsan,

Rasm chizib ber bizga,

Quyosh — sochi jamalak?

O‘chirg‘iching bo‘lar yel.

Qalamlaring topildi,

...Million yilki, ahvol shu,

Bulut — qog‘oz ham tayyor.

Erliklar kutib tolar.

San’atingdan bahramand

Qalamlar bor paytda

Bo‘laylik bizlar bir bor.

Quyosh «yo‘qolib» qolar.

(«Kamalak»)

Bolalar olamida mayda va ahamiyatsiz narsalar uchramaydi, ya’ni kattalar mutlaqo nazarga ilmaydigan, e’tibor bermaydigan, ular uchun ahamiyatsiz ko‘ringan narsalar bola nazarida o‘zgacha, ajib bir qiyofada jonlanadi. Masalan, jajji Zeboxon birinchi marta qo‘shaloq giloslarni ko‘rib, ularning o‘rtoq bo‘lib olishganidan («O‘rtoqlar») quvonadi. Yoki Sevinchoy issiq choydan ko‘tarilayotgan bug‘ni ko‘rib «choyim uchib ketayapti» deb («Sevinchoy haqida she’r») hayratlanadi. Yulduzoy esa o‘ziga yoqqan fasl haqida samimiyat bilan «Yozda yoz fasli, kuzda bo‘lsa kuz» («Eng to‘g‘ri javob») deb ko‘nglidagini aytadi.

Abdurahmon Akbar qalamiga mansub she’r va tarjimalarda bolalar dunyosiga chuqurroq kirib boriladi, ularda fikr aniq va lo‘nda ifodalanadi. Asarlar tilining sodda va ravonligi, tasvir vositalarining puxtaligi, jahon bolalar she’riyatining eng yaxshi an’ana va usullarini, shakllarini o‘zida omuxta qilganligi bilan nafaqat yosh kitobxonlar, shu bilan birga katta yoshdagи adabiyot, she’riyat muxlislari e’tiborini ham torta oladi. Bolalarning barkamollikda, bugunning va kelajakning egasi ekanini his etib ulg‘ayishlariga ko‘mak beradi.

SO‘ROV

Yaproqlarning boshin silading,

Daraxtlarga o‘rgatding o‘yin.

Bulutlami „yum-yum“ yig‘latding,

Buzib qo‘yib nogahon „to‘yin“,
Shamol, bitta yuzingni ko‘rsat.
Goh uvlaysan, goh chiyillaysan,
Seni kimdir quvlarmi bu payt?
Kayfiyatting bilmay hayronman,
Xursandmisan, xafamisan, ayt,
Shamol, bitta yuzingni ko‘rsat.
Yelayapsan, jivirlar buloq,
Kelayapsan, shivirlar yaproq,
Nima bo‘lar o‘zing ko‘rsatsang,
Nahot yuzing shuncha badqovoq?
Shamol, bitta yuzingni ko‘rsat.
Bir qarasam, yo‘qqa o‘xshaysan,
Bir qarasam, o‘xshaysan borga.
Tanib qo‘yay seni ham axir,
Bir bor xo‘p de, men qilgan zorga,
Shamol, bitta yuzingni ko‘rsat!

KITOBNI KO‘P O‘QIYDIGAN UKAM

Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam
Nimagadir juda ham kamgap.
Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam
She’rlar yozar onamga atab.
Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam
O‘yga tolar ba’zida uzun
Va shivirlar: — Hali kelmabdi
Suvlar suvga o‘xshaydigan kun.
Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam
Bir kun menga shundayin dedi:
—Oq mo‘ynali qalpog‘ingiz ham
Quyon edi, joni bor edi.
— Bunaqangi jumboq gaplarni
Qaydan o‘ylab topasan? — desam,
Bosh chayqar-da, „uf“ tortib qo‘yar,
Kitobni ko‘p o‘qiydigan ukam.

YOMG‘IR

Tunlari kuladigan
Gullar ekan yulduzlar.
Ko‘zga ko‘rinmas ekan
Shu boisdan kunduzlar.
Oftob bilan Oymoma
Ota-yu ona ekan.
Bolalarin boshida
Doim parvona ekan.
Bolalari kim dersiz
Kun va Oyni sizlar ham.
Menga ishonavering,
Ular Bulutlar desam.
Bulutlar ham bizlardek
O‘ynar, uxlar, tush ko‘rar.
Dengiz-u ummonlarda
Cho‘milmoqni xush ko‘rar.
Bas, suvdan chiqing, deya
Koyimasa ham hech kim,
Yuvar yuz-qo‘llarini
Ular goh chala-yarim.
Bundan ranjib Oftobjon
Egniga peshband tutar.
Farzandlarin bir joyga
To‘planishlarin kutar.
Bulutvoylar g‘o‘ldirab,
Yo‘talishsa ham „quv-quv“,
Ularning ust-boshidan
Quyosh quyar tinmay suv.
Ko‘ngli to‘lsa-ku xo‘p-xo‘p,
Yo‘qsa: quyar tunda Oy.
Natijada tevarak
Bo‘lib ketar ho‘l va loy...
Uydan chiqmay shu kezlar
Derazadan bo‘ylaymiz.
Eng qizig‘i, bu suvni
Biz yomg‘ir deb o‘ylaymiz.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. Shoirning hayoti va ijodi haqida gapirib bering.
2. Hamza Imonberdievning «Tarbiyachi» asari qanday tarbiyaviy ahamiyatga ega?
3. Shoirning o‘qish, odob haqidagi qaysi asarlarini bilasiz?
4. Abdurahmon Akbar ning hayoti va ijodini so`zlab bering.
5. Uning Vatan, tabiat va bolalar o‘yinlari haqidagi asarlarining o‘quvchilarga ta’siri qanday?

Adabiyotlar:

1. M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.
2. M.Jumaboyev. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo‘llanma. 1996 y.
3. Z. Masharipova T.Matyoqubova O‘zbek yozma adabiyotida folklor an’analari Toshkent – 2011
- 4..www. ziyonet.uz. Bolalar adabiyoti-
- 5.Paul H. Fry. Theory of literature Yale University- 2012

CHET EL BOLALAR ADABIYOTINING UMUMIY TAHLILI.
SHARI PERRONING BOLALAR ZAVQ OLADIGAN ERTAKLARIGA
XOS XUSUSIYATLAR HAQIDA. AKA-UKA GRIMRALAR YARATGAN
ERTAKLarda ILGARI SURILGAN G'oyalar. AKA-UKA
GRIMMLAR YOZGAN ERTAKLarda ULUG'Langan YOKI
QORALANGAN FAZILATLAR VA XISLATLAR HAQIDA. XANS
KRISTIAN ANDERSEN IJODINING KO'P QIRRALI VA RANG-BARANG
EKANLIGI. XANS KRISTIAN ANDERSEN ASARLARIDA ILGARI
SURILGAN G'oyalar

Reja:

1. Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili.
2. Sharl Perro asarlari
3. Aka-uka Grimmlar yaratgan ertaklarda ilgari surilgan g'oyalar.
4. Xans Kristian Andersen ijodining ko'p qirrali va rang-barang ekanligi.

Mamlakatimizda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo'lagi bo'lgan bolalar adabiyotining rivojlanishi, har tomonlama boyib borishida tarjima asarlarning o'rni, ahamiyati katta. Yozuvchilarining asosiy tavofuti idrokida⁸ bo`lgani bilan ularda ifoda etiladigan g'oyalar mamuni umuminsoniydir, tarjaima asarlarni o'qigan har bir yosh kitobxonning dunyo haqidagi fikri, tasavvuri boyib, o'sha xalqning yashash sharoitlari, urf-odatlari, mehnatlari, orzu-intilishlari bilan oshno bo'ladilar.

Asrlar osha xuddi ertak kabi eldan elga, tildan tilga o'tib, dillarni yashnativ yurgan "Qizil Shapkacha"(Sh.Perro)", Robinzon Kruzo"(D.Defo), "Gulliverning sayohatlari" (J.Swift), "Dyumchaxon"(X.Andersen), "Oltin baliq" (A.S.Pushkin), "Tom Soyerning boshidan kechirganlari", "Shaxzoda va gado" (M.Tven), "Kapitan

⁸ Empson Theory of literature Yale University- 2012 Chapter 6–Page 78

“Grand bolalari”, “Ostin-ustin” (S.J. Vern), “Don Kixot” (J. Servantes) kabi asarlar yosh qalblarning olamga nisbatan qiziqishlarini jo‘sh urdirib yuboradi.

XX asrda bunyod etilgan “Maugli” (R. Kipling), “Kichkina shahzoda” (A. De Sent-Ekzyuperi), “Katta va kichik Karlson” (A. Lindren), “Toshkent-non shahri” (A. Neverov), “Vinni Pux” (A. Miln), “Axmoq sichqoncha haqida ertak” (S. Marshak), “Uch baqaloq” (Yu. Olesha), “Quvnoq japbaqlar” (B. Kerboboev), “Doktor Aybolit” (K. Chukovskiy), “Timur va uning komandasi” (A. Gaydar), “Chippolinoning sarguzashtlari” (J. Rodari), “Styopa amaki” (S. Mixalkov), “Kim bo‘lsam ekan?” (V. Mayakovskiy), ”Bilmavoy quyosh shahrida” (N. Nosov) singari olam kezib yurgan asarlar o‘zbek kitobxon bolalarida katta taassurot qoldirmoqda.

Yuqorida tilga olingan asarlar yosh kitobxонни nimagadir o‘rgatadi, nimagadir da’vat etadi. Bu asarlarning ko‘philigi ona- Vatanga muhabbat, uning ozodligi va baxti uchun jon fido qilish (“Uch baqoloq”) noshukur bo‘lmaslik, ota-onal pand-nasihatiga qulq solish (“Ahmoq sichqoncha haqida ertak”), tabiatga buyuk mehr (“Maugli”), tabiatni asrash, hayvonot olamini sevish (“Doktor Aybolit”), odamlar xizmatini bajarish, beminnat yordam ko‘rsatish (“Temur va uning komandasi”), o‘ziga pishiq-puxta bo‘lish, ichki sirlarini o‘zgalarga oshkor qilmaslik (“Qizil Shapkacha”), namunali o‘qish, kasb-hunar egasi bo‘lish (“Kim bo‘lsam ekan?”), sergak, tadbirkor bo‘lish hamda quvnoqlikka intilish (“Quvnoq japbaqlar”) dek oliyjanob g‘oyalarning yotishi bolalarning tarjima asarlarga nisbatan bo‘lgan qiziqish va ishtiyoqlarini o‘stiradi.

Sharl Perro (1628-1703) Buyuk

frantsuz shoiri va tanqidchisi badiiy ertak asoschisi sifatida ma’lum va mashhurdir. U o‘zining “Qizil Shapkacha”, “Zolushka” va “Etik kiygan mushuk” asarlari bilan jahonga taniladi.



Sh. Perro badiiy ertaklar ijod etishda oldin xalq og‘zaki ijodini mehr va ishtiyoy bilan chuqur o‘rganadi. Shuning uchun ham u o‘z ertaklarida xalq udumlarini dadil ilgari suradi.


Perro qahramonlari o‘z mehnatsevarliklari hamda saxiyliklari bilan ajralib turadi. G‘arazgo‘ylik, maqtanchoqlik, qizg‘anchiqlik o‘rnini yaxshilik, mehribonlik bosib ketishi hamon kitobxonni shod etib kelmoqda. Sharl Perrodan bor-yo‘g‘i 12 ertak saqlanib qolgan. Qaysi ertagiga nazar tashlamang, barchasida bolalar zavq oladigan qirralar bor ekanligini darrov payqaysiz. Dunyoda uning “Etik kiygan mushuk” ertagini o‘qimagan yoki shu ertak asosida yaratilgan multfilmni miriqib tomosha qilmagan bola topilmasa kerak.

Ertakda aqlilik, bilimdonlik, topog‘onlik bosh masala qilib qo‘yiladi. Boshqa asarlarda bo‘lgani kabi SH.Perro bu ertakka ham folklor an‘analariga yana bir bor sodiq qoladi. Ertak qahramoni-tegirmonchinng kenja o‘g‘li Karabs fahm-farosat, aql bilan ish ko‘rib, o‘z murod-maqsadiga yetadi, baxtiyor bo‘ladi.

Sharl Perroning barcha personajlari pishiq-puxtaligi bilan ajralib turadi. Ularning ko‘pchiligi odamlarni, hayvon-u parrandalarni sevib, erkalab, e’zozlaydigan bo‘ladilar. Zolushkani (“Zolushka”) olaylik. Uni o‘gay ona-yu qizlar xush ko‘rmaydilar., xolos. Qolgan barcha jonzot Zolushkani yaxshi ko‘radi. Uning o‘z baxtini topib, osoyishta turmush kechirishini istaydi. Zolushka juda chiroyli, odobli, sharin so‘z, kamtarin, odamlarga, jonvor-u parrandalarga nisbatan mehribon. Uning bunday fazilatlari, mehnat, hallollik va poklik bilan hayotda o‘z o‘rnini topishi, sevganiga turmushga chiqib baxtli bo‘lishi ertak tinglovchida yaxshi taassurot qoldiradi.

Sh.Perro ijodida “Qizil Shkapkacha” alohida o‘rinda turadi. Ertakning ta’sirli va jozibali chiqishi uchun Qizil Shapkachaning tabiiy holda ijobiy tomoniga ko‘p sayqal beradi, bolalar ko‘z o‘ngida u dunyodagi tengi yo‘q, juda yoqimtoy qizcha sifatida gavdalanadi. Bo‘rining yovuzligi, surbetligi, uning kampir qiyofasiga kirib olishi har bir bolada chuqur nafrat hislarini qo‘zg‘atadi.

Boshqa ertaklarda bo‘lgani kabi “Qizil Shapkacha”da ham voqeа yaxshilik bilan tugashi bolalarning quvonchiga quvonch qo‘shadi.



Aka-uka Grimmlar (Yakob 1785-1863, Vilgelm 1786-1859) Magdeburg universitetida o‘qib yurgan chog‘laridayoq o‘rta asr olmon tarixi va madaniyati, huquq va mifologiyasi, xalq og‘zaki ijodi hamda til va adabiyoti bilan shug‘ullana boshladilar.

O‘qish, o‘z ustlarida qattiq ishlash Grimmlar uchun baxt yo‘li bo‘ldi. Ular avval Gettingen, keyinchalik esa Berlin universitetining professorlari bo‘ldilar Yakob olmon tili grammatikasi va mifologiyasini, Vilgelm o‘rta asr olmon adabiyoti va xalq og‘zaki ijodini(XOI) o‘rgana boshladilar.

Olmon XOIning gullab-yashnashiga, olam kezishiga bir ko‘prik yasadilar. Nihoyat, 1812- yilda Grimmlar tomonidan yozilgan ertaklar bir necha jildli “Bolalar va oilaviy ertaklar” yuzaga keldi. 1815- yilda 2-jild, 1828- yilda esa har ikkila jildni umumlashtiruvchi uchinchi jild bosilib chiqdi.

Grimmlar ertaklarning ko‘pchiligini bevosita ertak aytuvchilardan tinglab, ba’zilarini esa dehqonlar bilan suhbatlashib yozib oladilar. Xalqdan olingan ertaklarning har biri Grimmlar tomonidan qayta ishlanib, badiiy tus olib, yana xalqqa qaytariladi.

Grimmlarning uch jildli kitobiga ikki yuzdan ortiqroq ertaklar jamlangan bo‘lib, unda mualliflar ko‘proq afsonaviy, maishiy va hayvonlar haqidagi ertaklarni umumlashtirishga harakat qilganlar. Har bir ertakda sahiylik, mehnatsevarlik, botirlik kabi fazilatlar bilan birga qo‘rroqlik ustidan kulish, dangasalik va yolg‘onchilikni qattiq qoralash birinchi o‘rinda turadi. Shunisi ham quvonchliki, ko‘pincha Grimmlar ertaklarining asosiy qahramonlari shoh va shahzodalar emas, balki kambag‘al, beva-bechoralarning o‘g‘il-qizlari, cho‘pon yoki askar bo‘ladi. Ular o‘zlarining ibratomuz ishlari bilan ertak tinglovchida chuqur taassurot qoldiradi.

Aql bilan ish ko‘rish, bilimdonlik, “Tilla g‘oz”, “Shishadagi arvoh”, “Uch aka-uka” ertaklarida yaxshi berilgan.

Grimmlarning “Quyon bilan tipratikon”, “Bo‘ri va tulki” asarlari masal janriga yaqin turishi bilan kitobxonda katta taassurot qoldiradi.

“Yalqov Gens”, “Gansning baxti”, “Botir tikuchi”, “Yosh pahlavon”, ”Bremen musiqachilar” kabi ertaklari o‘zbek bolalarining ham sevimli avsarlariga aylanib qolgan.

“Yosh pahlavon” ertagidagi botirning qiyofasi kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. U halol, pok inson bo‘lib, rostgo‘ylik, to‘g‘ri so‘zlik shaydosi. Shu sababga ko‘ra u yo‘lida uchragan har qanday to‘siq va g‘ovni shoshilmay, jasorat va mardlik bilan yengadi, maqsadiga erishadi.

“Botir tikuvchi” ning syujeti ko‘pchilikka yaxshi tanish. Qahramon nogahon bir nechta pashshani nobud qilish bilan o‘ziga o‘zi botir, dovyurak tamg‘asi-shiorini yozib, yelkasiga osib oladi. U baxtini, taqdirini sinab ko‘rish, peshonasida borini qo‘lga kiritish maqsadida safarga otlanadi.

Aka-uka Grimmlarning ertaklari olam kezib, ularning nomlarini jahonga yoyib yuribdi.



Xans Kristian Andersen Daniyaning jahonga mashhur ertakchisi 1805- yilda Odens shahrida dunyoga keldi.

Bolaning otasi kavushdo‘z, onasi esa kir yuvuvchi bo‘lib ishlar edi. SHuning uchun Hans kambag‘allar maktabiga o‘qishga kiradi. Oradan uncha ko‘p vaqt o‘tmay, ularning oilasi Kopengagenga ko‘chadi.

Bolaning yashash sharoiti va o‘qishi bu yerda ancha-muncha yaxshi bo‘ladi. Bo‘lajak yozuvchi 1823-yilda Slagels maktabiga o‘ishga kiradi, undan keyin Xelsingyorda ta’lim oladi. 1828-yilda esa Kopengagen universitetiga o‘qishga kiradi.

Andersen juda ko‘plab mamlakatlarni kezib chiqadi. Frantsiya, SHvetsariya, Italiya, Gretsiya va Ispaniya singari joylarga sayohat qiladi.

Andersenning ijodi 20-yillarning boshlarida boshlanadi. U dastlab lirik she’rlar, roman, drama, yo‘l ocherklari, biografik etyudlar yaratadi.

“Daniyalik Xolger”, “Qor malikasi”, vatanparvarlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan “Daniya-mening vatanim”, ozodlik g‘oyasi mujasamlangan “Soqchi”, “SHilyon asiri” va boshqa she’rlari she’riy janrda yaratgan eng sara asarlari jumlasiga kiradi.

Andersen o‘z romanlarida (“Improvizator”, “O.T” bo‘lgan yoki bo‘lmaydi”) zamonasi uchun juda muhim bo‘lgan voqealarni qamrab olishga harakat qiladi.

Uning ijodi ko‘p qirrali va rang-barangdir. Ayniqsa, tarix va ertak asarlari yosh kitobxonlar uchun maroqlidir. “Ertaklar” (1835-1855), “Yangi ertaklar”(1843-1872) va boshqa kitoblari Andersenning nomini juda mashhur qiladi va uni jahonga tanitadi.

Andersen bu kitoblarni yaratishda xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalanadi, ularning orzu-umidlarini qog‘ozga tushirishga harakat qildi. Ertaklardagi xarakter va jonli nutqni yanada mukammallashtirishga erishdi. SHuning uchun Andersen

yaratgan ertaklar sodda, kitobxon uchun tushunarli bo‘lish bilan birga o‘quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanish xususiyatiga ham ega.

Andersen ertaklarida ko‘pincha bosh qahramon shahzoda ham emas, malika ham emas, balki oddiy mehnatkash xalqdir. Ular o‘zlarining samarali mehnati, aql-idroki, axloq-odoblari bilan kitobxon tahsiniga muvaffaq bo‘ladilar. Uning “Qo‘ng‘iroqli girdob”, “Kolbasa sixidan sho‘rva”, “Go‘ngi qo‘ng‘iz” va boshqa ertaklari fikrimizga yorqin misol bo‘la oladi. Ertakchining “Qo‘ng‘iroqli girdob” asarini olib ko‘raylik. Unda asrlar mobaynida ezilgan, og‘ir mehnat va zulmdan tinka-madori qurigan mehnatkash xalq vakili Blakening o‘z xojasiga qarshi turishi kitobxonni quvontiradi.

“Bolalar gurungi” asarida avvaldan hech kim taqdirini, kichkintoy o‘sib-ulg‘aygach kim bo‘lib yetishishini bilishi mumkin emasligini, bu ko‘proq o‘sha bolaning o‘ziga, intilishiga, kattalarning ibratomuz pand-nasihatlariga qulog solishga bog‘liq ekanligini o‘qiymiz.

SHohona qasrga to‘plangan bir to‘da bashang kiyangan aslzoda bolakaylar qasrni to‘ldirib maqtanishar, ota-onalarining hisobsiz boyliklari bilan quvonishar, kelajakda ota-onalaridan ham badavlatroq bo‘lish uchun harakat qilishlarini kibor bilan ta’kidlashar edilar. Bu boy-badavlat bolalarning bir-birlariga gap bermay maqtanishlarini yirtiq-yamoq kiyim kiyib olgan bir kambag‘al bola tinglab, xo‘rsinar, “bularga yetish bizga yo‘l bo‘lsin”, deb qo‘yar edi, o‘zicha.

Yillar o‘tib o‘sha juldur kiyimli bola yaxshi o‘qib, rassom bo‘lib yetishdi, mamlakatda eng boy odamlardan biriga aylandi, o‘ziga munosib bir qasr qurdirdi. “Qasr hamda uning ichidagi xazinani ko‘rish”ni hamma istardi.

Ertakchining “No‘xat ustidagi malika” asari ham yosh kitobxonning kulgusini qistadi, ham tannoz malikaga qahr-g‘azabini qo‘zg‘atadi.

Bir shahzoda haqiqiy malikaga uylanish uchun butun yer yuzini, shahar-u qishloqlarni qidirib hech qaerdan haqiqiy malikani topa olmaydi. Hafsalasi pir bo‘lgan, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushgan shahzoda qasrga qaytadi.

Kunlardan bir kun ko‘z ko‘rib, qulog eshitmagan mo‘jiza yuz beradi:

“Bir oqshom havo aynigandan aynibdi: shundoq chaqmoq chaqib, momaqaldiroq gulduros solibdi, yomg‘ir chunonam chelaklab quyib beribdiki, dahshatning o‘zginasi.

To‘satdan qasr darvozasi taqillab qoldi. Keksa qirol borib darvozini ohibdi.

Darvozada malika turardi. Yo qudratingdan, uni nimaga o‘xshatish mumkin! Suv malikaning sochlari, ko‘ylaklaridan sharillab oqib, to‘ppa-to‘g‘ri boshmoqlarining uchlariga, tovonlariga tushardi, u bo‘lsa pinagini buzmay,”Men haqiqiy malikaning xuddi o‘ziman, derdi” .

Malikani sinab ko‘rish ishlari ham g‘alati bo‘ldi. Tunda qirq qavat ko‘rpa ostiga no‘xatni yashirib joy solib berdilar. Tannoz oqbilak qiz ertalab o‘rnidan turar ekan, “qanday uxlab turdingiz?” deyilgan savolga nolish ichki dard bilan javob berdi:

“Ey juda yomon!-deydi u. –Ko‘zimni yummadir desam ham bo‘ladi. Men qandaydir qattiq narsaning ustida yotdim, butun a’zoyi badanim ko‘karib ketdi. Naqadar dahshat!”

Shahzoda qizning haqiqiy malika ekanligini bilib, unga uylanadi.

Bolalar, odatda, hayvonlar,parrandalar, hashoratlar haqidagi ertaklarni sevib o‘qiydilar. Andersen yaratgan ertaklarning juda ko‘pchiligi ana shu mavzuni qamrab olishi bilan ham xarakterlidir.

“Dymovichka”, “Irkit o‘rdakcha”, “Botqoqlik shohining qizi”, “Baqa”, “Burga bilan professor” singari ertaklari o‘zbek kitobxonlarining ham sevimli asarlariga aylanib ketgan.

Xullas, daniya ertakchisi Hans Kristian Andersennenning ijodi uzoq yillardan beri yoshkitobxonlarga zavq-shavq bag‘ishlab kelmoqda

Darsni mustahkamlash uchun savollar

- 1.Sh.Perro ertaklarining bolalar adabiyotida tutgan o‘rni qanday?
2. “Qizil Shapkacha” ertaginng tarbiyaviy ahamiyati nimada?
3. ”Etik kiygan mushuk”ertagi va uning mazmuni haqida nima bilasiz?
- 4.Aka-uka Grimmlar bolalar adabiyotining rivojlanishiga qanday hissa qo‘shdilar?

5.Grimmlar ertaklarida qanday sifatlar ulug‘lanadi va qanday yaramas odamlar kulgi ostida qoladi?

6. “Botir tikuvchi” ertagi va uning mazmuni haqida nima bilasiz?

7.Andersen ertaklarining tarbiyaviy ahamiyati qanday?

8.Bolalar gurungi”dagi bolalarning o‘zaro suhbatidan qanday xulosa chiqardingiz?

9.Kambag‘al bolaning mashhur rassom bo‘lib yetishishiga asosiy sabab nima deb o‘ylaysiz?

10.“No‘xat ustidagi malika” ertagida qanday g‘oya ilgari surilgan?

Adabiyotlar:

1.M.Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 2010 yil.

2.M.Jumaboyev. O‘zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo‘llanma. 1996 y.

3.Z. Masharipova T.Matyoqbova O‘zbek yozma adabiyotida folklor an’analari Toshkent – 2011

4. www. zyonet.uz. Bolalar adabiyoti-

5.Paul H. Fry. Theory of literature Yale University- 2012

ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN YARATGAN ERTAK-DOSTONLARDA ILGARI SURILGAN G‘OYALAR. NIKOLAY ALEKSEYEVICH NEKRASOV HAYOTI VA IJODI. NIKOLAY ALEKSEYEVICH NEKRASOVNING BOLALARGA ATAB YARATGAN ASARLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Reja:

1. .Aleksandr Sergeyevich Pushkin yaratgan asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar.
2. Nikolay Alekseyevich Nekrasovning hayoti va ijo.



Aleksandr Sergeyevich Pushkin

(1799-1837) xalq og‘zaki ijodini bolalikdan berilib o‘rgandi. Buloqdek qaynab-toshgan xalq og‘zaki ijodi shoirning ilhomiga ilhom qo‘shdi. Kelajakda mashhur shoir bo‘lib, jahonga tanilishida boy manba bo‘lib xizmat qildi. U, ayniqsa, o‘zining ertak, dostonlari bilan yosh kitobxonlarning hurmat-olqishiga sazovor bo‘lib kelmoqda.

A.S.Pushkin o‘zining “Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak”(1831), “Baliqchi ham baliq haqida ertak”(1833),”O‘lik malika va yetti bahodir haqida ertak”(1833), “Oltin xo‘roz haqida ertak”(1834) kabi ertak – dostonlari bilan jahon bolalar adabiyoti xazinasini yanada boyitdi.

Yuqorida biz ta’kidlab o‘tgan asarlarning hammasi boy va rang-barang xalq og‘zaki ijodi ta’sirida yuzaga kelgan. Folklorda qayta takrorlash bir fikrni boshqa so`zlar bilan takrorlashga o`xshashdir⁹. (7 bob Eikhimbaum)

Bu asarlar zamirida aniq mavzular yotganini ko‘ramiz. Masalan, shoir “Ajoyib bolalar” xalq ertagi asosida “Shoh Sultan... haqida ertak ”, “Qurimsoq kampir” ertagi va rus xalq folklorining to‘plovchilaridan biri V. Dal hikoya qilib bergen syujet asosida “Baliqchi ham baliq haqida ertak”, “Sehrli ko‘zgu” ertagi asosida “O‘lik malika va yetti bahodir haqida ertak” uzoq yillar xalqni ayovsiz ishlatib, unga rahm-shafqat nima ekanligini bilmay o‘tgan va uning hatto pok xizmatlarini o‘zida mujassamlashtirgan “SHabarsha batrak” asosida “Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak” yotganligini ko‘ramiz.Bu ertaklarning hammasi shoirning ijodxonasida ishlanib, sayqallanib, yanada o‘qimishli, ta’sirli chiqqan.

⁹Empson Theory of literature Yale University- 2012 Chapter 6– Page 78

A.S.Pushkin oddiy mehnatkash xalqni yaxshi ko‘radi, uni iloji boricha himoya qilishga, yon bosishga harakat qiladi. Suning uchun ham uning ertak-dostonlarida xalqqa bo‘lgan cheksiz muhabbat tuyg‘usi barq urib turadi.

Dadon shohni oling, (“Oltin xo‘roz haqida ertak”). U g‘irt ahmoq. Na xalqni sevadi va na farzandlariga mehribon otalik qila oladi. Dadon o‘taketgan darajada maishatparast va kaltabin. U butun podshohligidan, xalqidan, farzandlaridan o‘zga yurtlik makkora ayolni ustun qo‘yadi. Buni xalq, xudo kechirmaydi. Natijada shoh xalq qahr-g‘azabiga duchor bo‘ladi. Oltin xo‘roz tepkisidan halok bo‘lgan shohga birovning rahmi kelmaydi, aksincha, shohning o‘limi ularga shodlik va ozodlik baxsh etadi.

Pop (“Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak”) obrazi ustida shoir qattiq ishlaydi. Uning tekinxo‘r, ochko‘z, o‘zgalar hisobiga umr kechiradigan bir pastkash kimsa ekanligini keskin ochib tashlaydi.

Unga qarama-qarshi qilib oddiy va halol, mehnatkash va bahodir yigit Balda obrazini ijod cho‘qqisiga ko‘taradi.

Ikki qahramonning qul bozoridagi o‘zaro suhbatidan kitobxon kim qanday odam ekanligini darhol sezadi:

“Bo‘lsin oshpaz, otbaqar ham duradgor.

Ayt-chi, bunday arzon malay qayda bor?”

Balda debdi:”Yaxshi malay bo‘layin,

Bergan obi yavg‘oningga ko‘nayin.

Xizmatimga haq to‘lasan shu xilda:

Peshonangga uch chertaman bir yilda”.

Ha, hayotda har bir narsaning, jumladan, tekinxo‘rlik, ochko‘zlikning ham poyoni, oxiri bor. Kaltabin pop chertkini yeb halok bo‘ladi.

“Baliqchi va baliq haqida ertak” dostonida shoir pok muhabbat mangu bo‘lishini orzu qiladi. Boylik, mansab deb o‘tgan kunni unutmaslikni istaydi. Bundan tashqari, kimki halol peshona teri to‘kib boylik orttirmasa, birovlar hisobiga boyiydigan bo‘lsa, u hech qachon yuqmasligini, birovniki birovnikicha qolib ketishini kampir qismati bilan chog‘ishtirib hikoya qiladi. Dltin baliq o‘z

mo‘jizasi bilan yer yuzi, butun olam hukmroni bo‘lib olgan kamir cholni mensimaganligi uchun, ochko‘z va badbaxtligi uchun yana eski hammom, eski tos bilan qolib ketaveradi. Buni shoir juda chiroyli ifodalaydi:

Qaytdi kampir yoniga axir,
Ko‘rsa: tag‘in yana o‘sha yerto‘la.
Bo‘sag‘ada o‘tirar kampir,
Qarshisida teshik tog‘ora.

Rostgo‘y, haqiqatni yoqlovchi shoir “O‘lik malika va yetti bahodir haqida ertak”, “SHoh Saltan... haqida ertak” asarlarida haqiqat bir kun emas bir kun, albatta, qaror topadi, hamma baxtiyor bo‘ladi, degan fikrni ilgari suradi.

A.S.Pushkinning xalq og‘zaki ijodiga asoslanib yozgan “Ruslan va Lyudmila” asari ham bolalar qalbiga ancha yaqin turadigan dostonlardan biri hisoblanadi. Rus ertaklari, qo‘shiqlari, afsonalari bu g‘aroyib asarga favqulodda go‘zal mazmun bergen. Yuksak insonparvarlikni o‘zida mujassamlashtirgan yorqin iste’dod egasigina shunday asar yarata oladi.

Mashhur rus romantik shoiri V.A.Jukovskiy “Ruslan va Lyudmila” poemasi nashr etilgach, Pushkinga “G‘olib o‘quvchimga mag‘lub murabbiyidan” deb yozilgan portretini sovg‘a qiladi. Bu buyuk shoir dahosiga, zamondan ilgarilab ketgan kurashchan insonga berilgan xolisona baho edi.

Mana shuning uchun Pushkinga Rossiyaning mangu otashin shoiri bo‘lib qolmoq baxti nasib etdi.

Nikolay Alekseyevich Nekrasovning (1821-1878) bolalik yillari Volga bo‘ylarida –o‘zi tug‘ilib o‘sgan joylarda o‘tgan edi. Shoirning yoshlik tarbiyasida oqila onasining roli katta bo‘lgan. SHu bois u keyinchalik “Ona” poemasini onasiga bag‘ishlab yozgan edi. O‘g‘lining dehqon bolalari bilan o‘ynashi, yayrab yurishini xohlagan ona –Elena Andreevna bo‘lajak shoirning xalqparvarlik ruhida tarbiyalanib o‘sishiga munosib hissa qo‘shgan edi.

Bugina emas, Nekrasovning enagasi ham hayot va xalq ijodi ruhi bilan sug‘orilgan ajoyib ertaklar aytib, bo‘lajak shoir xayolotini qanotlantirar edi. SHU-

shu Nekrasov ertaklarni juda sevib qoldi. O‘z vatanining dala va o‘rmonlariga, qor va sovuqlariga, bahorgi “yashil shovqiniga” muhabbat bog‘ladi.



Nekrasov dehqon bolalari bilan hamisha hamnafas bo‘lganligi uchun dovyurak, botir va jasoratli bola bo‘lib o‘sdi. Bo‘lajak shoir o‘n yoshiga to‘lganda uni Yaroslavl gimnaziyasiga o‘qishga berishadi. O‘qituvchilar bilimga havasmand, iste’dodli bolaga durust saboq bera olmadilar. Natijada u gimnaziyanı tashlab, mustaqil o‘qishga berilib ketadi. Otasi uning ofitser bo‘lib yetishishini istar edi.

SHuning uchun ham uni Peterburgdagi kadetlar korpusiga o‘qishga yuboradi. Lekin ilm-fan cho‘qqilarini egallashga intilgani tufayli Peterburg universitetiga o‘qishga kiradi. Ammo otasi o‘g‘lining o‘zboshimchaligidan tajang bo‘lib, moddiy yordam bermay qo‘yadi. Biroq maqsad yo‘lida sobitqadam Nekrasov moddiy mahrumliklar sharoitida yashash va olg‘a harakat qilishga intiladi. Ana shu yillarda oddiy odamlar turmushi og‘ir ekanligini sezadi va umrining oxirigacha ular haqida to‘lib-toshib kuylaydi.

Nekrasov dehqonlar to‘g‘risida, ayniqsa, ko‘p she’rlar yozadi. Bu she’rlarni o‘qir ekansiz, go‘yo dehqonlarning o‘zлари o‘z og‘ir mehnatlari va qayg‘u-alamlari haqida so‘zlab berayotganday tuyuladi. Nekrasov ularning hayotini shunchalik yaxshi bilar, ularni o‘ziga shunchalik yaqin tutardi. Nekrasovning she’rlari go‘zal, ohangdor, juda boy va ayni zamonda juda sodda tilda yozilgan edi. Bu tilni u Yaroslavl guberniyasidagi qishloqda o‘tkazgan bolalik yillarida o‘rgangan edi.

Biz uning:

Mollar o‘rmon tomon qadam tashladi,

Ona – javdar boshoq tuga boshladи,- deb yozganlarini o‘qir ekanmiz, bu til haqiqiy, jonli xalq tili ekanini ko‘ramiz. Bu o‘rinda dehqonning zoriqib kutadigan boshqalarga bo‘lgan sevgisi va hatto mehrini aks ettiruvchi, masalan,

ikki so‘z: ona – javdar qanday yaxshi keltirilgan! Dehqon boshoqlarni o‘zining bir parcha yerida qunt bilan mehnat qilib o‘stirgan-da!

Nekrasov she’riyatida bunday yorqin, ravon va sof xalq iboralari juda ko‘p. U javdar boshoqlari haqida shunday deydi:

Boshoqlar to‘lishgan payt,

Zar ustinday sip-silliq,

Boshoqlarda oltin toj.

Hozirgina yerdan sug‘urib olingan lavlagi haqida esa:

Poyma-poy qizil etik

Yotganday egatlarda,-deydi. Bir tup sho‘x bulut bilan qurshab olingan bahor quyoshi haqida Nekrasov shunday deb yozadi:

Bahor chog‘i, kichik nevaralar kabi,

Lola yuz quyosh bobo bilan

O‘ynar bulutlar.

